


HOTAM UMUROV

ADABIY IJOD ASOSLARI

Darslik



Kitob quyida ko'rsatilgan
muddatda topshirilishi shart
Oldingi foydalanishlar miqdori

LARI

7

105H

solid

36

4

da katta
hni talab
obxonlarni
oyitadigan
hining o'z
a madaniy
ak. Yo'qni
o'z qalbida
bo'ladigan,
'itadigan
o'lmasa,
yasab

DDIROV

83
1152

Hotam Umurov

Adabiy ijod asoslari

(darslik)



Samarqand. SamDU nashri, 2019

Umurov Hotam. Adabiy ijod asoslari: Filologiya mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oluvchi iqtidorli ijodkor talabalar, o'zbek tili va adabiyotini chuqur o'zlashtirishga ixtisoslashgan ijodiy maktab o'quvchilari, minglab adabiy to'garak a'zolari uchun darslik.

SamDU kengashining 2019 yil 5 sentabrdagi majlisi qarori bilan (bayonnoma №1) chop etishga tavsiya qilingan.

Mazkur darslik bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda adabiy ijod sirlarining ba'zi asosiy qirralarini o'rgatadi. Unda muallif qobiliyat, iste'dod, talant tushunchalarining mohiyati, ilhom, uslub, adabiy mahorat nima ekanligi, ilk reja qanday yuzaga kelishi hamda shakllanishi kabi qator masalalarni atroflicha yoritgan.

Darslik filologiya mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilarga, talabalarga, yosh qalamkashlarga adabiy ijodning mohiyati, xususiyatlari haqida dastlabki tasavvurni beradi.

Muallifdan

“Бадий иждо асослари” (Т., “Ўзбекистон”, 2001) asarimni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi filologiya mutaxassislari bo‘yicha ta‘lim oluvchi iqtidorli ijodkor talabalar uchun darslik sifatida nashr ettirgandi.

Ijodkor yoshlarga adabiy ijodning qonuniyatlarini chuqur bilishlariga ko‘mak bergan bu darslikka 18 yil to‘ldi. Unda adabiy ijodning qonuniyatlari, sirlari va jozibasini o‘rganuvchi ijodkor ahli bo‘lishi orzu qilingandi.

Ming shukrki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Isoqxon To‘ra Ibrat, Hamid Olimjon va Zulfiya, Ibrohim Yusupov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf nomlari bilan ataluvchi ijod maktablari ochildi. O‘zbek tili va adabiyotining chuqur o‘zlashtirishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda iqtidorli yosh-o‘g‘il qizlarni “...adabiyot va san’atning sirli dunyosi bilan oshno etish” (Sh.Mirziyoyev) g‘oyasi bosh vazifa qilib qo‘yildi..

Ana shu talab va zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqib mazkur darslikni qayta ishlab, to‘ldirib, boyitib ijod maktablarining iqtidorli o‘quvchilarini ham adabiy ijod sirlarining asosiy qirralarini yangi fan sifatida (Albatta, bu darslik ijod maktablarining o‘quv rejasiga alohida predmet sifatida kiritiladi, degan ishonch bilan) o‘rganishga va o‘rgatishga jazm qildik.

Darvoqe, adabiy ijod sirlarini o‘rganish murakkabmi? U qayerdan, qanday boshlanadi? Qobiliyat, iste‘dod, talant qayerdan tug‘iladi? Ilhom nima, uning qanaqa darajalari bor? Yurakdagi dardlar yonsa ilhom tug‘iladimi? Badiiy mahoratni qanday tushunish kerak? His qilish, samimiylilik, obrazlilik mahorat bilan bog‘liqmi? U yozuvchi talantining o‘lchovi bo‘la oladimi?.. Ilk reja qanday yuzaga keladi va shakllanadi? Hayot haqiqati va badiiy haqiqatning munosabatlarini qanday tushunmoq kerak? Real hayot bilan poetik reallik, boshdan kechirilgan bilan tasvirlangan kechinmalarning farqi nimada? Yozuvchining “daxlsiz dunyosi” sirlarini kashf etish mumkinmi? “Muallif – obraz – kitobxon” muammosining qanaqa echimlari bor?..

To'g'ri, Istiqlol davrida yaratilgan H.Umurovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004), Dilmurod Quronovning "Adabiyot nazariyasi asoslari" (T., "Navoiy universiteti", 2018), Abdulla Ulug'ovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018) kabi darsliklarda ham, yuzaga kelgan yuzlab nazariy tadqiqotlarda ham adabiy ijod va adabiyotning muayyan qonun-qoidalari o'rganilgan bo'lsa-da, ularda adabiy ijod va asar yaratish tabiati, ruhiyati, sir-sinoatlari maxsus o'rganilmagan.

"Adabiy ijod asoslari"ning butun mazmuni – yosh qalamkashlarga adabiy ijodning mohiyati, xususiyatlari haqida dastlabki tasavvurni beradi va adabiy hodisalarni mustaqil tushunishga, ijodiy ko'nikmalarni barpo qilishlariga xizmat qiladi, samarali ijodga yetaklaydi, degan umiddamiz.

KIRISH

Adabiyotga qiziqish, havas, ixlos minglab yoshlarni oliy maktablarning o'zbek tili va adabiyoti ixtisosligiga o'qishga yyetaklaydi. Tanlov orqali o'qishga kirganlariga qaramasdan ulardan bir nechtagina shoir, yozuvchi, tanqidchi yetishadi, ko'pchiligi esa shu sohaning "o'rtacha" mutaxassislari bo'lib qoladilar. O'rtamiyonachilikning "urchishi" kasallikni tug'diradi: o'rta maktabda ham adabiyot haminqadar o'qitila boshlanadi; o'rtamiyona asarlar yaratilishiga zamin solinadi. Zanjirdek bog'lanish davom etadi. Iste'dod o'rniga havaskor adabiyotning oliy dargohiga yana yo'l oladi...

Buning bosh sababi – bizning badiiy talantning tug'ma bo'lishini, u o'qitish va tarbiyalash bilan hosil bo'lmasligini tushunib yetmaganimizda yoki yoshlardagi tug'ma iste'dodni aniqlay olmaganimizdadir. Yosh avlodni bolaligi va o'quvchiligidan boshlab go'zallikni his etadigan qilib tarbiyalay olmaganimizda, ulardagi mustaqil ijodkorlikni yuzaga chiqarish asosida badiiy iste'dodini rivojlantira bilmayotganimizdadir. To'g'risi ham, mustaqil ijodiy qobiliyat – har bir yoshning hayotiy ehtiyojiga, ma'naviy kamolatining zarur qismiga aylangan emas: bir-biriga o'xshash fikrlovchilar, aytilgan fikr-mulohazalarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligidan qat'iy nazar haqiqat deb qabul qiluvchilar, taqlidchi-takrorlovchilar qo'shini yuzaga kelmoqda. Bu jarayon davom etmoqda. Bunday faoliyat bilan Respublika mustaqilligini va uning rivojini ta'minlash mumkin emas.

"Mustaqillik. Inson. Adabiyot" muammosini va ular o'rtasidagi murakkab bog'lanishni idrok qilarkanman, yosh avlodni **inson-yaratuvchi, inson-kashfiyotchi** qilib tarbiyalamasdan ilgariga siljish baxtiston – O'zbekistonni gullab-yashnatish, uning odamlarini – havas va qiziqish bilan huzurlanib mehnat qilayotgan ijodkorlarni yetishtirish mumkin emasdek, tuyuladi. Bu, o'z navbatida, badiiy adabiyotni – inson va tabiatni chuqur o'rganadigan, qayta yaratadigan mo'jizaning sirlarini chuqur o'rganishni taqozo qiladi. Zero, insoniylik va go'zallikning mag'zini, tabiatini to'la-to'kis adabiyot o'rgatadi. Har bir shaxsdagi his, tuyg'u, kechinma, dard, iztirob, did, idrok, baxt-u saodat kabi ma'naviyatning yuzlab ezgu xislatlarini tarbiyalaydi.

Shunday ekan, biz oila, bog'cha va maktabdayoq bolalarimizda adabiy farosatni, nozik estetik didni, mustaqil ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalashimiz zaruratdir. Bu zarurat, o'z navbatida, adabiyotning ilohiy jozibasini va ijodning sehrini o'rganishga undaydi. Yosh iqtidorlarga adabiy talant tabiatini, badiiy mahorat sirlarini o'rgatishning lozimligini kun tartibiga qo'yadi.

Darvoqe, so'z san'atkori bo'lish uchun ham uning alifbosini, asoslarini bilish shart. Bu hayot haqiqatidir. Yana shuni aytish lozim: inson qalbi qa'ridan durru gavhar topib chiqqan va uni zavq-u shavq yohud g'am-u anduh bilan akslantiruvchi yozuvchining katta-kichigi bo'lmaydi, balki talantlisi yoki bunga erisha olmagan iste'dodsizi bo'ladi.

Nihoyat, Shavkat Mirziyoyevning prezidentligidan boshlab **adabiy ta'limning yangi davri** boshlandi. "Ta'limning yangi, zamonaviy usullarini... zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etishga... bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatishga"¹ yo'l ochildi. Respublikamizda hozircha 6 ta yangi ijod maktablari (2017-yildan boshlab) ish boshladi. Ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim shaklidagi Prezident maktabi, hadis ilmi maktablari tashkil qilindi. "Ana shu vazifalarni hal etishda turli darsliklarni yaratish, ularni chop etish"² bugunning dolzarb vazifasiga aylandi. Yangi avlod o'quv adabiyotini ta'lim jarayoniga keng tadbiiq etishga imkoniyatlar yaratila boshlandi. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Prezident farmoni" (2019-yil 29-aprel) harakatga kirdi.

Ushbu darslik ham ana shu qutlug' g'oyaga javob tarzida yuzaga keldi.

¹ Шавкат Мирзиёев. Таълимий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар феолиятининг қандалик қондаси бўлиши керак. Т., "Ўзбекистон", 2017, 44-46-бетлар.

² Ўша асар, 47-бет.

BIRINCHI BOB

ADABIY IJOD JARAYONI TARIXIGA BIR NAZAR

Tana doimo oziqlanib
turmasa yashay olmaganidek,
ruhiyat ham shu qonunga
bo'ysinadi.

Sh.L.Voverang

Hayot kabi ijodiy jarayon ham shunchalik poyonsiz, betakror va ko'p qirraliki, unda har bir o'quvchining ehtiyojiga, iqtidoriga yarasha o'rin hamma vaqt topiladi. Har bir yozuvchi o'ziga "biriq bir olam" (Belinskiy), alohida bir shaxs ekan, uning tuzilishi, ko'rinishi, eshitishi, anglashi, idroki, hissiyoti, tasavvuri, qalbi, qabul qilishi, anglatishi, ishlash yo'sini ham o'zigagina xos bo'ladi. "O'zidan o'zligini topgan", mustaqil bo'libgina kashf etishga kirishgandan yozuvchi tug'iladi.

Lekin har bir yozuvchining ijod tabiati ikkinchisiga o'xshamasligidan qat'iy nazar, hamma san'atkorlarga xos bo'lgan badiiy mehnatning umumiy qonun-qoidalari ham bor. Bu, dastavval, hayot va insonning "mag'zini" – ularning mohiyatidagi haqiqatni aniqlash va uni go'zal qilib qayta yaratishda, siz-u bizga hayot va inson haqida dars berishda ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ikkinchidan, har bir yozuvchi uchun ham badiiy adabiyot – mo'jiza. Bu mo'jizaga oshno bo'lganlar, unga muhabbat qo'yanlar umr bo'yi sodiq qoladilar, unga bo'lgan mahliyolik so'nggi nafasgacha davom etadi.

Nega? Nega, insonning hammasi ham tayyor qobiliyati bilan emas, balki iste'dod urug'lari ila dunyoga keladi? Nega bir odamda barcha iste'dodlar mujassamlashmaydi? Badiiy adabiyot nima uchun millatni, irqni, dinni, chegarani tan olmaydi, barcha insonlar qalbiga yo'l topa oladi? Nega har bir qalbning oshnosiga aylanadi, uni hayotni sevishta, ezgu insoniylik tuyg'ularining podshohi bo'lishiga yetaklaydi?

Nega "O'tkan kunlar" dagi ba'zi tasvirlar sizni yig'latganidek, H.Olimjonning ba'zi she'rlari sizning qalbingizga baxt hissiyotini

yuqtirganidek, habash yoki o'risni ham yig'latadi, baxtga "chulg'aydi"? Nega hamma asarlarda ham shunday qudratni sezmaymiz? Nega har bir yozuvchining hamma asarlarining ta'sir kuchi bir xil emas? Nega ba'zi asarlar tez eskiradi-yu, ba'zilarining umri boqiy? Nega yaratilganiga ming yillar bo'lgan asarlar bugunning muammolari haqida zarur xulosalarni beradi?

Nega? Nega? Nima uchun, degan savollarning tugamasligi ham yozuvchi mehnatining juda qiyinligidan, ayni paytda, qiziqarli ekanligidan dalolat beradi.

Shu sabab, adabiy ijod tabiatini, uning taraqqiyotini, umumiy qonun-qoidalarini bilish – badiiy so'z ustalarining ongli va samarali ijod etishlariga yordam bersa, yosh iste'dodlarga ta'lim va saboq beradi. Tarbiyachi va o'qituvchilarga ilmiy asos bersa, ko'pchilikni hayotni sevishta, uning go'zalligini kashf etishga o'rgatadi.

Adabiy ijod psixologiyasi muammosi chet el adabiyotshunosligida ancha chuqur o'rganilgan. Mixail Arnaudov, A.T. Seytlin, L.S. Vigotskiy, B.S.Meylax, P.V.Medvedev, L.N.Yakobson, E.G.Yakovlev, Yu.Oklyanskiy, A.M.Levidov, E.S.Gromov kabi adabiyotshunoslarning asarlarida adabiy ijodning umum nazariyasiga, tabiatiga, sirlariga oid asosli va qiziqarli ma'lumotlar to'plangan va tahlil qilingan³.

Biroq o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidida bu muammolar maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida yetarli darajada o'z tadqiqi va tahlilini topmagan. To'g'ri, I.Sultonov, M.Qo'shjonov, H.Yoqubov, U.Normatov, Ozod Sharofiddinov, N.Xudoyberganov, S.Mamajonov, A. Hayitmetov, Y. Isoqov, I. G'afurov, N.Karimov, D.Quronov, B.Karimov kabi ko'pchilik nazariyotchilar, adabiyotshunolar, tanqidchilarning asarlarida ijod jarayonining tabiati, psixologiyasi, sirlari o'rganilgan, qimmatli fikrlar aytilgan, u yoki bu klassik asarlarning yaratilish tarixi va poetikasi, yozuvchi badiiy mahorati chuqur ishlangan. Ayniqsa, bu sohaga dastlab qo'l urgan yozuvchi

³ М. Арнаутов. Психология литературного творчества. М., 1970; А.Т. Цейтлин. Труд писателя. М., 1968; Л.С.Выготский. Психология искусства. М., 1968; Б.С.Мейлах. Талант писателя и процесс творчества. Л., 1969; П.В.Медведев. В лаборатории писателя. М., 1971; Л.Н.Якобсон. Психология художественного творчества. М., 1971; Е.Г.Яковлев. Проблемы художественного творчества. М., 1972; Ю.Оклинский. Рождение книги. М., 1973; А.М.Левидов. Автор — образ — читатель. Л., 1977; Е.С.Громов. Природа художественного творчества. М., 1986 на ш.к.

Pirimqul Qodirovning adabiy "O'ylar"⁴ da ijodiy jarayonning qiziqarli daqiqalari kichik-kichik etyudlar tarzida asosli yoritiladi. U. Normatov turli avlodga mansub yozuvchilar bilan bahs-suhbatlari – "Talent tarbiyasi"⁵ kitobida adib va shoirlarning "daxlsiz dunyosini" – ijod laboratoriyasining ba'zi tomonlarini tekshirdi. Ularning o'z ijodlari haqidagi iqrornomalarini, tajribalarini, o'ziga xos mehnat yo'sinlarini umumlashtirishga intildi. O'.Nosirov "Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi"⁶ nomli kitobida tabiiy iste'dod, ijodkor dunyoqarashi, ijodkor va muhit kabi muammolarni badiiy uslubga bog'liq holda o'rgandi. Kamina o'z tadqiqotida ijodiy reja, hayot haqiqati va badiiy haqiqat, avtor-qahramon-kitobxon muammolarini tahlil qildi⁷.

Bularning hammasi – ijod jarayonidek cheksiz va chuqur daryoning irmoqlaridan, yuzlab adabiyotshunoslar hamkorligida o'rganilishi lozim bo'lgan sohaning dastlabki umumlashmalaridir.

Yuqoridagi asarlar yuzaga kelgandan keyin ham ijodiy jarayonni, uning xususiyatlarini yanada kengroq, yanada chuqurroq ochishga bag'ishlangan xotiralar⁸, H.Qodiriyning "Otam haqida", S. Ahmadning "Nazm chorrahasida", K.Qahhorovanning "Chorak asr hamnafas", Shukrulloning "Javohirlar sandig'i", N.Fozilovning "Ustozlar davrasida", E.Vohidovning "Shoiru she'ru shuur", A.Oripovning "Ehtiyoj farzandi", O'.Hoshimovning "Notanish orol" asarlari yuzaga keldi⁹. Istiqlol yillarida Z.Saidnosirovanning "Oybegim mening" (1995), H.Qodiriyning "Otam haqida" (1993), S.Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim" (1998), P.Qodirovning "Qalb ko'zlari" (2001), B.Nazarovning "G'afur G'ulom olami" (2004), N.Fozilovning "Topdimu yo'qotdim" (2010), N.Komilovning

⁴ П. Қодиоров. Ўйлар. Т., Г. Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.

⁵ У.Норматов. Талант тарбияси. Т., "Ёш гвардия", 1980.

⁶ Ў.Носиров. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. Т., "Фан", 1981.

⁷ Х. Умунов. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романичилиги. Т., "Фан", 1983.

⁸ Х. Қодирий. Отам ҳақида. Т., 1983; С. Аҳмад. Назм чорраҳасида. Т., 1982; К. Қасқорова. Чорак аср ҳамнафас. Т., 1987. Шукрулло. Жавоҳирлар сандиги. Т., 1977. Н. Фозилов. Устозлар даврасида. Т., 1988; Э. Воҳидов. Шоир у шеър у шур. Т., 1987. А. Орипов. Эҳтиёж фарзанди. Т., 1988. Ў. Ҳошимов. Нотаниш орол. Т., "Ёш гвардия", 1990 (Ushbu kitoblarga murojaat qilganimizda faqat sahifalarni ko'rsatamiz – H.U.).

⁹ Х. Қодирий. Отам ҳақида. Т., 1983. С. Аҳмад. Назм чорраҳасида. Т., 1982. К. Қасқорова. Чорак аср ҳамнафас. Т., 1987. Шукрулло. Жавоҳирлар сандиги. Т., 1977. Н. Фозилов. Устозлар даврасида. Т., 1988. Э. Воҳидов. Шоир у шеър у шур. Т., 1987. А. Орипов. Эҳтиёж фарзанди. Т., 1988. Ў. Ҳошимов. Нотаниш орол. Т., "Ёш гвардия", 1990. 1990 (Ushbu kitoblarga murojaat qilganimizda faqat sahifalarni ko'rsatamiz – H.U.).

“Ma’nolar olamiga sayr” (2012), U.Normatovning “Nafosat gurunglari” (2010), X.Do’stmuhammadning “Ijod – ko’ngil munavvarligi” (2011), E.A’zamning “Ertalabki xayollar” (2015), Sh.Qurbonning “Erkin Vohidov saboqlari” (2016), B.Karimning “Ruhiyat alifbosi” (2018) kitoblari nashr etildi. Akademik Naim Karimovning “Cho’lpon” (2003), “Maqsud Shayxzoda” (2010), “Hamid Olimjon” (2013) kabi ma’rifiy romanlari bosilib chiqdi. Ularda har bir san’atkorning “sochilib yotgan” o’ziga xos ijodiy tajribalari – maqolalari, suhbatlari, esdaliklari, publitsistik asarlari, shaxsiy kuzatishlari, qaydlari... yaxlit qilib to’plangan, muayyan “qolip”ga solingan. Ularda har bir yozuvchi va shoir iste’dodining, talantining qismatini, bilimi va quvvai-hofizasini, inson-grajdanin sifatida shakllanish tarixini va darajasini, ularning adabiyot va adabiy ijod haqidagi saboqlarini, san’atkorlik mahoratlarini o’rganish uchun talay ma’lumot va mulohazalar to’plangan. Bulardan tashqari, G’.G’ulom, A. Qahhor, Oybek, Zulfiya, A.Muxtor, O.Yoqubov kabi san’atkorlarning adabiyot va ijod haqidagi hikmatlari, donishlari, o’g’itlari, kashflari ham mavjudki, ularning hammasi ham bizning suhbatlarimiz uchun asosdir¹⁰.

Ana shu asarlarga tayangan holda adabiy ijod tabiatini ochib beruvchi qiziqarli “iqromoma”larni to’plab sharhlashga va sizga havola qilmoqqa havaslandik. Zero, darsligimiz, sizni ijodga yetaklasa, yaratishga undasa; axir “ijod qilish o’limni mahv etishdir” (R.Rollan).

¹⁰ F.G’ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. T., 1971. A. Qahhor. Badiiy ijod haqida. T., 1987. Oybek. Adabiyet t’urrisida. T., 1985. A. Muxtor. Esh d’ustlarimga. T., 1971. O.Yoqubov. Izlayman. T., F.G’ulom nomidagi adabiyet va san’at nashriyati, 1972.

ISTE'DOD

*Ijodiy mehnatgina
talantga shodlik beradi
Asalot aya*

Asqad Muxtor aytganidek, «Tanqidchi va adabiyotshunoslar asosan asar haqida gapiradilar. Yozuvchi haqida esa...

Vaholanki, asar yozuvchidan unib chiqadi: farzandiday unda tug'iladi, ulg'ayadi, kamol topadi; u farzandini avaylaydi, himoya qiladi. Asar-yozuvchining taqdiri; kerak bo'lganda yozuvchi qurbon bo'lishga ham tayyor. Uning bu g'ayritabiiy sadoqati, yozmasdan turolmasligi, ruhiyatga, falsafaga, mushohadaga moyilligi, shaxsi, fe'li, uslubi, qarashlari, dardi, qiynalishlari hech kimni qiziqitirmaydi. Yozuvchi o'z shaxsi va o'zgalarning shaxsi bilan birikib ketgan-asar uning sub'yekti. . .

Bu haqda ko'p gapirish mumkin, ammo tanqidchilar...»

Darvoqe, adabiyot nazariyotchilari ham yozuvchi shaxsiyati, ijodiy laboratoriyasi haqida kam yozadilar. Holbuki, asar yaratish jarayonini bu unsurlarsiz to'liq tasavvur qilish mumkin emas. V.Belinskiy adabiyotning umum mazmunining o'ziga xosligi haqida gapirganda, uning talantli shaxslar tomonidan yaratilishiga-sifat masalasi ma'nosida qaraydi; talantli-san'atkorgina adabiy asar yaratishga qodirdir, aslida adabiyot tarixi-talantli yozuvchilar tarixidir.

Ana shu asosga tayanib, yozuvchi talanti, ilhomi, badiiy mahoratini o'rganish g'oyatda dolzarbdir.

«Barcha iste'dodlar kabi shoirlik iste'dodi ham tug'ma bo'ladi va bolalikdan o'zini namoyon etadi. Bu kunduzdek ravshan, haqiqatning o'zidek ayon...

... Shoirona iste'dod – bir qaraganda olamga hayrat ko'zi bilan boqish san'ati va o'zgalarni hayratga solish san'ati bo'lib ko'rinadi, yana bir qaraganda el dardiga oshno bo'lish qobiliyati bo'lib tuyuladi.

Iste'dod – bu avvalo did, yaxshi did egasi bo'lish qobiliyati, deguvchilar ham bor. Iste'dod-bepoyon tushuncha. U ta'rifga siqqanda edi, uni ma'lum xususiyatlar doirasida chegaralash mumkin bo'lganda edi, odamlar yo'q iste'dodni tarbiyalab bor qilgan bo'lardilar. Gorkiy, iste'dodning 99 foizi mehnat deganini tug'ma iste'dodi bo'lmagan odam mehnat bilan chinakam shoir yoki bastakor

bo'lishi mumkin deb tushunmaslik kerak. Har qalay 99 degani 100 emas. Suv normal sharoitda 100 gradusda qaynaydi. 99 gradus isigan suv-qaynagan suv emas. Fors tilida qaynashni «jo'shidan» deydi, ya'ni jo'shmoq. She'riyat ham jo'shmoqdir. Jo'shmoq uchun esa 99 foizdan tashqari o'sha kamtarin bir foiz-ya'ni tug'ma iste'dod kerak.

Shu ma'noda «kunlarning sozini chertib yuruvchi»larning taskini – biz ulug' emas, bizga shu ham bo'laveradi deb ko'ngilni tinchitishi adabiyot uchun falokatdir. Shoirmi, adibmi, bu qutlug' dargohga qadam qo'ygan, anglamog'i kerakki, bunda Nizomiylar, Navoiylar, Shekspir va Pushkinlar qalam surgan. U shu ulug' siymolar davrasiga kiradi. O'z qalbi, vijdoni oldida, bu ulug' zotlar oldida andisha qilmog'i kerak.

Kim bilsin, bizlar ham kunlarning sozini chertib yurgan nozimlardirmiz – bu masala elning va fursat deb atalgan buyuk hakamning hukmiga havola. Lekin men ishonamanki, o'zi har qancha kamtar va hokisor bo'lmasin, shoir ilhom chog'ida o'zini Pushkindan kam sezmaydi va u to'g'ri qiladi, tamoman haqli.

Albatta, el-yurt muhabbatini qozonish uchun tug'ma iste'dodning o'zi kamlik qiladi. Shoir ruhan, fikran zamon darajasida bo'lmog'i, xalq hayoti to'liqlari ichida keng quloq otmog'i kerak.

Yana o'sha gap, to'qson to'qqiz yuz bo'lmaganidek, bir ham yuz emas»¹¹.

Erkin Vohidovning ushbu mulohazalari – katta-yu kichikka tushunarli. Lekin «hech bir odam mukammal, ya'ni to'la shakllangan holda dunyoga kelmaydi, ammo uning butun hayoti betinim harakatdagi o'sish va doimiy shakllanishdan» (V.Belinskiy) iborat ekan, o'sha zarur bir foiz-iste'dod hamma kishilar bilan birga tug'iladi. Tabiat hech kimdan bu saxiyligini ayamaydi. Faqat u «urug'» shaklida yashirin namoyon bo'ladi. Gap ana shu «urug'ning o'nib-o'sishi uchun yaxshi yer, havo, suv, quyosh zarur bo'lganidek, qobiliyat «urug'i»ning harakati oilada, maktabda, jamiyatda, ta'lim-tarbiyada yaratilgan aniq sharoitga, insoniy munosabatlarga bog'liq. Uning kuzatuvchanligini, havasini, qiziqishini, bilimini o'stirishga, mustaqil ijodiy fikr yuritish ko'nikmasini egallashiga, go'zallikni ko'ra va his qila bilishiga erishish va shu singari munosabatlarda izchil va tinimsiz mehr bilan qilingan mehnat orqali «urug'»ni

¹¹ Э.Вохидов. Шоирну шеърну шуур, «Ёш гвардия», Тошкент, 1987, 15-16 бет.

iste'dodga, yaratuvchi kuchga aylantirish mumkin; shunday xususiyatga ega bo'lgan shaxs o'z qobiliyatini namoyon qilgan sohada o'zligini izlab topadi, buyuk ishlarni insoniylik nuqtayi nazaridan va osonlik bilan zavq-u shavqqa to'lib bajaradi. Busiz tabiat bergan iste'dod «urug'i» – ijtimoiy munosabatlar va vaqtning besamarligidan «urug'» shaklida o'lib ketaveradi. Tug'ma iste'dod egasi bo'lmagan kishidan shoir chiqmaganidek, mehnatdan, o'qish-o'rganishdan, mahorat sirlarini egallashdan qochgan, o'zligiga, o'z avlodining qismatiga yarashadigan **SO'ZNI** ayta bilmagandan ham **SHOIR** chiqmaydi. Tug'ma iste'dod bilan uzluksiz mehnat o'rtasidagi dialektik aloqa mohiyatini chuqur anglagan va bor hayotini – «xalqning, davrning xotiroti»ni dunyoga yoyishga bag'ishlagan, uni yoniq qismat deb tushungandan Shoir tug'iladi. Ikkalasidan birontasi bo'lmasa yoki birontasiga amal qilinmasa, nomi – shoiru, umri bo'yi havaskor qalamkash bo'lib qolaveradi.

«Iste'dod – bu did» degan tushunchani yoqlagan, «Talant – hech qachon yangiligini yo'qotmaydigan yagona yangilikdir»¹², xulosasiga kelgan Abdulla Oripov go'yo yuqoridagi fikr-mulohazalarni davom ettirib, lo'nda qilib deydi:

«... Ha, adabiyotda hamisha ikki toifa ijodkorlar davr surib kelganlar. **Ulardan birinchisi**, ta'bir joiz bo'lsa, **kosiblardir**. Kosiblar kimlar? Ular she'riyatda umuman qanday maqomda namoyon bo'ladilar? Adabiyotda kosib faqatgina o'z istak va orzulariga ko'ra, balki tirikchilik taqozasi tufayli yoxud nom qozonib yashash ishtiyoqida qo'liga qalam oladi. Ba'zilar esa bu sohaga mutlaqo tasodif tufayli aralashib qolgan omadsiz mehnatkashlar bo'lib chiqadi. Nima bo'lgan taqdirda ham, qanchalik yashovchan bo'lsa-da, adabiyotda kosiblik uning sohibiga obro' keltirgan emas. **Ikkinchi toifa esa**, qalb amri bilan ijod qiluvchi, o'zi yoqqan alangada qovriluvchi, cheksiz mashaqqatli mehnatdan huzur va halovat oluvchi, qisqasi, **ijodni qismat deb bilguvchi shaxslardir**. Ularni ko'pincha tug'ma iste'dod egalari deb ham atashadi» (A.Oripov, 82-bet; Ta'kidlar bizniki – H.U.).

Xuddi shu fikrlarga yaqin mulohazalarni boshqa ijodkorlarda ham uchratamiz. O'tkir Hoshimov «Talentning birinchi belgisi –

¹² А.Орипов. Эхтиёж фарзанди. «Ёш гвардия», Т., 1988, 34-бет.

chidab bo'lmas dard demakdir»¹³, deydi. «Ijodkor odamning qalbida zarurat degan g'alati tuyg'u bo'ladi. Bu ko'ngildagi «dard»larni faqat o'z shaxsiy dardi emas, xalq dardini – ezigulikka mehr, razolatga qahrni odamlarga aytish, to'kib solish ehtiyoji» (O'.Hoshimov, 200-b.) deya baholaydi.

Xullas, yozuvchi va shoirga Parvardigor tomonidan berilgan tug'ma talantni qanday tushunish lozim?

Ma'lumki, san'atkor to'ppa-to'g'ri hayotdan nusxa ko'chirmaydi, balki, unga haqiqatdan o'xshash qilib yangi bir dunyo yaratadi, kashf etadi. Boshqacha aytganda, hayotiy haqiqatdan badiiy haqiqat yaratadi; hayotiy fakt va hodisalarni o'zining ruhiy laboratoriyasida «qaynatishi», ishlashi, sintezlashtirishi, ya'ni tasavvuri, xayoli, orzusi, tajribasi, qalbi, tabiati, dunyoqarashi bilan boyitgan va muayyan g'oyaga xizmat qiluvchi xarakterli va zaruriy detallarni, fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan (obrazli) badiiy hayotni yaratishi zurur; Yaratganda ham bu hayot kitobxon ko'z o'ngida jonli va real, ishonchli va go'zal, ta'sirchan va yaxlit bo'lib gavdalanishi shart.

Bu holatni Erkin Vohidov shunday isbotlaydi:

«Qirq sentnerdan olding har gektar erdan,
Yurtimiz minnatdor sendek mard erdan.

Noma'lum shoir

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas.

Alisher Navoiy

Bu ikki bayt o'sha gektaridan olingan qirq sentnerdan hosil ko'targan mardga o'qilsa, aminmanki, unga keyingisi ma'qul bo'ladi. Chunki, keyingi misralarda chinakam badiiyat bor, inson qalbining holati bor. Uni o'qiganda har kim undan o'z holatiga mos tuyg'u topadi...» (E.Vohidov, 144-bet).

Darhaqiqat, birinchi baytga e'tibor bersangiz, go'yo she'riyatga xos hamma narsa bor; bayt ravon, bo'g'in, turoqlari, qofiyasi joyida, bugungi hayot aksi bor. Lekin unda hayrat yo'q; unda dard yo'q; unda

¹³ У.Хошимов. Нотанинг орал. «Ёш гвардия», Т., 1990, 196-бет.

did yo'q; unda san'atkorning o'zligi yo'q; unda yangilik yo'q; unda obrazlilik, badiiylik yo'q; unda qalbgga ko'chuvchi, qalbni harakatga soluvchi holat tasviri yo'q. Ikkinchi baytda esa hayot bor; hayrat bor; did bor; yangilik bor; samimiyat bor; poklik bor; har yurakning tuyg'usini uyg'otuvchi jonli ruh bor.

Birinchi bayt havaskor, kosib shoirlarning «chizmalariga» na'munaviy misol bo'lsa, ikkinchi bayt tug'ma iste'dodga, she'riyatni qismat deb tushungan shoirlarning kashfiyotlariga jonli dalildir.

Xullas, iste'dodni o'stirmasdan, unga «kun sayin mehnat bilan jilo bermasdan» (A.Qahhor), yashashda va ijodda ichki va kuchli intizomga bo'ysunmasdan, ilhom bilan yozmasdan kitobxon qalbini zabt etish, badiiy talant sohibi bo'lish mumkin emas ekan...

Mayli, oila a'zolari va o'qituvchilar she'r va hikoya yoza boshlagan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlasinlar, adabiyot sirlariga oshno qilsinlar. Ular ko'pchilikni tashkil etsinlar, she'riy iqtidor sehrini boshdan kechirsinlar. Ana shundagina yuzlab havasmandlardan haqiqiy san'atkor-xalq mulki bo'lgan talant tug'iladi.

I L H O M

**Ilhomning vaqti yo'q, seldek keladi,
Rahm etmay, jalloddek dilni tiladi...**

Usmon Nosir

Ilhomning mohiyatini anglamoq uchun, keling dastavval, san'atkorlarning fikrlarini tinglaylik:

A.Oripov: "... ilhom hayajondan balandroq turadigan aql va tafakkur tamg'asi bo'lgan holat hisoblanadi. Pushkin ilhomni anglab olingan kayfiyat, – deydi. Ma'lum tarixiy sharoitda yashab ijod etayotgan kishilarning ilhomi allaqanday muallaq, ta'bir joiz bo'lsa, biologik ilhom bo'la olmaydi. **Ilhom ma'lum muhitda va fikrlar jarayonida sintezlashgan kayfiyatning oliy nuqtasidir**" (A.Oripov. Ta'kidlar bizniki – H.U.).

O'.Hoshimov: "Ilhom, Tolstoy aytganidek, endi jim turolmayman, degan tuyg'u bilan yozuv stoliga o'tirish. **Bunaqa paytda, odam hamma narsani unutadi, rohat qilib ishlaydi. Oylab, ba'zan yillab hal qilolmagan muammolarni bir haftada bemaol uddalaydi**" (O'.Hoshimov. Ta'kidlar bizniki – H.U.).

E.Vohidov: "Men ilhom deb atalgan holatning tabiati haqida ko'p o'ylaganman. Bu g'ayrioddiy noyob holat. Shoir ilhom daqiqalaridagina haqiqiy shoir bo'ladi. Boshqa vaqtda u o'zgalarga o'xshab fikr qiluvchi oddiy odam. Shoir ilhom onlarida bitgan satrlariga keyin o'zi hayron bo'lishi mumkin.

Zo'r karvon yo'lida etim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha,
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh.

Bu satrlarni bitgan vaqtda G'afur G'ulomning vujudi kaftdagi simobdek qalqib turganini tasavvur qilsa bo'ladi. Bunaqa she'rlarni shunchaki o'tirib, mana endi she'r yozaman, deb yozib bo'lmaydi. Har qancha materialist bo'lsam ham, **ilhom holatining sehrli ekaniga ishongim keladi**. Lekin, bu holat osmonga boqib kutib o'tirish bilan kelmaydi. "Faust"da aytilganidek:

She'riy kayfiyatni tek kutgan shoir
Umr so'ngigacha kutishi mumkin.

Ilhom uzluksiz izlanish, o'qish, o'rganish, mehnat qilish natijasidir. Shu ma'noda u ongli jarayon. Talantning to'qson to'qqiz qismi mehnat, degan so'zni men shunday tushunaman. **Ilhom** tuyg'ularning shoir qalbidan toshishi, shoir xayolida tug'ilgan she'riy niyatning yetilishi va vujudni larzaga solishidir. Fikr va tuyg'ular esa izlanishdan dunyoga keladi.

Ilhomsiz asar yozish mumkinmi? Mumkin. Lekin, bu juda og'ir mehnat – yozish ham, o'qish ham. **Ilhomsiz yozilgan asar sevgisiz olingan bo'saday sovuq bo'ladi** (E.Vohidov. Ta'kidlar bizniki –H.U.).

Ushbu mulohazalardan ayon bo'layaptiki, ilhom kelganda san'atkorning ma'naviy va jismoniy quvvati bir nuqtaga yig'iladi, u katta qudrat bilan ishga kirishadi: Bu paytda u borliqni tamoman unutadi, go'yo inon-ixtiyoriga bo'ysunmaydigan zavq-u shavqqa to'ladi, qattiq hayajonga tushadi; faqat "g'oyibdan kelgan", to'g'rirog'i, ichdan to'liq his qilib sezilgan fikr, holat tasvirini yozib ulgurish bilan band bo'ladi.

Ilhom kelganda san'atkor, qadimgi faylasuflar aytganidek, ma'naviy "kayf" holatida bo'ladi, ya'ni o'zi qilayotgan ishni to'liq anglamaydi; o'zligini, o'zi yashayotgan dunyoni unutadi; o'zi yaratayotgan yangi olamda va shu olam "kishilari" – qahramonlari bilan birga yashay boshlaydi; ularning faoliyat va nutqlarini juda yengillik bilan qog'ozga tushirib boradi. Obrazli qilib aytganda, "Ilhom – parovozning o'txonasi" (L.Leonov), shu parovozni harakatga keltiradi. Demak, ilhom yozuvchi qalbiga tushgan ma'naviy olov, u ijodiy jarayonni to'liq yoritadi va harakatini ta'minlaydi.

Xo'sh, bunday holat qachon yuz beradi?

"Ma'lumki, san'at, shu jumladan, so'z san'ati-adabiyot ham kishilarning ongiga his orqali – yurak orqali ta'sir qiladi...

Yozuvchi o'zi his qilmagan narsa to'g'risida yozsa, buni o'qigan o'quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. O'quvchining qalbiga ta'sir qilmagan narsaning adabiyotga hech tegishliligi yo'q.

Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart. Busiz bo'lmaydi. His qilinmasdan yozilgan narsa qog'ozdan qilingan gulga o'xshaydi...

Bas, ma'lum bo'ladiki, ilhom kelgani yozuvchining to'liq his qilgani, ilhom kelmagani yozuvchining hali his qilmagani bo'ladi¹⁴.

¹⁴ Абдулла Каҳҳор. Асарлар. 5-жилд. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1989, 228-бет.

Ilhom degan sehning makoni bormi? "To'liq his qilmoq"ni qanday tushunmoq lozim? Ichki his orqali sezmoq uchun nimalar kerak?

Buning uchun iste'doddan tashqari ulkan mehnat – asalari mehnati zarur. "Asalari yuz gramm bol yig'ish uchun millionta gulga qo'nar ekan, – deydi yozuvchi O'tkir Hoshimov. Shunga yarasha sharbat to'plash uchun 46 ming kilometr masofani bosib o'tarkan. Bu Yer kurrasini ekvator bo'ylab aylanib uchish bilan teng. Bundan tashqari, bolari har bir tomchi gul sharbatini xartumchasidan 200 marta to'kib, qayta yutib, ishlov berarkan. Ammo, bu hali asal tayyor bo'ldi, degan gap emas. Shundan keyin bolari asalni maxsus katakchaga joylab, bir necha soat mobaynida qanot qoqib, havo yuborib, tozalarkan. Asal aynimasligi shundan. Haqiqiy asar dunyoga kelguncha, qalamkash ham taxminan shuncha aziyat chekadi" (O'. Hoshimov). Lekin, bu aziyat ham kamlik qiladi: Hayotni, inson ruhini tahlil va tasvir etuvchi san'atkorda saviya baland, donishmandlik va payg'ambarlik xislatlarining bo'lishini ham taqozo qiladi.

Ma'lumki, Tangri taolo, barcha buyuk payg'ambarlarning eng oliy sifatlarini Muhammad payg'ambarda bo'lishiga amr etganlar. Shu sabab, Odam Atoning yaxshi xulq-atvori, Sifning ilmu donishi, Nuhning jasorati, Ibrohimning shafqati, Ismoilning fasohati, Isoning kamtarligi, Lotning farosati, Yoqubning topqirligi, Yusufning husni-jamoli, Musoning sabr-matonati, Ionaning halimligi, Joshuaning ustuvorligi, Dovudning xayrixohligi, Doniyolning mehri va yuragi, Ilyosning olijanobligi, Ionning musaffoligi, Isoning taqvodorligi unga muyassar bo'ladi. Xuddi shunday fazilatlar talantda ham mujassam bo'lishi va u ezgulik yaratish ishiga – mo'jizakorlikka sarf bo'lmog'i lozim.

Ana shundagina haqiqiy san'atkorlik yuzaga keladi – kitobxonni ham zavq-u shavqqa, kuchli ehtirolarga duch etadi. Yozuvchidagi his o'quvchiga to'liq "ko'chadi"; yozuvchining ilhomi o'quvchi ilhomini jo'shtiradi.

Bunday mehnat va xislatlarsiz "Ilhomning o'zi hech qachon kelmaydi. Ilhomni yozuvchining o'zi qidirib topishi kerak.

Ilhom deb atalgan parizod, nozanin yorning makoni qayerda? Ilhomning makoni xalqning dilida majburiyat emas, zaruriyat, xohishga aylangan mehnatning shavkati, baxtiyor odamning qahqahasida, jabrdiydaning ko'z yoshida, oshiq va ma'shuqalarning

ko'zlari va so'zlarida, odamda mehr va g'azab uyg'otadigan hodisa va voqealarning mag'zida... ilhom qidirgan yozuvchi xalqning qalbiga qo'l solishi kerak" (A.Qahhor).

Demak, ilhom ham hayotni chuqur o'rganishdan – shu yo'ldagi tinimsiz mehnatdan tug'iladi. Hayot bor joyda – ilhom bor. Faqat yozuvchi uni hayotdek ulkan olamdan-o'zini ehtirosga solgan olamni – xalqqa aytmoqchi bo'lgan zarur gapni topishi, ajratib olishi lozim. Lekin, yozuvchi tasvirlamoqchi bo'lgan har bir hodisani, qahramonlari taqdirida sodir bo'lgan hamma holatlarni o'z boshidan kechira olmaydi-ku. "Mana shu joyda yozuvchini bir narsa qutqaradi, – deb yozadi Asqad Muxtor, – hayotni yozuvchi ko'zi bilan ko'rib, uni badiiy, falsafiy tahlil qila bilish qobiliyati"¹⁵.

Yozuvchi P.Qodirov "San'atkor yozuvchi shaxsan o'zi ko'rmagan voqealarni, boshidan o'tkazmagan kechinma va hissiyotlarni ichdan astoydil his qilguncha o'rganadi"¹⁶, – deb yozsa, Ilya Erenburg "Uning qo'lida o'zgalarning qalbini ocha oladigan kalit bo'lmog'i kerak" – deb ta'kidlaydi.

Bu fikrlar asosida qanday sirlar yashiringan? "Hayotni yozuvchi ko'zi bilan ko'rish... ichdan astoydil his etish... o'zgalar qalbini ocha oladigan kalit"ni qanday tushunmoq lozim?

L.N. Tolstoy "Tirilish" romanida shunday yozadi: "Dunyoda eng ko'p tarqalgan fikr, har bir kishining o'ziga xos ma'lum bir xususiyati bo'ladi, xushfe'l, aqlli, ahmoq, g'ayratli, yalqov odam bo'ladi va hokazo, degan fikrdir. Lekin, odamlar bunaqa bo'lmaydi. Biz odam haqida u ko'pincha badjahl emas, g'ayratli yoki aksincha bo'ladi deyishimiz mumkin; lekin bir odamni agarda, u xushfe'l yoki aqlli desang-u, boshqa birini jahldor yoki ahmoq desak noto'g'ri gapirgan bo'lamiz. Biz bo'lsak odamlarni doimo shunday ajratamiz. Bu noto'g'ri. Odamlar daryodek gap: hammasining suvi bir xil, hamma joyda o'sha suv, lekin daryo goh keng bo'ladi, goh tor, goh tez oqadi, goh sekin, suvi goh tiniq bo'ladi, goh loyqa, goh iliq bo'ladi. Odamlar ham shunday. Har bir odamda insoniy xususiyatlarning kurtagi bo'ladi. Odam shu xususiyatlarning goh birini, goh boshqasini namoyon qiladi, ba'zan o'sha odamning o'zi butunlay o'zgarib ketadi. Ba'zi odamlarda shu o'zgarishlar juda keskin namoyon bo'ladi..." (Ta'kid bizniki – H.U.).

¹⁵ У.Норматов. Талант тарбияси. "Ёш гвардия", Т., 1980.

¹⁶ П. Қодиров. Ўйлар. Т., 1971.

Demak, har birimizda butun odamzod shu vaqtgacha boshidan kechirgan insoniy xususiyatlarning kurtagi yashirin tarzda mavjud. Ular har bir qalbnig chuqurida yota beradi. Lekin, ulardan birortasini uyg'otish zarurati tug'lsa, shunga tashqi talab, ehtiyoj bo'lsa, tasavvurimizda jonlanishi mumkin. Xuddi ana shu sababli yozuvchi xohlagan qiyofaga, yoshga, holatga kira bilishi mumkin. Xohlagan kechinma, hissiyot, ruhiyatni tasavvur eta olishi mumkin. Shunday ekan, yozuvchi-san'atkor xasislik va jinoyatni ham, qo'rquv va mardlikni ham, o'lim va jasoratni ham, ayol va yigitni ham, chol va kampirni ham... muhabbat va oriyatni ham tushunarli va yorqin tasvirlay olish qudratiga egadir.

Lekin, bu qudrat samimiy va ta'sirchan, ishonarli va "yuquvchan" bo'lishi uchun yozuvchi o'z xalqining farzandi, Vatanining jangchisi, qaynoq hayotning faol ishtirokchisi, ilg'or dunyoqarashning egasi sifatida katta shaxsiy va ijodiy tajribaga ega bo'lishi lozim. Chunki yozuvchining shaxsiy tajribasi, biografiyasi "oltin fond" (A.Muxtor) bo'lib, u hayotda, shu jumladan, asarda ro'y berayotgan voqea va hodisalarni tushuntiruvchi kalitdir. Shu bois, G'. G'ulom: "Yozuvchi kishining ichki dunyosini tasvirlar ekan, o'z tajribasiga suyanadi. Shuning uchun ham bu tajriba qanchalik keng bo'lsa, qahramonning ichki dunyosi ham shu qadar boy bo'ladi", deb yozgan edi. Darvoqe, **shaxsiy tajriba – o'zgalar qalbini to'g'ri anglashning yo'lchi yulduzidir.**

Garchi, insoniyatga tegishli hamma narsa har bir shaxsga ham tegishli bo'lsa-da, har bir inson o'zicha his qilib, o'zicha o'ylaydi, o'zicha yashaydi, o'zicha o'rtanadi, o'zicha mulohaza qiladi, o'zicha gapiradi... Shu sabab "Bir shoirning "sir"i boshqa shoir uchun sira ham ish bermaydi. Uni hamma qulfga tushadigan kalitdek deb o'ylash mumkin emas.

Poetik ijodning "sir"ini faqat shoirning o'zigina topa olishi, shunda ham faqat o'zidan topa olishi mumkin. Har bir yangi shoir bu "sir"ni o'zi uchun yangidan "ochishi" kerak, deb ayt sak to'g'riroq bo'ladi.

Poetik "sir"ni bilib olish – bu hammadan oldin ijodda mustaqil bo'lish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, sen bir she'r yozginki, bu she'rning yozilishi faqat o'zingga, boshqa shoirga emas, faqat sening o'zinggagina xos bo'lsin, ya'ni bu she'rda o'zingga xos ovozing bo'lsin, biror temada mustaqil o'zing nima ayta olsang, faqat shuni,

o'z fikringni ayt. Chunki turmushdan olgan bir voqeani o'zing ko'rgansan, o'ylagansan, uni o'zing his qilgansan, o'zing anglagansan va o'zing undan xulosa chiqargansan. Shuning bilan birga bu voqea, faqat shoir va ma'lum doiradagi odamlar uchungina ahamiyatli bo'lmay, balki, eng muhimi, keng o'quvchilar ommasi uchun ahamiyatli bo'lishi kerak"¹⁷.

Shoir M.Isakovskiyning yuqorida keltirgan so'zlaridan ham ma'lum bo'layaptiki, "kimki yozuvchi bo'lmoqchi bo'lsa, albatta, o'zidan o'zligini topishi zarur". Chunki, u tasvirlamoqchi bo'lgan hayotning maftunkorligi yozuvchi shaxsidan qo'shiladigan ma'naviy, poetik "boylik"ning darajasiga bog'liqdir. U o'zigagina tegishli ana shu "boylik"ni – insoniy sifatlarni, ruhiy kuchlarni yaratayotgan qahramonlariga "ulashganda", berganda buning sifati qandayligini-fikriy doirasi, ichki dunyosining teran, boy yoki cheklangan va qashshoqligini kitobxon baholaydi. Ana shu bahosining natijasiga qarab yozuvchiga, uning asariga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Demak, yozuvchining qahramonlar kechinmalarini birga his qilish, ularga singish ("вживание") iste'dodi, qahramonlarga sub'yektiv munosabati katta rol o'ynaydi. U o'zini tasvirlanayotgan shaxs o'rni qo'ya olsagina, o'sha shaxs qiyofasiga kira bilsagina xarakter jonlanadi.

Buning uchun yozuvchi, dastavval, obrazni ko'z o'ngida jonli shaxs qiyofasiga kirguncha o'rganadi. Yozuvchi o'z qahramonining tug'ilishidan tortib umrining oxirigacha bo'lgan hayotini va u harakat qilishi lozim bo'lgan voqelikni-sharoitni tasavvur qila bilishi kerak.

Agar Oybek: "Buning uchun, albatta, Navoiyning barcha asarlari, Navoiy yashagan davrning tarixi, u davrning sotsial qiyofasi, u davr faoliyatining xarakteri, urf-odatlar, xulq-atvori bilan tanishishiga to'g'ri keldi. Ko'p tarixiy faktlar, materiallarni yig'dim, ularni tahlil etib, mag'zini chaqish uchun chuqur his etishga, o'ylashga boshladim. Bu ishga shu qadar g'arq bo'lgan edimki, romanning ish plani qog'ozda yo'q edi, u mening ko'nglimda, yodimda edi, butun borlig'imni band etgan edi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nodor, aqlli ko'zlari, xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl, pok, ulug' qalbini his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim"¹⁸, – deb yozsa, S.Ahmad "Ufq"

¹⁷ М.Исаковский. Поэзия и поэтика "сери" хақида.-Бадний ижод хақида. Т., 1960.

¹⁸ Адабиётнинг автобиографияси. Т., 1973.

qahramonlari haqida: "Romandagi har bir personaj bilan xayolan gaplashganman, yig'laganman. Ular xuddi qaysar, bebosh bolalardek meni qancha qiynashgan.

Xasis, yaramas Inoyat oqsoqolni qandoq qilib yomon ko'ray. Axir uni yaratguncha qancha azob tortganman. Uning eski bir so'mliklarni samovarning qorniga yopishtirib dazmollashidan tortib militsioner bilan uchrashuvigacha menga qadrlı"¹⁹, – deb ta'kidlaydi.

Ushbu iqromomalardan ko'rinayaptiki, Oybek qahramonlarini ko'z o'ngida ko'rganday tasavvur qilsa, Said Ahmad ular bilan xayolan gaplashib, suhbatlashadi. Bu xususiyat, ya'ni yozuvchining asarda tasvirlanayotgan olamda yashashi, shu olam kishilari bilan munosabatga kirishishi, ularning yaxshisini sevishi, yomonini qoralashi – hamma san'atkorlarga xosdir. A.Tolstoy yozganidek, **"Tasvirlagan narsalarni his-tuyg'ular yordamida ko'ra bilib, asar yaratish-yozuvchi uchun qonundir"**²⁰.

Ilhom bepoyon ijodiy jarayonning bir parchasi, badiiy asar yaratish tizimidagi san'atkorning muayyan bir holati. Lekin ilhomsiz yaxshi asar yaratish mumkin emasligi ham ayon bo'ldi.

Ilhomning darajalari

Adabiyotshunoslikda ilhomning ikki darajasi borligi qayd etilgan: Biz **birinchisini – mo'tadil ilhom** (vдохновение – skritoe, "skromnoe") va **ikkinchisini – zavq-u shavqqa to'liq ilhom** (vдохновение-аффект) deb atadik. Birinchisiz asar yozish mumkin emas, ikkinchisiz harqalay mumkin. Birinchisi juda oddiy kechadi, ya'ni san'atkor ilhom hayajonini sezsa-da, tashqi ko'rinishidan o'zini juda xotirjam tutadi, hamma holatini ongli idrok etadi. Ma'lumki, ilhom yozuvchi fikr-mushohadasining chuqurliklarida tug'iladi va yetiladi. Ba'zan u birdaniga vulqondek otilib chiqadi: san'atkor yaratayotgan olamiga shunchalik ehtiros va hayajon bilan beriladiki, reallikni sezmaydi. Uning tomirlarida shiddat bilan qon yugura boshlaydiki, o'sha tasvirlayotgan qahramonining holatiga tushadi.

Jumladan, kitobxon Surayyo Xo'jayeva yozuvchi A.Muxtordan **"Badiiy asarni o'qiyotganda qahramonlar hayotining eng hayajonli daqiqalari tasviri paytidagi yozuvchi holati masalasi meni juda-juda qiziqtiradi. "Men "Tug'ilish" romanini o'qiyotganimda**

¹⁹ У.Норматов. Талант тарбияси. Т., 1980.

²⁰ Бадний ижод хақида. Т., 1960.

Luqmonchanning o'limi tasviriga kelganda o'zimni qo'yarga joy topolmay qolgan edim.

Asqad aka, o'sha hayajonli daqiqalar tasviri paytida qanday holatga tushgansiz, eslay olasizmi?" – deb so'raganida A.Muxtor quyidagicha javob beradi:

"Asarning kitobxon uchun ta'sirli joylari yozuvchining o'zini ham shunchalik ta'sirlantiradimi? Bu haqda har xil afsonalar bor. Mikelanjeloga o'zi yaratgan haykal tirikday ko'rinib, qo'rqib ketganmish; Balzak qahramoni o'lganda infarkt bo'lib qolganmish... "O'tkan kunlar"dagi Kumush o'limi tasviri paytida Abdulla Qodiriyning yig'lagani haqida ham gaplar bor...

Bular – ijod psixologiyasi nuqtayi nazaridan haqiqatdan ham afsona.

Ijodkor bunday ta'sirli tasvirlar paytida zahmat chekadi. To'g'ri, ilhom bilan zahmat chekadi, lekin uni ko'pincha hayajon emas, qanoatsizlik hissi qiynaydi. Chunki, qog'ozga tushgan narsa odatda yozuvchi o'yida tug'ilgan o'ziga xos murakkab munosabatlar olamiga nisbatan juda kichik bo'ladi. Yozuvchi tasavvuridagi ajoyib dunyo qog'ozga hech vaqt to'laligicha tushmaydi. Tasavvur so'zlardan boy. Shuning uchun o'sha Surayyoxon aytgan tasvirlarda ham meni birinchi galda qanoatsizlik hissi qiynagan. Charchaganman, maza qilib uxlaganman. Nazarimda, shu his bo'lmasa; bordi-yu yozuvchi o'zi yozganidan o'zi mamnun bo'lib zavqlansa, asar yaxshi chiqmaydi"²¹.

Demak, A.Muxtorning asosli fikriga ko'ra, yozuvchi qahramon hissiyotini, kechinmasi va iztiroblarini tasvirlash paytida uning qiyofasiga kiradi, lekin butunlay, yuz foiz emas, o'zining "men"ini, yaratuvchi shaxs – yozuvchi ekanligini unutmaydi. Darhaqiqat, Mikelanjelo, Balzak, Qodiriylar boshidan kechirgan yuqoridagi "afsona"lar yuz berganda ham, u – san'atkorlar yaratilgan yoki yaratilayotgan obrazlardan ustun turganlar; o'zlarini asar qahramoni emas, balki "uydirmalar ijodkori" (M.Gorkiy) ekanlarini unutmaganlar. Shunday ekan, H.Qodiriyning "Otam haqida" xotirasida quyidagicha yozgani yolg'onmi?

"Bobom vafotidan so'ng edi. Shahar hovlida yashar edik. Bir kuni uyimizda shunday voqea ro'y berdi, oyim, odatimizcha, ertalabki choyni bibimning uyiga hozirladi-da, erta turib, yozib o'tirgan dadamni choyga chaqirgani kirib ketdi. Biz dasturxon tevaragida

²¹ У.Норматов. Талант тарбияси. Т., 1980.

uning chiqishini kutamiz... Bir vaqt oyim negadir indamay chiqdi-da, o'tirib bizga choy quyib bera boshladi:

– Abdullani chaqirdingmi, Rahbar, – dadam chiqavermagach, oyimdan so'radi bibim.

– Yo'q.

– Nega?

– O'g'lingiz yig'lab o'tiribdilar, – dedi oyim.

Bibim bechora sakrab turib dadamning uyiga yo'l oldi. Kap-katta kishining yig'lashidan hayratga tushib, men ham bibim ortidan ergashdim. Kirsak, u yum-yum yig'lar, kursiga tirsaklanib olib to'xtovsiz yozar edi. Bibim dadamning bu holiga bir oz qarab turdi-da, bir narsani tushundi shekilli, indamay, meni boshlab orqasiga qaytdi va o'tirib choyini icha boshladi. Men bibimdan so'radim:

– Ona, dadam nega yig'layaptilar?...

– Dadang jinni bo'lib qolibdi... – javob qildi bibim va boshqa so'z aytmedi.

Keyinchalik anglasam, o'shanda dadam o'z sevikli qahramoni Kumushning o'limi payti tasvirini yozayotgan ekan²².

Bu kabi hodisalar adabiy ijod uchun yot narsa ham, yozuvchi A.Muxtor aytganidek, afsona ham emas. San'atkor o'zi yaratgan, o'ylab chiqargan obrazini ob'yektivlashtirar ekan, uni xuddi birga yashayotgan kishisidek, real, hayotiy odam tarzida tasavvur qiladi. Natijada, qahramon qalbida sodir bo'layotgan kechinma, iztirob, og'riqni o'z boshidan kechirayotgan shaxs holiga tushadi. Qahramonning o'zigagina tegishli olamning eng chuqur sirlarini to'liq his qilishga imkon beradi.

Shu sabab S.Ahmad yozadi: "Og'ir yuk ko'targan kishini tasvirlaganimda, o'zim o'sha yukni ko'targandek kuchanib, terlab ketaman. O'lim manzarasini tasvirlaganimda eng yaqin kishimning jasadi tepasida turgandek yig'lagim keladi.

Xullas, nimani tasvirlasam, o'zim o'sha voqeaning ishtirokchisiga aylanaman. Shuning uchun ham, har bobni yozganda qattiq charchab, toliqib qolaman".

Agar qahramon kechinmasi bilan birga azoblanish A.Qodiriyning yum-yum yig'latga, S.Ahmadni charchatga, toliqtirsa, yozuvchi H.G'ulomni beixtiyor ko'zlaridan yosh chiqib ketishiga olib keladi: "Boshda "Binafsha atri" qahramoni... Nafisaning keyingi taqdirini –

²² X.Қодирий. Отам хақида. Т., 1974.

bolasi bilan cho'lga chiqib ketib sargardon yurishini tasvirlay turib, ko'zlarimdan yosh chiqib ketganini sezmay qolganman".

Adabiy ijod tarixida bundan ham og'ir ma'naviy iztirob chekkan, azobli holatlarga tushgan yozuvchilarning iqrommalarini eslash mumkin.

Masalan, Flober Emma Bovarining zaharlanishi lavhasining tasviriga kelganda shunday deydi: Tasavvurimdagi shaxslar meni hayajonlantiradilar, kuzatadilar, aniqrog'i, men ularga aylanaman. Men Emma Bovarining zaharlanishini tasvirlay boshlaganimda og'zimda haqiqatdan ham mishyak (zahar)ning ta'mini totdim. Zaharlanganimni sezdim, ikki marta juda yomon ahvolga tushdimki, hatto qayt qildim".

Bu avtorlarning guvohliklari shunchalik samimiy va ular o'rtasida shunchalik hamfikrlik borki, ularning haqiqat ekaniga ishonmaslikka hech qanday asosimiz yo'q. Unda buni qanday tushunish kerak? Adabiy ijod psixologiyasi qonuniyatiga xilof emasmi?

Ushbu masalaga chuqurroq yondoshilsa, A.Muxtor tipidagi yozuvchilarning asosli tushunchasi bilan A.Qodiriy, S.Ahmad, H.G'ulom, Floberga o'xshash san'atkorlarning yuqoridagi holatlari o'rtasida katta farq yo'q. Birinchi tipdagi yozuvchilarda qahramon shaxsidan, uning ruhidan ajralish, uzoqlashish jarayoni tez va osonlik bilan yuz beradi. Ikkinchi tipdagi yozuvchilar qahramon qiyofasiga kirar, ular kechinmasini birga tortar ekanlar, birdaniga bu qahramon ruhidan chiqib, uning ta'siridan uzoqlasha olmaydilar. Tasvirlamoqchi bo'lgan qahramoni yozuvchining butun borlig'ini band etadi, uning shaxsiy hayotiga, yurish-turishiga muhrini bosadi. Shuning uchun ham Oybek: "Yursam-tursam ham hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nodor, aqlli ko'zlari, xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl pok, ulug' qalbini his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim", – deb haq gapni aytadi. Bunday holat ba'zi yozuvchilarda uzoq davom etishi mumkin. Asar yaratilgan, kitob bitgan, yillar o'tgan bo'lsa-da, baribir o'sha asar ruhidan, qahramonlar hayajonidan, ta'siridan qutula olmaydilar. Buni S.Ahmad va uning "Ufq" romani ustidagi kuzatishlari ham isbotlaydi: "... kitob qattiq hayajon, turli ruhiy izlanishlar, quvonchlar bilan yozilganidan, u bitgandan keyin ham, o'quvchilar qo'liga tegib, adabiy tanqid yaxshi-yomon aytgandan keyin ham uning ruhidan

chiqib ketolmadim. Biron hikoya yozsam yo shu romanga kirmay qolgan bobga, yo qahramonga o'xshab qolaveradi"²³.

Ushbu aytganlardan shu narsa aniqlashadiki, yozuvchi tasavvuridagi qahramonlarning azob va quvonchlari, hayajon va tashvish-kechinmalarini birga tortar ekan, yaratayotgan, uydirma asosiga qurilgan lavhasini ko'z o'ngida ko'rar ekan, u bu holatlar va predmetlarni shunchalik aniq va jonli sezadiki, natijada uni o'z qalbida, ko'z oldida, haqiqiy hayotda yuz berayotgan kechinma va hodisadek qabul qiladi. Shuning natijasi o'laroq ijodiy jarayonning ba'zi "afsona"lari yuzaga chiqadi.

Lekin, yozuvchi tasavvurida uyg'ongan hissiyot, qanchalik kuchli va chuqur, tiniq va ta'sirchan bo'lmasin, san'atkor o'zining "men"ini, individualligini yo'qotmaydi. Qalb ong va irodaga bo'ysunadi. Shu sabab voqea bo'layotgan hamma hodisalarning real, ob'yektiv sababi yo'qligini yozuvchi tushunadi. Yuqoridagi yozuvchilarning "afsona"lari go'yo haqqoniy aktyorlarning yig'isi, uh tortishi, azoblanishi, kulishi – bu o'sha o'ynayotgan obrazlarning yig'isi, uh tortishi, azoblanishi, kulishi ekaniga o'xshaydi. Aktyor tomosha tamom bo'lgach, o'z niqobini yechishni unutmaydi, o'zining ilgarigi fikrlariga, hayotiga qaytadi. U sahnada o'ynar ekan, o'zligini butunlay unutib qo'ymaydi, garchi tomoshabin ko'ziga bu narsa tashlanmasa ham, u "kuylar ekan, eshitadi, harakat qilar ekan, kuzatadi" (F.I.Shalyapin).

"Abror aka – Otello, egnida qizil shohi ko'ylak. Belida qizil shohi belbog', qulog'ida "tilla" sirg'a, qop-qora chehrasida viqor, vazminlik, olijanoblik. Tishlari yarqirab sahnaga kirib keladi. Kirib keldi-yu sahna ham, teatr ham esimdan chiqdi. Chunki ko'z oldimda Abror Hidoyatov emas, o'sha Shekspirni ilk bor o'qiganimda tasavvur etganim – Otello turardi!

Uning har bir harakati, Dezdemonaga tikilganda ko'zlarida porlagan cheksiz muhabbat, ovozidagi titroq, kiborlar oldida o'zini tutishi, qadrini bilishi, mardligi hamma-hammasi menga tanish, xuddi men tasavvur etgan Otelloning o'zginasi edi.

Mana, Otelloning olijanobligini, bolalarga xos samimiyligini, pokligini ochib beruvchi dastlabki sahnalar o'tib, qalbiga rashk cho'g'i tushdi.

²³ У. Норматов. Талант тарбияси. Т., 1980.

Odatda, tanqidchilar bu sahnalar to'g'risida gapirganda Otelloni sherga, yo'lbarsga o'xshatadilar. Lekin, rashk azobida to'lg'angan Abror Hidoyatov sher emas, yo'lbars ham emas, sahnada charx urgan bir cho'g', qizil shohi ko'ylak ichida mavj urgan olov, taftiga hech kim bardosh berolmaydigan bir alanga edi! Bu otash, bu alanga keng sahnada javlon urar, hammani kuydirar, yondirar, o'zi ham tomoshabin ko'zi oldida yonib borar edi...

Uning ovozida ham bahor latofati, ham momoqaldiroq sadolari, ham o'zbek yozining harorati mujassam edi. Uning inson yuragidagi eng nozik tuyg'ularni ifodalay oladigan, bir zumda yuz xil ohang kasb etadigan ajoyib ovozi-chi? Uning tahqirlangan qalb faryodlariga to'la mashhur "himm"lari-chi! Uning Dezdemoni ustidan to'kkan ko'z yoshlari-chi! Yo'q, bu tomoshabinni yig'latish uchun mohir aktyor to'kkan ko'z yoshlar emas, ulug' fojiaga uchragan, ulug' insonning – Otelloning ko'z yoshlari edi! Zotan, Abror akaning "Otello"sida tomoshabin yig'lamas, chunki kishini ko'z yoshidan ham zo'r bir tuyg'u cho'lg'ab olar, Abror aka tomoshabinni larzaga solar edi"²⁴

Ko'rinayaptiki, tomoshabin nazarida aktyorning (Abror akaning) ijodiy individualligi va o'ynalayotgan personaj (Otello) shaxsi qo'shilib, birikib ketadi, yaxlit vujud yuzaga keladi. Natijada, u Abror aka yoki aktyor sifatida emas, balki buyuk fojiaga uchragan ulug' Inson – Otello bo'lib gavdalanadi; Abror aka tashqi qiyofasida – sodda va mard, samimiy va qop-qora chehrali Otello, Abror aka ko'ksida-Otello yuragi, Abror aka qalbida – Otello ruhi yashaydi. Go'yo Abror aka shaxs va aktyor sifatida "o'lgan-u", shu hisobga Otello tirilgandek. Shuning uchun ham **sahnadagi ijod-qayta yaratish; qayta yaratish esa aktyorning "o'limi"dir.**

Yozuvchi O.Yoqubov xotirasini davom ettirib yozadi: "Spektakldan keyin, qariyb chorak soatli qarsaklardan so'ng, Abror aka egnidagi Otelloning zarrin to'ni, Otello grimida sahnaga chiqdi.

Men ham Hamza nomidagi teatr uchun pesa yozgan yosh dramaturg sifatida, artistlarga qo'shilib sahnaga chiqdim va u kishining qo'lini olgani yoniga bordim. Bordim-u hayratda lol bo'lib qoldim: Qarshimda boyagi olov, qafasdan chiqqan sher o'miga yuzini chuqur ajin qoplagan, butun kuchi, yuragidagi bor ehtirosini sevimli Otellosga berib "tamom bo'lgan"; horg'in va ojiz bir qariya turar edi..."(O.Yoqubov.)

²⁴ O.Екубов. Ислайман. "Ёш гвардия", Т., 1972.

Aktor o'zi yaratgan obraz ruhidan qutilib, o'zligiga, asliga qaytgach, "qizil shohi kuylak ichida mavj urgan olov, taftiga hech kim bardosh berolmaydigan alanga" o'chadi. Garchi tashqi ko'rinishi (grimda ekan) Otelloga o'xshasa-da, unda o'sha qahramonning qalb olami o'lgan-u, ancha yoshga kirib qolgan qariya-charchab toliqqan Abror akaning o'zi (shaxsi) yaqqol ko'zga tashlanadi.

"Axir, artistning barcha ishi haqiqiy, real, "rostakam" hayotda emas, balki tasavvur etilgan, mavjud bo'lmagan, ammo mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan hayotda o'tadi. Ana shu biz artistlar uchun chinakam hayot hisoblanadi"²⁵, – deb yozadi Stanislavskiy.

Xuddi ana shu asos sababli sahnada go'yo ikkita Abror Hidoyatov faoliyat ko'rsatadi. Biri o'ynaydi (rol hayoti bilan yashaydi), biri nazorat qiladi (xatti-harakatlarining to'g'ri, noto'g'riligini kuzatib boradi). Agar o'ynayotganda nazorat qiluvchi "men"i, o'zligi o'zgina susaysa, ya'ni, aktyor Otello ruhidan ustunligini yo'qotsa, unda yuqorida ta'kidlaganimiz "afsona"larga o'xshash holatlar yuzaga kela beradi. Aytishlaricha, Abror aka Otelloning Dezdemoni (S.Eshonto'raeva)ni bo'g'ib o'ldirishi epizodini o'ynaganda, sahnada o'ynayotganini – mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni yaratayotganini unutar va Sora Eshonto'raevani haqiqiy Dezdemoni deb tushunar va rostakamiga bo'g'a boshlar ekan. Bu falokatga, Sora Eshonto'raeva (Dezdemoni)ni halokatga olib kelishi mumkin deb tushunganlar, go'yo sahna ortidan "Abror aka siz sahnada o'ynayapsiz. Bu Dezdemoni emas, Sora opa!.." deb o'zligini topishga – real hayotni tushunishiga yordamlashgan emishlar.

Bu "mish-mish"ning qiziq va asosli tomoni shundaki, aktyor (Abror aka) o'z qahramoni (Otellosi) ruhidan birdaniga chiqib keta olmaganida, mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni real hayotdek ma'lum daqiqa tushunishidir. Tasavvuridagi qahramon qalbiga chuqur singish bilan ijodiy kayfiyat (ilhom) paytidagi aktyor hissiyotining teranligi o'rtaidagi aloqadadir.

Lekin, Abror aka (Otello) Sora Eshonto'raeva (Dezdemoni)ni rostakamiga bo'g'ib o'ldirmaganligi fakti, garchi qo'polroq aytayotgan bo'lsak-da, Abror akaning yuqoridagi "mish-mish"lardan xoli ekanligini, u Otello rolida o'ynar ekan, hech vaqt nazorat qilib

²⁵ К.С.Станиславский. Актернинг сўз устида ишлаши. Т., 1965, 216-бет.

turuvchi o'zligini-"men"ini yo'qotmagan. Demak, u yaratgan obrazi (Otello)dan doimo ustun turgan.

Xullas, yuqorida ta'kidlaganimizdek, yozuvchi, aktyor qanday holatga tushmasin, yozgani, o'ynagani bilan birikib ketmasin, o'zligini yo'qotmaydi. To'g'ri va aqlga muvofiq fikr-mulohaza yurgizadi. Shuning uchun ham yuqoridagi "afsonaviy" holatlar ham adabiy ijod psixologiyasining umumiy qonuniyatiga bo'ysunadi.

Demak, haqiqiy she'r, ruboiy, tuyuq, sonet, novella va shu kabi kichik janrlar zavq-u-shavqqa to'liq ilhomning mevasi bo'ladi. Lekin, bu xil ilhomning uzluksizligini epik va dramatik asarlarni yaratishda ta'minlash mumkin emasligi ayon; ularni yaratishda mo'tadil ilhom qo'l keladi. Aytmoqchimizki, **Ilhom san'atkor tomonidan muhayyo etilarkan, uni boshqarish ham mumkin.** Yozuvchi P. Qodirov "**O'ylar**" kitobida yozganidek, "**Ilhom bilan mehnat bir-biriga bog'lanib ketadi, go'yo bir-biriga zarblanib, ijodiy ishning samarasini oshiradi.** Shuning uchun fransuz yozuvchisi Flober yozadi: "**Butun ilhom shundan iboratki, har kuni ma'lum bir soatda o'tirib ishlash kerak**". Bodler bu fikrga qo'shilgan holda: "**Kundalik ishda ilhom, so'zsiz zarur, - deydi. Tafakkurning faoliyatida qandaydir osmoniy bir mexanika bor, bundan uyalmaslik kerak, balki vrachlar badan mexanikasini qanday egallasalar, yozuvchi ham ilhom mexanikasini shunday egallashi kerak...**".

Xullas, ilhom ijodiy mehnatning tabiatidan chiqib keladi, demak, real hayotiy asosga ega bo'ladi. Buni A.S.Pushkin "**Boris Godunov**" tragediyasi haqidagi "iqrornoma"sida ham ta'kidlaydi: "**Men yozaman va mulohaza yuritaman. Sahna ko'rinishining ko'p qismi faqat fikrlashni talab qiladi; qachonki ilhomni talab qiluvchi sahna ko'rinishiga borsam, men uni kutaman yoki sahnani o'tkazib yuboraman-ishning bu xili men uchun tamoman yangilik. Sezayapmanki, mening ruhiy kuchlarim kamolot cho'qqisida, demak, men yaratishga qodirman**".

Demak, doimiy ravishda va izchil olib boriladigan mehnat ijod jarayonidagi boshqa unsur (narsa)larni ham tartibga soladi, hamma ijodiy tashvish ilhom tevaragida aylanadi...

Hayot va inson bor joyda ILHOM ham bor. Unga umrimiz davomida bilib yo bilmay hammamiz duch kelamiz. Bunday onlarda

kishi borliqni tamoman unutib shunday zavqqa to'ladiki, bu zavqdan osonlik bilan yangilik tug'iladi, kashf etiladi. Bundan esa ilhom egasi shunday huzur, shunday rohat topadiki, u endi shu holatlar va tuyg'ularning shaydosiga aylanadi. Ilhomni umrning mazmuniga tenglashtiradi, shundagina oromini, tinchini, shodligini va baxтини topadi. Faqat uni anglash, sirlarining barchasini egallash va ilhomni o'ziga bo'ysindirish hammaga ham nasib qilavermaydi.

Shu sabab, ilhomdek Alloh ne'matining qudratini egallaganlar, uning "hukmdori"ga aylanganlar umri – serhosil, barakali, sof, go'zal, kashfga boy bo'ladi. Umuminsoniy va umumjahoniy ezgulik rivojiga hissa qo'shadigan bo'ladi. Ayni paytda, ilhom charchashga, uzoq muddat orom topishga imkon bermaydi, umrni besamar ishlarga sovrishga yo'l qo'ymaydi.

Bu gaplarning isbotini keltirish uchun hammamiz biladigan, barchamiz tan olgan hayotiy bir ibratli misolni keltirmoqchiman:

Xalq bilan muloqot qilib, inson manfaatlarini yoqlashga kirishganimizga yil to'ldi. Shu bir yilda Istiqlolning nuri tufayli O'zbekiston va uning xalqi yangi davrga qutlug' qadam qo'ydi. Istiqlolning ertasi – yaxshilik bo'lishiga barcha ishondi. "Adli ehson bilan jahon gulshani obod bo'ladi" (Amir Temur) haqiqatini xalqimiz o'z tanasida sinab ko'rdi. Bularga minglab dalillar keltirish mumkin... o'n yilliklar davomida erishmagan yutuqlarga bir yilda erishdik. Bir yilda O'zbekistonda siyosat o'zgardi. Ijtimoiy-iqtisodiyot, ma'naviyat va ma'rifat, davlat hokimiyati vakillik organlarining yangi tizimlari ishga tushdi.

Bularning barchasi Sh.M.Mirziyoyevning mamlakat va xalqni boshqarish san'atini mukammal egallagani, doimo ILHOM bilan hamkorlikda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirayotgani samarasidir.

Prezidentimizning barcha sarhisob qiluvchi nutqlaridan ma'naviyatning yaratuvchi nuri taralib turadi. Quyosh barcha narsaga nurini sochganidek, Istiqlol ma'naviyati ham barcha g'oyaviy, iqtisodiy, ma'rifiy harakatlarimizga ijodiy quvvat beradi, halol va adolatli hayot kechirishimizga, komillikka erishishimizga nurli imkoniyatlar yaratadi. Qalbimizni harakatga solib, mehr-muhabbatga boy qiladi, hurmat-izzatni, halolu poklikni, ruhan yuksalish va hayotdan qoniqishni barqarorlaydi. Ilhom tevaragida hamma tashvishlar muayyan qonunlar asosida harakatga kirishib, maqsadning

natijasi (oqibati)ni yuzaga chiqaradi. Bu haqiqatlar Prezidentdagi ilhomning mehvaridir.

U – barchaning qalbini istiqlool ma'naviyati nuri bilan olovlantirayotgan va taraqqiyot tomon, insoniylik tomon, ezgulik tomon yo'naltirayotgan rahnamodir. Har qanday muammoni har tomonlama sarhisob qilish ilmini egallagan, uni adolatli hal qilishning ustuvor yo'llarini ko'rsatib beradigan rahbari odildir. Barcha ishlarning chora-tadbirini ko'ngil bilan topib hal qiladigan rahbari donishdir. Ayniqsa, uning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga Murojaatnomasi yilning sarhisobi va yangi yillarning harakat dasturiga aylandi. Jonajon Vatanimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari xalqimiz manfaatiga uyqash qilib belgilandi. Yil davomida tinim bilmasdan, yaratishdan charchamasdan faoliyat ko'rsatayotgan bu inson hammamizni hayratga solmoqda. Uningdek ishlashga ko'pchiligimiz o'zlik qilmoqdamiz. Chunki, Prezidentimiz ILHOMning asosini xalqimiz hayotidan, ma'naviyatidan topgan. Uning ko'nglidagi zarur, kerakli haqiqatlarni anglab yetgan, O'zbekiston va o'zbekistonliklarning dardini to'liq o'zlashtira va qalban o'zligiga aylantira olgan. Xalq bilan bu masalalarni ilmiy-amaliy ehtiros, el otasiga xos kuyunchaklik, yorug' va yoniq qalb orqali baham ko'radigan SHAXSga aylangan. Bizningcha, bu xislatlarning barchasi – Ilhomning sirlarini egallab, unga "qo'mondonlik" qilayotgani sabablidir. Shuning uchun ham uning barcha chiqishlari, muloqotlari betakrordir, doimo yangi va mukammaldir. Bugungi mazmundor hayotimizga va Harakatlar strategiyasiga munosib go'zallikdir.

Demak, Prezident Sh.M.Mirziyoyevdan ibrat olib, 2018 yildan barchamiz o'z sohamizda ILHOMga esh bo'lishimiz, u bilan hamkorlikda umrguzaronlik qilishimiz lozim. Shundagina komil insonlar safi ko'payadi, ko'paygani sari O'zbekiston va xalqimizning hayot quvvati oshib, barkamollikka erishaveradi; jahon mash'aliga aylanadi!

BADIY MAHORAT

Ijoddagi eng kichik
zarra ham badiiy
mahoratga muhtojdir.

Yozuvchi ma'lum g'oya asosida to'plagan alohida faktlarni o'zining shaxsiy tajribasi bilan boyitib, qalbidan o'tkazib, ko'pchilikka xos qilib umumlashtiradi. Ya'ni, aniq g'oyaga asoslanib, yozuvchi hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi, umumlashtiradi va jonli, tabiiy va betakror go'zal narsani yaratadi. Yaratgan asari (lavhamasi) o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi, kitobxon o'y-xayollarini o'ziga tamoman band etadi.

Badiiy mahoratning mohiyatini tushunishda ana shu haqiqatni doimo esda tutish lozim. Uning siru sinoatiga yetmoq uchun «O'tkan kunlar»ning «Navo kuyi» bobini esimizga tushiraylik.

Otabek qaynotasidan «Uyatsizga mening uyimdan o'rin yo'q, uyatsiz bilan so'zlashishga ham toqatim yo'q... Boringiz, eshigim yonida to'xtamangiz!» - degan so'zlarni eshitgan. Izzat nafi xo'rlangan. Kumushdan zaharli, muammoli maktub olgan. Bu voqealarni bir-biriga bog'lay olmaydigan, «go'yo» isitma vaqtida bo'ladigan tuturiqsiz, bog'lanishsiz alji-bilji holatda edi. Kumushni sog'inib, xo'rlanganining sababini bilishga intilib Marg'ilonga qatnar, Marg'ilonga kelgach, qaynotasining so'zlari qulog'i ostida jaranglar, darboza qarshisida jasorati so'nar va Toshkentga qaytar edi. Borib-kelishdan natija chiqara olmas, Kumushni esa tinimsiz qumsardi... Ilojsizlik, hijron, tubsiz o'y-xayollar tuzog'idan qochishga urindi: yigirma kun o'tar-o'tmas Marg'ilondan qaytib kelgach, Oqmasjid shahariga (Qizil o'rdaga) savdogarchilik bilan ketdi.

«Besh oylab Oqmasjid safarida yurib kelgach, Otabek to'g'ri shu Chuqur qishloq bo'zaxonalaridan biriga kelib tushgandek bo'ldi. Uni kunduz kunlari bo'zaxonada uchratib bo'lmasa-da, ammo bo'zaxonaga kelmagan kechasi juda oz edi. Bo'zagar Otabekni kimning bolasi ekanligini yaxshi bilgani uchun hamma ishni uning tilagiga qarab qilar, u keldi deguncha, oddiy bo'zaxo'rlar yoniga o'tqazmay o'zining maxsus hujrasiga olib kirar, boshqalarga

beriladigan loyqa bo'zadan bermay, bo'zaning guli bilan mehmon qilar edi.

Hozir ham u shu bo'zaxonada edi. Endi uchinchi kuvachani tugatib, to'rtinchini chiqargan edi. Bo'zagar kirdi:

- Bo'za beraymi, bek? – deb so'radi.
- Bering, – dedi, – mashshog'ingizni ham kirgizing!

Vaqt yarim kechadan ham oqqan, kunduz kunidan beri ichishib charchagan xo'randalar baqirishib-chaqirishib tarqalishgan edilar. Bo'zaxona tinchigan edi. Qo'lma-qo'l yurib charchagan mashshoq ham bo'shab, Otabekdan katta-katta ehsonlar ko'rgani uchun, vaqtning kechligiga ham e'tibor qilmay kirgan edi. Mashshoq Otabekning sarxush qo'lidan bir piyola bo'zani ichgach, dutorini chertib so'radi:

- Qanday kuyni chalay, bek aka?

Otabek sarxush tovush bilan jiddiygina qilib javob berdi:

- Bilsangiz, haydalish kuyini chalingiz, ajralish kuyini chalingiz!

Mashshoq ajabsingan edi:

- Dunyoda bunday kuylar borligini umrimda birinchi marotaba eshitaman, bek aka!

– Dunyoda bunday kuy yo'q deb o'ylaysizmi, siz eshitmagan bo'lsangiz mening eshitganim bor... Bilmasangiz bilgan kuyingizni chalingiz!

Mashshoq dutorini sozlar ekan, yana so'radi:

- Bu kuylar yangi chiqqanmi?
- Yangi chiqqan.
- Qayerda eshitdingiz?

Otabek kayfi tarqagandek bo'lib, mashshoqqa qaradi:

- Bu kuylarni Farg'onaning Marg'ilonida eshitdim... dedi.

Dutori sozlash uchun reza kuylardangina olib turgan mashshoq, Otabek kutmagan joyda «Navo»dan boshlab yuborgan edi. Kuyning boshlanishi bilan naq vujudi zir etib ketgandek bo'lib, keyingi piyolasini bo'shatdi va ixtiyorsiz ravishda dutorning mungli tovushiga berildi. Dutor tovushi qandaydir o'zining bir hasratini so'zlagandek, hikoya qilgandek bo'lib eshitilar edi. Yo'q, bu hasratni u o'z tilidan so'zlamas edi-Otabek tilidan so'zlar edi... Otabekning ko'z o'ngidan O'tkan kunlari birma-bir o'ta boshladilar-da, nihoyat «anovi» xotiralari, «anovi» hangomalari ham ko'rinish berib o'tdilar...

Yo'q, o'tmadilar... uning ko'z o'ngida kelib to'xtadilar-da, shu ko'yi tura berdilar... Dutor bu ko'rinishni uning ko'z o'ngida keltirib to'xtagach, bu fojeaga o'zi ham chidab turolmagandek yig'lay boshladi... Dutor quruqqina yig'lamas edi, balki butun koinotni «zir» ettirib va xasta yuraklarni «dir» silkitib yig'lar edi... Otabek ortiq chidab turolmadi-da, ro'moli bilan ko'zini yashirib, yig'lamoqqa kirishdi... U ko'z yoshlarini to'xtatmoqchi bo'lar edi, biroq hozirgi ixtiyor o'zida emas edi, hamma ixtiyor dutorning hazin «navo» kuyida, toqatsiz yig'isida edi... Dutorning nozik torlaridan, tilsimli yuraklardan chiqqan «Navo» kuyi o'z nolasiga tushunguvchi Otabekdek yigitlarga juda muhtoj edi. O'z dardiga tushungan bu yigitga borgan sayin dardini ochib so'zlar, yig'lab va ingrab so'zlar edi... Eshitguvchi esa dunyosini unutib yig'lar, qo'lini yig'ishtirib yig'lar va hasratu alamini ko'z yoshisi bilan to'kib yig'lar edi...

Nihoyat, «Navo» kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko'zi orqali to'kdirdi-da, falakning teskari harakatidan shikoyat etib qo'ydi va dunyoda yolg'iz hasratgina bo'lmaganligini bildirgandek o'zining «Savt» kuyini yer yuziga shodlik va sevinch yog'dirib arz eta boshladi. «Navo»ning sehrli «savti» Otabekning ko'z yoshlarini quritdi-da, bir yengillik bag'ishladi. «Navo» bilan yuvilib ketgan uning umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi...

Bu o'tirishdan so'ng u bir oylab bo'zaxonaga kelmay ketdi. Marg'ilondan qaytib kelgach, yana eski odatida davom eta boshladi...»²⁶

Ushbu keltirilgan parchadagi voqeani ham bir kitobxon ko'z o'ngida yuz berayotgan voqeadek, o'zi chetdan turib ham holatlarni aniq ko'rayotgan kishidek his etadi. **His etadigina emas, uning ham haqqoniyligiga, bundan boshqacha bo'lishi mumkin emasligiga to'liq imon keltiradi.** Bu, birinchidan.

Yozuvchi o'zini Otabek qiyofasida ko'rsatar ekan, o'sha holatda «Otabek bo'lsam nima qilardim, nimani o'ylardim, qanday harakat qilardim, qanday suhbatlashardim», – degan masalalarga javob izlaydi. O'zining bor mehrini, iqtidorini ishga solib, qaynotasi tomonidan haydalgan, xo'rlangan kuyovning, achchiq va zaharli maktub orqali «hiylakor tulki, og'zi qon bo'ri, uyatsiz yigit...» kabi martabalar bilan Kumush tomonidan siylangan Otabekning xatti-

²⁶ А.Қодирей. Утган кунлар, Т., 1985.

harakatlarini samimiy tasvirlaydi. Otabekning bo'zaxonadan taskin izlashini, «anavini» unutish uchun o'zini sarxushlikka (mastlikka) urishini, «Navo» kuyidan dunyosini unutib yig'lashini, hasratu alamini ko'z yoshisi bilan to'kib yig'lashini shunchalik ishonchli va ta'sirchan tasvirlaydiki, u tasvirdan siz ham Otabek holiga tushasiz: taskin izlaysiz, sarxushlikka berilasiz, borligingizni unutib yig'laysiz. Ha, **Samimiylik yuquvchandir. Samimiylik badiiylikka o'ransa, yuz bora ta'sirchanligi oshadi, yuquvchanligi benihoya ko'payadi.** Qayta yaratilgan badiiy dunyoni unutib, go'yo reallikda yashayotgandek his etasiz. Bu, ikkinchidan.

Ma'lumki, «O'tkan kunlarning «Navo kuyi» bobi eng ta'sirli yozilgan sahnalaridan biri, Otabekning ahvol-ruhiyasini ham haqqoniy va samimiy ochib beruvchi lavhalardan.

Bu lavha asarning umumiy g'oyasini ifodasi uchun xizmat qiladi. Kitobxon shu voqealargacha Otabekning «eng aqli», «xudo hamma narsadan bergan yigit», «Xon qiziga loyiq yigit», «Otasining bolasi» ekanligini bildi. «Kutilmagan bir baxt» tufayli sof muhabbatga erishgan mard yigitligiga ishonch hosil qildi. «O'g'lingizning vujudi bilan orzungizni qondirish oson bo'lsa ham, kelingiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o'rni tasavvur qilingiz» deb, ota-ona orzusiga bo'ysinishga majbur bo'ldi. Farishtalar ko'nglidek ko'ngil egasi – Kumush ham Otabek unutmasligiga ishonch bilan kundoshlikka rozilik berdi... So'nggi Marg'ilonga kelishida «sovuq kundosh sovg'asi» bor edi. Balkim, shu sababli uni qaynotasi ham haydagandir...

Bu voqealardan va Otabek fe'l-atvorining mana shu xislatlaridan xabardor kitobxon, endi haydalgan kuyovning ruhiyasini, holatini, tadbirlarini bilishni, Kumush muhabbatiga qanchalik sodiqligini, hijron iztiroblari uni qay ahvolga solishi mumkinligini ko'rmoqni istaydi. «Navo kuyi» bobi kitobxonni bir qadar shu istagini qondiradi. Unda Otabek aqli va tuyg'usidagi beg'uborlik («Navo» kuyi nola qilar, yig'lar, ingrar va Otabek ham «anovi» xotiralarini ko'z o'ngida keltirib, kuchini yig'ishtirib yig'lar va hasratu lamini ko'z yoshisi bilan to'kib yig'lardi), olijanoblik (qaynotasining haydashi sababini bilishga andisha qilishlik, ikkinchi uylanganim natijasi deb bilishlik), betakrorlik (Marg'ilonga tinimsiz va natijasiz qatnash), qarama-qarshilik («hiylagarning...o'zi ham qursin, yuzi

ham!» va bormay qolsa keyinchalik o'zi o'kina turgandek...») bilan tanishadi; yozuvchi shunday tasvirlaydi:

«Marg'ilondan natijasiz, tamoman bo'sh qaytib Toshkentga kelgach, Kumushni unutgandek bo'lib, uch-to'rt kun u bu bilan ovunib yurar, so'ngra hafta, o'n kundan so'ng yana Marg'ilon to'g'risida o'ylay boshlar, o'ylab o'yining tagiga yeta olmagach, o'zini qayoqqa qo'yishini bilmay qolar, shundan so'ng hamma alamini chuqur qishloqqa havola qilib, o'n-o'n besh kun bosib ichganidan so'ng ichkilikdan ham lazzatlanmay qolar va shuning yonida uning ko'ngli bir narsani bo'yini olgandek sezinar, go'yo Marg'ilonga borsa bir gap bo'ladigandek, bormay qolsa keyinchalik o'zi o'kina turgandek... Shundan so'ng to'satdan Marg'ilon yo'liga tushib qolar, yo'lda borar ekan, o'zini to'rt ko'z bilan kutib turgandek sezilgan Marg'ilonga har nimadir, bir soat ilgariroq yetish uchun oshiqar edi. Lekin... lekin Marg'ilon darbozasidan kirishi ila uning holi o'zgara boshlar, yuragi qinidan chiqar darajada o'ynamoqqa olur, ayniqsa, poyafzal rastasiga yaqinlashgach, uning bu iztiroblari shiddatlanur, poyafzal rastasining yaqini bilan bunchalik o'zgarishda qolgan Otabek rastaning o'zida qanday holga tushmog'ini tasavvurdan o'jiz kelur va rasta ko'rindi deguncha otining boshini chapga burib yuborar va orqasidan kimningdir «... boringiz, eshigim yonida to'xtamangiz... uyatsiz!» tovushi eshutilgandek bo'lar edi...» (221-bet).

Otabekning bu holatini-tirik qalb iztirobini, sevgan eshigidan quvilgan kuyov iztirobini, ixtiyorsiz tarzda tinmay qatnovchi sodiq oshiq iztirobini, chigal tugunni qanday yechishni bilmaydigan oriyatli yigit iztirobini-hasrat, xo'rlik, haqoratni, kuchsiz umid va ishonchni «Navo» jonlantiradi. «Navo» dastlab hayotning azob va uqubatlarini, alam va ko'z yoshlarini jonlantirsa, uning «Savt» qismi yorug'likdan, nurdan, sevinch va umiddan xabar qiladi. Shunga mos tarzda Otabekning ruhi aniq va ravshanlik kasb etadi, kechinmalari o'zgaradi: «Navo» kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko'zi orqali to'kdirdi». «Savt» Otabekning ko'z yoshlarini quritdi... «Navo» bilan yuvilib ketgan uning umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi...»

Xullas, uning xarakteridagi oromsizlik va besaranjomlik, alam va umid qirralari ochiladi. Otabekni harakatga, dushmanlar bilan olishuvga tayyorlay boshlaydi; o'z baxti uchun kurashishga asos hozirlaydi. Shu tarzda asarning qismlarini, voqealarini zanjirdek

bir-biriga bog'laydi, Otabekning xarakteridagi ojizlikni, mardlikni, beqaror va oromsizlikni, yaxshi-yomonni tezda ajratib olmaslik kabi xislatlarini ochadi. Demak, mazmun va shaklning yaxlit, bir butunligiga, g'oyaviy mazmunning ta'sirdor bo'lishiga xizmat qiladi. Bu – uchinchidan.

«Yozuvchi mahorati, - deb yozadi I.Sulton, aytmoqchi bo'lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan so'z va iboralarni topa bilishdan iboratdir». Darhaqiqat, «yozuvchining dilida ajoyib tuyg'ular mavj urib turgani bilan, ularni kitobxonning ko'ngliga yetkazib beradigan haroratli, jozibali so'zlar topilmasa, yozuvchining tili chinakam badiiy bo'lmasa, har qanday ijodiy reja ham hayf bo'lib ketadi» (P.Qodirov, «O'ylar», 128-bet).

Badiiy asardagi hayot-so'z vositasida yaratilgan ekan, badiiy til-bevosita real fikr va hissiyotning obrazli ifodasidir. «Jajji» (mikro) obraz-har qanday so'z matnda (boshqa so'zlar bilan aloqada) hayotiyligini, o'zining xususiyatini, rangini, hidini, ohangini ko'rsata oladi. Yozuvchi so'zning grammatik, leksik, stilistik ma'no ko'rinishlaridan eng zarur va kerakligini matnga muvofiq ishlatadi, ya'ni tasvirlayotgan hayot (epizod, obraz, xarakter)ning mohiyatini chuqur ochib beruvchi so'zlarni tanlaydi. Tanlangan har qanday so'z adabiy asarda, albatta, ma'lum yukni tashishi lozim bo'ladi. U tasvirlanayotgan voqeaning haqqoniyligi va to'laligini, qahramonning his-tuyg'ulari, kayfiyat va kechinmalarini o'zida mujassam etishiga – shu yukni qanchalik ko'targanligiga qarab uning ahamiyati va kuchini belgilaymiz.

«O'tkan kunlar» romanida tasvirlangan-hammaning esida qolgan ko'rinishni diqqat bilan o'qiylik:

« – Nega qochasiz?! Nega qaramaysiz?! – dedi bek. Kumushbibi shu choqqacha qaramagan va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yovqarash bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda birmuncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlangan bir tovush bilan so'radi:

– Siz o'shami?

– Men o'sha! – dedi bek. Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar.

Kumushbibi og'ir tin olib:

– Ko'zlarimga ishonmayman! – dedi.

– Men ham! – dedi.

Shu vaqt ikki lab o'z-o'zidan bir-birisiga qovushdi... Kichkina nozik qo'llar yelka ustiga, kuchli qo'llar qo'ltiq ostiga yopishdilar» (62-bet). Ma'lumki, so'z matndan tashqarida umumiylikni bildiradi. U boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishib, muayyan holatdagi qahramonning qalbiga, harakatiga, qilig'iga mos bo'lsagina-shu qalbdagi his-tuyg'ularni, xarakterdagi xatti-harakatlarni ifodalay olsagina u jonlanadi, har bir kitobxon qalbiga ko'chadi, o'shanday his-tuyg'uni boshqalarda ham uyg'otadi, tiriltiradi.

Parchadagi boshqa so'zlarning ahamiyatini pasaytirmagan holda, eng oddiy tuyuluvchi «Siz o'shami?» so'ziga to'xtaylik.

Bu so'z-uzukka qo'yilgan ko'z, kishini butun diqqatini o'ziga rom qiluvchi gavhar. Chunki unda Kumushning shu paytgacha kechirgan iztiroblari jamuljam: «Men Sizni favqulodda ko'rganimdan buyon sevib qolgandim. Izlab, o'ylab o'yimning oxiriga etolmay ko'z yoshlar to'kkandim. O'y-xayolim Siz bilan edi. Ichimdagi bu orzuni aytolmasdan, qanchalar qiynalдим. Sizni o'sha ko'rganimdan buyon qanchalik qumsaganimni bilsangiz edi...» kabi tuyg'ular... Bu tuyg'ularni «Siz o'shami?» degan jumla bilan jonlantirish, unga yana «Men Sizni sevaman» ma'nosini o'zbekona, Kumushona qilib singdirish – ulkan san'atkorlik belgisidir. Dushmanni o'quvchi ko'z o'ngida sevimli yorga, chimildiqqa kirgan Kumushning ko'z yoshlari hovlilarga eshitilgan kulgusiga, ikkala sevrishgan uchun muhabbatning- «kutilmagan bir baxt»ga aylanishi kabi holatlarni- achchiq va og'riqli tuyg'ularni shirin tuyg'ular qilib jonlantirish ham Qodiriy talantining yorqinligidan, ham qalamining mo'jizakorligidan dalolat beradi, chunki bu parchadagi haqiqat butun murakkabligi va tafsilotlari bilan o'quvchi qalbiga umrbod unutilmaydigan sevinch bo'lib, baxt bo'lib, go'zallik bo'lib ko'chadi.

Bunday misollarni «Navo kuyi» bobidan ham keltirish mumkin. Otabekning cholg'uchiga qarab, «haydalish kuyini chalingiz, ajralish kuyini chalingiz» deyishida ham uning qalb urishini, qalbidagi og'ir haqoratlanishni, sevganidan ajralishning azobini yaqqol jonlantiradi. Qisqa va topib aytilgan (Otabek ongi va qalbidagi pishib yetilgan)

rost so'zlar ila uning his-tuyg'ularining murakkabligini, nozikligini ravshan ifodalaydi; badiiyligni, demakki, ta'sirdorlikni yuzaga keltiradi. Bu, to'rtinchidan.

Xullas, «badiiy mahorat – yozuvchining badiiy talanti o'lchovidir» (Ch.Aytmatov). Uning yuqorida ta'kidlangan to'rtta belgisi-o'lchovlarning asosiylari bo'lib, ular badiiy asarda, yaxlit, bir butun bo'lib namoyon bo'ladi. Biri birining yaratuvchanlik va ta'sirchanlik xususiyatlarini zo'raytirishga, tabiiylikni yaratishga xizmat qiladi. Badiiy mahorat, bir tomondan-real hayotdagi yangilikni ko'ra bilish va uni adabiyot vositalari ila tahlil qila bilish san'ati bo'lsa, ikkinchi tomondan, san'atning sirlarini, texnikasini, minglab hissiy-tasviriy vositalarni chuqur bilishga bog'liqdir. Bu ikki tomon dialektik aloqada bo'lsa, uzviy birlashgan holda «tasvirlashga niyat qilingan qahramonlarning hayotini butun to'laligi va aniq nuqtalari bilan ko'ra bilishga» (Ch.Aytmatov) xizmat qilsa, tasvir o'quvchini hayajonga sola bilsa, ana shundagina hayotning katta haqiqati o'zining tugal va go'zal ifodasini topadi.

Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan, chegarasiz jarayondir. Yozuvchi o'z ijodining ma'lum davrida – usta san'atkor darajasiga ko'tarilishi mumkin. Agar u shu bilan cheklansa, badiiy mahoratini o'stirmasa-hayotdan va san'atdan o'rganishda davom etmasa u orqaga ketaveradi, o'quvchilari soni kamayaveradi. Demak, o'rganish, kashf etish to'xtagan joyda talant kuchi, ta'siri susaya boshlaydi. Talant yangilik bermagach, chaynalgan «kashf»larni – yasama, sun'iy gullarni taqdim qila boshlaydi...

Bobni mustahkamlovchi savollar

1. Ijod jarayoni tabiatini o'rganuvchi qaysi asarlarni bilasiz? Ulardan qaysilarini o'qigansiz?
2. Iste'dod nima? U dardmi, didmi, qismatmi? Talant nima? Badiiy talantchi?
3. Ilhom va uning mohiyatini qanday anglaysiz? Ichki his qilmoq va to'liq his etmoq uchun nimalar kerak? O'zgalar qalbini ochadigan kalitni topish mumkinmi? Mo'tadil ilhomni, zavq-u shavqqa to'liq ilhomni qanday tushunasiz?
4. Badiiy mahoratning qanaqa sir-u sinoati bor? haqqoniylik, samimiylik, mazmun va shaklning butunligi, ta'sirdorlik kabi badiiy mahoratning bosh o'lchovlarini qanday izohlaysiz?

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Ijod jarayoniga oid adabiyotlarni to'plang va ular bilan tanishing.
2. Iste'dod, ilhom, talant, badiiy mahorat muammolariga bag'ishlangan suhbatlarni, iqromomalarni, tadqiqotlarni solishtirib (taqqoslab), eng ishonchli xulosalaringizni chiqaring va ularning asos bo'lgan aniq manzili ko'rsatib, daftaringizga qayd qiling.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Абдулла Қодирий. Ижод машаққати. Т., 1998.
2. Абдулла Қаҳҳор. Танланган асарлар. 1 том, Т., F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967.
3. Қодиров П. Ўйлар. Т., 1971.
4. Норматов У. Талант тарбияси. Т., 1980.
5. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. Т., 1981.
6. Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги замон ўзбек романчилиги. Т., 1983.
7. Воҳидов Э. Шоир, шеър, шуур. Т., "Ёш гвардия", 1987.
8. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. Т., 1988.
9. Ҳошимов Ў. Нотаниш орол. Т., 1990.
10. Умуров Х. Бадий ижод асослари. Т., "Ўзбекистон", 2001

IKKINCHI BOB

IJODIY REJA (HOMILA). UNING PAYDO BO'LISH JARAYONI

...San'atkor — uydirmalar
ijodkori — odamlarni xudo, tabiat
yoki tarix yaratganidan ko'ra
a'loroq, mislsiz darajada go'zal qilib
yarata oladi. Hatto odamlar o'zlarini
ham shunchalik yarata olmaydilar.

Adabiy ijod jarayonini ko'pincha ayolning boshqorong'i bo'lishi, homila ko'rishi va tug'ilishiga o'xshatishadi. Buning asosi bor. Obraz ham amalga keladi, oy-kuni, vaqti-soati etiladi va oxiri tug'iladi.

Shuning uchun ham Mirmuhsin "Yozuvchi uchun hamma asari ham farzandidek aziz... Shaxsan men uchun "Degrez o'g'li"... hayotimning yaxlit bir bo'lagi"²⁷, - deb yozadi. S. Ahmad "Mening jiddiy hikoya yozishim xuddi ayol kishining ko'z yorishidek azobli bo'ladi"²⁸, - deb ta'kidlaydi va ikkinchi bir o'rinda "Oy-kuni yaqin ayolni ikki yo'l o'rtasida turipti, deyishadi. Ayol yo bola tug'adi, yo halok bo'ladi.

Ana shunday azoblar bilan bola tuqqan xotinlar bor... Yozuvchi ham xuddi shu onaga o'xshaydi"²⁹, - deya o'z "daxlsiz" dunyosi bilan tanishtiradi.

V.G.Belinskiy ham o'zining "Evgeniy Onegin" tahliliga bag'ishlangan 5-maqolasida: "Ona chaqaloqni qornida paydo bo'lishidan to oy-kuni yetguncha saqlaganidek, san'atkor ham o'zida poetik fikrning urug'i (homilasi)ni paydo qiladi, oy-kuni to'lguncha saqlaydi; ijod jarayoni bola tug'ish jarayoniga monanddir va bu jismoniy hodisaning ma'naviy azoblari san'atkor uchun begona emas"³⁰ — deb adabiy ijod yakuni bilan bola tug'ilishi o'rtasidagi moslikni alohida qayd etadi.

²⁷ У.Норматов. Талант тарбияси. Т., "Ёш гвардия", 1980, 47 — бет.

²⁸ IIIy китоб, 82 — бет.

²⁹ IIIy китоб, 101- бет.

³⁰ Белинский В.Г. ПСС в 13-томах, М., 1953-1974 гг., т. 12 стр. 375-376.

Oddiy tug'ish – bola kindigining kesilishi bilan tugaydi. Kindikning kesilishi bilan u ona organizmidan ajraladi va mustaqil hayotga qadam qo'yadi. U endi garchi ota-onalar bilan aloqasini uzmasada (chunki shulardan tug'ilgan va shular tarbiyasida bo'ladi), endi u yaxlit, jonli vujud, mustaqil va o'zigagina xos bo'lgan hayotning egasidir.

Xuddi shu jarayon kabi adabiy ijodda ham "Kindikni kesish" – obrazni o'zdan (avtordan) ajratish holati mavjud. Bu ijodning mohiyatini belgilovchi va ochuvchi asosiy nuqtadir.

Aytmoqchimizki, obraz san'atkorining ongi va qalbida tug'ilgan bo'lsa ham, adabiy asar sahifasida qadam qo'yar ekan, u mustaqillik kasb etadi, "o'zgacha" yashash huquqini qo'lga kiritadi. U yozuvchi xayoli, tasavvuri, tajribasi, xotirasi, talantining mevasi (masalan, L.Tolstoy aytgan ekan: "Anna Karenina ham mening bir bo'lagimdan bino bo'lgan") va ayni paytda yozuvchiga o'xshamaydigan, uning hayot yo'lini takrorlamaydigan (mas., L.Tolstoy – Anna Karenina emas) ob'yektiv "o'zgacha" dunyoning, ob'yektiv "o'zgacha" qalbning jonli egasidir, "o'ziga biqiq bir olamdir" (V.Belinskiy). Ana shu dialektik qarama-qarshilik va uning to'g'ri, asosli hal qilinishidan – haqiqiy va maftunkor san'at tug'iladi.

V.G.Belinskiy "Zamonamiz qahramoni" (M.Yu.Lermontov)ni tahlil qilar ekan, asarning asosiy kamchiligini – Pechorinning avtordan to'liq ajratila olmaganida, uning yetarli ob'yektivlashtirilmaganida ko'radi va bu Pechorin xarakterini tasvirlashni tez-tez chalkashtirib turgan ziddiyatlarga olib kelganligini asosli isbotlaydi:

"Ma'lum bir xarakterni to'g'ri tasvirlamoq uchun undan o'zni batamom ajratish kerak. Undan yuqori turmoq kerak, bu xarakterga tugal bir narsa deb qaramoq kerak; lekin takror aytamizki, Pechorinning yaratilishida bu hol ko'rinmaydi. U romanning boshida bizga qanday nomukammal va noaniq bir vujud bo'lib ko'ringan bo'lsa, xuddi shu holicha ko'zimizdan g'oyib bo'ladi. Shu sababdan romanning o'zi HISSIYOT birligi bilan kishini hayratda qoldirsa-da, lekin FIKR birligi bilan kishiga zarracha ta'sir qilmaydi va badiiy asarni o'qib chiqishi bilan yozuvchining xayolida beixtiyor o'ziga jazm qilib oladigan istiqboldan bizni mahrum qiladi" (ta'kid bizniki – H.U.).

Dohiyona yaratilgan asarlarda bu qonuniyat shunchalik kuchli aksini topadiki, kitobxon ularda faqat ob'yektiv hayotni, ana shu hayotning qalbi bo'lgan tirik insonlarni ko'radi...

Xullas, adabiy ijodda obrazni dunyoga keltirmoq va uni o'zidan batamom ajratish muammosi realistik san'atning eng muhim prinsiplaridan biridir. Xo'sh, bu prinsip qanday qilib amalga oshiriladi? Unda ijodning qanday sirlari yashiringan?

Bu muammoni to'liqroq tasavvur qilish uchun masalaning tarixiga – badiiy asar rejasining paydo bo'lishi va shakllanishiga qaytamiz.

Ijodiy jarayon qayerdan boshlanadi? Tadqiqotchi Yu.Oklyanskiy yozganidek³¹, ko'rishdanmi? Yoki tanqidchi P.Medvedev aytganidek³², tasavvur, fantaziyadanmi? Yoki adabiyotshunos A.T.Seytlin yoritganidek³³, e'tiqod, dunyoqarashdanmi? Yoki boshqa avtorlar ta'kidlaganidek, kuzatishdanmi? Balki imitatsiyadan, xotiradan, tajribadan boshlanar? Balki tanqidchi P.Shermuhamedov yozganidek, "ijod darddan boshlanar..."³⁴

Bu masalaga aniq javob berish mumkin emas. Shoir Mixail Svetlovdan she'ning boshimi yoki oxirimi, avval qaysi joyi xayolda tug'ilishini so'raganlarida, u shunday deydi: "She'ning boshi yaratilishi to'g'risida gapirish kulgilidir; bola avval boshdan shakllanadi deb bo'ladimi? She'r butunicha yaratiladi"³⁵.

Demak, yaxlit, bir vujud, jonli inson qiyofasida birdaniga yuzaga kelar ekan, yuqoridagi unsurlarning qay birini bo'lsin, birinchi o'ringa qo'yish, qolganlarini keyingi o'rinlarga joylashtirish noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Shuning uchun ham tajribada ular o'zaro aloqada bo'ladi. Ularning hammasining birikuvidan, qo'shiluvidan, yaxlitligidan jonli asar yuzaga keladi. Shuning uchun ham badiiy asarni yaxlit va tirik organizmga o'xshatish keng rasm bo'lgandir.

Homilaning dastlabki oylarida ayol psixikasi o'zgaradi: tez xafalanadigan, injiq, salga yig'laydigan bo'lib qoladi: ko'proq yaxshi

³¹ Оклянский Ю. Рождение книги. М., 1973, стр. 20.

³² Медведев П.В.В лаборатории писателя. М., 1971, стр. 17

³³ Сейтлин А.Т. Труд писателя. М., 1968, стр. 33-59.

³⁴ П.Шермухамедов. Рухий дунё кўзгуси. Т., Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971, 3-бет.

³⁵ Медведев П.В.В лаборатории писателя. М., 1971, стр. 108-109.

so'zga, mehrga muhtojlik sezadi. Homila o'sgan sayin bu holatlar yo'qola boradi; onalik hissi uyg'ona boshlaydi... Aynan shunday holatlarni yozuvchi boshidan kechirmasada, lekin shunga yaqin holatni boshidan o'tkazishi turgan gap.

Yozuvchi L.Leonov rejaning paydo bo'lishi paytida ijodkor qalbida, xayolida miyasida qandaydir keskin o'zgarishlar yuz berishini aytar ekan, uni quyidagicha izohlaydi; "Men uchun bu kasalga chalinishga, og'ir dard chekishga o'xshaydi. Bu holat zo'r bir kuch bilan juda tez rivojlanadi va birdan odatdagi narsalar portlab, parchalanib ketganday va uning parchalari yangi-yangi obrazlarga aylana boshlaganday bo'ladi... miyada murakkab kimyoviy reaksiya, qandaydir diffuziya yuz berganday... tuyuladi"³⁶.

Ilk rejaning tug'ilishi paytida yuz beradigan bunday psixologik holatlarni boshqa juda ko'p yozuvchilar ham boshdan kechiradilar, deb yozadi yozuvchi P.Qodirov. – Albatta, yozuvchilar har xil bo'lganidek, ulardagi ijod jarayonlari ham turli xil bo'ladi. Lekin masalaning mohiyatiga e'tibor berilsa, hamma yozuvchilarda ham yangi va muhim bir ijodiy sokin miqdoriy o'zgarishlar tarzida emas, balki L.Leonov aytganidek, ijodiy portlash tarzida, diffuziyaga o'xshash kimyoviy reaksiya tarzida, miqdoriy o'zgarishlarning birdan sifat o'zgarishiga o'tish tarzida tug'ilishini ko'rish mumkin.

Kimyo laboratoriyasida turli xil moddalar har biri o'z kolbasida yoki qutisida sokin, jim turaveradi. Ularning ba'zilarini bir-biriga qo'shganimizda ham reaksiya boshlanmaydi. Lekin kimyoviy moddalar orasida katalizatorlik xususiyatiga ega bo'lganlari bor. Jim turgan moddalarga ana shu katalizatorlardan ozginasini, goho birgina tomchisini qo'shsangiz to'satdan reaksiya boshlanib ketadi. Ba'zi moddalar reaksiyaga kirganda gugurtsiz yonadi. Ba'zilar sovuq bo'lsa ham biqillab qaynashga tushadi. Ikki xil rangsiz oq suyuqlikni bir-biriga qo'shsangiz kutilmaganda rangi o'zgarib, qizil yoki ko'k tusga kiradi. Bu moddalarning tarkiblaridagi atomlar miqdori o'zgarishi – ulardagi sifat o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Ijod jarayonining boshlanishi va yangi rejaning tug'ilishi ham mana shunga o'xshash kuchli ma'naviy reaksiyadan va miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishiga aylanishidan kelib chiqadi.

³⁶ Окленский Ю. По координатам жизни (Беседа с Л.М. Леоновым). - "Рождение книги". М., 1973, стр. 289-290.

Yozuvchining hayotiy tajribasi, ilg'or ongi, zo'r talanti, o'tkir fantaziyasi, olijanob intilishlari – barchasi yangi rejasi tug'ilmasdan oldin xuddi har biri o'z kolbasida sokin turgan kimyoviy moddalarga o'xshab – potentsiya tarzida turadi. Ulardagi o'zgarishlar – miqdoriy o'zgarish tarzida tinch davom etaveradi. Yozuvchi doimo izlanishda bo'ladi. Miqdoriy o'zgarishlar ko'payib sifat o'zgarishi bo'sag'asiga borib qoladi. Shunday paytda yozuvchi uyquda ko'rgan tushmi yoki haydalgan dalada turgan o'simlikmi nimadir kimyoviy katalizatorning vazifasini bajaradi. Qizib, yonishga tayyorlanib turgan o'tin uyumiga go'yo uchqun kelib tushadi-yu, uni alangalatib yuboradi...³⁷

Demak, yozuvchi va tadqiqotchi Pirimqul Qodirov asosli ta'kidlaganidek, ijodiy jarayon xilma-xil obe'ktiv va sub'yektiv omillarning bir-birlariga mexanik ravishda qo'shilishidan emas, balki qo'shilib reaksiyaga kirishidan, go'yo birga yonishidan... boshlanadi.

Mana bir necha misollar:

Oybek yoshligidanoq Pushkin asarlarini sevib o'qiydi, uning "she'riyati bilan yashaydi", u yaratgan "badiiy obrazlar olami" uni go'yo "yangi bir dunyo"ga kirishga, yangi hayot, "yangi ilhom kashf etishga" olib keladi. Ayniqsa, Pushkinning "Evgeniy Onegin" asarini tarjima qilar ekan, undagi realistik tasvirning haqqoniy kuchi, shoimning badiiy mahorati hayratlanish tuyg'usini uyg'otadi.

U yozadi: "Men tarjima bilan shug'ullanar ekanman ("Yevgeniy Onegin" tarjimasi bilan – H.U.), roman yozishga ahd qildim. Unda o'zbek xalqining revolyutsiyadan oldingi hayoti, xalqning o'z huquqlari uchun kurashga intilishi va bu kurashning mashhur 1916 yil qo'zg'oloniga qo'shilib, kuchayib borayotganligi to'g'risida hikoya qilmoqchi bo'ldim.

Garchi men roman voqealari yuz bergan davrda hali bola bo'lsam ham, endi men buni o'z ko'zim bilan ko'rganligimni aytish uchun yetarli hayot tajribasiga egaman, deb ayta olardim. Bolalik chog'larimda men xalq turmushini ko'rdim, kambag'allar va avom xalqning qorong'i va dim uy joylarini, boylarning atrofi baland-baland devorlar bilan o'ralgan hashamatli imoratlarini, muzdek hovuzi bo'lgan bog'larini ko'rdim. Yoshligimda boy bog'ini ko'rish uchun bir necha marta daraxtlarga chiqqanman. Men boshqalarning turmushini chanqoqlik bilan kuzatdim va keyinchalik romanimda

³⁷ Адабиёт назарияси. II том. Т., "Фан", 1979, 96-97 бетлар.

tasvir etilgan ijtimoiy munosabatlarning ko'pgina tomonlarini o'sha vaqtdayoq tushungan edim. Men o'z qahramonlarimda bo'lajak revolyutsion kurashchilarni xalq ichidan chiqqan kishilarda ko'rdim. 1938 yil yozida tamom yozib tugallangan "Qutlug' qon" romanim shunday tug'ildi"³⁸.

Ko'rinyaptiki, romanning yuzaga kelishida yozuvchining "o'z ko'zi bilan ko'rganlari", kuzatgan voqealari, xotirasida o'chmas iz qoldirgan o'tmish va ularni "aytish uchun yetarli tajriba" to'plaganligi asos bo'lgan. "Yevgeniy Onegin" tarjimasi paytida qalbida uyg'ongan hayratlanish tuyg'usi "Qutlug' qon"ning yuzaga kelishiga katalizatorlik vazifasini o'tagan. Oybek "ko'nglidan, xotirasidan" "Qutlug' qon" romani quyilib kelavergan".

Habibulla Qodiriy "Otam haqida" nomli xotirasida "O'tkan kunlar" romanining yozilish tarixini A.Qodiriy quyidagicha hikoya qilib berganligini eslaydi:

"Qariyb yarim umrini xon zamonlarida yashagan, talay o'tmish voqealarining shohidi bo'lgan otam yoshligimda qiziq-qiziq xotiralarini so'zlab berardi. Bu xotiralar menda tarixga qiziqish uyg'otdi. So'ngra o'sha davrimiz tarixiga oid ancha kitob manbalari bilan ham tanishib chiqdim. Qo'lim qalamga xiyla kelib qolgach, menda ana shu o'tmishimizdan G'arb romanchiligi asosida kattaroq bir asar yaratish havasi tug'ildi. Tarixiy voqealar boshimda shu qadar ko'p, go'yo qaynar, menga tinchlik bermas edilar. Ammo bu voqealarni qanday qilib bir ipga tizishni, qog'ozga tushirishni tasavvur qila olmasdim. Uzoq vaqt o'ylab, izlab yurdim.

Kunlarning birida bog'imizga otamni ko'rgani eshak minib shahardan bir chol mehmon bo'lib chiqdi. Mehmonni men tanimasdim. U otamning eski qadrdoni ekan. Mehmon qildik. Otam shu choqlarda yuz yoshlarda bo'lib, mehmon esa undan besh-o'n yosh kichik ko'rinar edi. Ular suhbat qilar ekan, quloqlari og'irlashib qolgani uchun bir-birlarining so'zlarini yaxshi eshita olmas edi. Shu sababli menga ular o'rtasida tilmoch bo'lib, choy quyib o'tirishga to'g'ri keldi. Otam mehmondan so'radi: "Andijondagi xotiningizdan necha bolangiz bor?" Ularning suhbatidan angladimki, bu mehmon Toshkentlik bo'lib, uyli-joyli, bola-chaqali kishi ekan. Ammo yoshlik

³⁸ Oybek. Эя хизматиди. - Адибиётимиз автобиографияси. Т., Ф.Ғулом номидagi адабиёт ва санъат нашриёти, 1973, 152-153 бетлар.

chog'larida savdo vaji bilan Andijonga borib qolib, u erda ko'p yillar istiqomat qilgan, Andijonda ham uylanib, bola-chaqali bo'lgan va keksaygach, o'z shahriga qaytib kelgan ekan.

Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalangan ipning uchini topib berganday, yozmoqchi bo'lgan "O'tkan kunlar" romanining shaklini chizib berganday bo'ldi. Shu asosda boshimdagi voqeani asta-sekin kengaytira, rivojlantira boshladim. Besh-olti oylab xayol surishim natijasida romanim hozirgi shaklga keldi va qo'limga qalam oldim..."⁷⁹.

O'tmishga, tarixga qiziqish va bu qiziqishning natijasida ko'plab voqea-hodisalarni ko'z oldiga keltirish va kattaroq bir asar yaratish orzusi tug'ilgan bo'lsada, lekin katalizatorning, yozuvchi P.Qodirov aytganidek, "uchqun"ning yo'qligi Abdulla Qodiriyning ko'p qiynagan, azoblagan. O'ylab o'yining oxiriga yetishiga imkon bermagan. Mehmonning kelishi va uning hayoti tarixi yozuvchi aytganidek, "chuvalangan ipning uchini topib bergan", diffuziya yuz bergan. Ilk ijodiy reja o'z shaklu shamoyilini topgan, yaxlit va jonli organizm sifatida taraqqiy qila boshlagan. Shuning uchun ham yozuvchi A.Muxtor yozadi: "Asar o'z janr xususiyatlari bilan birga tug'iladi. Tug'ilib bo'lgandan keyin esa, qizni o'g'ilga yoki o'g'ilni qizga aylantirilmaydi".

Yuqoridagi misollardan ko'rinyaptiki, ijodiy reja tug'ilganda ham yozuvchi ongida qahramonlar yaxlit badiiy obrazlarga aylanmagan bo'ladi, ularni hayajonga solgan xotiralari, ko'rgan-bilganlari, kashfiyotlari, orzularining boshi-keti ko'rinmaydi. Lekin ijodiy rejaning katalizator, "uchqun" yordamida portlashi, miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishiga o'tishidan boshlaboq, yozuvchi tafakkuri va tasavvurida asar g'oyaviy-badiiy yaxlit, jonli organizm sifatida shakllana va rivojlana boshlaydi. Katalizator, "uchqun" – ijodiy rejaning konkretlashuvini, tiniqlashuvini ta'minlaydi. "Reja – asarning o'zagi" (L.Tolstoy) bo'lsa, katalizator ana shu o'zakni muayyan bir shaklu shamoyilga soladi.

Ijodiy rejaning tug'ilish yo'llari ko'p va har xil bo'lganidek, katalizator rolini o'ynovchi voqea-hodisalar ham bepoyondir.

⁷⁹ X.Қодирий. Отам ҳақида. Т., Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1974, 76-77 бетлар.

Agar Oybekning "Qutlug' qon"ni yaratishiga "O'zbek xalqining sho'rolar bosqinidan oldingi hayoti, xalqning o'z huquqlari uchun kurashga intilishi va bu kurashning mashhur 1916 yil qo'zg'oloniga qo'shilib, kuchayib borayotganligi to'g'risida hikoya qilmoqchi bo'lganligi rejasi sabab bo'lsa, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ni yaratishiga o'tmishimizdan "G'arb romanchiligi tajribasi asosida kattaroq bir asar yozish" orzusi asos bo'lgandir. "Sarob" romani rejasining yuzaga kelishiga esa, Abdulla Qahhorning shaxsiy kechinmalari asos bo'lgan:

Buyuk burilish yili boshlandi. Shaharda nepman, qishloqda mushumzo'r jon talvasasiga tushdi. Taqdir meni shu sinf vakillari bo'lgan eski va "yangi" ziyolilar, o'zini millat homiysi, millatchi deb atagan bir guruh vatan xoinlari bilan uchrashtirdi. Bular bilan uchrashish mening uchun, bir jihatdan, og'ir ko'rgilik bo'lsa, ikkinchi jihatdan, katta maktab bo'ldi. Men bu maktabda sotsializm dushmanlarining basharasini ko'rdim, burjua millatchilarining sinfiy mohiyatini yana ham chuqurroq angladim. Qo'limga yangi qalam olganimda, din va din ahllariga qarshi bolaligimdan beri ko'ksimda yig'ilib yotgan alamni to'kishga qanchalik shoshilgan bo'lsam, burjua millatchiligi haqida ko'rgan va bilganlarimni tengqurlarimga, butun xalqqa aytishga shunchalik shoshildim. Men adabiyot kurash quroli bo'lishiga hech qachon bunchalik zarurat his qilmagan edim...⁴⁰

S.Ahmad yozadi: "... ruhiyatimda g'alati kayfiyat paydo bo'lib qoladi. Muzika, qo'shiq eshitishga mayl paydo bo'ladi. Arzimagan kichik ko'ngilsizlik ham menga yomon ta'sir qiladi. Arzimagan gapga ham kulгим keladi. Nazarimda, umrim bekorga o'tib ketayotganga o'xshaydi. Nimanidir yozishim kerak, degan ichki intilish paydo bo'ladi. Ana shundan keyin kayfiyatimga qarab mavzu kela boshlaydi. Agar g'amgin o'ylar chulg'ab olgan bo'lsa – taqdiri og'ir kishilar xayoti, kayfim chog' bo'lsa, baxtli taqdirlar ko'z oldimdan o'taveradi"⁴¹

Garchi yozuvchi bu o'rinda intuitsiyaning rolini oshirib ko'rsatayotgan bo'lsa-da, yozmoqchi bo'lgan asarlarining mavzusi, rejasi kayfiyatiga mos holda eshitayotgan biron kuy, ohang ta'sirida tug'ilishini ta'kidlaydi.

⁴⁰ A.Каххор. Озгина ўзим ҳақимда. - Адабиётимиз автобиографияси. Т., Ғ.Ғулом номидagi адабиёт ва санъат нашриёти, 1973, 193-199 бетлар.

⁴¹ У.Норматов. Талант тарбияси. Т., "Ёш гвардия", 1980, 104-бет.

Yozuvchi S.Ahmad "Qirq besh kun" romanida Katta Farg'ona kanali qurilishini – buyuk bir voqea tarixini, unda jasorat ko'rsatgan o'zbek xalqining fidokorona mehnatini, shijoatini ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Yozuvchida bu asarni alohida roman qilish niyati tug'iladi. Biroq "Mustaqil kitob sifatida bir-ikki bob yozib ko'rdim ham, - deydi. – Ammo hamon ruhimda "Ufq" hayajoni yashardi. Bo'lmadi. "Ufq"dan qutulish uchun yangi romanni yana bir-ikki yil kechiktirmoqchi bo'ldim. Shunday qildim ham. Bo'lmadi. Bu ruhdan qutulish qayoqda, borgan sari yangi kitobim "Ufq"ga yopishib kelaverdi.

Bundan tashqari, adabiy tanqid roman qahramonlari Ikromjon bilan Tursunboylar xarakterining shakllanishida qandaydir yetishmovchilik borgan o'xshaydi, deb ta'na qilgan edi. Birdan menda yangi yozadigan kitobimni "Ufq"ning birinchi kitobiga aylantirish va o'sha xarakterlarida etishmovchilik bo'lgan qahramonlarni kiritish fikri qoldi.

Davrning yonma-yonligi, makonning birligi ishimni osonlashtirdi".

Ko'rinyaptiki, "Qirq besh kun"ning tug'ilishida adabiy tanqidning ta'nasi katalizator – "uchqun" rolini o'ynagan. Ikki yillab kechiktirilgan, bir necha boblari yozilgan bo'lsa ham, to shu "uchqun" tushmaguncha, "hamma qushlar uya qurish uchun uchib keladigan daraxt – reja" (Yu.Oklyanskiy) shakllanmagan, zarur hosilini bermagan, asar yaxlit rivojlanmagan.

Shoir Hamid Olimjonning hammaga ma'lum va mashhur dostoni "Zaynab va Omon"ning yuzaga kelishi tarixi ham qiziqarlidir. Bu dostonning ilk rejasi Farg'ona vodiysi (1933 yil 5-29 aprel) safari taassurotlari asosida tug'iladi. Shoir ana shu safarda ko'rganlarini, kuzatishlarini, kashfiyotlarini kundalik daftarga qayd qilib borar ekan, u yozadi:

"Men shundan so'ng kelajak narsamga shunday bir kartina ham kiritish fikriga keldim. Unda, albatta, yaqin-orada uylangan bir yigit va turmushga chiqqan qiz bo'ladi. Ular ikkalasi ham hozirgi ko'rib o'tganimday – kolxozchi bo'ladilar. Men ularning birgalashib dalaga ishga chiqishlari, birga ekin ekishlari, oilaviy munosabatlarida kolxozlashtirish harakatining ifodasini ko'rsatajakman. Men unda ularning ikkovi er va xotin muammosini, avvalgi ma'nodagi xotinning

yo'qolib, uning o'rniiga bab-baravar huquqli yangi xotinning yaratilib kelayotganligini va bu yangi turmush eski, avvalgi turmushning fojialaridan ozod ekanligini, erkin mehnat asosida o'rtoqlik turmushining naqadar ko'ngilli, chiroyli ekanini va birga, kollektiv mehnat asosidagi paranji, xotin-qiz qulligining yo'qolib borish jarayonini ko'rsatajakman... Mazmun: "kollektivlash va oila"⁴². Hayot bunyodga keltirayotgan yangi ong, yangi ruh, kechinma, yangi munosabatlarni o'z vaqtida ilg'ay bilish va undan astoydil ilhomlanish natijasi bo'lib tug'ilgan bu reja to' shoirning Zaynab Omonova bilan uchrashguncha (1936 yil 3 yanvar) fikrida, qalbida "uyg'onmaydi". Chunki, bu reja tug'dirgan taassurotlar qanchalik kuchli bo'lsa, shunchalik noaniq edi. Shoirning Zaynab bilan bo'lgan suhbat uch yildan beri qalbida cho'kib yotgan haqiqatning realligini isbotlaydi, rejaning alangalashiga sabab bo'ladi. Bu alanga, otash shoirmi yo'lga boshlaydi: u Zaynab Omonova brigadirlik qilayotgan Akmalobod rayonidagi kolxozga boradi. Kolxoz va kolxozchilar biografiyasi va hayoti bilan yaqindan tanishadi. Rejasi atrofida sodir bo'lishi mumkin voqealarni e'tibor bilan kuzatadi. "Zaynab" nomli ocherkini e'lon qiladi. Unda hayotning aniq va konkret faktlarining o'zini beradi. Reja to'lisha boshlaydi va nihoyat ikki yildan keyin klassik doston "Zaynab va Omon" bunyodga keladi.

Ko'rinayaptiki, ijodiy rejaning hayotiy izlanish, ko'rish, kuzatish, taqqoslash, his qilish natijasida tug'ilishi, uning davr va odamlar takomili bilan o'sib borishi, ulardan bevosita "oziqlanishi", uning "urug'lanish" jarayonining hayotiyliigi va konkretligi asar pafosini, shoir g'oyaviy-badiiy konsepsiyasini mukammal va ta'sirchan bo'lishiga sabab bo'lgan...

Ilk ijodiy reja hech vaqt osmondan tushmaydi. Uning yuzaga kelishiga ham xalq hayoti asosdir. Ana shu reja xalqning qalbini, o'y-orzusini, intilishlarini, irodasini tushuna bilgan, uning porloq kelajagi uchun kurashga ongli ravishda, beminna o'zini bag'ishlagan san'atkor qalbida juda ko'plab yuzaga kelaveradi. Darvoqe, yozuvchi har bir asarda hayot haqiqatining bag'rida yashirinib yotgan badiiy rejani o'z tushunchasi, talanti, mahorati, mehnati ila kashf etadi. Lekin ularning qay biri "amal"ga keladi, qay biri yozuvchini tinchitmaydi, bu yana o'sha diffuziyaga, "katalizator"ga bog'liqdir.

⁴² С.Мамажонов Шоир дунёси. Т., Ё.Ғулом ёмоддаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 125 – бет.

“Men “Binafsha atrı” romanım ustıda o‘ylab yurgan kezlarım “Chetdan kelgan kishi”, “Po‘lat quyuvchılar” kabi asarlar sahna va ekranga chiqqan, ular munosabati bilan “Ishbilarmon kishilar” deb atalgan masalalar ustıda qizg‘ın bahslar ketayotgan edi. Ayrim tanqidchi va yozuvchılar “hozir hissiyotchanlik davri o‘tdi, endilikda ratsionalizm, faqat aql-idrok, tadbirkorlik bilangina olg‘a borish mumkin”, degan fikrni ilgari surdilar. Men yangi romanımda shu xil fikrlar bilan o‘zaro bahsga kirmoqchi bo‘ldim. Men aminmanki, fan-texnika asrida ham inson insonligicha qolaveradi, yuqori bilimdon odam uchun ham hissiyot, hayratlanish, nafasat tuyg‘usi suv bilan havodek zarur, bulardan mahrum bo‘lish inson uchun katta yo‘qotishdir, hattoki baxtsizlikdir. Hayot haqidagi kuzatishlarımdan qat‘iy ravishda shunday xulosaga kelib, asarni xayolimda etiltirib qo‘ygan bo‘lsam ham, hadeganda ishim yurishavermadi. Asarni yozish uchun qandaydir bir turtki, ichki bir hissiy ohang etishmas edi. Shu orada men Qrimga dam olish va davolanish uchun bordim. Qattiq toliqqan ekanman, hech narsa o‘ylamay, yozmay, faqat hordiq chiqarishni rejalab qo‘ygan edim. Lekin bo‘lmaydi. Bir kuni tiniqib uyqudan uyg‘onsam, ko‘nglim nihoyatda ravshan, dimog‘imni qandaydir tanish, nafis bir hid qitiqlayapti, bu hid yurtimizda erta ko‘klamda qulf uradigan binafsha atrini eslatib yubordi, ko‘plab o‘ylab yurgan asarım insondagi nafasat himoyasiga bag‘ishlanishi kerak edi, boyagi hid, binafsha xayoli bir kalit bo‘ldi-yu go‘yo bekik yotgan ilhom bulog‘i, qo‘shiqda aytilganday, ochildi-ketdi. Asarning nomi ham ifoda ohangi ham topildi-qoldi. Uni yozishga o‘tirdim. Endi meni hech narsa to‘xtata olmas edi. Oz fursat ichida unga oxirgi nuqta qo‘yildi...”⁴³

Xullas, ijodiy reja qaysi yo‘llar bilan tug‘ilgan va qaysi katalizator ila “urug‘langan” bo‘lmasin, u o‘zining tarixiy rivojiga ega bo‘ladi. Yozuvchi hayot tug‘dirgan ana shu rejasiga muvofiq yana material to‘playdi, shu rejani amalga oshirish yo‘llari ustıda bosh qotiradi⁴⁴. Qisqasi yozuvchi o‘z mehnatini, butun borlig‘ini muayyan

⁴³ У.Норматов. Ташар тарбияси. Т., “Ёш гвардия” 1980, 70-71 бетлар.

⁴⁴ Ba‘zan reja asosida yetarli materiallar bo‘ladi. Chunki yozuvchi hayotda yashar va uni kuzatar ekan, har bir daqiqada o‘ziga hali ma‘lum bo‘lmagan asarlari uchun materiallar to‘playdi. U bu narsalarni xotirasi “sandig‘i”ga solib qo‘yaveradi. Shuning uchun ham Oybek “Qutlug‘ qon”ni yozar ekan, “Bu romanni yozish uchun material yig‘ib o‘tirmadim, bolaligımdan hayotni kuzatishni sevganligımdanmi, ko‘ngildan, xotiramdan “Qutlug‘ qon” romani quyilib kelaverdi”.

reja (g'oya) – "ijodiy konsepsiya" (A.G.Seytlin)ning tahliliga bag'ishlaydi.

Xullas, ijod jarayonining bitta umumiy qonuniyati yuz beradi. Yozuvchi P.Qodirov va adabiyotshunos A.G.Seytlinlar ta'kidlaganidek, haqiqiy asar rejasi mazmun bilan shaklning dialektik birligidan tarkib topgan ilk g'oyaviy-badiiy konsepsiya tarzida yaxlit tug'iladi, tirik bir organizm sifatida shakllana boshlaydi.

ASAR (BOLA)NING TUG'ILISHI

Ilk ijodiy rejaning "urug'lanishi" yuz berdi. Asar "embrion" rivojlanish davriga kirdi. Uning shakllanishi qay tarzda yuz beradi?

Ayol o'z homilasini 9 oy o'tmaguncha tug'maydi. Biroq homila yetilgach, shunday dard tutadiki, bu dard yo farzandning tug'ilishi bilan tugaydi yo onani o'limga olib keladi. Uchinchi boshqa yo'l yo'q. Xuddi shuningdek, har qanday badiiy asar ham yozuvchi yurak qonidan oziqlanadi, tafakkuridan pishadi. Asar yetilgach, yozuvchi aytmasa tura olmaydigan, yozmasa jismi jahoni zaharlanadigan darajaga etadi. Ana shundagina – yozmaslik o'lim bilan baravar bo'lgandagina u "tug'mog'i" kerak. Ana shundagina, yozuvchi qalbidagi hissiyotlar, ongidagi fikrlar quyulib kelaveradi, natijada yuksak san'at tug'iladi. Holbuki, ko'pgina kitoblarda (Sayyorning "Hulkar"i N.Narzullaevning "Toshkent metrosi" she'ri kabi o'nlab asarlarni misol keltirish mumkin) ana shu holat – tug'masdan turolmaslik holati yo'q. Ularni yozmasa ham bo'ladi. Chunki, bu avtorlar o'zlarida ularni og'ir yuk sifatida, oy-kuni yetgunicha o'stirmaganlar, ular yetilmasdan tug'ilgan chalajon bitiklardir. Bu "asarlarni" ular hunar kuchi bilan yaratganlar, shunchalik, "tug'ish" uchun "tuqqanlar". Ular uchinchi yo'lni tanlaganlar. Bu yo'l esa san'atkordagi badiiy obro'ni to'kadi, talantning kuchini keragi yo'q "o'tinni yorishga" sarflaydi, kitobxonning unga bo'lgan ishonchiga, e'tiqodiga putur etkazadi.

- deb haqiqatni aytadi. Ammo ikkinchi haqiqat ham bo'ki, ijodiy reja tug'ilgach, bu rejaning hali noma'lum tomonlari to'ldirilishi zarur qirralari ham bo'ladi. Shuning uchun Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"ni yaratishda tarix kitoblarini o'rganishni, voqea kechgan joylarga sayohat qilishni, asarda aks etgan davrni va odamlarini xarakterlovchi materiallarni to'plashni lozim deb bilgan. Va bu narsa asarning realistik ta'sir kuchini oshirgan.

Lekin bu jarayonni – yozuvchi ongi va qalbida asarning shakllanishini muayyan bir vaqt bilan o'ldirib bo'lmaydi. Uning ijrosi oylab, yillab davom etishi mumkin. Jumladan, Oybekning "Qutlug' qon" romanining yuzaga kelishiga bir yil⁴⁵, "Navoiy" romaniga to'rt yarim oy vaqt ketgan bo'lsa, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romaniga besh-olti oy vaqt zarur bo'lgan. A.Qahhorning "Sarob" romaniga to'rt yil, Oybekning "Quyosh qoraymas" romaniga o'n besh yildan ko'proq vaqt kerak bo'lgan. Firdavsiy "Shohnoma"sga, Gyotening "Faust"iga o'ttiz-qirq yil vaqt zarur bo'lgan.

Ilk ijodiy reja yozuvchining izlanishlari natijasida o'zgarishi, takomillashishi mumkin. Uning ongi va tasavvurining boyishi bilan ("Yillar – mening boyligim", - deb bejiz aytishmaydi) rejaning oldin sezilmagan qirralari yarqirab ko'rinishi mumkin. Ba'zida ilk ijodiy reja yillar davomida o'z ijrosini topa olmasdan, hosil bermasdan eskirishi va ba'zida esa kengayishi ham mumkin. Ma'lumki, yozuvchi Sharof Rashidov o'zining "G'oliblar" qissasini 1951 yilda yaratgan va unda bir kolxoz hayoti misolida o'zbek paxtakorlarining "oq oltin"dan mo'l hosil olish, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish hamda paxtakorlar turmush madaniyatini oshirish yo'lidagi kurash aks ettirilgan edi. Biroq unda aks ettirilgan hayot ko'lami, tanqidchi Matyoqub Qo'shjonov yozganidek, - hali muallifning o'zini yetarli darajada qanoatlantirmayotgan edi. Chunki yillar o'tishi (tabiiy) bilan yozuvchi tasavvuri yangi-yangi faktlar, kechinmalar, voqealar, o'zgarishlar bilan boyigan va san'atkorlik tajribasi yuksala borgan sari ilk rejaning yangi shaxobchalarining ichki nurlanishini kashf etishi tabiiy edi. Shu sababdan, qissa ustida ishlash uzoq davom etdi. Asarning o'n sakkiz bobi qayta yozildi, qolganlari yyetuk yozuvchi ko'zi bilan tahrir qilindi. Nihoyat, hayot materiallari bilan yanada boyigan, "yangi salmoqli, ko'p planli roman" (V.Kojevnikov), 1972 yilda e'lon qilindi. Romanda "Oyqiz va Olimjonlarning bolalikdan boshlangan hayot yo'li to'ldirilgan, natijada ular ko'rsatayotgan qahramonlik va jonbozliklar ularning hayot yo'llari mantiqi asosida

⁴⁵ Shoir Shukurullo "Жанонамаларим" (T, 1977, 108-6et) kitobida Oybek tilidan yaqinda nashr qilingan "Qutlug' qon" romaninni men bundan 15 yil oldin boshlagan edim. Ammo to'rt-besh daftar yozdimu u yog'iga gap topolmadim. Tashlab qo'ydim. Yo tajribam yetmadi, yo yiqqan masallig'im. Yozganlarim o'zini ham, boshqalarni ham to'ldirilmadi, qitiqlamadi...". - deb yozadi. Bizningcha, bu gap hech qanday asosga ega emas; yozuvchi "Qutlug' qon" romanining tug'ilishi haqidagi qaydlarida bu haqda umuman yozmagan.

dalillangandir. "G'oliblar" romanida yozuvchi Ulug' Vatan urushi yillarida xalq boshiga tushgan kulfatning naqadar og'ir ekanligini va og'ir kunlarda xalq ko'rsatgan matonatni aks ettiradigan realistik manzaralar yaratdi⁴⁶.

Shamol shamni o'chiradi, gulxanni lovullatadi. Yozuvchi talantining, badiiy mahoratining bugungi kuchi romanda ilk rejaning ifodasini yanada ta'sirchan, ma'nosini yuksak va go'zal bo'lishiga olib keldi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan shunday xulosaga kelish mumkin: ilk ijodiy reja qanchalik o'zgarishlarga uchramasin, baribir u izsiz yo'qolmaydi. "... aslida, san'atkorning ilk rejasi bilan yerga tashlangan urug' taqdiri sodir bo'ladi: o'simlik tug'ilishi uchun urug' o'ladi, lekin u o'simlik tanasida o'sadi va shu o'simlik boshog'ida yashaydi⁴⁷.

Asar shakllanishi jarayonida yozuvchi ilhom bilan mehnat qiladi. Dastlabki ko'tarinki holat keyinroq tartibga tushadi, ijodiy xayollar asta-sekin tiniqlashadi. Yozuvchining talant kuchi, diqqati, butun borlig'i bir markazga to'planadi; **Bo'lajak qahramonlar aniqlanadi. Asarning asosiy poetik g'oyasi, uning obrazli ifodalanishi ko'zga tashlanadi** va shu doira atrofida obrazlar harakat qila boshlaydilar. Xarakterlar tasviri **ular xatti-harakatlari va psixologiyalarini** asoslashning yo'llari, fabula rivojining juda ko'p variantlaridan (Tolstoy aytganidek, milliondan biri) eng ma'quli tanlanadi. Qisqasi, san'atkor ongida yaxlit yaratmoqchi bo'lgan asarining nusxasi, badiiy modeli yaratiladi. Endigi gap yaratilajak, tug'ilajak asarning hayotiyiligini, jonliligini ta'minlovchi yozuvchi qalbining qon tomiriga, san'atkorning so'z sehriga, o'tkir fahmiga, ajoyib ilhomiga... Yana va yana juda ko'p psixik jarayonlarga bog'liqdir.

Yuqoridagi fikrlarni xulosalasak, "har qanday badiiy ish jarayonini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin: 1) material jamg'arish davri, 2) asarni "o'ylab" pishirmoq davri, 3) uni yozish davri⁴⁸.

⁴⁶ М. Қўшқонов. Ҳаёт ва қаҳрамон. Т., Ё.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979, 250-бет.

⁴⁷ Ю. Окуневский. Рождение книги. М., "Художественная литература", 1973, стр. 65.

⁴⁸ А.Фадеев. Менинг адабий тажрибам – ҳаваскор муаллифга - "Бадий ижод ҳақида", Т., Ўздавнашр, 1960, 115-бет.

Birinchi davrni ikkiga bo'lish mumkin:

a) "Dastlabki badiiy jamg'arish" davrida A.Fadeyev yozganidek, "Yozuvchi qisman ongli ravishda, qisman stixiyali tarzda voqelik materialini yig'ib boradi va ko'pincha buning nima bo'lishini o'zi ham bilmaydi"⁴⁹.

San'atkor oddiy shaxs, o'z mamlakatining fuqarosi kabi hayotda yashar ekan, albatta, ko'radi, eshitadi, his qiladi, ishtirok etadi. Nimalardir uni hayron qoldiradi, qandaydir munosabatlar mehrini qo'zg'atadi yoki g'azabini keltiradi. Uning hayot yo'li takomilida duch kelgan odamlar, voqealar va ular uyg'otgan har xil taassurotlar, shaxsiy tajribasi – miya "quticha"sig'a yig'ilib boradi. Demak, "voqelikning xom material: uni eng ko'p hayratda qoldirgan shaxslar, kishilar xarakteri, voqealar, ayrim holatlar, tabiat manzaralari va shu kabilargina mavjud bo'ladi"⁵⁰.

b) "Badiiy rejaning tug'ilishi va "portlashi" davrida yozuvchining hayotni va adabiyotni o'rganishi, mushohada va muhokama qilishi jarayonida fikr, g'oya tug'iladi. Ana shu fikr, g'oyaning ifodasi uchun sabab bo'lgan inson haqida, voqea to'g'risida yozgisi keladi, orzu, mayl uyg'onadi. "...Yozuvchi ongida ma'lum bir hayot hodisasining alomatlari to'planib qoladi va ular obrazda gavdalanish uchun faqat konkret sababga, konkret shaxs yoki vaziyatning topilishiga "qarab qoladi"⁵¹. Katalizator (evrika!!!) topilgach, yozuvchi xayolida chuvalashib yurgan sanoqsiz tarqoq voqealar, obrazlar yaxlit shaklga kiradi. Yozuvchi ijodiy qobiliyati, iste'dodi, talanti kuchli vulqonday shiddat bilan ishga kirishadi. G'ayratiga g'ayrat, shijoatiga shijoat, yurak zarbiga zarb qo'shiladi. "O'ylangan asar san'atkorning ko'z o'ngida o'zining barcha go'daklik nafosati bilan namoyon bo'ladi va onalik tuyg'usiga to'lib toshgan san'atkor xushbo'y g'unchaning rangini ko'radi, tez etilayotgan mevaning mazasidan lazzatlanadi"⁵².

Ikkinchidan, yozuvchi "Ijodiy mehnat va qahramonlikka bel bog'lar ekan, demak, qandaydir qudratli kuch, qandaydir yengilmas ehtiros uni shunga tortadi, shunga intilishga majbur etadi. Bu kuch, bu

⁴⁹ А. Фадеев. Мое литературное творчество – хвастоскор мемуариста, 115-бет.

⁵⁰ А. Фадеев. Мое литературное творчество – хвастоскор мемуариста, 116-бет.

⁵¹ А. Кэмпбелл. Художественное творчество – Искусство творчества. Т., Г. Гулом номидagi адабиёт ва санъат нашриёти. 1973, 208-209 бетлар.

⁵² Оноре де Бальзак. Собр. соч. в 24 – томах, т. 10, М., 1954, стр. 211.

ehtiros – pafosdir. Pafosda shoir xuddi jonli go'zal mavjudotga ko'ngil bergandek, g'oyaga maftun bo'lgan zot sifatida namoyon bo'ladi, bu mavjudotning o'zi ana shu g'oya bilan ehtirosli ravishda to'lib toshgan bo'ladi. Va san'atkor bu g'oyani ongi, idroki bilan emas, faqat bir his bilan emas va o'z ruhining birorta qobiliyati bilan emas, balki o'z ma'naviy hayotining butun to'laligi va yaxlitligi va bilan mushohada etadi. "Pafos" deganda ham ehtiros ko'zda tutiladi, shu bilan birga boshqa har qanday ehtiros kabi insonning to'liqlanishi, butun asab sistemasining larzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan ehtiros ko'zda tutiladi, ammo pafos doimo inson qalbida g'oya kuchi bilan alanga oldirayotgan va doimo g'oyaga intiluvchi "ehtirosdir"⁵³.

Demak, pafos, - I.O.Sultonov, ta'kidlaganidek, - g'oya bilan bog'liq hisni, biror g'oyaga maftunlik natijasida ijodkorda paydo bo'lgan qattiq hayajonni, ko'tarinki ruhni bildiradi. "Pafos yozuvchining ilhom manbaidir. U yozuvchini ulug' niyatlar bilan ishga o'tirishga va buyuk asarlar yaratishga ilhomlantiradi. Buyuk yozuvchilarning mahsuldorligini va tezkorligini pafossiz, ularni fidokorona ishlashga majbur etgan g'oyaviy entuziazm, g'ayrat (tashabbus)siz tushunish mumkin emas"⁵⁴.

"Aftidan... voqelik obrazlarini dastlabki jamg'arish davrida ham san'atkor, voqealikdan olgan tassurotlari orasida biron bir sotsial (hodisa) toifa, sinf vakili sifatida o'zining ongini, psixikasini, ayniqsa hayratga solgan narsalarni alohida ajratib qo'yadi; boshqacha qilib aytganda, ijodiy ishning eng dastlabki davridayoq san'atkor sotsial sharoitga hech daxli yo'q "mustaqil" individual shaxs sifatida namoyon bo'lmaydi"⁵⁵. Demak, yozuvchining izchil dunyoqarashi material tanlashda ham faktlar to'plashda ham, to'plangan va tanlangan material va faktlarni muayyan bir g'oya atrofiga jamg'arishda ham alohida rol o'ynaydi. Yozuvchi muayyan g'oya va ideallar uchun kurashchi ekan, rang-barang voqelikka shu nuqtayi nazardan qaraydi. Uning dunyoqarashi badiiy rejani, asar g'oyasini konkretlashtiradi...

⁵³ Белинский В.Г. Собр. соч., т. 3, стр. 378.

⁵⁴ И.Султон. Адабиёт назарияси. Т., "Ўқитувчи", 1980, 161-бет.

⁵⁵ А.Фидесев. Менинг адабий тақрибим – ҳаваскор авторга. - Бадий ижод ҳақида Т., "Ўзгачи", 1960, 116-бет.

Asarni o'ylab "pishirmoq" yoki asarning shakllanishi davrida yozuvchi ongi va qalbidagi zo'r ko'tarinkilik va uning yaxlit tarkib topayotgan asarga – aniq maqsadga qaratilishi, o'z navbatida, obrazlar, voqealarni "elash"ga va eng qimmatlilarini saralashga, tanlashga, etmaganlarini to'ldirishga imkoniyat beradi.

"Bu davrda... asarning asosini tashkil qilgan fikrlar, ideyalarni qanday yo'llar, qanday voqealar orqali, bu voqealarni birin-ketin qanday tartiblashtirish orqali berish ustida ko'p o'ylaysan"⁵⁶. Asar g'oyasi, temasi, obrazlar sistemasi, syujeti, kompozitsiyasi, tili va boshqa ko'plab badiiy unsurlar ravshanlantiradi.

"O'z-o'zidan ma'lumki, san'atkor ishining uchinchi davrga o'tib, yozishga kirishganida ilgari o'ylab qo'ygan narsalaridan ko'pisi qolib ketib, ko'p narsalar yozish jarayonida ko'proq kuch va ravshanlik bilan oydinlashadi: uning dastlabki rejalari ozmi-ko'pmi darajada o'zgaradi, lekin o'ylab qo'yilgan asarning asosiy negizlari deyarli hamma vaqt saqlanib qoladi. Yozuvchilar doirasida rasm bo'lgan "asarni yetiltirish" degan termin ana shunday kelib chiqqan. Qalamkash o'rtoqlar, asarning asosiy ideyasi mutlaqo ravshan bo'lgach, asosiy tema va sujet ozmi-ko'pmi oydinlashgandan keyingina yozish kerak, - deydilar⁵⁷. Asar yetiltilgan va chuqur o'ylangan taqdirda yozish jarayonida unchalik katta o'zgarishlar bo'lmaydi⁵⁸. Yetilmay, chala tug'ilgan asar muqarrar ravishda bo'sh po'k bo'ladi, uning ideyasi avtorning o'ziga yetarlicha ravshan va tushunarli bo'lmaganidan, ko'pincha kitobxonga anglashilmay qoladi..."⁵⁹.

⁵⁶ А. Фадеев, Менинг адабий тажрибам – ҳаваскор авторга. - "Бадий ижод ҳақида", Т., Ҳудайназар, 1960, 118 – бет.

⁵⁷ Jumladan, S.Ahmad yozadi: "Shuni ham aytib qo'yayki, odamlar orasida ko'p yurganimdan, yaxshini ham yomonni ham ko'p ko'rganimdan menga odamlarni tasvirlash uncha qiyin bo'lmaydi. Syujet ham o'z-o'zidan kelaveradi. Boya aytganimdek, voqeaning oxirigacha o'ylab, tayyor qilib qo'ymayman. Nari borsa asarning yarmigacha pishiq qilib o'ylab olaman. Ba'zan voqeaning oxirini ham pishitib qo'yaman" (У. Норматов. Талант тарбияси. Т., "Ёш гвардия", 1980, 104-бет.)

⁵⁸ Oybekning "Navoiy" romani to'rt yarim oyda yozib bitirilgan va qo'lyozmaning variantiga keyin tuzatish va o'zgarishlar kirgizishga hojat qolmagan" (И.Султон. Адабиёт назарияси. Т., "Фан", 1980, 161-бет.)

⁵⁹ У.Норматов.Талант тарбияси. Т., "Ёш гвардия", 1980, 104-бет.

Bu haqiqatlarni takrorlashdan maqsad shuki, ijodiy jarayon betakror, boy, "sehrli" bo'lishidan qat'iy nazar, uni izchil o'rganish etaplarini tahlil etish mumkinligini ta'kidlashdir.

Ikkinchidan, yozuvchi shaxsi va qalbi prizmasi orqali yaratilgan, tugallik kasb etgan hayotning yuzaga kelishi sirlarini, bu sirlarni o'rganishga imkon beradigan psixik jarayonlarni tekshirishning yo'llari ko'pligini va aktualligini qayd qilmoqdir.

Ishimizda asosiy diqqat ijod tabiati masalasiga qaratilgani uchun ham, yozuvchi tomonidan "inson ruhi hayotini yaratish" sirlarining tahliliga o'tamiz. Bu o'z navbatida yozuvchi va hayot muammosini tekshirishga da'vat etadi.

Bobni mustahkamlovchi savollar

1. Ijod jarayonini qayerdan boshlanadi? Ijodiy reja qanday tug'iladi? Reja mazmuni va shaklini tug'diruvchi katalizatorni qanday tushunasiz?
2. Adabiy ijod jarayoni davrlarini (1. material jamg'arish; 2. asarni "o'ylab" pishirish; 3. uni yozish) tasavvur qila olasizmi?

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. "Navoiy" romanini qanday yozdim (Oybek), "Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga" (A.Qahhor), "Mening adabiy tajribam havaskor avtorga" (A.Faddeev), "Oltin gul" (K.Paustovski) kabi asarlarni diqqat bilan o'qing. Ijod mohiyatini tushunisah uchun shu asarlarning mualliflari ijodini ham o'rganing.
2. O'zingizdagi ijod qilish ishtiyoqini, uning natijasi bosqichlarini tahlil qilib ko'ring. Fikrlaringizni qog'ozga tushiring va o'zgalarniki bilan solishtiring.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Белинский В.Г.Танланган асарлар. Ўздавнапр, Т., 1955.
2. Ожлянский Ё.У. Рождение книги. М., 1973.
3. Медведев П.В.В лаборатории писателя. М., 1971.
4. Цейтлин А.Т. Труд писателя. М., 1968 .
5. Адабиётимиз автобиографияси. Т., Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.
6. И.Султон. Адабиёт назарияси. Т., "Ған", 1980.
7. Умуров Ҳ. Бадний ижод асослари. Т., "Ўзбекистон", 2001.

UCHINCHI BOB

YOZUVCHI VA HAYOT

Hayot shunchalik poyonsiz va ko'p qirraliki, kishi unda qariyb hamma vaqt o'zining kuchli va chinakam ehtiyojiga yarashasini topa oladi.

N.G.Chernishevskiy

Adabiyot va san'at sirlarini yetarli tushunmagan kitobxon real hayot bilan poetik reallikni, tabiat bilan san'atni, boshdan kechirilgan bilan tasvirlangan kechinmaning farqiga bormasligi, hayotni adabiyot bilan baravarlashtirishi mumkin.

Shuning uchun ham real hayot bilan poetik ijodning munosabatlari muammosini tekshirish adabiy ijod jarayonini to'g'ri va asosli tushunishga olib kelganidek, yozuvchilar ijodiy laboratoriyasining ba'zi qirralarini ham tahlil qilishga imkon beradi.

Ba'zi kitobxonlar o'ylagandek, yozuvchilik hayotimizda, turmushimizda ro'y beruvchi hamma narsalar haqida hikoya qilish bilan cheklanmaydi. Agar shunday bo'lganda, bundan oson ish bo'lmaydi: bir kun yuz beradigan sanoqsiz voqea-hodisalardan bir nechta kitob yozish mumkin bo'lardi. Yozilganda ham bu kitoblar turmushning va odamlarning kuchsiz, hech kimni qiziktirmaydigan, oddiy nusxasi (kopiyasi) bo'lib qolaverardi. Unda hayotning muhim va keraksiz, zaruriy va tasodifiy, birinchi va yuzinchi darajali narsalari aralash – quralash holida bo'lardiki, o'qimoqchi bo'lgan odam zerikib «o'lardi».

«Olim, – deydi I.Goncharov, – hech narsani yaratmaydi, balki tabiatdagi tayyor va yashirin haqiqatni ochadi. San'atkor esa haqiqatga o'xshash narsani yaratadi, ya'ni u kuzatgan haqiqat fantaziyasida aksini topadi va bu aksini o'z asariga olib o'tadi... Demak, badiiy haqiqat va hayot haqiqati bir xil narsa emas. Turmush hayotdan butunligicha san'at asariga olib kirilsa, u hayotiy haqqoniyligini yo'qotadi va badiiy haqiqat ham bo'lmaydi...

San'atkor to'ppa-to'g'ri tabiat va hayotdan yozmaydi, balki unga haqiqatan o'xshash qilib yaratadi. Va xuddi ana shunda ijod

jarayonining mohiyati mujassamlashgan...»⁶⁰ (Ta'kidlar bizniki – H.U.).

Yozuvchi hayot haqiqatiga o'xshash narsa (badiiy haqiqat)ni yaratish uchun, hayotiy fakt va hodisalarni o'zining ruhiy laboratoriyasida «qaynatishi», ishlashi, sintezlashtirishi, ya'ni tasavvuri, xayoli, tajribasi, qalbi, dunyoqarashi, tabiati bilan boyitgan va muayyan mavzuga, g'oyaga xizmat qiluvchi eng zarur detallarni, xarakterli va kerakli fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan hayotni yaratishi lozim. Ana shundagina «san'atkor – uydirmalar ijodkori – odamlarni xudo, tabiat yoki tarix yaratganidan ko'ra a'loroq, mislsiz darajada go'zal qilib yarata oladi» (M.Gorkiy).

Demak, Abdulla Qahhor aytganidek, badiiy haqiqat «hayot haqiqatini ko'ngil prizmasidan o'tkazish, uni his qilish, unga o'ylab yurgan gaplarini singdirish, tilak va ideallaringni qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi. Badiiy haqiqatni tug'diradigan, mahalla komissiyasining «bunga ishoninglar» degan mazmundagi spravkasiga hamhojat qolmaydigan fakt va uydirma me'yorini topishning mushkulligi ham xuddi ana shundadir».⁶¹

Demak, realizm adabiyot rivojining yyyetuk bosqichi bo'lib, u bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni, real hayotdagi odamlarning obrazlarini jonlantiradi: asl hayotga nisbatan tasodiflar, ikir-chikirlardan xoli bo'lgan, to'liqroq, ta'sirliroq, ishonchliroq qilib qayta yaratilgan olamning tasvirini beradi.

HAYOTIY HAQIQAT VA BADIY HAQIQAT

Badiiy haqiqatning asosi hayotdir. Chunki, yozuvchining ko'rgan-bilganlari va shaxsiy tajribasi, kechinma va taassurotlari badiiy asarni yuzaga kelishida eng asosiy omil sanaladi. Yozuvchi hamma vaqt hayotiy fakt va hodisalardangina turtki olib, badiiy haqiqat kashfi tomon yo'l oladi.

«Ko'pchilik kabi men ham, - deb yozadi A.Qahhor, - «yozuvchilik» nimaligini, shaxsiy tajriba, taassurotlar adabiy asar

⁶⁰ И.А.Гончаров. Собр. соч. в восьми томах. 8, «Художественная литература», Т., 1980, стр. 140-141.

⁶¹ Адабиётнинг автобиографияси. Т., 1973, 211-бет.

uchun nihoyatda qimmatli material bo'lishini tushunib olgunimga qadar ancha ovora bo'lganman. Buni bilib olganimgan keyin bolalik chog'imda ko'rganim, odamlar, yoshligimda sodir bo'lgan voqea-hodisalar boshqacha bo'lib ko'rindi. O'tmish chuqur yerto'lalardagi sharob singari xotirada tiniydi, oradan qancha vaqt o'tsa, sharob shuncha tiniq va kuchli bo'lganiday, yoshlikda ko'rgan-kechirganlar eng sof va kuchli xotiralar bo'lib, umrbod esdan chiqmaydi. O'tmishdagi ana shu taassurotlarim keyinchalik, ko'pgina hikoyalari uchun asos, yirik asarlarimga epizodlar bo'lib xizmat qildi». ⁶²

Xuddi shuningdek, «Qutlug' qon»ning yuzaga kelishida Oybekning o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealari, xotirasida o'chmas iz qoldirgan o'tmish va ularni aytish uchun yetarli tajriba to'plagan asos bo'lgan. Hamid G'ulom «Mening «Mash'al», «Manguliko» asarlarimga o'zimning ko'rgan-kechirganlarim, ilk sovet maktabida o'qib yurgan kezlirim bolalik xotiramda qolgan taassurotlar asosida gavdalantirilgan» ⁶³, - deyar ekan, yoki Mirmuhsin «Romanda («Degrez o'g'li» - H.U.) aks etgan voqealar ichida bo'lmaganimga, ehtimol shunday asar yaratilmas edi...» ⁶⁴ «Umid»dagi voqealar boya aytganimgiday, kitobdan ta'sirlanish oqibati emas, hayotni kuzatish samarasi. Bu roman oz vaqtda yozilgan bo'lsa ham, unda uzoq yillik hayotiy tajribalarimni, kuzatishlarimni ifoda etmaganman», ⁶⁵ - deb yozar ekan, bundan ko'rinadiki shaxsiy hayotiy tajriba va taassurotlar san'atkor uchun juda yaqindan tanish bo'lgan materialni belgilab beradi, bu material esa bamisli xazina-kon. Lekin, bu shunday xazinaki, undan inson ruhiyati, xuddi oltin zarrachalari rudalar qa'rida bo'lganidek, hayot fakt va hodisalari ichida aralash-quralashdir. Yozuvchi muayyan g'oyaviy-badiiy maqsad asosida hayotni qayta yaratar ekan, xuddi ana shu maqsadning bir butunligini, maftunkorligini ta'minlashga qodir bo'lmagan keraksiz va foydasiz fakt, hodisalardan voz kechadi, eng xarakterli, zaruriylarini tanlaydi, saralaydi; o'zida (xotirasida, qalbida, zehnidagi) borini qo'shadi. Toki asar yaxlit va tugallik kasb etmaguncha bu jarayon uzluksiz davom etaveradi.

⁶² Абдулла Қадҳор. Ҳаёт ҳодисасидан бадий тўқимига. - Адабиётимиз автобиографияси, Т., 1973, 196-бет.

⁶³ Норматов У. Талант тарбияси. Т., 1980, 68-бет.

⁶⁴ Шу китоб, 53-бет.

⁶⁵ Шу китоб, 58-бет.

«Ma'dan zavodlarida magnit kranlar bor. Bir chetda temir-tersaklar, g'isht va yog'ochlar aralashib, betartib uyulib turgan bo'lsa, magnit krani yuqoridan tushib keladi-yu, o'ziga kerakli ma'danni tortib olib chiqib ketadi. Ma'lumki, magnit faqat temirni, po'latni o'ziga tortadi. Magnitga tortilmaydigan g'ishtlar, yog'och va kesaklar joyida qolaveradi.

Yozuvchining o'z oldiga qo'ygan g'oyaviy-badiiy maqsadi mana shu magnit kraniday xizmat qiladi, - deb yozadi P.Qodirov, - Ijodkor o'z ixtiyorida bor ob'yektiv va sub'yektiv imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalana olmasa, ijodiy ixtiro qilolmaydi»⁶⁶.

Ko'rinadiki, badiiy haqiqatning zaminida hamma vaqt hayotiy tajriba, real faktlar, real kechinmalar yotadi. Lekin, uning badiiy to'qima bilan uyg'unligi qay darajada bo'lishi kerak?

Abdulla Qahhor yozadi:

«Bemor» degan hikoyamda tasvirlangan voqeaga o'xshash hodisa o'z boshimdan o'tgan. O'n uchinchi yillar bo'lsa kerak, besh yashar bola edim. Qo'qonga yaqin Yaypan qishlog'ida turardik. Onamning oy-kuni yaqinlashib, uni dard tutardi chog'i, qorong'i kulbamiz ichida ko'rpa-tushak qilib yotar, ichkaridan uning bo'g'i ingrash, jonini qo'yarga joy topolmay qichqirishi eshitilardi. Yaypan katta qishloq edi, biroq u erda vrach yo'q, tibbiy yordam nima ekanligini xayolimizga ham keltirolmasdik. Bunday hollarda qo'ni-qo'shnilar nikiga yugurilar, keksaroq xotinlarni aytib chiqilar, uning doyalikni uddalay olish-olmasligi bilan hech kimning ishi bo'lmas, keksa bo'lsa, bu sohada ko'zi pishgan bo'lsa bas, har qanday kampir bu ishga yarayverardi.

Biz Yaypanga yaqinda ko'chib kelgan, u yerda qarindosh-urug'larimiz yo'q edi, shu sababli otam qo'shni xotinni chaqirib chiqdi. Xotin kelib, ayam yotgan uyga kirib ketdi. Kech kirdi. Meni uyqu bosa boshladi.

Yonimda o'tirgan otam birdan o'rnidan turdi. Ko'zimni ochdim, tepamda haligi qo'shni xotin turardi. «Tinchlikmi?» - hovliqib so'radi otam. «Tinchlik, lekin qiynalayapti, bechora...» Kampir jim bo'lib qoldi, keyin menga ishora qildi. «Bolaga ayting, xudodan so'rasin, bolaning gunohi yo'q, uning duosi tez ijobat bo'lib, xudoyim yo'l bersa, sho'rlik omon-eson qutulsa ajab emas...» Otam

⁶⁶ Адабиёт назарияси. 2-том, Т., 1979, 109-110-бетлар.

menga tomon engashdi: «E xudo, ayamga najot ber» degin, dedi. Otam qo'rquv va jahl aralash meni qistardi: «Bo'l tez, nega imillaysan». Duo qila boshladim, bu orada bir-ikki yig'lab ham oldim, keyin uxlab qolibman. Erta bilan uyg'onsam ayamning ko'zi yoribdi.

Hikoyada birmuncha boshqacharoq hayot tasvirlangan. Bir xotin og'ir dard bilan uzoq vaqt yotib qoladi-yu, eri uni doktorga boqizishga qurbi yetmaydi va arzon-garovroq haq oladigan mulla, tabib, kinnachiga borishga, keyin esa, eng so'nggi chora sifatida, qo'shni kampirning «begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi» degan maslahamati bilan ish tutishga majbur bo'ladi... U har kuni saharda turib, to'rt yoshli qizchasini uyg'otadi va uyqu g'ashligi bilan yig'lab turgan qiziga duo o'rgatib, uni takrorlashga majbur qiladi. Bemor ayol bir kuni og'irlashib, sahar vaqtida o'ladi. Eri qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'onadi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qiladi: «Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...» deydi.

Sirtan qaraganda hikoya boshimdan kechgan hodisaga uncha o'xshamaydi. Haqiqatdan, bizning xonadonimizda bo'lib o'tgan bu voqea mohiyati e'tibori bilan o'sha davr uchun nihoyatda xarakterli hodisa edi. Uning butun fojiasi ham xuddi ana shunda – kambag'al, jaholatda umr kechirgan odam uchun odatdagi voqea ekanligida edi. Ammo shuning o'zi kifoya qilmas, insonning hayot-mamot, holatini, uning nihoyatda og'ir turmush sharoitidagi o'sha nochor ahvolini, o'limga mahkum qilib qo'yilganini ko'rsatish talab qilinardi.

Har holda men uchun «Bemor» o'sha bolaligimdagi taassurotlarlarim bilan chambarchas bog'liq. Syujet taassurotlarni o'z ichiga olganligi uchungina emas, balki butunlay o'sha taassurotlarga asoslanganligi uchun ham shundaydir. Men faktni o'zgartirar ekanman, hayot haqiqatiga qarshi borayotibman, deb mutlaqo o'ylagan emasman. Aksincha, hikoyada hayotni xuddi shunday ko'rsatib to'g'ri ish qilganligimni endi bildim: besh yoshligimda ayamdan ajralib, etim qolishim o'sha davr sharoitida hech gap emas ekanligini, bu judolik natijasida yuz berishi mumkin bo'lgan butun dahshatlarni va buning barcha oqibatlarini endi tushunib etdim. O'tmishning dahshatli manzaralarini xayol o'z-o'zidan to'ldiradi». ⁶⁷

⁶⁷ А.Қаҳҳор. Ҳаёт ҳодисасидан бадний тўқумага. - Адабиётимиз автобиографияси, Т., 196-199-бетлар.

Ko'rinyaptiki, A.Qahhor boshidan kechirgan hayot haqiqati bilan hikoyadagi badiiy haqiqat o'rtasida katta farq mavjud:

Hayotda Abdulla Qahhorning ayasini dard tutsa va oxiri ko'z yorishi bilan tugasa, hikoyada Sotiboldining xotini kasalga chalinadi va oxiri vafot etadi.

Hayotda besh yoshli Abdulla otasining o'rgatishicha, «E xudo, ayamga najot ber», - deb duo qilsa, hikoyada to'rt yashar qizcha qo'shni kampirning o'rgatganicha, «Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...» deb duo qiladi.

Hayotda Yaypanda vrach yo'q, tibbiy yordam nimaligini xayolga keltira olmasalar, hikoyada «Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi».

Hayotda Abdullaning otasi-temirchi bo'lsa, hikoyada Sotiboldi - Abdug'aniboyning batragi, «xonaki bir kasb» egasi, qarzdor kambag'al...

«Bemor» hikoyasida yozuvchining g'oyaviy-badiiy maqsadi - o'tmish hayotning fojialarga to'la achchiq taqdirini, nochor ahvolini ko'rsatish vositasida ijtimoiy tengsizlikni fosh etishdir.

Hikoyada hamma unsurlar ana shu maqsadga buysundiriladi, ortiqcha narsalar tushirib qoldiriladi, yetmagani xayolan to'ldiriladi. Shu asosda Sotiboldi xotining og'rib qolishi, bemorning xo'p azoblar tortishi va jaholat botqog'ida yashayotgan to'rt yashar qizchasining ohi-zoriga qaramay vafot etishi - o'tmishning achchiq bir tugal lavhasi yaratiladi.

Yuqorida aytganimizdek, yozuvchining vazifasi hayotning aynan (kopiya) nusxasini berish emas, balki bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni tasvirlash ekan, yozuvchi o'z boshidan kechirgan va ko'rgan, eshitgan voqealarni ong va qalb prizmasidan o'tkazadi. O'sha davr sharoitida yetim qolish hech gap emasligini, judolik dahshatlari va oqibatlarini xayolan tasavvur qilar ekan, kambag'al, nihoyatda og'ir turmush kechirgan Sotiboldi, uning xotini va qizchasining fojiasi, achchiq taqdiri jonlanadi, ko'z oldiga keladi.

Yozuvchi hayot faktlarini o'zgartirsa-da, lekin bolalikning sof va beg'ubor taassurotlari, hayotiy tajriba asosida tasvirlanayotgan hayotning jonlantirilishi tasvirning hissiyligi, go'zalligini ta'minlaydi. Ana shu hayotning xolis va samimiy tasviri umumlashma darajasiga

ko'tariladi va bizda o'tmishdagi ijtimoiy tengsizlikka qarshi kuchli nafratni uyg'otadi. Abdulla Qahhorning «Anor», «Ko'r ko'zning ochilishi», «Ming bir jon» hikoyalari ham xuddi shu usulda yaratilgandir.

Demak, bu xil usulda yaratilgan asarlarda san'atkor obraz yoki syujetni yaratar ekan, u to'lig'icha hayot haqiqatiga mos bo'lmaydi. Masalan, «Bemor»da Sotiboldining xotini o'ladi, hayotda esa A.Qahhorning ayasi ko'zi yoriydi. «Ming bir jon»da Mastura tuzalib ketadi, hayotda To'raxon ayaning qizi vafot etadi va sh.k.

Yozuvchi hayotning konkret haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish jarayonida, uni ongli ravishda «buzadi», «adolat yuzasidan ish tutadi». Bu bilan birinchi hikoyada ijtimoiy tengsizlik hukm surgan jamiyat kambag'al, nochor, bemor ayolni o'linga mahkum etishini ko'rsatsa, ikkinchi hikoyada insonning hayotga muhabbati beqiyos darajada qudratli kuchga egaligini chuqur aks ettiradi.

Yozuvchi, umuman shu usulda yaratilgan asarlarda, xususan ikki hikoyada ham tasavvur va taassurotlarning hamma ma'lumotlari xotirasining ma'lum «chuqurlik»laridan kelib chiqayotganini sezadi va yaxlit, tugallik kasb etgan asarning lavhalari (qismchalari) qanday faktlar va kuzatuvlar asosida yuzaga kelganligini ko'rsata oladi.

Boshqacha usul ham mavjud. Bu usulda yaratilgan asarlarda qachonlardir olingan kechinma, taassurotlarga nisbatan tasavvur erkin harakat qiladi; u qachondir bilingan va boshdan kechirilgan narsadan, garchi uning konkret ko'rinishi, ob'yektiv haqiqat bo'lmasa ham yaxlit narsa yaratadi. Bu asardagi badiiy haqiqat hayot haqiqatiga shunchalik mos tushadiki, go'yo kashfiyotdek tuyuladi.

Yana A.Qahhorning ijodiy laboratoriyasiga qaytamiz. U yozadi: «Mening «O'g'ri» degan hikoyam 1936 yili, xuddi Chexov asarlarini berilib o'qib yurgan davrimda yozilgan edi. Hikoya bolaligimda qurshab olgan turmush, eski davrni ko'rsatishga bag'ishlangan. Ammo men «Anor»dagi Babar, «Bemor»dagi o'zimning onam («Ming bir jon»dagi To'raxon ayaning qizi – H.U.) singari, bu hikoyada «model» xizmatini o'tagan odamni ko'rgan, voqeaning shohidi bo'lgan emasman. Bu kartinani, garchi uni yozishda xotiramda qolgan va yon daftarimdan olingan ba'zi tasvir vositalari hamda detallardan foydalangan bo'lsam ham, o'zimcha tasavvur qilganman, o'ylab chiqarganman. Gap bu safar xotira daftaridan

olingan ana shu detallar ustida ketyapti. Ulardan xarakterlar qad ko'tardi. Bu esa prozada detalning ahamiyati va imkoniyatlari yuzasidan menga Chexov tomonidan berilgan ta'limning nihoyatda muhim samarasi edi.

Kunlarning birida xotira daftarimga xalqning hazil-mutoyibalaridan «Yo'qolmasdan ilgari bormidi?» degan iborani yozib qo'ydim. «O'g'ri» hikoyamni yozayotganimda shu ish berib qoldi. Shunchaki beg'araz hazil uchun aytiladigan bu iborani kekxa dehqon ho'kizi o'g'irlanganidan shikoyat qilib borganda Aminning tilidan aytirgan edim, o'tkir piching ma'no kasb etdi. Mening ixtiyorimdan tashqari ijtimoiy umumlashgan kuchga ega bo'ldi, ayni choqda, individual shaxs xarakterini ochib yubordi.

Bu hikoyani men boshdan-oyoq detallar, xarakterli savol-javoblar asosiga qurganman. Keyin hayotda o'rni-tagida yo'q kekxa dehqon, uning ustidan mazax qiluvchi, farazlarim samarasi bo'lgan amaldorlar ham men real hayotdan ko'chirib yozgan ilgarigi qahramonlarga qaraganda birmuncha jonliroq ekanligini ko'rib hayratda qoldim va sevinib ketdim». ⁶⁸

Muallifning ushbu guvohligidan ham ko'rinyaptiki, A.Qahhor hayotda Qobil boboni va ho'kizning yo'qolishi natijasida ellikboshi, amin, tilmoch, pristavlar bilan bo'lgan achchiq sarguzashtini – kartina «model»ining shohidi bo'lgan emas, o'zicha tasavvur qilgan, o'ylab chiqargan.

Hayotda aynan shu voqea («model») bo'lgan bo'lmasada, lekin o'tmishda Qobil bobo singari qadr-qimmatiga yerga urilgan, boshiga «tashvish» tushgan kambag'allarning el-yurt ustunlari tomonidan so'nggi bor-shudigacha talon-taroj qilinishi, «otning o'limi-itning bayrami»ga aylanishi hodisasi minglab oddiy kishilar taqdiriga hamohang ekanligi ob'yektiv haqiqat edi. Shuning uchun ham A.Qahhorning hikoyada yaratgan badiiy haqiqati real hayot haqiqatiga shunchalik xos va mos keladiki, bundan yozuvchi sevinadi, hayratga tushadi.

Ikkala usulda ham yaratilgan asarlardagi badiiy haqiqatga xotira materiali, shaxsiy va ijodiy tajriba asosdir. Bizga kashfiyotdek tuyulgan (Turobjon, uning xotini; Sotiboldi va uning xotini hamda

⁶⁸ Абдулла Қаҳҳор. Ҳаёт ҳодисасидан бадий тўхумага. – Адабиётнинг автобиографияси, Т., 1973, 214-215- бетлар.

qizchasi, Mastura, Qobil bobo, ellikboshi, amin, pristav) obrazlar shaxsiy kuzatishlarga, kechinmalarga va aniq tasavvurlarga asoslangandir. Agar birinchi usulda hamma narsa ongli ravishda yuzaga kelsa va badiiy haqiqat tajriba bilan isbotlansa, ikkinchi usulda go'yo u badiiy haqiqatni «o'ylab chiqaradi», shaxsiy tajribaning ba'zi qirralaridan (xotira daftaridan olingan yo'qolmasdan oldin bormidi? detali) foydalansa ham, obraz va voqealarni kuzatmasdan, tasavvur orqali jonlantiradi.

«Biz hayotiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanishi haqida yozganimizda ko'pincha shunday taassurot tug'iladiki, ijodiy jarayonning yo'nalishi doim xayotiy haqiqatdan badiiy haqiqatga tomon boradi. Ob'yektiv voqelik birlamchi ekanligi shubhasiz, lekin bundan «ijod jarayoni faqat suvga o'xshab, yuqoridan pastga qarab oqadi. Ya'ni bittagina yo'nalishdan boradi degan xulosa chiqmasligi kerak. Ijod jarayonida suvdan ko'ra elektr zaryadlariga o'xshaydigan xususiyatlar ko'proq. Bu zaryadlarning bosh manbai hayot bo'lsa ham, lekin yo'nalish xuddi yashin va chaqmoqning yo'nalishidek nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Ba'zi hollarda yozuvchi hayot haqiqatiga boshqa ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiy haqiqat orqali yo'l topadi.

«Anna Karenina» romanining ilk rejasi L.N. Tolstoyning xayoliga Pushkinning prozasini o'qib o'tirgan paytida keladi. F.M. Dostoevskiy yaratgan Raskolnikov obrazining asosiy konsepsiyasi Balzak asarlari ta'sirida tug'iladi...»⁶⁹

Xuddi shunday holatlarni o'zbek yozuvchilari ijodida ham ko'rish mumkin. Oybek «Yevgeniy Onegin» (A.S.Pushkin) tarjimasi bilan shug'ullanar ekan, «Qutlug' qon»ni yozish fikriga keladi. A.Qahhor A.P.Chexov asarlarini o'qirkan, u «narsa va hodisalarga qarab, ularni qanday ko'rishni o'rgatganini» va «Millatchilar», «Bemor», «O'tmishdan ertaklar» kabi asarlarning Chexov ta'sirida yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. A.Qahhorning «Adabiyot muallimi» hikoyasi Qurbon Beregin degan tanishi aytib bergan voqealar ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa, P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanining yuzaga kelishida Bobur haqidagi tarixiy manbalar, hujjatlar bilan bir qatorda «Boburnoma» asarining ham salmoqli ta'siri borligini ko'ramiz.

⁶⁹ Адабиёт назарияси. Т., 1979, 2-том, 113-бет.

Demak, bu usulda bilvosita tajribaning dalillari ishga tushadi; bu dalillar biror bir kishidan eshitilgan, yo kitoblar mutolaasi natijasida tug'ilgan, yo tarixiy va boshqa manbalardan olingan bo'lib, yozuvchi ularni tiriltirishi va yaxlit narsaga aylantirishi lozim bo'ladi. Bunday paytda tasavvur o'zining konkret va jonliligi, kengligi va salmoqdorligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi tasavvuri o'tmishning jonli taassurot va kechinmalariga boy bo'lsa va uning shaxsida haqiqat hissiyoti kuchli rivojlangan bo'lsa-yaratilgan badiiy haqiqat (badiiy asar) hayot haqiqatiga (hayotga) mos kelaveradi.

A.Qahhor «Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga» nomli o'z ijod jarayoni tahliliga bag'ishlangan maqolasida yozadi:

«Adabiyot muallimi» hikoyasi yozilgunga qadar va undan keyin ham men juda ko'p savodsiz adabiyot o'qituvchilarini ko'rganman. U paytda bunday «o'qituvchilar» keng tarqalgan edi, chunki ilgari jahon va rus klassiklari asarlari juda kam tarjima qilingan, rus tilini ko'pchilik, ayniqsa, qishloqda yashovchilar uncha yaxshi bilishmasdi, aksariyat o'qituvchilarning bilimi xrestomatiyalarda beriladigan parchalardan nariga o'tmasdi. Buni ham ular imtihon topshirib, diplom olish uchun zarur bo'lganligi uchungina o'qishgan. Bunday odamlarning o'z fanlarini bilmasliklarigagina emas, hatto tushunmasliklariga ham ajablanmasa bo'ladi. Esimda, bir kuni qarindoshlarimizdan biri otpuskaga keldi. U adabiyot muallimasi edi. Kechqurun u teatrga bordi. Sahnada tarjima pesa ko'rsatilayotgan ekan, spektaklni ko'rib, uyga juda xunob bo'lib keldi: axir bu qanaqasi, sahnada o'rislarni ko'rsatishdi, lekin ular nuqul o'zbek tilida so'zlashadi!

Biroq hikoyani yozishga Qurbon Beregin degan tanishim aytib bergan bir necha voqea turtki bo'lgan. Beregin Markaziy Komitet apparatida ishlardi. 1936 yili u maktablarda adabiyot o'qitishni tekshirish uchun tuzilgan katta brigada sostavida Samarqand oblastiga borgan edi. U so'zlab bergan faktlar haqiqatdan ham kulgili edi.

Darsda M.Gorkiyning «Ona» romanini o'tgan bir o'qituvchi hech esimdan chiqmaydi. Komissiya uning darsiga kiradi, o'qituvchi komissiyani pisand qilmay toza «olib qochadi». Lekin o'sha darsda «Ona» romanini kim yozganligini bilmasligi ochilib qoladi. Beregin o'sha darsni kula-kula menga so'zlab bergan.

Tekshirish natijalarini keng muhamokama qilish mo'ljallangan edi. Biroq, aftidan, muhamokama bo'lmagan, har holda, men u haqda hech narsa eshitganim yo'q va to'plangan faktlarning bittasi ham matbuot qo'liga tushmaydi. Shundan keyin ana shu temada juda ham hikoya yozgim kelaverdi. Beregin tasvirlab bergan o'sha o'qituvchi xayolimni band qilib, hech nazarimdan nari ketmadi. Men uning darsidagina emas, uyidagi qiliqlarini ham, butun intilishlari, adabiyotga qanchalik aloqador ekanligini ham tasavvur qildim. Hikoya kompozitsiyasi o'z-o'zidan tiklana bordi. Faqat Gorkiyning «Ona»si o'rniga unda Chexov asarlaridan foydalandim. Buning sababi Chexov yaratgan obrazlar butun aql-hushimni chulg'ab olganligi edi».⁷⁰

Garchi Qurbon Beregin aytib bergan bir necha voqea hikoyaga asos bo'lgan va yozuvchi hayot haqiqatiga ana shu orqali yo'l topgan bo'lsa ham, baribir asos-hayot bo'lib qolaveradi. Chunki, badiiy haqiqat hayotning turli-tuman hodisalari ichida bekinib va sochilib yotadi. Gap ana shu haqiqatni qaysi yo'llar bilan bo'lmasin (hayot haqiqatidan-badiiy haqiqatga yoki badiiy haqiqatdan – hayot haqiqatiga tomon bormasin) bir butunligi, haqqoniyligi, yuqumliligini ta'minlashdadir.

Xullas, yuqoridagi fikrlarimizdan ravshan bo'lyaptiki, yozuvchi ongida ma'lum bir hayot hodisasining alomatlari to'planadi. U ana shu hayot hodisasiga hamohang bo'lgan ko'rgan-bilganlarini, boshidan kechirgan kechinmalarini, xotira va shaxsiy tajribasidagi hodisalarni u bilan sintezlashtiradi. Har tomonda tarqalib yotgan hodisalarni muayyan g'oya atrofiga uyushtiradi va bir butun narsa hosil qiladi. Tasavvur hamma faktlarni «jilovlaydi», yozuvchi maqsad sari intilgan sayin, o'zining shaxsiy hayoti va tajribasi davomida to'plagan, «tesha» tegmagan, cho'kib yotgan o'xshash xotiralar, kechinmalar, holatlar uyg'onadi, yuzaga chiqadi, uni hayajonga soladi. Real hayot bilan yozuvchining o'z olami dialektik aloqaga kirishadi, bir-biriga singadi. Biri-birini to'ldiradi, biri-birini yuzaga chiqaradi.

Shuning uchun ham asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlar turmushdagi faktlarga va odamlarga o'xshaydi. Ana shu o'xshashlikka asoslanib, ba'zi kitobxonlar u yoki bu asardagi voqea va qahramonlarni yozuvchi o'ylab topganiga ishonmaydilar.

⁷⁰ Абдулла Қаҳҳор. Ҳаёт ҳодисасидан бадийий тўқумага. - Адабиётимиз автобиографияси, Т., 1973, 206-207-бетлар.

Ularning tushunishicha, yozuvchi yaratgan voqealar, hodisalar – hayotda aynan bo'lgan voqealar va qahramonlar esa-bor kishilardir. Ayni paytda asarning bosh qahramoni – yozuvchining o'zidir...

Lekin bu tushuncha noto'g'ri ekanligini yozuvchi P. Qodirov ham asosli ta'kidlaydi: «... men o'zim «Qutlug' qon»ni o'qigan o'smirlik paytlarimda hammasini voqeyi deb o'ylaganman. U paytda men adabiyotni yaxshi bilmas edim, agar o'shanda birov «Yo'lchi hayotda bo'lgan emas, uni yozuvchi o'zi o'ylab topgan» desa, men ishonmas edim. Ishonsam, kitobdan ixlosim qaytishi mumkin edi. Keyinchalik bir jurnal redaksiyasi Oybek bilan qilgan suhbatlarini yozib olib, e'lon qildi. Bu suhbatda Oybek Yo'lchining prototipi bo'lmaganini, «Qutlug' qon»dagi ko'pchilik voqealar va qahramonlarni yozuvchi o'zi o'ylab topganini aytadi.

Ilgari men romanning qahramonlariga qanchalik qoyil qolgan bo'lsam, endi bu qahramonlarni shunchalik ishonarli va ta'sirli qilib yaratgan yozuvchiga o'shanchalik qoyil bo'ldim. Chunki tayyor holdagi hodisalarni, odamlarni voqeyi qilib tasvirlashdan ko'ra, aslida voqeyiday tuyuladigan, lekin ta'sir kuchi, umumlashtirish qudrati, voqeyidan ham baland turadigan qahramonlar yaratish mushkulroq va sharafliroq ekanini men endi bildim...

Yozuvchi butun asarni hayotdan olib yozgan, faqat hayotdan jo'n nusxa ko'chirib yozgan emas, balki faktlarni o'z hayotiy tajribasi va fantaziyasi bilan omuxta qilib, uni keragicha o'zgartirib yozgan».⁷¹

Hayot bilan poetik ijodning, fakt bilan to'qimaning o'zaro aloqasi, ular o'rtasidagi me'yor masalasini to'g'ri tushunish uchun G'afur G'ulom ijodiga, uning «Shum bola»sining yaratilish tarixiga murojaat qilaylik. **U ilhom bilan yozilgan asar – zaruriyat orqali yuzaga kelishini ta'kidlab, yozadi:**

«Har qanday proza asarini yozish menga qiyin bo'lsa ham, lekin «Shum bola»m ustida ishlayotganimda kayfichog'liq mendan ajralmagan edi. To'g'risini aytganimda, hozir asarning dastlabki rejasini tiklash qiyin – men o'z yoshligim haqida avtobiografik povest yozmoqchi edimmi? Yoki quvnoq sarguzashtlarga liq to'la bolalar kitobini yaratishmidi? To'g'rirog'i, har qanday adabiyotchi kamolot zinasiga qadam qo'yganda yuz beradigan hodisadek, men to'satdan

⁷¹ П.Қодиоров. Ўйлар. Гафур Гулом номидagi адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1971, 115-117-бетлар.

har yerdan, begonalar tarixidan ushoqlar terganimni aniqladim, mening shaxsiy, qadrdon va qimmatli materialim deyarli tegilmasdan yotibdi... Men xayolan o'z bolalik xotiralarimni tiklaguncha (ular juda ko'p edi, har qanday kitobga ham sig'mas edi); chang-to'zonli, paxsali mahallaning yalangoyoqi haqida – birinchi boblarni yozganimda; uning zimmasiga tushgan baxtsizliklar va quvonchlar to'g'risida yozganimda – men chin ko'ngildan o'z haqimda yozayotibman deb o'yladim. Shunday edi ham. Lekin, bir vaqt, nogahon men o'z Shum bolamga chetdan nazar tashlasam, to'satdan shu narsani aniqladim; u men emas. Darvoqe, sira ham men emas. Buni men payqamasdan, yuz yillar mobaynida xalqimning bolalari bilan sodir bo'lgan hodisalarni o'z qahramonimga nisbat beribman. Buni tushungach, hayron qoldim. Axir, men o'z yoshligimni bo'rttirib ko'rsatish niyatida emasdim. Aksincha! Endi, unga chuqurroq kirib, men faqat bor haqiqatni – xotiraning sirli, kulguning mug'ombir oynachalari orqali qaraganda ham, u mohiyati bilan dahshatli ekanini aytmoqchi edim. Lekin mening Shum bolam endi G'afur ismli bola va keyinchalik undan yozuvchi etishib chiqqan shaxs emasdi. Yo'q, u o'sha vaqtda, undan oldingi asrda minglab uchraydigan odatdagi o'zbek bolasi edi; ular bilan sodir bo'lgan voqealar Shum bola bilan ham bo'lishi, uning sarguzashtlari esa umumba tegishli bo'lishi mumkin edi...

Bu shunchaki chiroyli so'zlar emas. Asarning birinchi bo'limida bir epizod bor. Shum bola uydan palov uchun halfanaga tuxum va yog' oladi. Ammo erigan yog' uning ishtonidan oqib ketadi, jahli chiqqan ona uning boshiga o'qlov bilan uradi. Qalpoq tagidagi tuxum pachoqlanib, sarig'i oqiga aralashib, yuziga oqadi. Buni ko'rgan ona «Bola bechoraning boshini yorib, qatig'ini chiqarib yubordimmi» deb esidan ketadi... Bu tarix men bilan sodir bo'lgandi – hozir siz bilan gaplashayotgan G'afur G'ulom bilan. O'shanda men to'qqiz yoshda edim; lekin mening boshimga urgan onam emas, buvim edi. Bu voqeani oilamizda mendan boshqalar ham eslashadi... Men bu tarixni – aynan shu voqeani yaqinda turkman xalq ertaklari to'plamida uchratib qanchalik hayajonlanganimni faraz qiling...

Ha, u – men va men emasdim. Ancha-muncha yozib qo'yganimdan keyin, hech qayerda o'z qahramonimga nom bermaganimni sezib qoldim, qissada hikoya birinchi shaxs nomidan olib boriladi. Uning ismi yo'q edi – oddiy shum bola. Bir vaqt buni

anglab, men to'qiyotgan voqealarga avtorlikdan tashvishlanmay qo'ydim. Bizda aytishadi: «Hamma narsa, egasi bo'lmasa Afandiga tegishlidir». Bu yerda ham xuddi shunday edi. Men yozgan hikoyalarning biri hayotda, biri ertaklarda uchrardi va bunga Shum bolaning haqi bor edi, chunki u... haqiqatan ham xalq qahramoni edi... O'ylab ko'ring: bu kichik kambag'al sag'irning taqdiri o'ta fojiali, ammo u bitmas – tuganmas hayotiy kuchga to'la; hamma muvaffaqiyatsizliklarga kuchli optimizni va makkorona ziyraklikni, har xil umidsizliklarga bitmas – tuganmas kulgini, har qanday kuchli dushmanlarga ularning zaif va g'alati tomonlarini topish qobiliyatini qarshi qo'yadi. Hech qachon ishi yurishmaydigan bu boshpanasiz bola pirovardida baxtsiz sharoitni ham, zabardast boylarni ham, ayyor savdogarlarni ham yengib chiqadi... U bilan xayrlasharkanman, ko'z yoshi to'kmasligimni, balki zavqlanishim va ko'nglim to'q bo'lishini oldindan bilardim: endi u meni ham umidsizlanmaslikka va kurashishga o'rgatardi. Aslida, o'spirin Nasriddin edi, lekin Nasriddindan o'zining bolalarcha soddaligi bilan ajralib turardi. Ayrim joylarda Nasriddin o'zini go'l, tentak qilib mug'ombirlik qilsa, Shum bolada bu mug'ombirlik o'z-o'zidan – uning dilining soddaligidan kelib chiqar edi, kerakli vaziyatda u bundan to'g'ri foydalanardi... Aslida shumligiga qaramasdan u juda toza, bolalarcha oq ko'ngil, qayerda yaxshilig-u, qayerda yovuzlik, qayerda to'g'rilig-u, qayerda yolg'on borligini kattalardan yaxshiroq ko'rardi.

Balkim, Sizga mening shaxsiy personajimga bo'lgan bunday munosabatim kulgili tuyular, lekin men unga ijodiy qahramonimga qaraganday qarayman, yozgan narsamni emas, balki uning ortida turgan (shaxsiy) o'z bolaligimni, meni yaratgan xalqimning xususiyatlarini sevaman. Ha, to'g'risini deganda, men bu asarni shaxsan o'zimga eshitilayotgan qandaydir diktovka asosida yozganman...».⁷²

Demak, ijod jarayonida, P.Qodirov aytganidek va G'afur G'ulom tushunganidek, hech vaqt hayotning aynan epizodlari takrorlanmaydi. Har qanday asar syujeti yozuvchi kuzatgan, bilgan narsalari bilan shaxsiy tajriba va kechinmalari uyg'unlashuvidan yaratiladi. Garchi «Shum bola»da G'.G'ulomning o'zidan nimalar

⁷² Биография замысла (Беседы с мастерами узбекской литературы, записанные А.Наумовым). Изд. «Еш гвардия», Т., 1974, с.20-21.

qo'shganini (hammasini) to'liq aytish qiyin bo'lsayam, lekin asardagi hamma epizodlarni his qilganiga, go'yo qaytadan boshidan kechirganiga shak-shubha yo'q. G'.G'ulom o'z shaxsiy kechinmalarini Shum bolaga yuklar ekan, ayni paytda, u Shum bolani o'sha davr bolalarining ko'pchiligiga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlar egasi ham qilib ko'rsatadi. Demak, qahramon – umumlashma obraz, aniq bir shaxsdan ko'ra, o'z davrining tipik vakilidir. Darvoqe, yozuvchi ijod jarayonida o'z tasavvuri orqali o'ziga tanish va yaqin odamlar, voqealar ichida yashaydi; ma'lum g'oya asosida to'plangan alohida faktlarni o'zining shaxsiy tajribasi bilan boyitib, qalb prizmasidan o'tkazib, ko'pchilikka xos qilib umumlashtiradi.

Shunday qilib, «Shum bola»ning yaratilish tarixini G'.G'ulom tomonidan tushuntirilishi bizga realistik tasvirning mohiyati haqida asosli va yetarli tushuncha beradi. Unda «Shum bola» asari qaysi unsurlar birlashuvidan yuzaga kelganligi, hayot va ijodning bir-biriga tutash nuqtalari qandayligi aniq ko'rsatilganki, undan shunday xulosa chiqarish mumkin: Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yangidan ta'sirli va jonli, tabiiy va go'zal, tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi.

Adabiyotda hatto birgina obrazning portreti ham bir nechta yoki o'nlab real kishilarning tashqi ko'rinishlarini jamlashdan yoki hayotda ko'rgan, bilgan kishilarning o'z xotirasida qoldirgan ko'rinishlarini ko'z oldiga keltirishdan, ularning qiyofalaridan keragini tanlashdan va konkret qahramonda mujassamlashtirishdan yaratiladi.

Biroq Abdulla Qodiriy aytganidek, buning bir sharti bor: portret sun'iy, yasama nusxa bo'lmasligi, xalq orasida birov bo'lmasa birovda ko'rilgan, tabiiy, mantiqqa to'g'ri keladigan, kitobxonni ishonтирадиган bo'lishi kerak.

Adabiyot, Onore de Balzak yozganidek, rassomlikda ishlatiladigan usuldan foydalanadi, go'zal obrazning yaratilishi uchun qo'lni bir ayoldan, oyoqni ikkinchi ayoldan, ko'krakni boshqasidan, yelkani – unisidan oladi.

Buni tushunmaganlarga Abdulla Qodiriy kulib, «O'tkan kunlar» romanidagi O'zbek oyimni o'z onasi Josiyat bibidan, Oftob oyimni qaynonasi Xonim bibidan, Kumushni esa yaqin qarindoshi Oykumushdan olganini aytar ekan⁷³.

Bu narsa «Qodiriy ayollar obrazini, xususan, o'z oilasidan, yaqinlaridan olgan, o'rgangan» deb mulohaza yuritish⁷⁴ ning noilmiyligini ko'rsatadi, lekin o'z yaqin kishilaridan ba'zi shtrixlarni, muayyan obraz uchun zaruriy xususiyat va holatlarni olganligini rad etmaydi.

Ikkinchidan, yozuvchi qaysi qahramonning realistik portretini yaratmasin, uning tashqi qiyofasidagi eng xarakterli belgilarni chizishga va shu orqali ularning ruhiy dunyosini aks ettirishga intiladi. Xonim bibi ham, Oykumush ham, Josiyat bibi ham hech vaqt O'zbek oyimning, Oftob oyimning, Kumushning ruhiy olamini boshdan kechirmaganlar. Bu fikr ham Qodiriyning yuqoridagi da'vosini rad etadi. Habibullo Qodiriy xotira kitobida yozadi:

«Eshonguzar mahallamizda mulla Alijon ismli dadamning domlasi bo'lardi. O'zi dadamdan o'n besh yoshlar katta, 1910-1916 yillarda rus-tuzem maktabida o'qituvchilik qilgan, dadamga dars bergan, keyinchalik esa juda do'stlashib qolgan kishi edi. Dadam bu kishini «ham ustoz, ham yyetuk inson» deb nihoyatda hurmat qilardi. Agar Qodiriy umrida birgina kishini hurmat qilgan deb, faraz qilsak (albatta, ota-ona bundan mustasno), o'sha shaxs shu Alijon domladir, deyish mubolag'a bo'lmas...

- Ilgarilari mullalar aksar o'ttiz yillab o'qib madrasini bazo'r xatm qilardilar. Lekin Alijon domla Buxoro madrasalaridan birini besh yilda tamomlab qaytgan. Bilag'onligi uchun uni madrasadagilar «Alicha», deb atashgan. Domlaning yaxshi xislati shundaki, u pok ko'ngil, kibrsiz, tamagir emas, sabr-qanoatli, kamtar, mutolaasi zo'r olim, - der edi bu kishi to'g'risida dadam.

Alijon domla 1964 yili sakson besh yoshlarida vafot etdi. Domla menga ham fors tilidan dars berganligi vajidan men ham u kishini yaxshi bilaman. U oqishdan kelgan, ozg'in gavdali, cho'ziqroq, kelishgan yuz, soqol-muylovli, kichik boshiga oq simobi

⁷³ X. Qodiriy. Отам ҳақида. Т., 1974, 115-бет.

⁷⁴ Шу жигит. 117-бет

salla, telpak yoki kamzuli ustida jo'n, oyog'ida mahsi-kavush kiyib yuruvchi, tik qomat, nuroniy chehra kishi edi.

Domlanning ichki dunyosi ham nurga to'lgan kabi edi. Gapni o'ylab, bosiq, sodda, yoqimli so'zlardi. So'zida mantiqsiz, ortiqcha iboralar mutlaqo bo'lmas, tinglovchi go'yo huzurlanar, yana-yana tinglasam, der edi. Buningdek otalar xalqimizda garchi ko'plab uchrasa-da, negadir, ayniqsa bu kishini men Yusufbek Hoji obraziga juda-juda o'xshataman. Muallif, albatta, Yusufbekni siyosiy arbob, ma'lum tabaqaning vakili qilib tasvirlaydi. Alijon domlada garchi bu tomonlar ko'rinmasa-da, har holda boshqa jihatlari, meningcha, ruhan va jisman Yusufbek Hojiga timsoldekdir»⁷⁵.

Alijon domlani «ruhan va jisman Yusufbek Hojiga timsol qilib ko'rsatish, «mezonga olish», uni Yusufbek Hojining prototipi deb tushunish ijod jarayonining murakkabligini va uning mohiyatini ma'lum darajada soxtalashtiradi. Chunki asardagi Yusufbek Hojining qiyofasi uning xislatlarini birgina Alijon domladan emas, yuzlab boshqa kishilarda ham uchratish mumkin. Agar yozuvchining vazifasi - Yusufbek Hojini o'z davrining yirik savdogarlar tabaqasining vakili, siyosiy arbobi; tik qomat va nuroniy ota, tinglovchi huzurlanuvchi darajada yoqimli so'zlovchi, bosiq qaynota qilib tasvirlamoq ekan, tasvirlaganda ham tipik, umumlashma obraz qilib yaratarkan, albatta, o'sha tabaqaga, o'sha arboblarga, o'sha otalarga, o'sha qaynotalarga xos bo'lgan asosiy fazilat va kamchiliklarni – xususiyatlarni tanlab Yusufbek Hoji xarakterida berishi tabiiy edi. Shunday bo'lgach, Yusufbek Hoji obrazini yaratishdagi **ijodiy tanlashning, umumlashtirishning, hayotdagi kishilarga o'xshash qilib yaratishning rolini, hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanish jarayonini** pasaytirmaslik, balki bunga asosiy urg'uni berish lozim. Chunki, N.V. Gogol aytganidek, yozuvchi hech vaqt oddiy nusxadan **portret chizmaydi. U portret yaratadi.**

Tarixiy shaxslarning portreti yaratilganda ham san'atkor real faktlar (yuz tuzilishi, qomati, kiyinishi va sh.k.)ga, tashqi ko'rinishlariga asoslansa-da, lekin o'zining poetik tasavvuri va asarning rejasiga muvofiq qilib, uni «ichdan» o'zgartiradi.

«O'tkan kunlar»da tasvirlangan tarixiy shaxslardan biri Musulmonqul. Avtor uning portretini quyidagicha chizadi:

⁷⁵ X. Қодирий. Отам хаюнда. Т., 1974, 115-бет.

«Xonning soʻl tomonidagi oltin hamallik kursi, ustida Oʻratepa chakmani ustidan qayish kamar bogʻlab, soddagina qilich taqingan, boshiga oq barra popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarli tekis yaratilgan, oʻrtacha soqol, qisiq koʻz, bugʻdoy rang, oʻrta yoshli bir kimsa – Musulmonqul oʻtirar va hozirgina hudaychi tarafidan oʻziga topshirilgan ariza va maktublardan ochib oʻqir edi»⁷⁶.

Musulmonqulning jasur kishi boʻlganligini kitobdagi izohda ham taʼkidlaydi: «Musulmonqulning oʻzi ham favqulodda yuraklik edi. 1853 y. tarixida Musulmonqul qoʻqonliklarga asir tushib, uni toʻpdan olib oʻldirish uchun dordek bir narsaning ustiga oʻtqizirlar. Ikkinchi tomondan toʻpga oʻt berish kutiladi. Shu vaqtda kishilar Musulmonquldan soʻraydilar: «Endi qalaysan, choʻloq?» Musulmonqul kulibgina javob beradi: «Alhamdulillah, hali ham sizlardan yuqori bir erda oʻtiribman!...»⁷⁷.

Garchi keltirilgan bu faktlar – hayot haqiqatiga mos boʻlsa-da, lekin yozuvchi oʻtgan asrdagi xonlar va oliy amaldorlarning beburdligini, adolatsizligini, xalq qonini soʻruvchi zulukligini, yurtini talashdan boshqa manfaati boʻlmagan, qirgʻin va urushlar ijodkorlarining tipik obrazini yaratishda Musulmonqul portretini «ichdan» yangilaydi. Uni «kipriksiz koʻzlarda oʻtlar yonadigan», «nihoyatda tutaqqan», «alamiga chiday olmaydigan», «xonlikdagi yuqori bir kuchga molik siyosat kursisiga oʻtirgan», hiyla va nayrangboz, «makkor tulki», «qahru-gʻazab egasi», «istehzoli iljayuvchi», «choʻltoq supurgi», «uyatsiz» qilib yaratadi.

Demak, yozuvchi haqiqiy sanʼatkor boʻlsa, u hamma vaqt (asarning eng nozik shtrixlarigacha) yaratadi. Chunki uning vazifasi – tabiatni, shaxsning nusxasini yaratish emas, balki oʻxshash qilib yaratilgan narsaga jon va harakat ato qilishda, uning qalbi, mazmuni, xarakterli koʻrinishi haqida taassurot uygʻotishdadir.

Xullas, yozuvchi muayyan bir shaxs portretini yaratganda, shu shaxs mansub boʻlgan tabaqa vakillarining u yoki bu darajada keng tarqalgan ijobiy yoki salbiy xislatlarini (koʻrinishlari)ni payqaydi va ularni konkret bir shaxs (obraz)da uygʻunlashtiradi. Albatta, bu portret oʻziga xos yuzlab jonli kishilarga mumkin qadar nozikroq, chuqurroq

⁷⁶ А. Қодирий. Ўтган кунар. Т., 1980, 108-бет.

⁷⁷ Шу жиге6, 117-бет.

darajada o'xshagan bo'lishi va avtor aks ettirmoqchi bo'lgan narsani yorqinroq ko'rsatishi shart.

Shuning uchun ham «Yozuvchi ko'plab shaxslarda ko'ringan fazilatlardan, o'z g'oyasiga, ijodiy maqsadiga muvofiq keladiganini xilab olib, qahramonida mujassamlantirmoqchi bo'lganda xuddi seleksionerga o'xshab ish tutadi. Ya'ni, odamlarning xususiyatlarini tirik holida oladi va boshqa tirik xarakterga chatishib, yashab ketadigan qilib o'tkazadi. Bug'doyda hayotning eng barq urgan payti va boshqa bug'doyning ham xususiyatini olib, o'ziga umumlashtirishga qodir bo'lgan payti-gullagan payti bo'ladi. Yozuvchi yaratayotgan qahramonlarning hayoti ham barq urib turishi va boshqa yaxshi kishilarning fazilatini o'ziga olib singdirishga layoqatli bo'lishi kerak.

Abdulla Qodiriy o'z qarindoshlari Oyqumush kabi o'zbek ayollarining husnlari, odoblari, boshqa insoniy fazilatlarini Kumush obrazida tirik bir xarakter shaklida mujassamlashtirgan. Romandagi yorqin voqealarsiz, keskin to'qnashuvlarsiz, Otabek kabi sevimli yigitsiz ikkovining taqdirini belgilagan hayotiy asoslarsiz bu mumkinmidi? Yo'q. Kumushning shunday bir davrda yashashi, shunday ota-onaning qizi, Otabekday yigitning yori, O'zbek oyimday ayolning kelini-yu, Zaynabday juvonning kundoshi bo'lishi – hammasi birlashib yozuvchiga bu obrazdagi g'oyaviy – badiiy kuchlarni barq urdirish imkonini beradi. Kumush o'ziga o'xshash o'zbek ayollarining juda ko'p fazilatlarini mana shu sharoitdagina tirik holicha olib, bir xarakterda mujassamlashtirishi mumkin edi»⁷⁸.

Bobni mustahkamlovchi savollar

1. Hayot bilan adabiy ijodning farqi nimada?
2. Hayotiy haqiqat va badiiy haqiqatning munosabatini bilasizmi? Badiiy haqiqatning zaminini qanday tushunasiz? va uning badiiy to'qima bilan uyg'unligi qay darajada bo'lishi mumkin?

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. A.Qahhorning "O'g'ri", "Bemor", "Mingbir jon", "Adabiyot muallimi" hikoyalarini qayta o'qib chiqing. So'ngra tanishib

⁷⁸ П. Қодиров. Ўйлар, Т., 1971, 118-119-бетлар.

chiqqaningiz "Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga" iqrornomasiga solishtiring.

2. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini, G'.G'ulomning "Shum bola" qissasini o'qib chiqqach, "Adabiyotimiz avtobiografiyasi", "Rejaning tarjimai holi" (A.Naumov), "Ijod mashaqqati" (A.Qodiriy), "O'ylar" (P.Qodirov) kitoblarini tahlil qiling. Fikr-mulohazalaringizni yozing.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Биография замысла (Беседы с мастерами узбекской литературы, записанные А.Наумовым). Изд. «Еш гвардия», Т., 1974.
2. Х. Қодирий. Отам ҳақида. Т., 1974.
3. А. Қодирий. Ўтган кунлар. Т., 1980.
4. А. Қодирий. Ижод машаққати. Т., 1995.
5. П.Қодиров. Ўйлар. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1971.
6. С.Аҳмад. Назм чорраҳасида. Т., 1982.
7. Адабиётимиз автобиографияси. Т., 1973.
8. Умутов Х. Бадий ижод асослари. Т., "Ўзбекистон", 2001.

TO'RTINCHI BOB

YOZUVCHI – OBRAZ – KITOBXON

Har kim o'z ishida ulug'vor bo'lishi kerak.

B. Grasian

Yozuvchi – “o'zining shaxsiy – sub'yektiv taassurotlarini qayta ishlay oladigan, ularda umum ahamiyatli – ob'yektiv tomonlarini topa oladigan, tasavvurlarga o'z shaklini bera oladigan, hayotga, odamlarga va aynan shu faktga nisbatan o'z sub'yektiv munosabatini topa oladigan hamda bu munosabatni o'z shakli, o'z so'zida gavdalandira oladigan”⁷⁹ talantli inson ekan, uning ijodida, asarlarida sub'yektiv va ob'yektiv kategoriyalarning dialektik birligi qay tarzda yechiladi? “Yozuvchilik... talantli shaxsning yashash tarzi” (A.Muxtor)⁸⁰ ekan, uning “daxlsiz dunyosi” sirlarini qanday kashf etish mumkin? Asarda faqat hayot va ana shu hayotning ijodkori, qalbi bo'lgan insonning ruhiy tasviri bo'lishi lozim ekan, bu qanday amalga oshadi?..

Akademik A.M.Levidov “Avtor – obraz – kitobxon” nomli noyob tadqiqotida sub'yektiv va ob'yektiv kategoriyalarning dialektikasini badiiy adabiyotda, rassomlikda, muzikada, aktyorlik san'atida qanday mujassamlashishini qiziqarli yoritib ekan, bu dialektik qarama-qarshilik asosida quyidagi uch holat yotishini qayd qiladi:

1. Muallif o'zini bermasligi mumkin emas.
2. Muallif o'zini berishga majbur.
3. Muallif o'zini bermasligi kerak (“o'lishi shart).

Uning yozishicha “bu holatlarning har birini alohida olganda – haqiqat, ular birlashganda, o'zaro aloqada, o'zaro bir-biri bilan bog'liqlikda, o'zining yaxlitligida – haqiqat. Bu aytilganlar realist-san'atkor yozuvchiga ham, rassomga ham, haykaltaroshga ham, teatr, kino, televideniye arboblari ham tegishlidir”⁸¹.

⁷⁹ Горький М. Собр. соч. в 30-ти томах. т. 29, М., 1949-1955, стр. 259-260.

⁸⁰ У. Норматов. Талант тарбияси. Т., “Ёш гвардия”, 1980, 29-бет.

⁸¹ Левицкий А.М. Автор — образ — читатель. Л., 1977, стр. 159.

Garchi, bir qarashda bu holatlar bir-birini rad qilgandek tuyulsa-da, lekin ular birlashganda, yaxlitlashganda, ta'siri beqiyos san'atni, adabiyotni, buyuk badiiy haqiqatni yuzaga keltiradiki, buning ma'lum qirralari G.M.Lenobl, P.N.Medvedev, Yu.Oklyanskiy, A.G.Seytlin kabi avtorlarning biz yuqorida nomini tilga olgan kitoblarida tahlil etilgan. Shuningdek L.S.Vegodskiy, B.S.Meylax L.M.Yakobson, E.G.Yakovlev kabi adabiyotshunoslarning asarlarida ham o'rganilgan⁸².

Biroq o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidida bu muammo maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida yetarli darajada tahlilini topmagan. To'g'ri, I.Sulton, M.Qo'shjonov, H.Yoqubov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Karimov, U.Normatov, V.Zohidov, A.Hayitmetov, N.Xudoyberganov kabi ko'pchilik nazariyotchilar, adabiyotshunoslar, tanqidchilarning asarlarida ijod jarayonining tabiati, psixologiyasi, sirlari o'rganilgan, qimmatli fikrlar aytilgan. Ayniqsa, bu sohaga dastlab qo'l o'rgan yozuvchi P.Qodirovning adabiy "O'ylar"ida ijod jarayonining qiziqarli momentlari kichik-kichik etyudlar tarzida asosli yoritildi⁸³.

Garchi, bir qarashda bu holatlar bir-birini rad qilgandek tuyulsa-da, lekin ular birlashganda, yaxlitlashganda, ta'siri beqiyos san'atni, adabiyotni, buyuk badiiy haqiqatni yuzaga keltiradiki, buning ma'lum qirralari G.M.Lenobl, P.N.Medvedev, Yu.Oklyanskiy, A.G.Seytlin kabi avtorlarning biz yuqorida nomini tilga olgan kitoblarida tahlil etilgan. Shuningdek L.S.Vegodskiy, B.S.Meylax L.M.Yakobson, E.G.Yakovlev kabi adabiyotshunoslarning asarlarida ham o'rganilgan⁸⁴.

U.Normatovning turli avlodga mansub yozuvchilar bilan bahs-suhbatlari kitob bo'lib chiqdi⁸⁵. Unda tanqidchi adiblarning "daxlsiz dunyo"sini – ijod laboratoriyasining ba'zi tomonlarini tekshirdi. Ularning o'z ijodlari haqidagi iqromnomalarini, tajribalarini, qahramon yaratishdagi o'ziga xosliklarini umumlashtirishga intildi.

"Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi"⁸⁶ nomli kitobda O.Nosirov yozuvchi ijodiy individualligining shakllanishi, badiiy uslub

⁸² Выготский Л.С. Психология искусства. М., 1968. Мейлах Б.С. Талант писателя и процессы творчества. Л., 1969. Яковсон Л.Н. Психология художественного творчества. М., 1971. Яковлев Е.Г. Проблемы художественного творчества. М., 1972.

⁸³ П. Коллеров. Уйлар. Т., Ф.Фуллом номидagi адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.

⁸⁴ У. Норматов. Талант тарбияси. Т., "Ёш гвардия", 1980.

⁸⁵ У. Норматов. Талант тарбияси. Т., "Ёш гвардия", 1980.

⁸⁶ У. Носиров. Ижодкор шахс, бadiiy услуб, автор образи. Т., "Фан", 1981.

mohiyati, uning shakllanishidagi shart-sharoitlar, "avtor obrazi" kategoriyasi kabi masalalar xususida fikr yuritib, tabiiy iste'dod, ijodkor va muhit, ijodkor dunyoqarashi, talantning badiiy individualligi haqida asosli umumlashmalar chiqarishga erishdi.

Bularning hammasi – ijod jarayonidek poyonsiz va chuqur sohaning mayda-mayda shoxobchalaridir. Shu boisdan biz yuqoridagi tadqiqotlarga asoslangan holda ijod jarayonining muhim tuyulgan va yozuvchi ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan ba'zi masalalariga qo'l urishga jur'at qildik.

MUALLIF O'ZINI BERMASLIGI MUMKIN EMAS

V.G.Belinskiyning "Tanqid haqida nutq" asarida yozilishicha, birgina tabiiy talant bilan uzoqqa borib bo'lmaydi, olov o'chmaslik uchun yog'ga muhtoj bo'lganidek, talant ham aqliy mazmunga muhtojdir. Bu aqliy mazmun – uning ma'lum sinf nuqtayi nazaridan hayotga qarashida, obrazlar orqali ijtimoiy voqelik ustidan chiqarilgan hukmda, yuragiga mos e'tiqodida, muhabbat, nafrat, xayrxohligida namoyon bo'ladi. Demak, yozuvchining ijtimoiy qiyofasi uning dunyoqarashi – talanti uzluksiz yonishini ta'minlaydi, unga ma'lum yo'nalish beradi, katta haqiqatni kashf etishiga asos bo'ladi.

Jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlarini eng izchil ochib beruvchi, san'at va voqelik o'rtasidagi munosabatlarni, ularning tabiati masalalarini to'g'ri asoslovchi ta'limotni chuqur egallamay turib, san'atkor davrning ruhini, odamlarning xarakterini, ideallarini mukammal tushunmaydi, hayotning yetakchi tendensiyalarini ilg'ab ololmaydi, taraqqiyot jarayonini yetarli badiiy tahlil qila olmaydi.

"Zotan, Gorkiy iborasi bilan aytganda "san'atkor o'z vatani, o'z sinfining sezgisi ekan, uning qulog'i, ko'z qarog'i va yuragi, o'z asrining ovozi" ekan, bunday fazilatga ega bo'lishi uchun u xalq bilan bir tan, bir jon bo'lib yashashi va mehnat qilishi kerak uning dardi va tashvishini, orzu-istagini o'ziniki tarzida yurakdan his qilishi zarur, uning dili va tiliga aylanishi lozim".

Yozuvchining dunyoqarashi – yaratilayotgan asarida aytmoqchi bo'lgan salmoqli fikri bilan, g'oyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

G'oya o'z navbatida asardagi obrazlarga singigan bo'lib, ularning faoliyatlari – xatti-harakatlari, kurashlari, intilishlari, orzu-istaklari orqali reallashadi.

Shuning uchun ham badiiy asardagi g'oya turmush hodisalari ustidan chiqarilgan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsional ifodalash yakunidir. Bu yakun badiiy asar organizmining har bir hujayrasiga singib ketgan bo'ladi. Shu sababli badiiy asardagi g'oyani faqat shu asarning butun obrazlari mazmuni orqaligina anglash mumkin. L. Tolstoy ta'biri bilan aytganda, har bir badiiy asarning g'oyasini ifoda etish uchun u qanday yozilgan bo'lsa, shunday qayta yozib chiqish kerak bo'ladi⁸⁷.

Agar biz "O'tkan kunlar" romanida A.Qodiriy "Tariximizning eng kir, qora kunlari"ni tasvirlagan desak, unda roman g'oyasi o'z rangini, ko'rinishini, latofatini, go'zalligini, ta'sirini yo'qotadi. Avtor aytmokchi bo'lgan fikrlarning yuzdan birini ham ayta olmagan va ularni obrazlardan (demakki, o'tmish hayotdan) ajratgan bo'lamiz.

Xolbuki, romandagi g'oyalar dunyosi obrazli fikrlardir. U Otabek Kumush, Zaynab, Yusufbek Hoji, Mirzakarim Qutidor, Homid, Musulmonqul, Oftoboyim, Xushro'y, Hasanali, usta Olim kabi o'nlab obrazlar hayoti va taqdiri orqaligina o'tmish haqiqati "eng kir, qora kunlar" bo'lganligini to'liq his qilamiz va anglaymiz. Ishonamiz va afsus chekamiz. Qayg'uramiz va bugungi kunimizdan xursand bo'lamiz. Yozuvchining har bir qahramonga bo'lgan munosabati bizda – o'quvchida ham shunday munosabat uyg'otadi: u qaysi obraz (taqdiri)dan hayajonga kelsa, yig'lasa, ayblasa, nafratlansa, biz ham hayajonlanamiz, yig'laymiz, ayblaymiz, nafratlanamiz.

Boya "badiiy asar qalbi" (Korolenko) bo'lgani uchun "hamma narsa ana shu konsepsiyaga" (Gyote), g'oyaga bog'liqlik, yozuvchi o'zining qarashlari, e'tiqodi, ixlosi, ishonchini bermasligi mumkin emas. G'oya magnit kabi hamma adabiy unsurlarni o'ziga tortganidek yozuvchining dunyoqarashi, e'tiqodi ham kitobxonni o'ziga rom etadi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday talantning kuchi uning faol ijtimoiy pozitsiyasiga bog'liqdir. Chunki, talantning xalq hayoti bilan aloqasi bo'lmasa, uning yuragida grajdanlik

⁸⁷ И.Супотин. Адабиёт назарияси. Т., "Ўқитувчи", 1980, 170-бет.

olovi yonmasa, bu olov ozod Vatan va istiqlol bunyodkorlari taqdiri bilan loyullamasa, zavqlanmasa, buni chin yurakdan samimiy targ'ib etmasa, ifoda qila bilmasa – u mening, sizning, bizning yozuvchimiz emas. U hech vaqt xalq baxtining kuychisi, himoyachisi bo'la olmaydi.

Xullas, "Muallif o'zini bermasligi mumkin emas" degan holat o'z-o'zidan tendensioz san'at bo'lmaydi va bo'lishi mumkin emasligini isbotlaydi. Chunki, har qanday yozuvchi muayyan jamiyatning farzandi ekan, u ana shu jamiyat, el-yurt odamlari uchun ongli ravishda xizmat qiladi. Hayotga, voqelikka ana shu jamiyat va uning odamlari nuqtayi nazaridan o'z imoni, e'tiqodi, simpatiyasi va antipatiyasi – munosabatlarini bildiradi.

MUALLIF O'ZINI BERISHGA MAJBUR

Yozuvchining asarda tasvirlanayotgan olamda yashashi, shu olam kishilari bilan munosabatga kirishishi, ularning yaxshisini sevishi, yomonini qoralashi – hamma san'atkorlarga ham xosdir. A.Tolstoy yozganidek "Tasvirlanayotgan narsalarni his-tuyg'ular yordamida ko'ra bilib, asar yaratish – yozuvchi uchun qonundir"⁸².

Demak, yozuvchi har bir qahramonning ovozini, yuz ifodasini, kechinmasini, so'zlashish uslubini berish uchun, uning xatti-harakatini, iroda yo'nalishini asoslash uchun, albatta, o'sha qahramonlarning qiyofasiga kirishni shart qilib qo'yadi. Busiz, yozuvchi qahramonning o'sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o'ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o'rtasida o'xshashlik bo'lmasa-da, unda yozuvchi avtobiografiyasining unsurlari ko'rinmasa-da, baribir, o'zining yuzlab qahramonlarining ichki tabiatiga mos o'zak nuqtalarni topib tasvirlash qudratiga ega. Chunki, yuqorida aytganimizdek har birimizda yashirin tarzda insoniy xususiyatlarining hammasi mavjud, lekin ulardan qay biri bo'lsin ichki ehtiyoj (qahramon xarakteri) talabi bilan birinchi planga chiqqanida, yozuvchi tasavvurida jonlana beradi. Ba'zilar o'ylaganidek hamma, dunyoda bor ruhiy kechinmalarni yozuvchi boshidan o'tkazgan bo'lishi shart emas.

S.Ahmadning "Ufq" romanidagi Inoyat oqsoqol obrazini

⁸² Бадний ижод ҳақида. Т., Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1960, 100-бет.

bilmagan, uning nomi tilga olinganda pulga, davlatga mukkasidan ketgan, o'ta xasisni eslamagan kitobxon kam topiladi. Haqiqatan ham Inoyat oqsoqol uchun eng ezgu narsa, eng ulug' narsa – pul. O'zining puli bo'lmasa boshqaning pulini sanab berib rohatlanadi. Pul deganda jonidan, vijdonidan, farzandlaridan voz kechadi. Bor mehrini pulga baxshida qiladi, ezilsa, ho'llab samovarning qo'yniga qo'yib dazmollaydi. Pul deb jinoyatdan ham toymaydi.

Shunday jonli xarakterni yaratish uchun, ba'zilar o'ylagandek S.Ahmad Inoyat oqsoqoldek xasisning ruhiy kechinmalarini aynan boshdan o'tkazgan bo'lishi lozim, deb xulosa chiqarish tamoman noo'rin va noto'g'ridir. Bunday xasisni yaratish uchun yozuvchi xasislikni bir necha vaqt, bir necha soniya kuchli his qila bilsa, shuning o'zi kifoya. U Inoyat oksoqol qiyofasiga kirgach, uning barcha qiliqlari, harakatlari, kechinmalarini tasvirlash qudratiga ega bo'ladi. Axir "roman yaratuvchi real narsani yaratmaydi, bo'lishi mumkin bo'lgan narsani jonlantiradi" (Tibode).

Ayni paytda yozuvchi kundalik turmushida ko'rgan, tadqiq etgan, bir necha bor duch kelgan xasis kishilarning holatlari yordamga keladi. A.Qahhor yozganidek "Odatda mushohada faqat kerak bo'lganda, biron asar yozish uchun zarur bo'lib qolganda qilinmaydi.

Masalan, birovning oyog'ini tramvay bosdi. Ehtimol, mening qahramonlarimdan, personajlarimdan hech kimning oyog'ini tramvay bosmas. Lekin oyog'ini tramvay bosgan odamning o'sha damdagi holati, harakati, qiyofasi esimda qolishi kerak. Chunki, mabodo shunday holat kerak bo'lib qolsa, oyog'ini tramvayga bostirib ko'rgani hech kim rozi bo'lmaydi".

Ikkinchidan, har qanday insoniy holatni chaqirish, uni uyg'otish, kuchaytirish, bo'rttirish mumkin ekan, bunday paytda eng katta xizmatni ichki holatning tashqi belgilari bajaradi.

Kishi miyasida va tanasida hayajon, his-tuyg'u, g'oyalar oqimi, ularning ortidan esa jismoniy harakatlar beto'xtov davom etadi. Odam to'xtovsiz ravishda qo'llarini harakatlantiradi, imo-ishoralar qiladi. Bu gapni yomon ma'noda tushunmanglar. Ba'zan imo-ishora – amalga oshirilmagan yoki endi qilinmoqchi bo'lgan imo-ishoraning belgisigina bo'lishi mumkin. Ammo san'atkor imo-ishorani qalbdagi tovlanishning qitday natijasi sifatida sezib ola bilishi kerak.

Imo-ishoraning ketidan so'z keladi. Imo-ishora jumalani aniqlaydi.

Agarda siz, o'zingiz tasvirlayotgan personajning (shu personajni siz o'zingiz, albatta ko'z oldingizga keltira olsangizgina) imo-ishorasini his etgan, sezgan bo'lsangiz, o'sha siz sezib qolgan imo-ishoraning ketidan, sizning personajingiz shu paytdagi ruhiy holatiga mos tushadigan xuddi shunday tartibdagi, xuddi shunday tanlangan, xuddi shunday talaffuz etiladigan so'zlardan tashkil topgan yakka-yagona jumla keladi"⁸⁹.

Ko'rinadiki, yozuvchi qahramon qiyofasiga kirgandagina o'zining shaxsiy kayfiyatidan, o'y va kechinmalaridan xalos bo'ladi va o'zganing qalbiga kirgach, uning hayoti va ruhi bilan yashaydi. U hayot prozasidan uzilib, tasavvuridagi yangi dunyo, yangi kechinmalar olamida yasharkan, yuqorida aytganimizdek bo'lishi mumkin bo'lgan qahramonlar bilan munosabatga kirishadilar: go'yo tirik odamlar bilan suhbat qilayotgandek suhbatlashadilar, azoblanadilar, zavqlanadilar, kuladilar...

Har bir asar yozuvchini yangi bir muhitda yashashga olib keladi. Xarakterlarga singish sistemaga aylanadi. Ayni paytda yozuvchi o'zligini yo'qotmagan holda o'z hayotini, turmushini ham oddiy kishilardek kechirishga majbur. Ana shu nosozlik (vaqti-vaqti bilan hayotdan adabiy olamga, adabiy olamdan ob'yektiv hayotga qaytish) dam yozuvchini zavq-u shavqqa ko'msa, dam uni qiyin ahvolga solishi mumkin. Shu sabab, A.Muxtor "... har bir yangi kitob boshlanishida yangi yozuvchi tug'iladi.

Har bir kitob tugaganda – ko'ngilda qandaydir bo'shlik yuz beradi. Huvillab qolganday bo'lasiz", deb yozarkan, S.Ahmad "Ufq" romanida xayolan yaratgan, sevib qolgan qahramonlaridan "voz" kechish – eng katta azob ekanligini ta'kidlar ekan, bu tamomila haqiqatdir.

Xullas, yozuvchi obrazga singib ketar ekan, u aynan bo'lmagan voqealarni, odamlarni bordek his etadi, eshitadi, ko'radi. Ularning ob'yektiv mavjudligiga ishonib, o'zining "men"idan uzoqlashadi. U o'z tasavvuri, xayolida yaratgan qahramonning taqdirini aynan, ba'zida qiyinchilik bilan boshidan kechira boshlaydi; unga, uning yashash tarziga, tortayotgan rohat-u azoblariga sherik bo'ladi. Lekin o'zligini tamoman unutadimi?

⁸⁹ М. Толстой. Еш ёзувчиларга. - Бадний ижод ҳақида. Т., Ғ.Ғулом номидagi адабиёт ва санъат нашриёти, 1960, 99-бет.

"...har bir yozuvchi o'zi uchun tanqidchi ham hisoblanadi, deb yozadi Pirimqul Qodirov "O'ylar" kitobida. Go'yo uning yarmi yozuvchi bo'lib yozsa, yarmi tanqidchi bo'lib, qanday yozayotganini aytib turadi, har bir asarini kitobxondagi ehtiyojlar, adabiyotdagi talablar va avtorning yuragidagi niyatlarning toshi bilan tortib qabul qiladi"⁹⁰. Demak, muallif o'zining yaratgan asarlarinigina emas, balki o'zini ham ob'yektivlashtirishi lozim degan haqiqatni – adabiy ijodning qonuniyatlaridan birini to'g'ri ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida ham ijod qilish, ham nazorat qilish hodisasini S.Ahmad ham asosli ta'kidlaydi: "Xullas, men "Ufq"da birovga o'xshamaslikka harakat qilganman. Yozayotgan har bir jumlanı, shu rostmi, birov o'qisa ishonadimi, deb o'zimdan-o'zim so'rab yozganman. Bironta yozuvchining kitobidagi tasvir, bironta o'xshatish beixtiyor kirib qolmasligini kontrol qilib turganman"⁹¹.

Ko'rinyaptiki, asar yaratish jarayonida yozuvchining ongi go'yo ikkiga bo'linadi: u (muallif) yaratuvchi, u (o'quvchi) baholovchidir. Ana shu yaratuvchanlik va baholovchilik holatlarining mutanosibligi asarning ta'sir kuchini ta'minlaydi. Agar birinchi holat – yozuvchining ijod jarayonida o'zganing (obrazning) "terisiga kira bilishi"ga, uning ruhi bilan yashay olishiga va voqeaning ishtirokchisiga aylanishiga olib kelsa, ikkinchi **holat** – obrazning o'zidan ajratishiga, unga sal uzoqroqdan razm solishga imkon beradi.

Aytmoqchimizki, yozuvchi tasvirlanayotgan voqelik ichida, qahramon shaxsida yashar ekan, u hech vaqt o'zligini (yaratuvchi shaxsligini) yo'qotmasligi kerak. Chunki yozuvchi tasvirlanayotgan personaj emas, u personajning hamma kechinmalarini aslida boshidan kechirgan emas. Lekin yozuvchida personaj yuragini o'z qalbiga joylab olmoq san'ati, inson psixikasi, his-hayajon va iztiroblarini tasvirlay olish qudrati bor...

MUALLIF O'ZINI BERMASLIGI KERAK ("O'LISHI SHART")

Bo'lishi mumkin bo'lgan hayot va qahramonlar yozuvchi tafakkuri va qalbida tug'ilgan va uning rejasiga bo'ysundirilgan bo'lsa

⁹⁰П. Қодиоров. Уйлар. Т., Ё.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971, 98-бет.

⁹¹У. Норматов. Талант тарбияси. Т., "Ёш гвардия", 1980, 90-бет.

ham, lekin ob'yektiv tasvir muallifga "o'zboshimchalik" qilishga, ya'ni muallif istagiga, xohishiga monand qahramonning gapirishiga, harakat qilishiga imkoniyat bermaydi. Bu imkoniyatni san'at rad etadi. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qahramon yozuvchi qo'lidagi qo'g'irchoq emaski, uni xohlagancha o'ynatsa, xohlagan vaziyatda yig'latsa, balki u o'ziga mustaqil odam, o'zigagina xos fikrlovchi, so'zlovchi, quvonch va iztirob chekuvchi shaxs, "o'ziga biqiq bir olam"dir. U muayyan tipik tarixiy-ijtimoiy muhitda yashar va kurasharkan, xuddi ana shu hayotning talab, ehtiyojlariga mos tarzda turmushi tabiiy bo'lsin, aytmoqchimizki, tasvirlanayotgan hayot oqimi qanchalik tabiiy va samimiy bo'lsa, unda harakatlanuvchi qahramonning "o'zi qanday bo'lsa, shunday yashashi" shart.

L.N.Tolstoy aytganidek, **"san'atkor shuning uchun san'atkorki, u predmetlarni o'zi ko'rishi kerak bo'lganday ko'ra olmaydi, balki o'zi qanday bo'lsa shunday ko'radi"**⁹² (Ta'kid bizniki – H.U.),

Demak, yozuvchi qahramonga bo'lgan simpatiyasi yoki antipatiyasini deklarativ tarzda ochiqdan-ochiq bayon qilishga, uning tabiiy (o'ziga xos) harakat va kechinmalariga bevosita aralashuviga hojat yo'q. Chunki hayot o'z oqimiga, xarakter o'z mantig'iga binoan harakatlanar ekan, "menimcha, bu dunyoda biror sabab bilan yuz berayotgan narsaga aralashishga, o'zining fikrini aytishga romanistning haqqi yo'q. U o'z ijodida xudoga o'xshashi shart, ya'ni yaratsin-u jim tursin"⁹³.

Darhaqiqat, yozuvchi o'z g'oyasini asar to'qimasiga, undagi qahramonlarning o'y-xayollari, orzu-intilishlari, quvonch va dardlari, baxt va fojialariga singdirib yuboradi. Ana shu qahramonlarning hayoti, taqdiri va ularni tug'dirgan, o'stirgan xalq hayotining haqqoniy tasviri orqaligina o'z g'oyaviy nuqtayi nazarini, asar g'oyasini kitobxonga "yuqtiradi", uning hislarini uyg'otadi, fikrlarini qo'zg'otadi. Realistik san'atning talablaridan muhimi ham ana shu: yozuvchi hayotning haqqoniy manzarasini yaratar ekan, qahramonga bo'lgan munosabatini oshkora aytmasligi, unga nisbatan xolis va beparvo bo'lishi, uni o'zidan ajratishi va unga uzoqroqdan razm solishi lozim.

⁹² Толстой Л.Н. Полн. собр. соч. в 90-ти томах. М., 1928-1958, т. 57, стр. 151.

⁹³ Флобер Г. Собр. соч. в 5-ти томах. М., 1956, т.5, стр. 247.

Yozuvchi A.I.Kuprin o'z xotiralarida ustozlari o'gitlarini eslatgan, A.P.Chexovning quyidagi ko'rsatmasini alohida qayd qiladi: "U yozuvchi o'z qahramonlarini quvonch va iztiroblariga beparvo qarashi kerakligini o'rgatardi. Bitta yaxshi povestda, — hikoya qilgandi u, — katta shaharning suv bo'yidagi restorani tasvirini o'qidim. Birdaniga shu aniqki, muallif uchun bu musiqa ham, bu elektr yorug'ligi ham, tugma teshigidagi atirgul ham ajib narsa; bu ajib narsaga qarab o'zi ham ishtiyoqqa, zavq-u shavqqa berilgan. Bu yaxshi emas. Bu narsalardan tashqari turish kerak, garchi u narsalarning maydachuydasigacha bilish yaxshi bo'lsa ham, lekin ularga xuddi nazarga ilmaganday, yuqoridan pastga qaraganday qarash kerak. Ana shunda to'g'ri chiqadi"⁹⁴.

A.P.Chexovning ushbu fikrlari ham shundan dalolat beradiki, realist san'atkor hayotning u yoki bu ko'rinishini, ijobiy yoki salbiy qahramonni yaratadimi, undan qat'i nazar, yaratayotgan narsalaridan baland turishi, "unga tugal bir narsa" deb qarashi lozim. Avtor o'zini, o'z qarashlari va taassurotlarini emas, balki o'z-o'zidan (albatta, biror sabab bilan) rivojlanuvchi tabiiy hayotnigina tasvirlasin, "yaxshi"ga ham, "yomon"ga ham xolis bo'lsin. O'z nuqtayi nazarini, bahosini, munosabatini, xulosasini o'quvchiga oshkora bayon etmasin.

Ushbu fikrlar hikoya, povest, roman janrlariga birday tegishlidir. Shuning uchun ham masalaning mohiyatini to'liqroq ochilishini istab realist-san'atkor A. Qahhorning "Bemor" novellasini to'liq keltiramiz.

"Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi — bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan, baland va chiroyli oq imorat; shisha qibzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar

⁹⁴ Куприн А. И. Собр. соч. в 9-ти томах. М., 1973, т.9, стр. 32.

ostida qolib, o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga⁹⁵ ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinning oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

— Devonayi Bahovuddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsula'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi — har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'lga ro'molcha olib onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi. Hamma yoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yiroqdan gadoy tovushi eshitaladi: "Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo..."

Bir kecha bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi, bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yog'i bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

— Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! — dedi.

Bola anchagina uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

— Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilda armon bo'lmasin" deb "chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi. "Chilyosin"dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi; shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

— Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang.

Yana ko'zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi —

⁹⁵ Хазирги Фарона шахри

saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...⁹⁶

Hikoyada Sotiboldi oilasining fojiasi – ayovsiz suratda real gavdalangan. Bu tasvirga muallif o'zidan biron gap, biron so'z qo'shmaydi. Sotiboldi, xotini, qizchasi, qo'shni kampir, Abdug'aniboy obrazlarini tasvirlarkan, ularning xatti-harakatlarini, o'y-xayollarini, orzu-intilishlarini ko'rsatadi qo'yadi, ammo hech aralashmaydi. Ularni qoralamaydi ham, oqlamaydi ham. Tasvirlangan hayot haqidagi xulosasini chiqarmaydi ham. Go'yo uzoqdan turib, sovuqqonlik, beparvolik, loqaydlik bilan hikoyadagi voqea va qahramonlarni kuzatadi. Go'yo bu g'am, bu iztirob, bu kulfat, bu azob, bu fojia unga tegishli emasday, xuddi yurak degan narsasi bo'lmagan, mehritosh, boqibeg'am, rahm-shafqati yo'q kishidek tura beradi... Muallif obraz va voqealardan tamoman o'zligini ajratadi, chetda turadi.

Ana shu muhim fazilat – san'at ham obrazlarning tabiiy rivojini ta'minlaydi. Tasvirlanayotgan hayotning real manzarasining mohiyatini ochadi. Sotiboldi oilasi fojiasining dahshatlilikini butun borlig'icha ko'rsatishga olib keladi.

Biroq hikoyani o'qib bo'lgach, asarning har satrida, har zarrasida yozuvchining fikri, qalbi, g'oyasining muhri borligini sezamiz. "Avtor ko'rinmasdan o'z asarining hamma yerida xuddi olam xudosidek hozir-u nozir ekanini" (G. Flober) ko'ramiz. Sotiboldi xotinini doktorga boqizishga qurbi etmay, arzon-garov haq oladigan mulla, tabib, kinnachiga o'qitar, ko'rsatar, "Chilyosin" qildirarkan, uning "qo'li kalta"ligidan, omiligidan muallif "ko'rinmasdan" iztirob chekadi. Og'ir azoblar tortayotgan xotin sal o'ziga kelgach, "xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang" deyarkan onaning bolaga bo'lgan sof mehrining kuchini muallif kabi biz ham sezamiz; shu mehrni yoqlaymiz. Ertadan kechgacha mehnat, qorin to'yg'izish va rohatlanish o'rniga tinkamadorini quritadigan, qarzga botiradigan

⁹⁶ А. Қаҳҳор. Асарлар. Т., Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1967, 1-том, 56-58-бетлар.

mehnat va gadoyning "Hey do'st, shaydullo banomi xudo..." nidosidan iborat hayotga, azob-u uqubatdan, jaholatdan iborat turmushga nafratini sochadi. Jaholat botqog'ida o'sayotgan, kelajagi qorong'u bo'lgan g'unchaning "Ayamdi daydiga davo beygin..." duosini, nolasini eshitarkanmiz, muallif kabi biz ham qayg'uga cho'mamiz. Hayotning achchiq va dahshatli zarbasi – Sotiboldi xotinining o'limi va o'lik yonida yotgan qizchanning odatdagi duosini eshitib, yozuvchi singari bizning qalbimiz ham larzaga keladi... Muallif va uning qalb iztiroblari bevosita ko'zga tashlanmasa ham, uning asarning hamma yerida hozir-u nozirliги, mehrini bosganligi bizni muallif aytmoqchi bo'lgan xulosaga, muallif obrazning (o'zganing) qalbida yashab, boshidan kechirgan kechinmalarni bizda ham uyg'onishiga olib keladi.

Hikoyada tasvirlangan Sotiboldi oilasining og'ir va dahshatli fojiasining "yuqumliligidan" kitobxonning dodlagisi keladi. U bu oilaga hamdard kishiga aylanadi. "Oh, bechoralar, ne kunlarni boshingizdan kechirgansizlar-a! Odam ham shunchalik xo'rlanadimi a! Sizlarni azobga solgan, o'limga mahkum etgan zamonga la'nat! Odam uchun "Osmon yiroq, yer qattiq" bo'lgan hayotga la'nat!.. O'tmishimiz qanchalik dahshat-a! Istiqloл zamonining, ozod Vatanning farzandi bo'lish – katta baxtim-ku, mening!" degan mushohada va xulosaga keladi.

Kitobxonning bunday xulosaga kelishi yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikr, g'oya bilan hamohangdir. "Asli yozuvchilik, aytmoqchi bo'lgan fikrini hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir"⁹⁷. Shunday bo'lgach, yuqoridagi hayotning ob'yektiv tasviri yaratilganda, ya'ni yozuvchi o'zligini undan tamom ajratgandagina sodir bo'ladi.

Realist-san'atkor o'z asarida hayotning muayyan bir ko'rinishini tasvirlash orqali kitobxonda umuman hayot haqida, odamlar haqida mushohada uyg'otadi. Shakl g'oyani o'ziga singdirgani kabi, aytmoqchi bo'lgan fikrini, g'oyasini, falsafasini asardagi qahramonlarga, asar ruhiga singdirib yuboradi. Uning vazifasi – faqat hayotiy masalani to'g'ri tasvirlash va uning yechimi qanday bo'lishi mumkinligini kitobxonga havola etishdadir.

⁹⁷ А. Қодиров. Кичик асарлар, Т., Ё.Ўзлом номидан адабиёт ва санъат нашриёти, 1967, 187-бет.

A.P.Chexov Suvoringa yozgan xatida buni alohida ta'kidlaydi. "San'atkordan o'z ishiga ongli munosabatni talab qilarkansiz, Siz haqsiz, lekin Siz ikki tushunchani aralashtirib yuboryapsiz: masalaning yechilishi va masalaning to'g'ri qo'yilishi. Faqat ikkinchisi san'atkor uchun shart. "Anna Karenina"da ham, "Yevgeniy Onegin"da ham biron bir masala yechilgani yo'q, lekin ular Sizni butunlay qoniqtiradi, chunki ularda hamma masalalar to'g'ri qo'yilgan"⁹⁸.

Ko'rinadiki, muallif hech vaqt tasvirlangan hayotiy masalalar haqida o'z fikrini ochiq aytmaydi, balki aytmoqchi bo'lgan fikrini kitobxonning o'zi chiqarishiga imkon yaratadi. Shu asnoda kitobxonning faoliyatini, mushohada qobiliyatini faollashtiradi.

Realizmning bu xususiyatini hatto buyuk tanqidchi V.G.Belinskiy ham dastlab tushunib yetmagan. I. Goncharov "Belinskiy shaxsi haqida xotiralar" asarida yozishicha, "tinib-tinchimas" tanqidchi unga boqibeg'amligi, loqaydligi uchun tashlanar va "Sizga baribir, u ablahmi, ahmoqmi, badbasharami yoki olijanob va nomusli nusxami – hammasini bir xil tasvirlaysiz: ularning hech biriga na sevgingiz bor, na nafratingiz!" – deb juda ko'p aytar ekan. Lekin kunlarning birida qo'lini yozuvchining yelkasiga qo'yib, o'zining bu masalaga qarashi noto'g'riligini boshqalar eshitishidan qo'rqqanday, shivirlab deydi: "Bu – yaxshi, bu – kerak bu san'atkorlik belgisi"⁹⁹.

Demak, avtorning tasvirlanayotgan voqea va qahramonlarga loqaydligi, betarafligi – haqiqiy loqaydlik betaraflilik emas, balki o'quvchining fikrini aktivlashtiruvchi, qalb zarbini harakatga keltiruvchi vositadir. Obrazlar vositasida hayotning xolis (ob'yektiv) manzarasini tasvirlash – o'z navbatida keragi bo'lmagan (o'quvchi biladigan, ammo sevmaydigan) patetikani, didaktikani quvib chiqaradi. Hayot borligicha, o'z-o'zidan kitobxon ko'z o'ngida namoyon bo'laveradi. Bu tabiiylik kitobxonda muallif fikrlariga, g'oyasiga to'liq ishonchni yuzaga chiqaradi.

Hayot va turmushni borlig'icha ob'yektiv tasvirlaganda A.P.Chexov aytganidek san'atkor o'z personajlarining sudyasi emas, balki xolis (beg'araz) guvohi bo'lishi kerak. U shaxsiy tushunchasi, kechinmasini, o'ylarini (o'zini) emas, balki odamlarga odamni berishi

⁹⁸ Чехов А.П. Письмо от 27 окт. 1888 год. ПСС в писем, т. 14.

⁹⁹ Гончаров И.А. Собр. соч. в 8-ми томах. М., 1980, т. 8, стр. 85.

lozim. Ana shundagina, ya'ni faqat muallifdan obraz ajratilgandagina yozuvchining o'zi yaratganidan ustunligi ko'zga tashlanadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, "O'tkan kunlar" romaniga bir nazar tashlaylik. A. Qodiriy romanda "Mavzuni moziydan, yaqin O'tkan kunlardan, tariximizning eng qora kunlari bo'lgan keyingi "xon zamonlari"dan belgilar"kan, bu asarda uning qarashlari, kechinmalari emas, balki o'tgan asr odamlari, ularning aqli, ma'naviyati gapiradi. Ularning yaxshi yoki yomon ekanligini ta'kidlash, oqlash yoki qoralash yozuvchining ishi emas. Uning vazifasi – o'tgan asrni butun haqiqati bilan jonlantirishdir.

Darvoqe, yozuvchi yaratgan qahramonlar o'zligini topib, mustaqil, ob'yektiv yashar ekan, ular hayoti davomida qanday ishlar qilmasin, qanday azob-u, zavq-u shavqlarga berilmasin, bu o'sha hayotning, o'sha qahramonlar xarakteri mantig'ining ishidir. Bunga yozuvchining hech qanday daxli yo'q, u bu harakatlarni oqlovchi yoki qoralovchi prokuror ham emas, balki bo'layotgan voqea-hodisalarning xolis yaratuvchisi (tasvirlovchisi)dir.

Shuning uchun ham "O'tkan kunlar"da deyarli (agar kitobxonlar bilan yozuvchining ochiq munosabatiga kirishganini hisobga olmasak) A.Qodiriyning o'zini ko'rmaymiz. U tasvirloyotgan obrazlari, voqealari ortiga yashirinadi va o'tgan asrni xuddi ko'z o'ngimizda yuz berayotgan hayotdek jonlantiradi.

Mana, Otabek Kumushning zaharlanganligini tabibdan eshitdi...

– Zaharni kim berdi?

Nima deyishga ham hayron tabib:

– Men... Men... O'zingiz o'ylab ko'ring-chi... Men darrov dori yuboray, darrov ichiring, tuzukmi? – dedi.

– Bildim, bildim! – dedi bechora Otabek. – Zaynab, Zaynab, Zaynab... Iflos! Yuboring, yuboring darrov yuboring!

Tabib ketdi, Otabek telbalarcha yugurib Kumushning boshiga keldi, yuzini ochib manglayini bosdi va o'pdi... Kumush ko'zini ochib kuch bilan so'l qo'lini erining elkasiga tashladi... Qo'lida chaqaloq bilan O'zbek oyim kirdi.

– Zaynabni chaqir, Zaynabni!!

O'zbek oyim tabib so'zidan xabardor edi:

– Zaynab! Zaynab!

Zaynab yugurib uyga kirdi. Tusi murdadek oqargan edi. Otabek Kumushni qo'yib yerdagi atalani oldi:

– Ich muni, ich, jalab!

Zaynab orqaga tislandi... Otabek kosani unga otdi... Zaynabning kiyimi atala bilan belandi. Shuning ustiga dahlizdan Yusufbek hoji ko'rindi.

– Ket, iflos, ket! Taloqsan, taloq!

“Taloq!” so'zini eshitgan Kumushning ko'zi yarq etib ochilib, yana yumildi... Hoji voqeani tabibdan eshitgan, shuning uchun hozirgi fojia sahnasida ajablanib turmadi.

– Chiq, Zaynab, chiq, – dedi u ham. – La'nat sendek xotinga!

Zaynab chetlanib uydan chiqdi...¹⁰⁰.

Ushbu epizoddan ham ko'rinyaptiki, A. Qodiriy bu fojiaga o'zining hech qanday munosabatini ochiqdan ochiq bildirmaydi. Faqat bir yerda o'zini tuta bilmaydi va Otabekning holatiga achinganidan “Bechora Otabek” deydi. Holbuki, uning “bechora” ekanligini aytmasligi, uning boshiga tushgan alam va kulfatlarning tasviri orqali kitobxonning unga bo'lgan achinish hissini uyg'otishi kerak. Kitobxonning o'zi “Bechora Otabek” desin. Bu hissiyot kitobni o'qish jarayonida tug'iladi, shunday ekan, yozuvchining buni ta'kidlashi – kitobning emotsional ta'siriga hech narsa qo'shmaydi, balki kitobxonning ijodiy faoliyatini ma'lum darajada susaytiradi. Shu sababli, A.P.Chexov yozganidek, muallif qahramonni sevsin, lekin buni ovoz chiqarib aytmasin. Ana shundagina, ya'ni kechinma qanchalik ob'yektiv bo'lsa, u shunchalik ta'sirli chiqadi. Kumushni oqlab, Zaynabni qoralamaydi ham. Yozuvchi uchun azob ham, uqubat ham yo'q. U juda loqaydlik bilan o'tmish hayotda yuz berayotgan real hodisaning manzarasini yaratadi, xolos. O'zi ko'zga tashlanmaydi, qahramonlar ortiga bekinadi.

Lekin bundan tasvirlangan fojiaga Qodiriyning hech qanday aloqasi yo'q, u azob hissini ham, fojiaga munosabatni ham bilmaydi degan qat'iy tushunchaga kelmaslik kerak. Chunki “Badiiy asarning butunligi g'oyaning birligi, qatnashuvchi shaxslarning ishlanganligi kabilardan iborat emas, balki butun asarga singdirilgan avtorning

¹⁰⁰ A. Қодирий. Ўткан кунлар. Т., Ф. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, 359-380-бетлар.

voqelikka bo'lgan o'z munosabatining ravshanligi va aniqligidan iboratdir"¹⁰¹.

U bu fojining ijodkori ekan, albatta, bu fojining butun dahshatini, og'ir azobini tasavvuri orqali o'z boshidan kechirganligini, his qilganligini bilamiz. **Biroq bu yashiringan, fojining ortidadir.**

A.Qodiriy har qanday tushuntirishlardan qochib, bu vazifani qahramonlarning o'ziga yuklaydi. Ularning bir-biriga munosabatlarini va kechinmalarini jonlantirish orqali bu fojiaga o'zining munosabatini yashirin ifodalaydi.

Otabek Kumushning Zaynab tomonidan zaharlanganligini bilgandan so'ng, telba holatiga tushadi, ko'ziga hech narsa ko'rinmaydi. G'azab va nafrat otiga minadi. Ardoqlab o'stirgan onasiga hurmati, izzati juda baland bo'lishiga qaramay, uni sensirashga boradi. Zaynabni eng qo'pol so'zlar bilan haqoratlaydi. Undan nafratlanadi va unga "taloq" e'lon qiladi.

Yusufbek hoji voqeani tabibdan eshitgach, u ajablanmay Zaynabni la'natlaydi. Kumush holatini ko'rib, o'zini to'xtata olmasdan yig'laydi.

Kumush qanchalik azob tortayotgan bo'lmasin, Zaynabga e'lon qilingan "Taloq"ni eshitarkan, ko'zi yarq etib ochiladi.

Tusi murdadek oqargan Zaynab haqoratlanar, zaharli atalaga belanar, "taloq"ni eshitar, haydalar ekan, biror kishiga so'z qotishga qurbi yetmaydi, o'z harakatlarini baholay bilmaydi...

Ana shu qahramonlarning bir-biriga munosabatlarini ifodalash orqali Zaynabga nisbatan o'zidagi nafrat hissini, Kumush, Otabekka... nisbatan muhabbat hissini uyg'otadi. Bu aynan shunday tarzda kitobxonga ham "yuqadi".

Demak, A.Qahhor yozganidek, "Adabiyot biron ijtimoiy hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini faktlar, raqamlar bilan isbot qilib xulosa chiqarmaydi, uning yaxshi yoki yomon ekanligini ko'rsatib, kishilarda shu hodisaga nisbatan muhabbat yoki nafrat hissini tug'diradi".

"Yozuvchi o'zi his qilmagan narsa to'g'risida yozsa, uni o'qigan o'quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart...".

¹⁰¹ Лев Толстой об искусстве и литературе. т. 1, М., 1958, стр. 233.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelamiz:

Birinchidan, yozuvchi insonlarni "predmetlarni qanday bo'lsa, shunday, o'z shaxsidan ajratib" (V.G.Belinskiy) ko'radi. Tasvirlanayotgan voqeadan, yaratayotgan qahramondan ustun turib, faqat hayotni butun haqiqati bilan xolis ko'rsatadi.

Ikkinchidan, yozuvchi tasvirlanayotgan obrazlarning, predmetlarning mohiyatiga, "ichiga kirib ketadi va ularning hayoti bilan yashaydi" (V. G. Belinskiy). Yozuvchi qahramonlarining quvonch va iztiroblariga sherik bo'ladi, ular hayotida yuz beradigan kechinma va hodisalarni o'z qalbida, o'z tanasida sodir bo'layotgan kechinma va hodisadek qabul qiladi.

Ana shu qarama-qarshilik dialektik bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etadi.

Lekin buning zaruriy va hamma realistlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyati bor: **Real hayotga va o'zi qayta yaratgan olamga bo'lgan ehtirosli, ichki aloqasi, estetik o'lchovi, simpatiya va antipatiyasi yashiringan bo'lishi va u asarning umumiy ruhiga singigan bo'lishi shart.** Kitobxon faqat hayotning ob'yektiv tasvirini ko'rsin-u, asarning umumiy ruhiga yozuvchi tomonidan zarblangan, muhrlangan hissiyotni o'zi boshidan kechirsin, fikr-xulosani o'zi chiqarsin.

Shuning uchun ham yozuvchini quyoshga qiyos qilishda hikmat bor. Quyosh yer yuzidagi o'simlik va mavjudotlarga bir xilda nurini, issig'ini sochadi. U o'simliklarni har xil gullari va hosiliga, shakl-shamoyili va mazmuniga, zaharliyu foydaliligiga qarab ajratmaganidek, yozuvchi odamlarni ham millati va mansabiga, yaxshiligi va yomonligiga, sho'x va buzuqligiga, qora va sariqligiga, chiroyli va xunukligiga qarab ajratmaydi. Ularning o'z ichki qonuniyatlariga mos rivojini ta'minlaydi. Yozuvchi ham o'z qahramonlarini ularning ichki qonuniyatlariga mos rivojlantirishi va bunga qalb haroratini ayamadan sarflashi kerak. Qahramonlar yaratuvchisi (yozuvchi)ning ko'rsatmasi asosida yashashi mumkin emas, yaratuvchi (yozuvchi) ham, o'z navbatida, ulardagi ichki kuchni uyg'otishi va uyg'ongan, harakatga kirgan ana shu kuchning o'ziga xos rivojiga "to'siq" bo'lmasligi, aralashmasligi lozim.

Asarda yozuvchi ko'rinmasin, faqat o'zining bevosita harakati bilan, tabiiy rivoji bilan, o'zining turli-tuman ranglari bilan hayot ko'rsin.

Hayot ob'yektiv tasvirini topgandagina kitobxon yozuvchini unutadi, u asarni o'qish jarayonida, to'g'rirog'i o'qib bo'lgach, obrazlar sistemasidan, tanlangan voqealardan, voqea-hodisalarning mantiqidan, personajlar iroda yo'nalishining yoritilishidan yozuvchining o'zligini topadi. Kitobxon ko'z o'ngida sodir bo'layotgan hayotni ko'rar (o'qish jarayonida shu hayotni tasavvurida jonlantirar) ekan, bu hayot haqida o'zi xulosaga keladi, unda ko'tarilgan masalalarni o'zi yechadi, personajlarga bo'lgan munosabatini o'zi tayin etadi, asardagi yaxshi yoki yomonni o'zi ajratadi.

Agar asardagi o'z-o'zidan rivojlanuvchi hayotga yozuvchi aralashsa, o'z nomidan tushuntirishlar bera boshlasa, ichki sabab natijasida "mustaqil" harakat qiluvchi bu hayotning kitobxonga ta'siri juda pasayib ketadi. Chunki, biz obraz xatti-harakati, psixologiyasini ko'rmasdan, muallifning o'zini, uning munosabatini ko'ramizki, bu salbiy reaksiya uyg'otadi, badiiy asar ma'lum darajada tarixiy-adabiy xarakterdagi hujjatga yoki qahramon haqidagi quruq axborotga o'xshab qoladi. Bunday paytda hayot haqida hayotning o'zi, personaj haqida personajning o'zi gapirmaydi. U muayyan darajada bilimimizni boyitadi, qahramon xatti-harakatlari va holatlarini, taqdirini tushunishimizga yordam beradi, lekin hech qanday estetik tuyg'u uyg'otmaydi.

"O'tkan kunlar" romanida Kumush vafotidan so'nggi voqealarni tasvirlash borasida yozuvchi Zaynab taqdiri haqida yozadi:

"Kumushning yaqinlarigina emas, balki fojidan xabardor bo'lgan shaharning katta-kichigi Zaynabga beriladigan jazoni erta-kech kutmokda edilar. Biroq, fojining o'ninchi kunlarida Zaynabning jinni bo'lib, ochiq ko'yi ko'chada yurgan xabari va og'asi tomonidan ushlanib kishanga solingan mojarosi eshitildi. Zaynabning jununi qozilar va tabiblar tarafidan ham tasdiq etilgach, uning ustidagi jazo ko'tariladi. Darhaqiqat, aqldan ozib ko'chalarda ochiq kezish va kishanga tushishning o'zi ham Zaynab uchun kichkina jazo hisoblanmas edi"¹⁰².

¹⁰² А. Қодиров. Ўткан кунлар. Т., Ф. Гулом номидagi адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, 361-6.

Ushbu axborot – o‘z kundoshini zaharlagan Zaynabning taqdiri, fojiasi haqida kitobxonga ma‘lumot bersa-da, lekin uning asarga bo‘lgan maftunkorligi hissini yo‘qqa chiqaradi. Muallifning o‘z qahramoni taqdiriga bevosita singishib ketmasdan, aralashuvi (“Darhaqiqat, aqldan ozib ko‘chalarda ochiq kezish va kishanga tushishning o‘zi ham Zaynab uchun kichkina jazo hisoblanmas edi”, – deb Zaynabga o‘z munosabatini ochiq bildirishi) Zaynabning o‘z taqdiri haqida o‘zi gapirishiga imkon bermagan. Natijada, kitobxonning bu xabardan ko‘ngli to‘lmaydi, Zaynabga bo‘lgan qiziqish hissi qoniqmaydi.

Buni A.Qodiriy ham sezadi. Asarning “Xotima”sida Zaynab ichki dunyosining, xarakter mantig‘ining rivojini to‘g‘ri belgilaydi. Zaynab o‘z hayoti bilan yashaydi, o‘zining qanday holga tushganligini o‘zi fosh etadi. A.Qodiriy o‘zini Zaynab obrazidan tamoman ajratadi, chetdan, uzoqroqdan turib unga razm soladi. Obraz va muallif ob‘yektivlashadi:

“... Kecha oydin, qabriston tip-tinch, uzoqroqdan Qur‘on tovushi eshitilar edi. Ikki tup chinor butoqlarida qo‘nib o‘tirgan uch-to‘rtta boyqushlar, qabr yoniga tizlangan Otabek va yuqori, quyi do‘mbaygan qabrlar bu tilovatga somi‘ kabi edilar. Qur‘on oyatlari qabriston ichida og‘ir ohangda oqar edi. Qabr yoniga tiz cho‘kkan yigitning ko‘z yoshlari ham Qur‘on oyatlariga qo‘shilib oqar edi. Biror soatdan keyin tilovat to‘xtatildi. Otabek holsizlanib oyoq uzra turdi va orqasidagi yarim yalang‘och ko‘lagani ko‘rib, bir necha qadam qabr tomonga tislandi...

Ko‘laga yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

– Kim bu?

– Men Kumush!..

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

– Ket mundan!

– Men Kumush!.. — dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki, dunyodagi eng yaqin kishisi “ket!” amrini bergan edi. Zaynab orqasiga qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi. Otabek qaytib unga qaramadi, qabr yoniga tiz cho‘kdi...”¹⁰³.

– Ushbu misoldan va yuqoridagi fikrlarimizdan yaqqol aniq

¹⁰³ A.Qodiriy. Уткан кунлар. Т., F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, 363-364-бетлар.

bo'lyaptiki, muallifning tasvirlangan hayotga, obrazga "zo'rlik" qilishi – aralashuvi realistik san'atga ziyon yetkazadi. Shunday ekan, ko'pgina asarlarda ("Yevgeniy Onegin", "Zaynab va Omon", "Bo'rondan kuchli", "Qudratli to'lqin" va sh.k.) mualliflarning bevosita aralashuviga duch kelamiz. Lekin biz bu asardagi "avtor chekinishlarini" – lirik chekinishlarni ko'plab uchratsak ham, ularning badiiy qudrati, emotsional ta'siri oldida lol qolamiz. Sababi nimada? Sababi shundaki, bu asarlarda personajlar faqat biz uchun emas, balki muallif uchun ham ob'yektivlashtirilganidadir. Bu asarlarning mualliflari personajlarning o'z hayoti bilan yashashiga, o'z ichki kuchlari ila rivojlanishiga aralashmaganlaridadir. Ularning konkret obrazga emas, balki obrazlar sistemasiga, asarning umumiy ruhiga aralashuvi – hayotning ko'p qirrali haqqoniy manzarasining mohiyatini falsafiy, publitsistik lirik jo'shqinlik bilan to'liqroq gavdalanitirishga imkon beradi.

O'zbek romanchiligida, ayniqsa, Sh.Rashidov ijodida, uning "Qudratli to'lqin" romanida bu hodisa o'zining yaqqol ifodasini topgan.

"Qudratli to'lqin"dagi muallif chekinishlarida biz xalq va rahbarlarning birligi haqida, do'stlik va sevgining olijanob qudrati to'g'risida, ona-Vatan, mehnatning poeziyasi borasida hayotiy-falsafiy mushohadalarni, hissiyot va fikrga to'liq izhornomalarni o'qiymiz, undan ta'sirlanamiz. Bu romandagi obrazlar sistemasiga tabiiy singdirib yuborilganki, avtor o'z qahramoniga muhabbatini izhor qiladimi, uning bilan hayotiy masalalar ustida tortishadimi, qoloqlikni qoralab, eskilikni fosh etadimi, mehnat, ha, yaratuvchi mehnat romantikasini ulug'laydimi – hamma o'rinda ham ongli ravishda alohida, o'z nomidan beradi. Muallifning sub'yektivizmi – u yoki bu masalaga uning ilg'or shaxsiy qarashlari qahramon qarashlari bilan hamohanglik kasb etib, asarning g'oyasini teranlashtiradi.

"Po'lat! Mana hozir Bahor to'g'risida o'ylab turibsan. Uni sen bahor avjida bo'lgan paytda maysazorda, qalin-qalin ochilib, yer yuzini qoplagan lolalar ichida ko'ryapsan. Uning oq shohi ko'ylagi ko'klam shabadasida hilpiraydi. Qop-qora sochlari nur bilan tovlanadi. Nima uchun bu voqealarni esingga olganda, yuraging tez-tez uradi? Axir, sen Bahor bilan birga ana shu maysazorda lola terganingda, yuraging bu qadar urmagan edi-ku! Ehtimol, bunga

ayriliq sababdir? Ehtimol, ko'z oldingda Bahor gavdalangach, nima bo'lsa ham u bilan ko'rishging kelgandir. Uning yelkalaridan quchoqlab bag'ringga bosib, indamay ko'zlariga termilgan holda turging kelgandirki, shuning o'zi dilingda bitmas-tuganmas sevinch-quvonch uyg'otdi.

Shunday ekan, nima uchun endi Bahorni chin dildan sevganingga iqror bo'lishdan qo'rqasan? Yoki bu bilan chin do'stligimiz tamom bo'ladi, deb o'ylaysanmi? Axir, sevgining o'zi ham do'stlik emasmi? Jahon qadar keng, quyosh qadar yorqin, har qanday qiyinchilikka bardosh beradigan va har biringizga mehribonlik, g'amxo'rlik bag'ishlaydigan asl do'stlik – qaynoq dil sevgisi emasmi? Bu do'stlikning o'ziga xos xususiyati bor – sevishtan qiz yoki yigitning ko'ziga bir nazar tashlab, baxtiyor bo'lasan! Sen Po'lat, qizning qo'lini qo'lingda ushlab tursang, yashash shirinroq tuyuladi. Agar u ro'molchasini hilpiratib, seni ishga kuzatsa, ishing unumli bo'ladi, tog'larni ag'darib, daryolarni bo'g'asan, jahonda sendan kuchli kishi bo'lmaydi, sevimli qizingdan chiroyli qiz bo'lmaydi!.. Biroq, bu yo'ldan adashma, agar turtinib yiqiladigan bo'lsang, sharmandayi sharmisor bo'lasan. Kishi uchun dunyoda sevgiga va sevimlining do'stligiga nomunosib bo'lishdan boshqa zo'r musibat yo'q.

Bunday do'stlik uchun so'z ham noo'rindir. Chunki bu ikki hayotning bir-biriga ajoyib qo'yilishidir. Hozir cho'ntagingda o'z harorati bilan yuragingni isitgan Bahorning xati turibdi. Garchi bu xatni o'qib ko'rmagan bo'lsang ham, yuraging yorqin va quvonchlidir. Bahorning shu salomi bilan sen qaytadan tug'ilding-u, hayoting yana to'la, yana yorug' bo'lganday sezildi. Endi sen bundan ham og'ir, bundan ham katta mehnat va jasorat istaysan!

Mana, Po'lat, endi sizlarning oddiy do'stligingiz, o'zaro munosabatlaringiz ko'p vaqlar do'stlikdan nariga o'tmagan bo'lsa ham, endi chin sevgining nozikligini va nuroniyligini kasb etdiki, ehtimol o'zingning ham ishonging kelmas.

Sevgi odamlarga turli-tuman bo'lib keladi. Xuddi sizlarnikiday ham bo'ladi-yu, bolalikda paydo bo'lgan do'stlikdan ham kelib chiqadi. Sizlar yoshlikdanoq ajralmas do'st edingizlar. Mana endi bu ajoyib kamtarin do'stlik guli boshqa his-tuyg'ularning qip-qizil g'unchasini chiqardi. Po'lat, hozirgacha sen Bahorni sevishtingni

bilmay turib, rashk qila boshlading. Qiz bilan uchrashuving tabiiy bir hol edi va sizlar ham shunga ko'nikib qolgan edinglar. Endi-chi? Endi bunday uchrashuv uzoq kutilgan bayramdir. Chunki necha oylar o'tdiki, bir-biringiz bilan ko'rishganingiz yo'q. Shuning uchun ham Po'lat, Bahorsiz yashashning naqadar qiyinligini har kuni his qilib turibsan.

Agar sen ayni paytda oddiy sinfdosh do'stingdan xat olganingda, ohistagina qo'l yuborib cho'ntagingda turgan muqaddas uchburchak xatni ushlab-ushlab orom olarmiding? Ehtimol, bu xatda Bahor barmoqlarining issiq harorati saqlangandir.

Endi sen mehmonlarning tezroq tarqalib ketishlarini toqatsizlik bilan kutmokdasan. Ularni kuzatib qo'ygach, shoshilinch ravishda Qosimovga, Saodatga va oyingga ham xayrli kech tilaysan-u, hovlining pastidagi uzumzorga kirib, g'oyib bo'lasan. Ko'm-ko'k o'tlar ustiga o'tirib, shoshilinch ravishda uch burchak xatni ochasan. Bu xatning har bir satri senga sirli bo'lib ko'rinadi-yu, garchi, Bahor bu xatda oddiy gaplarnigina yozgan bo'lsa ham, bularning hammasi senga uzumzorlar ichida u bilan birga ikkovingiz uchun ham bir xilda muhim va maxfiy bo'lgan his-tuyg'ular to'g'risida shivirlashgandek bo'ladi. Ko'zlaring shunday deb turibdi..."¹⁰⁴.

Ushbu lirik chekinish orqali yozuvchi Sh.Rashidov, birinchidan, tengsiz quvonch va baxt keltiruvchi do'stlikni ulug'lasa, sevgini madh etsa, ikkinchidan, bevosita asarning bosh qahramoni Po'latga murojaat qiladi: unga bu do'stlikning, sevgining mohiyatini tushuntiradi, bu tuyg'ularni asrash lozimligini ta'kidlaydi, birinchi bor judolik azobini tortayotgan Po'latning Bahordan kelgan xat bahonasida qalb tebranishlarini, yurak urishlarini nozik tahlil etadi.

Bunday ta'sirli lirik chekinishlarni romanda ko'plab uchratish mumkin (o'n ikki o'rinda). Avtor Bahor, Zebi, Anvar (asosan Po'latga) kabi faqat ijobiy obrazlarga bevosita murojaat etadi. Ularning faoliyati va ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarning mohiyatini ochadi, tushuntiradi.

Biroq, yozuvchi yuqoridagi misolimizda ko'ringanidek hech vaqt Po'lat, Bahor, Zebi, Anvar obrazlarining ichki rivojiga, har birining "alohida, o'zida yashiringan dunyo" (V. Belinskiy)siga dahl

¹⁰⁴ III. Рашидов. Кудратли тўлқин. Т., Ф.Ғулом номидати адабиёт ва санъат нашриёти, 1964, 138-140-бетлар.

qilmaydi. Bu qahramonlarning har biri o'zi haqida o'zi gapiradi, har biri harakatida xarakter, iroda yo'nalishidan kelib chiquvchi hayotiylik, tabiiylik barq uradi.

Tanqidchi S.Mamajonov yozganidek, bunday lirik chekinishlarining o'rin olish sabablaridan biri bizda kitobxon bilan yozuvchi o'rtasida shakllanib yetgan g'oyaviy, ma'naviy, ruhiy yaqinlik, maqsad – ideal birligidir...". Shunday ekan, asarning umumiy mazmuniga, obrazlar sistemasiga singib ketgan bunday qudratli lirik chekinishlarni – zarur fikr-mulohazalarni ifodalashning bunday shaklini realizm qo'llab-quvvatlaydi.

Shu o'rinda yana bir alohida xususiyatni ta'kidlash lozimga o'xshaydi. Muallifning personajiga sub'yektiv munosabatini hamma vaqt rad qilish kerakmi? Muallif obrazda "o'zini" bersa, obrazda muallif qarashlari, fikrlari, simpatiyasi va antipatiyasi ma'lum darajada ko'zga tashlansa, demak, asarning g'oyaviy-badiiy ta'sir kuchi pasayadimi? Bu narsa yuqorida ta'kidlaganimiz realizm qonuniyatiga zid emasmi?

Tanqidchi S.Mamajonov "Lirik olam, epik ko'lam" kitobida yozuvchi Sh.Rashidovning voqelikni badiiy tadqiq etish usuli-uslubini tekshirar ekan, haqli ravishda yozadi:

"... "G'oliblar", "Bo'rondan kuchli" asarlarida muallif nuqtayi nazari bilan ijobiy qahramonlar nuqtayi nazari, ular ovozi jips qo'shilib ketgan. Muallif ovozida xalqning fikri, nuqtayi nazari, personajlar nutqida muallif ovozi doim ishtirok etadi.

Quyidagi parchada haqiqatan ham qahramonlar kechinmasi, holati, kayfiyati birlashib ketganday: Pogodinlar o'zlari hal qilgan ulug'vor ishlarga nazar tashlar ekan, behad quvonadilar, qonuniy g'ururlanadilar, inson qudratining va irodasining cheksizligiga qoyil qoladilar; bu nuqtayi nazar ayni chog'da yozuvchining shaxsiy tuyg'usi, nuqtayi nazari tarzida ham yangraydi. Muallif na "qahramonlarni o'ylaydi", "dilidan o'tkazadi" degan jumla-izoh beradi, na bevosita o'z tilidan aytayotganini ta'kidlaydi. U shunday bir shakl va ohangda so'zlaydiki, muallif bilan personajlar birlashib – xor bo'lib so'zlayotgandek tuyuladi:

"Mana endi ularning oldida umr bo'yi birinchi marta haydalgan va ekilgan yerlar, birinchi marta odamzod qo'li bilan parvarish qilingan va ardoqlangan yerlar yastanib yotibdi. Modomiki shunday

ekan, inson o'zi bilan, odam bolasi bilan faxrlanmay bo'ladimi? Inson degan so'zning mag'rur jaranglashi shundan emasmi? Haqiqat bu!

Ha, endi bu yerlarni qadimiy yerlar deb bo'lmaydi. Endi bu inson irodasi bilan asriy uyqusidan uyg'ongan, birinchi bor haydalib tanasiga shabada tekkan, bag'riga urug' tashlangan, butun vujudi, husn-jamoli tubdan o'zgartirilgan, qaytadan dunyoga kelgan yangi yer bu! Yangidan ochilgan bu yer! Navqiron yer bu!

Mo'jiza yaratildi: o'tzor va butazor bo'lib yotgan yovvoyi yerlar birdaniga hosildor yerlarga aylantirildi. Yashardi va go'zal bo'ldi, endi u bahorga o'xshaydi, kelinchakka o'xshaydi.

Axir bu mo'jiza emasmi? Axir bu inson faxri emasmi?..

Ijobiy qahramonlar bilan muallif nutqining yaqinligining ildizi ularning hayotga qarashidagi yagonalik – bir xil pozitsiyada turishlariga borib tutashadi. Ijobiy qahramonlar nutqining avtor nutqi kabi ko'tarinki, hatto shoirona ohangda bo'lishining asosi ham xuddi shu yerda bo'lsa kerak...¹⁰⁵.

Ushbu misoldan ham ko'rinyaptiki, muallif Sh.Rashidov o'z so'zlarini qahramonga yuklaydi, o'zi qahramon qiyofasiga to'liq singmaydi. Xuddi shunday holatni D.I.Fonvizin, V.Gyugo, N.G.Chernishevskiy, M.YU.Lermontovning ba'zi asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Lermontovning "Zamonamiz qahramoni" asarini tahlil qilib, V.G.Belinskiy "u (avtor) tomonidan tasvirlangan xarakter... Shunchalik unga yaqinki, undan o'zini ajratishga va ob'yektivlashtirishga kuch topa" olmaganligini ta'kidlaydi. Buning sabablari nimada? Sababi avtor va personajning "hayotga qarashdagi yaqinligi" (S. Mamajonov)dir. Muallif fikri, so'zi, xatti-harakatining personaj ichki dunyosi mazmuniga to'liq mosligidir.

Bu xil tasvir asar yaratilgan davr kitobxonlari uchun qanchalik ahamiyatli va ta'siri beqiyos bo'lmasin, yozuvchi qahramon "kindigi"ni kesgach, ya'ni o'zini personajdan ajratgach, yana "kindik"ni ulash – o'zini personajda berish, albatta, asarning g'oyaviy-badiiy kuchiga, kitobxonning ijodiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yozuvchining qalami o'rniga (yuqoridagi misolga diqqat qiling!) jurnalistning qalami ishga tushadi. Tasvir o'rnini

¹⁰⁵ С. Маммажонов. Лирик олам, эпик кўлам. Т., "Фан", 1979, 317-318-бетлар.

publitsistik ohang egallaydi... Shu sababdan yozuvchiga kitobxon A.M.Gorkiyning quyidagi so'zlari bilan murojaat qilmoqqa da'vat his etadi:

"Siz, har holda uning (personajning - X-U) ko'zi bilan qarashingiz kerak. Unga nima lozim bo'lsa, shuni orzu etish va tasavvur qilish uchun to'la erkinlik bering. Agar siz o'z qarashlaringizni uning qulog'iga quyib tursangiz unda personaj emas, balki siz gavdalanasiz"¹⁰⁶.

Xullas, avtor hayotni, personajni to'liq ob'yektivlashtirishi, ulardan ustun bo'lishi shart. U yoki bu masala bo'yicha zarur fikrlarni aytmalikning iloji bo'lmasa va bu fikrlarni obrazga "yuklatishga" imkon bo'lmasa (obrazni ob'yektivlashtirishga monelik qilsa) lirik chekinishlar orqali ochiqchasiga, muallif (o'z) nomidan ifodalash shakli ma'quldir. Garchi bunday shaklni realistik usul qo'llab-quvvatlasada, u umumiy qoida bo'la olmaydi. Uning uchun hayotni aniq va xolis tasvirlash va tasvirlangan voqelikka bo'lgan o'z munosabatini yashirin ifodalash - umumiy qoida bo'lib qolaveradi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan ma'lumki, yozuvchi hayotning qaysi sohalarini jonlantirmasin, uni xuddi o'zi ko'rganday, o'zi boshidan o'tkazganday ishonarli va ta'sirchan qilib tasvirlaydi. Shunga asoslangan ko'pgina sodda kitobxonlar asar qahramonini muallifga nisbat beradilar. Ularning tushunchasiga ko'ra, "Bolalik"dagi Muso - Oybek "Sudxo'rning o'limi"dagi Qori Ishkamba - Sadridin Ayniy, "Po'lat qanday toblandi?" dagi Pavel Korchagin - Nikolay Ostrovskiy... Chunki bu asarlardagi qahramonlar shunchalik aniq hissiyotlarga, kechinmalarga, hayotiy tajribalarga egaki, mualliflar bularni bevosita o'z boshlaridan kechirmaganlarida, bunchalik aniq va go'zal qilib yozmagan bo'lar edilar... Bunday tushuncha tamoman noto'g'ridir. Adabiy ijodning qonuniyatlarini tushunmaslik oqibatidir.

Muallifni asardagi qahramon (garchi bu qahramon - yozuvchi avtobiografiyasi asosida yaratilgan bo'lsa ham) baravarlashtirish, tenglashtirish yozuvchi haqida, uning turmushi to'g'risida, dunyoqarashi va shaxsiyati borasida ko'pgina anglashilmovchiliklar, noto'g'ri xulosalarni tushunmasdan ayblashlarni, unga nisbatan noo'rin, isboti yo'q, g'arazli sub'yektiv fikrlarni yuzaga keltirishi mumkin.

¹⁰⁶ A. M. Горький. Собр. соч. в 30-ти томах. Т. 26, М., 1953, Стр. 67.

F.M.Dostoevskiy "O'lik Xonadondan xotiralar" ("Zapiski iz Mertvogo Doma") asarini o'z xotinini o'ldirgan jinoyatchi, to'qima asosida yaratilgan shaxs nomidan yozgan. O'n besh yildan keyin uni chorizm siyosiy jinoyatchi sifatida surgun qilganligiga qaramay, ko'pchilik kishilar Dostoevskiy o'z xotinini o'ldirgani uchun surgun qilingan deb o'ylaganlar va tasdiqlaganlar.

S.Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" asarida o'taketgan xasis obrazi yaratilgan. Lekin hozirga qadar xasislikni S.Ayniyga nisbat beruvchilarni, S.Ayniyning yashash tarzidan, mehmon kutishidan, bozor qilishidan xasislik alomatlarini topib, hikoya qiluvchilarni ko'plab uchratish mumkin.

Xolbuki, yozuvchi jinoyatchini, xasisni tasvirlar ekan, albatta, o'zi jinoyatchi, xasis bo'lishi shart emas. U yaratayotgan o'sha jinoyatchining, o'sha xasisning qiyofasiga kirib, ularning hayotida bo'lishi mumkin bo'lgan hamma holatlarni tiriltirish qudratiga ega. Chunki har birimizda bo'lganidek yozuvchida ham hamma insoniy xususiyatlarning kurtagi mavjud.

Ikkinchidan, har qanday badiiy asar umumlashma xarakterda bo'lar ekan, uning asosida hech vaqt bir shaxs(muallif)ning konkret hayoti, konkret avtobiografiyasi yotmaydi, undan badiiy haqiqat tug'ilmaydi.

Shuning uchun ham N.A.Ostrovskiy yoshlar tashkilotining rahbarlaridan biri – Andreevga yuborgan xatida yozadi:

"Sen tushunasan, Sereja, mening barcha qarshiliklarimga, o'nlab xat va maqolalarimga qaramay, baribir "Po'lat qanday toblandi?" kitobi – mening hayotimning tarixi, boshidan oxirigacha xuddi hujjat tarzida sharhlanyapti. Uni roman sifatida emas, balki hujjat sifatida tan olyaptilar. Bu bilan Pavel Korchagin hayotini menga tirkayaptilar. Bunga qarshi men biron narsa qilolmayman. Men asarni yozgan paytimda bunday deb o'ylamagan edim. Meni faqat bitta orzu yetaklagan – bizning yoshlarimizga ibrat oluvchi yosh kurashchi obrazini berish edi. Albatta, bu obrazga men o'z hayotimdan ham ozgina qo'shganman".

Ko'rinyaptiki, N.A.Ostrovskiy ham avtobiografik xarakterdagi ijod bilan san'atni to'liq farqlaydi. Avtor obrazi ikkinchi bor reallashganda o'zida tanlashni, umumlashtirishni jamlashini to'g'ri tushunadi. Chunki avtobiografik faktlardan kuchsiz nusxa yuzaga

keladi, u san'at asari bo'lishi uchun qayta ishlanishi, ijodiy fantaziya bilan boyishi, umumlashtirilishi zarur. Ayni paytda tasvirlanayotgan xotira va kechinmalarni o'z shaxsidan ajratishi, ularni ob'yektivlashtirishi lozim. U haqiqatan o'z boshidan kechirgan voqealar, xotiralarni jonlantirganda ham, o'zini bu xotiralar orqali jonlanuvchi voqealarning ishtirokchisi sifatida emas, balki xolis guvohi sifatida tutishi kerak. O'zining shaxsini emas, umumlashtirilgan, ko'pchilikka xos bo'lgan xususiyat, fazilat, kechinmalarni berishi va kitobxonda bu – muallif turmushining hujjati degan tasavvurni uyg'otmaslikka intilishi kerak.

Demak, asarda tasvirlangan qahramon bilan hayotdagi muallif-inson o'rtasida katta farq bor. Garchi "Bolalik"dagi Musa, "O'tmishdan ertaklar"dagi Abdulla, "Po'lat qanday toblandi?" asaridagi Pavel Korchagin obrazlari asosida Oybeq Qahhor, Ostrovskiylarning ma'lum darajada avtobiografiyalari yotsa ham, ularda ijodkorning shaxsiyati, muhri bosilgan bo'lsa ham (busiz mumkin emasligini yuqorida tahlil etgan edik), ularni Oybek – inson, A.Qahhor – inson, N.Ostrovskiy – inson bilan aralashtirib va baravarlashtirib yubormaslik kerak...

Bobni mustahkamlovchi savollar

1. Nega avtor o'zini bermasligi mumkin emas?
2. Nima uchun sababdan avtor o'zini berishga majbur?
3. Nima uchun avtor o'zini bermasligi kerak (o'lishi shart)?
4. Uchala savolning o'zaro aloqasi, munosabati adabiy ijodda qay tarzda yuz beradi?

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Bobda isbotlangan mulohazalarni, adabiy ijodning ochilgan qonuniyatlarini "hazm" qilganingizdan so'ng, shu xulosalarga tayanib badiiy asarlar ("O'tkan kunlar", "Bemor" kabi) ni qayta o'qing.
2. O'rgangan, kashf qilgan, ishonchingiz ortgan tajribalaringizga tayanib, hikoya yoki novella mashq qiling.
3. Oldingi yozilgan asarlaringiz bilan hozirgi asarlaringizni taqqoslang: erishgan g'oyaviy-badiiy yutuqlaringizni

mustahkamlashga, oshirishga oshiqavering. Mehnatdan rohat topish nasib etsa, ajab emas.

Zaruriy adabiyotlar:

1. Виготский Л.С. Психология искусства. М., 1968.
2. Левидов А.М. Автор – образ – читатель. Л., 1977.
3. Мейлах Б.С. Талант писателя и процессы творчества. Л., 1969.
4. Якобсон Л.Н. Психология художественного творчество. М., 1971.
5. Яковлев Е.Г. Проблема художественного творчество. М., 1978.
6. Қодиров П. Ўйлар. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Т., 1971.
7. Норматов У. Талант тарбияси. Т., 1980.
8. Умуров Ҳ. Бадий ижод асослари. Т., "Ўзбекистон", 2001.

XULOSA

Ijod sirli jarayondek tuyulsa-da, uni o'rganish mumkinligini o'zina bo'lsa-da tasavvur qilgan bo'lsangiz kerak. Endigi gap Sizlarning o'qishingizga, ustozlardan o'rganishingizga, tinimsiz izlanishingizga bog'liq.

Odam suzishni suvda o'rganganidek, Siz ham yozuvchilikni tinmay mashq qilganingizda, adabiyotimizdagi to'plangan hamma bilim va mahoratni egallaganingizda o'rganasiz.

Yozuvchi A. Muxtor alohida ta'kidlaganidek, "...bu gaplarni Sizlarga gapirayotganimki, Sizlar adabiyotga qadam qo'yayotgan kishilar, yoshlar o'rtasidagi yaxshi-yomon sifatlarga endi o'zlaringni daxldor deb bilishlaring kerak. Tarbiyaning eng kuchli qurolini, yozuvchi qalamini qo'lga qanday ushlash kerak, deb o'yg'a toladigan paytlaring. Xalqimiz bu ma'suliyatli qurolni sizlarning qo'llaringga berishga tayyor, lekin unutmaslik kerakki, bu qurol o'tli qurol, nozik qurol, uni har tomonlama sog'lom kishigina ko'tara oladi".

Ha, hayot haqiqati dars bermoqlik, insonni ma'naviy poklikka yetaklamoq uchun o'zlikni anglash va uni tinimsiz ijodiy mehnat orqali boyitish zaruratga aylanishi kerak. Ana shu zarurat Sizning jism-u jahoningizga quvonch, quvvat, qudrat baxsh etishi lozim. Siz orqali insoniy tuyg'ular yanada boyib, yanada komillashib Odamlar hayotini go'zallashtirishga beminnat xizmat etishi talab qilinadi. Yozuvchilik ana shunday hayotni-odamning o'zligini boricha qamraydigan eng sirli va ehtirosli hayotni talab qiladi.

“ADABIY IJOD ASOSLARI” AMALIYOTI

Bo‘yra ustida suzishni o‘rganib bo‘lmaydi.

Yapon maqoli

SIZ BUNGA QODIRSIZ!

(Kirish)

Tug‘ma iste‘dod – bu “urug‘”, ana shu urug‘dan o‘rib chiqqan navniholning birinchi hosili. Talant esa, ana shu niholning baqquvat va yashnagan daraxtga aylanishi, uning sarxil, yetilgan, havasni keltiradigan mevalari...

Tanqidchi Ibroxim G‘afurov topib aytgan: “...Xuddi Usmon Boysunni topganday, xuddi Murod Galatepani topganday, Azim Nurotani topdi. Axir kichkinagina bo‘lsa ham o‘z yeringni ishg‘ol qilmasang, dunyoga qanday chiqasan, uni qanday ishg‘ol qilasan? Azimning barcha she‘rlarini o‘qing: hammasida Nurota zarblari, Nurota soylarining mangu ovozlari, burgutlarining mungli qiyqiriqlarini eshitasiz”¹⁰⁷.

Bu mulohazani davom ettirish mumkin: Xuddi Nurali Oyqor (Baxmal)ni topganday, xuddi Toshpo‘lat Ahmad, Omon Muxtor Buxoroni topganday, xuddi Jumaniyoz Sharipov Xorazmni topganday...

Bu, bejiz emas. Inson o‘zligini bilishi uchun ota-onasini, qavm-u qarindoshlarini, avlod-u ajdodini tanishi lozim bo‘lganday, albatta, o‘zi bino bo‘lgan tuproqni, kindik qoni tomgan tuproqni, shu tuproqning ta‘mini (Bola kesak esa, ayblamang, qo‘lidan tortib ham olmang. U bolaga, o‘rishiga ona sutidek zarur ne‘mat ekanligini hozirgi tibbiyot ham tasdiqlaydi. Bizningcha, u ne‘mat bolaning o‘zligini anglash ehtiyojidan tug‘ilayotgan talabdir) va undan unib-o‘sgan odamlarni, jonivorlarni, tabiatni, ranglarni, ob-havoni, oziq-ovqatni... bilishi, anglashi, butun jismi jahoni bilan to‘liq his etishi zarur. Ana shundagina, u “otasini tanigan - Tangrisini taniydi”, tuprog‘ini bilgan - Vatanini biladi, insonlarni ko‘rgan-insoniylikni

¹⁰⁷ Azim Suyun. Usluk. T., “Ilark”, 1999, 5-6.

tuyadi va shu orqali o'zligini topadi (kashf etadi).

O'zligini topishning boshlang'ich va birdan-bir yo'li ana shu. Bu ham izlanish va izlanishlarning dastlabki topildig'i. Dastlabkisini faqat tug'ilgan muhitdan topish mumkin. Milliylikning sababi ham, zarurati ham shu bilan bog'liq. O'zligini topgan iste'dodgina kashfga qodir bo'ladi. Shu jarayon davomida pishib etilgan orzu armonlari, quvonch-u iztiroblari, lol qolish-u hayratlarini to'ksa, badiiyat yaratilaveradi, bu hali (istedodning dastlabki ijod mevasi bo'lganidan samimiy, yangi kashflar bo'lishidan qat'iy nazar) asrlar osha yashaydigan, badiiyatining go'zal namunasi bo'la olmaydi. Sababi unda hali umuminsoniyat, jahon ahamiyatiga ega bo'lgan mazmun kashf etilmagan bo'ladi yoki kashfning nuri faqatgina mahallaga, boring-ki, viloyatga yetadi, xolos.

Iste'dod talant bo'lguniga qadar hali uzoq mashaqqatlar, tinimsiz izlanishlar, shu paytgacha yaratilgan badiiyat namunalarini o'qish va uqish, go'zallik sirlarini ochish kabi uzluksiz mehnat qilish shart bo'ladi. Fidoiylilik talab qilinadi. Og'ir tuyulmasa, devonalar, avliyolar birgina Allohni izlaganlaridek, butun hayotlarini shu yo'lga tikkanlaridek, badiiyat sirlarini o'rganishni qismatga aylantirish lozim. Bu qolmabdi... O'qimaslik tinimsiz mehnat qilmaslik nomigagina yashash va ijod etish, bu aslida, xarakatsizlik to'xtab qolishdir. Xarakatdan to'xtagan suv - tez buzilganiday, "bola" shoir yigit, er, chol bo'lganiga qaramay, faqat maqtovlarni kutib yashaydi, to'rdagi joyga talabgor bo'ladi, orden va unvonlarni undirishga intiladi (unga ba'zan erishadi ham), to'lib-toshib, maishat qilib yashashni - umrning mazmuniga aylantiradi. Shirin hayot qand kasalligiday o'limni tezlashtiradi, umrning mazmunini "ofarinchilik" kasaliga muhtalo qiladi. Iste'dod esa "bola"ligicha qoladi, shoir esa kosib degan nom oladi, uni insoniyat tez unutadi, tarix hatto nomini ham o'z kitobiga yozmaydi. Shu sababdan minglab shoir (yozuvchi)lari bo'lgan asr sarhisob qilinganda, sanoqli talantlarga borligi va ular yashashda, yaratishda davom (Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Muhammad Yusuf kabi) etayotganlari aniq bo'ladi. Chunki ularning asarlarida hayotning umuminsoniy mazmuni chuqur va ta'sirchan, maftun etadigan darajada ochilgan bo'ladi, u barchaga - arabga ham, olmonga ham,

inglizga ham...darslikka aylanadi.

Demak, gap yashashning, yaratishning uzluksizligida, kashfning sifat darajasi va miqyosida. Bolalik dunyosining kashfini o'stirishda, unga sayqal berishda, uning boyligini xazinaga aylantirishda, xazinani jahon xalqlari bilan baham ko'rishda, ularning tuyg'ularini poklab, odamiylik bilan boyitishda, jahonni komillikka yetaklashdadir!

Shuning uchun Siz ijodkor - boshlovchilar dastlabki bosqichda to'xtab qolmang... Birinchi va dastlabki yutuqlardan esankiramang... Abdulla Qahhor aytganidek, "talant kun sayin mehnat bilan jilo berib turilmasa, zanglab, butkul yaroqsiz holga kelib qoladigan asbob ekanidan bexabar kishilar" toifasidan bo'lmang...

Irodangizni ishga solib ilgarilang, izlaning. Siz uchun hayot xarakatdadir, faoliyatdadir, tinimsiz mehnat-u mashaqqatdadir. Po'lat olovda toblanganidek, charhlanganda o'tkirlashganidek, Siz badiiyat ichida toblanasiz, rahmoniy insoniylik bilangina, uning betakror kashfi ila ulug'lanasiz. Ana shunda tug'ma iste'dodingizni talantga aylantira olasiz. Talant esa, ijod etishni qismatingizga tenglashtiradi. Yaratganingizda huzur topasiz, huzur topish uchun yaratasiz. Bu holat charchashga yo'l qo'ymaydi, to'xtashga imkon bermaydi, aksincha, tinimsiz izlanishga yetarli quvvat beradi, umrning mazmunini insoniylikning jahoniy mohiyatini kashfi tomon beto'xtov yetaklayveradi.

O'zbek romanchiligining otaxoni Abdulla Qodiriydek, jahon klassigi Chingiz Aytmatovday buyuk bo'lasiz, o'z jahoningiz bilan komil jahonlar yarataverasiz. Siz, azizim, bunga qodirsiz! Bu yo'lda Sizga istiqlool doimo kamarbasta!

MAVZU: HAYOT VA ADABIY IJOD JARAYONI

Tayanch tushunchalar: Hayot – shoir – she'r. E'tiqod va ijod. Yaxshi she'r yozishning mashaqqatlari. Uydirma ijodning sirlari. Adabiyot – kashfiyot.

“Mening hamma she'rlarim yurakdan keladi” (Zulfiya ijodxonasiga bir nazar)

*Sevgi – jozibaga to'lgan bir umr,
U baxt-u alamda birdayin masrur.
U hijronda jumard, ayriliqda mard
Yillar o'tganda ham pokiza, begard.*

J. Bayron

Ko'pchilik Zulfiya ijodxonasida bo'lishni, uning bilan hayot, turmush, muhabbat haqida suhbatlashishni xohlaydi. Uning hayot tarzini, yashash sharoitini bilishga qiziqadi. Ayniqsa, she'rni qanday yozishga, ijodining tabiatini tushunishga intiluvchilar son-sanoqsizligiga ishonchim komil.

Shu bois, Zulfiyaning hayoti, adabiyot, she'riyat haqidagi iqromomalariga, adabiy suhbatlariga tayangan holda shoira ijodi tabiatining ba'zi qirralarini o'rganishni va qiziquvchilar bilan baham ko'rishni lozim topdik.

Zulfiyaning e'tiroficha, “Shoiraning yuragi katta: u azob va quvonchlarni tomchilab yig'adi”. Ana shunday tuyg'u, dard, g'oya yiriklasha boshlaydi, sezgilar, fikrlar his-hayajon bilan to'ladi. Va “butun vujudingni tug'yonga solib “Bugun aytmasang halok qilaman!” deb hayqirganda”, qalb “portlaganda” she'r tug'iladi. “Yurakdan yurakka bormog'i shart” bo'lgan she'rni, she'rga singdirilgan fikr va hislarning mag'zini chaqish zavqini uyg'otish qiyin kechishini doimo qalbiga tukkan shoira “Shoirlik – kasb emas. Chinakam shoir “Men endi yozishni o'rgandim”, deb aytolmaydi. U har gal qo'liga qalam olganda, birinchi she'rini yozayotganidek hayajonga tushaveradi, qiynalaveradi. Men bunday holni doimo boshdan kechiraman”, - deydi.

Zulfiya she'rlarining qanday ro'yobga kelishi ham, ularning yetilish jarayoni ham, qayta ishlanishi ham boshqa ijodkorlar

tajribasiga o'xshamaydi. Uning ijodida "daf'atan", "bir onda", "bir zarb bilan" yozilgan she'rlar yo'q, balki ular uzoq vaqt yurakda va ongda obdan pishib etilgach to'kiladi. U ijodining, dilining bu sirlarini quyidagicha izohlaydi: "Men odatda she'rlarni turkum-turkum shaklida yozaman, ko'p qoralamalar qilaman, ya'ni ayrim she'rlarning ayrim satrlari yozilib qolaveradi. Qalbdan bir necha misralarga ko'chgan fikr yoki tuyg'ular bir emas, bir necha she'rlarga asos bo'lib tushadi. Bu ko'pincha bahorda, gullagan tabiat ichra men o'zimni qayta tirilganday his qilgan kezlarda sodir bo'ladi. Tabiatda buyuk uyg'onish: kamalak, ko'klam momoqaldiraqlari, jilg'alar, oshyon qurayotgan qaldirg'ochlar, bahorgi toshqinlar – bularning bari-bari shoirga o'zi shundoqqina qog'ozga ko'chadigan she'r bo'lib ko'rinadi, musiqasi eshitiladi. Lekin keyin, kitobxonga tavsiya qilishdan avval, har bir misra, har bir so'z ustida uzoq qunt bilan ishlashga to'g'ri keladi. Haqiqiy she'riyat seni o'rab olgan qaynoq hayotning zavq-u-shavqi, qalbingning shodligi-yu dardi, ko'rgan-kechirganlaringning teran fikr etilishi demakdir. Demak, she'r jamiyatdagi o'z zamonang va hayotingdagi voqealardan demak, baxt va tashvishdan, oddiy hayotiy orzu yumushlar to'la kunlardan, qaynoq harorat to'la va mehr to'la yurakdan, mehnat bilan bedor o'tgan tunlardan vujudga keladi"¹⁰⁸.

Bu fikrlarning isbotini "Hayot varaqlari", "Qizlar qo'shig'i", "Hijron kunlarida", "Yuragimga yaqin kishilar", "O'ylar", "Yillar, yillar", "Tong bilan shom aro" turkumlari yaqqol ko'rsatadi. Ana shu uslubga ijodiy usulga sodiqligini shoiraning o'zi ham qayta-qayta tilga oladi:

"Tavalludimning ellik yilligini nishonlamoqchi bo'lishdi. Hamma meva ham tezpishar bo'lmaganidek, mening ijodim ham inqirozda edi, deyarli ikki yil she'r yozmaganman, jurnal jamoat ishlari...

Mehnat ta'tilimni olib, uzoq ijod uylaridan biriga ketdim. Bir necha kun yashadim – she'r dardi qaynaydi, qancha qog'ozlarni qoralab tashladim, lekin hech narsa yoza olmadim... Farg'ona vodiysiga ketgim keladi. Bordim, Vodildaman. Dala aylanaman, tabiatga to'ymay boqaman, odamlar bilan suhbatlashaman. Ko'z oldimda she'rdan go'zal, mukammal dunyo! Qarabsizki, baxt dorib,

¹⁰⁸ Зулфия. Асарлар. Камалак. 3 жилд. Т., 1986, 189-бет.

uch kun deganda satrlar yoniga satrlar kela boshladi. Inson va tabiatning har bir ne'mati: aqiq yulduzlar, zumrad dalalar, jildirab oqqan tiniq-tiniq suv ostidagi palak gullarini eslatuvchi rang-barang toshchalar – hamma-hammasi she'rga aylanar, qo'lga tutib ko'rsa bo'ladigan munchoqlar shodasiday tizilib kelar, mendan baxtliroq odam yo'q. "O'ylar" nomli she'riy to'plamim o'sha mas'ud qirq besh kunda Vodilda yozilgan" (O'sha kitob, 175-bet.).

Shoirlar yuragiga yaqin kishilar haqida yozish, she'rlarida qalbidagi quvonch, dard, hayajonlar tarixining bir parchasini jonlantirish va ularning jamiyatga zarurligini anglab ijod qilish hamma vaqt ilhom baxsh etadi. "Oh, ijod dardginam! Sen mening oromim raqibi... tandagi zil-zilam, ...umrim egovi", - deydi shoira, lekin hech vaqt o'z davriga hamohangligini yo'qotmaydi, zamondoshlari tuyg'ulariga hamdam, hamdardligini unutmaydi. Ijod bilan "goh totuv, gov raqib" bo'lib, she'rga aylanib "insonlar yuragini loyullatadi", "she'r bo'lib el ichra" uyg'oq yuradi. "Iztirobi, oromi, taqdiri, shuhrati, toleini" chambarchas bog'laydi.

Shoira "Mening hayotimda o'ta baxtiyor kunlar ham, musibatli onlar ham ko'p bo'ldi. Biroq, hatto eng og'ir mushkul daqiqalarda ham o'zimning dard-u hasratlarimni she'rga tushirar ekanman, meni hayotga muhabbatning g'olib qudrati hech qachon tark etmadi. Mening shaxsiy hayotim xalq hayotining bir zarrasidir. Men xuddi shunda ham grajdanlikning ifodasini ko'raman", - deb aytar ekan, uning mardona she'riyatiga, grajdanlikning yuksakligiga qoyil qolamiz. H.Olimjon vafotidan bir yil o'tgandan keyin yozilgan "Bahor keldi seni so'roqlab" turkumidagi she'rlar qudratini chuqurroq tushunasiz. Shoira haqida umidning kuchi – qudratiga qoyil qolasiz.

Bu iqtisodiyat – hayotiy falsafa shoira she'riyatining kaliti vazifasini o'taydi. Bu kalit shoira poetik olamining mohiyatini to'la anglashning imkoniyatini tug'diradi.

"Yurtim xaritasi – mening yuragim" suhbatida shoira yozadi: "Ezgulik va yovuzlikning kurashi har qanday she'riyatning mohiyatini tashkil qiladi. Men hayotim, undagi hamma yaxshi narsalarni tasdiqlash orqali yomonlik bilan kurashaman. Hamma kitoblarimda bunga misol bor. Hayotda qayg'u ko'p, ammo men uni yengish, shu jumladan, o'z-o'zini yengish jasorati to'g'risida yozaman. Men hayotning noxush tomonlari to'g'risida kinoya bilan, hajv bilan

gapirmayman. Og'riq va alam bilan, ezgu istak bilan gapiraman, onayerimizdagi har bir odam baxtli bo'lishini, hayot go'zal, har birimizning ahilligimiz ibratli bo'lishini xohlayman". (O'sha asar, 133-bet). Keling, duch kelgan bir she'ni o'qiylik:

Bag'ringdan qo'yma
Mayli, zaifligim,
Ko'z yoshim suyma,
Yalqovligim, nuqsim ekan bedavo,
Men tortgan dardlarning zahrini tuyma,
Tuyganda berdingmi injitib sazo?

Baxtdan, baxtsizlikdan qolsam dovdirab,
Senga qo'shiq aytib, senga deymen dod.
Yonsam suv sepa-san, so'nsam yondirib,
Boshingga ko'tarding onadan ziyod.

Yillar qancha ketsa, shuncha yaqinman,
Borgan sari ortar totli nasibam,
Qayta bormay qaytgum, senga intiqman.
Mening ohangrabom, mening nashidam.
Qonimdagi yonish, bebosh hislarim.
Qoniqmas ta'bimni ziqlikka yo'yma!
Qaynoq suy-gum,
Kuyim,
Sovuq jasadim,
Ona-Vatan, o'tinch, bag'ringdan qo'yma.

Vatan bo'lmasaydi odamzot albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

Ha, she'rdagi og'riqqa, alamli iltijoga chidash qiyin. Lekin alloma Bedil aytganidek, "Shodliklarning barchasi g'amdan yaralgan" ekan, Vatanni – baxt deb, baxtni – Vatan deb kashf etdi. O'zligi bilan Vatanning mushtarakligini tuyish va shunday yashashga chorlash, qalblarga uni singdirish – ezgulikdir, go'zallikdir.

Yuqoridagi fikrlardan Zulfiyaning bahorni sevishiga, uni fasllarning azizi sifatida qadrlashiga shubha qilmasangiz kerak. Menga uyg'onish, tirilish, yashirish, tozarish fasliga bunday muhabbatni ham "Shoiraning talabchan ustoz, mehrli do'sti", o'zbekning Bahor va baxt kuychisi – Hamid Olimjon solganday, uning bevosita ta'siri borday tuyuladi. Shunga ishonchimni yana Zulfiya so'zlari isbotlaydi. - Qaysi gulni yaxshi ko'rasiz? - deb so'raganlarida shoira shunday javobni aytadi:

- Binafsha. Mittigina gul. Lekin qanday xushbo'y u, qanday go'zal u. Har kichkina jon o'zida shuncha fazilatni asray olsa edi...

E'TIQOD VA IJOD

...Zamindan mahrum qilish mumkin, boylikdan mahrum qilish mumkin, hayotdan ham mahrum qilish mumkin. Lekin, inson xotirasiga tajovuz qilish mumkin degan gapni kim o'ylab topdi?! O'-o', Xudoyim, biru borim o'zingsan, netib odamlar ko'ngliga bunday baloni solding? Axir, olamda bundan boshqa yovuzliklar ham tiqilib yotibdi-ku?!

Chingiz Aytmatov

"Odam ota-onasini tanlayolmaganidek, Vatanni ham tanlay olmaydi. Albatta, Alloh odamga Vatanni muzliklardan ham, sahrolardan ham, changalzorlardan ham ato etishi mumkin. Lekin siz bilan bizga Alloh O'zbekiston deb atalgan, tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog' desa tog'i bor, bog' desa bog'i bor, har tongda bulbullar madhini o'qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan ekan, buning uchun o'zimizni BAXTLI deb bilmog'imiz kerak".

Bu topib aytilgan, har bir o'zbekistonlikning ko'nglidagi mulohazaning muallifi O'zbekiston Qahramoni, adabiy tanqidchiligimiz sardori Ozod Sharafiddinovdir. Xo'sh, bu fikrni sal davom ettiraylik. Aynan shunday BAXTLI Vatanda tug'ilgan bizdan oldingi uzoq va yaqin ajdodlar ham Allohga shukronalar keltirsa, ular ham "Baxtlar vodiysi"ni – "Shodlik va baxt o'lkasi" deya ta'riflasi, nega bizning "g'ashimiz" keladi? Nega biz o'tgan asrda yashaganlar

baxtni bilmagan, shodlikni ko'rmagan, totalitar tuzumda bu tuyg'ular umuman bo'y ko'rsatmagan, degan hukmni chiqaramiz? "Sovet davridagi tariximizni mutlaqo maqtash mumkin bo'lmagan tuzum", deb hisoblaymiz? "Bu tuzum xalqimizning fikrlashiga yo'l qo'ymagan..." deya qat'iy xulosa chiqaramiz? Nega?!

Axir, birinchidan, inson tuzumning bandasi emas-ku! U Allohning bandasidir. Shu bois, u qazo-qadarning hukmiga binoan muayyan bir vaqtda dunyoga keladi. Va u qaysi tuzumda yashashidan qat'iy nazar, doimo g'am-alamlarga ham, baxtu saodatga ham duch kelishi, uni boshidan kechirishi muqarrar. Axir baxt, baxtiyorlik tuzumlarning kashfi emas, u kishiga bog'liq tuyg'u, insoniyatning tug'ma xislati-ku! Gap yashayotgan tuzumidan, davridan Haqni va mohiyatni topa bilishida, xarakteri xislatlarini – o'zligini ro'yobga chiqarishida, kimligini anglatishida, avlodlariga qoldiradigan betakror merosida bo'lsa kerak.

Ikkinchidan, XX asrdagidek rivojlanish, katta sifat o'zgarishlari tariximizda kam bo'lgan. Birgina dalilga e'tibor qilaylik.

Darvoqe, "Biz o'tgan asrdagi hayotimiz to'g'risida har qancha afsus-u nadomatlar bilan gapirmaylik, turli nuqsonlarni topib, ular haqida uvvos solmaylik, Alloh bu asrda o'zbek xalqiga biri-biridan yuksak, biri-biridan buyuk, biri-biridan dono va betakror san'atkorlar avlodini ato etganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Komil Yashin, Hamid Olimjon, Zulfiya, Shayxzoda, Mirtemir, Asqad Muxtor... Bularning har biri o'zicha olam, ko'p qirrali, chinakam milliy tuyg'ular egasi, xalq va Vatan ishqida yongan odamlar"-ku! (Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Toshkent, 2004, 260-bet) Bundan tashqari shu asrda adabiyotshunoslik va adabiy tanqid fan sifatida shakllandi. Bu ilmning I. Sulton, V. Abdullaev, H. Sulaymon, H. Yoqubov, A. Qayumov, M. Qo'shjonov, S. Mamajonov, A. Hayitmetov, O. Sharafiddinov, B. Sarimsoqov kabi o'nlab sohiblari etishdi... "XX asr – o'zbek adabiyotining oltin asri" degan hukmlar ham bejiz emas-da!

Bu asoslar bilan mustamlakachilik mafkurasini yoqlamoqchi emasman. Istiqlolimiz bergan bebaho ne'matlarning beqiyosligini shubhaga olayotganim ham yo'q. Balki, Istiqlol g'oyasiga, uning xulosalariga tayangan holda, har qanday voqea-hodisaga xolisona

baho berish, uning fazilat va qusurlarini, quvonch va alamlarini, g'alaba va fojia-larini, haqiqat va yolg'onlarini, rivojlanishi va tanazzulini boricha tahlil etish lozimligini ta'kidlamogchiman. Ana shundagina Mustaqillik mafkurasining hayotiyiligi, haqqoniyiligi, zaruriyligi, odamiyligi ochiladi. O'tmish ham bugungi rivojimizga, yuksak ma'naviyatimizga ezguliklari bilan yordamga keladi, baxtli Vatanning qadr-u qimmatiga etishga va uni yanada yuksaltirishga kuch va ishonch beradi.

* * *

Hamid Olimjon olamdan o'tganiga 47 (1991) yil to'lgach, tuzum o'zgardi, avlodlar yangilandi. Lekin uning badiiy mahorat bilan yo'g'rilgan asarlari eskirib, qatordan chiqib, keraksiz matohlarga aylanmadi. Bugun ham ular tirik, yaratishda, quvonch va shodlik, baxt-u saodat ulashishda davom etmoqda. To'g'ri, uning hamma asarlarida o'zi yashagan davrning, hukmron sovet mafkurasining ta'siri mana men deb turibdi. Buni hech kim inkor eta olmaydi. Shoirning o'zi ham bu haqiqatni: "...ilk ijodim bilanoq sovet adabiyotini yoqladim: birinchi she'rimdan so'nggisigacha sovet shoiriman. Buning dalili – mening asarlarim", deya baralla aytadi. Sotsialistik realizm adabiyotining jonkuyari sifatida "proletar inqilobiga nisbatan dushman kayfiyatni juda kuchli ifoda etgan o'zbek millatchilik adabiyotini" maqolalarida fosh etadi. Bu adabiyot vakillari (Cho'lpon, Fitrat, Toshqin, Chig'atoy, Tavallo, Dilafkor, Vasliy...) ijodini tahlil etar ekan, "Ko'zlarida qayg'u yoshlari bo'lgani holda ham aksilinqilobning faol tashviqotchisi sifatida jonbozlik ko'rsatdilar", - deya 1935 yilda "Harbiy kommunizm davrida o'zbek burjuaziya poeziyasi" maqolasida yozadi.

Ularni "yo'ldan ozganlar", deya qalbdan hukm chiqaradi va she'rlariga ham ko'chiradi:

*Toleim shulkim, Vatanda bir guliston tanladim,
Baxtni topgan el bilan jondosh bo'lib otdim odim,
Yo'ldan ozganlarga hech bir bo'lmadim men qayg'udosh,
Shul sababdankim, mening bag'rimda joy olmish Quyosh,
Shul sababdankim, Vatanda bo'lmadim ilhomi xor,
Shul sababdin menga yotdir baxt talog' etgan diyor.*

G'afur G'ulom "Sog'inish" she'rida:
"Ulug' e'tiqodda o'laman qarib
Abaddir Lenincha padariy huquq", -

deb yozsa, Abdulla Qahhor:

"Buyuk burilish yili boshlandi. Shaharda nepman, qishloqda mushtumzo'r jon talvasasiga tushdi. Taqdir meni shu dushman sinf vakillari bo'lgan eski va "yangi" ziyolilar, o'zini millat homiysi, millatchi deb atagan bir guruh vatan xoinlari bilan uchrashtirdi. Bular bilan uchrashish mening uchun, bir jihatdan, og'ir ko'rgilik bo'lsa, ikkinchi jihatdan, katta maktab bo'ldi. Men bu maktabda sotsializm dushmanlarining basharasini ko'rdim, burjua millatchiligining sinfiy mohiyatini yana ham chuqurroq angladim. Qo'limga yangi qalam olganimda, din va din ahllariga qarshi bolaligimdan beri ko'ksimda yig'ilib yotgan alamni to'kishga qanchalik shoshilgan bo'lsam, burjua millatchiligi haqida ko'rgan va bilganlarimni tengqurlarimga, butun xalqqa aytishga shuncha shoshildim. Men adabiyot kurash quroli bo'lishiga hech qachon bunchalik zarurat his qilmagan edim. Cho'lponning ko'p she'rlari yoshlarning bag'riga otilgan o'q bo'lganini ham o'shanda anglaganman" ("Ozgina o'zim haqimda"), - deya qayd qiladi.

Aql-u yurakdan aytilgan XX asrning 30-40 yillaridagi bu haqiqatlarni rad etishga hojat yo'q. Ularning bunday e'tiqodiga qoyil qolmaslikning ham iloji yo'q.

Ayniqsa, ozod va obod bo'layotgan o'lka (sotsializm bahori)ning haqiqiy grajdani, Lenin va Stalin siyosatining targ'ibotchisi, sovet adabiyotining yetuk shoiri sifatidagi 25 yoshdan oshgan Hamid Olimjonning faolligi kishini hayratlantiradi. Uning sotsialistik tuzumga ishonganidan, yuksak g'oyalarga sadoqatidan, niyat va tuyg'ularining samimiyligidan, umid va orzularining ketma-ket voqe bo'layotganidan va bularning barchasi o'z burchini sidqidildan bajarish orqali yuzaga chiqayotganidan iftixor tuyasiz. Bilasiz, Hamid Olimjon 26 yoshida (1935 yil 23 iyul) sevgan qizi - Zulfiyaga uylanadi. Shu bahonada shoirning borlig'i - Komila ona Toshkentga ko'chib keladi. 1937 yilning 19 yanvarida bosh farzandi Hulkar dunyoga keladi. Shu yili A.Pushkin vafotining 100 yilligi yodlanadi,

Moskvada o'zbek san'ati dekadasi bo'lib o'tadi... Bularning barchasiga u bosh-qosh bo'ladi, ilhomi qaynar buloqdek toshadi. Natijada "A'molsiz yashagan kishi g'aribdir!" degan donolar haqiqatiga ishonasiz. Mahkam ushlangan maslaksiz, butun borlig'ingni egallagan dunyoqarashsiz, yuksak ideallarsiz bunchalar faollik yuzaga chiqmasligiga imon keltirasiz.

Shunga qaramasdan 1937 yil sentyabrda "Hamid Olimjon millatchi shoirlarning "dumi" sifatida Yozuvchilar soyuzidan ham, Til va adabiyot institutidan ham haydaldi. Shoir uchun sinov kunlari boshlandi" (N. Karimov. "Hamid Olimjon", T., "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1979, 123-bet).

Biroq bu ayblar, haydaliqlar uning irodasini buka olmaydi. Olimjonshunos Naim Karimov yuqoridagi kitobida yozganidek, "Hamid Olimjon Yozuvchilar soyuzidan chiqarilgandan keyin ham soyuzda bo'layotgan yig'ilishlarda qatnashib turdi. Shunday yig'ilishlardan birida prezidiumda hozir bo'lganlarning biri: "Hamid Olimjon majlisdan chiqib ketsin! Bizning oramizda bunday odamning o'tirishi mumkin emas!" – deb talab qildi.

Ammo Hamid Olimjonni izdan chiqarish oson emas edi. "Nega chiqib ketar ekanman?! Mening joyim shu yerda! Siz chiqing! Mening yo'lim – to'g'ri yo'l! Men bolsheviklar partiyasi yo'lidan ketmoqdaman. Men xalq bilan birgaman. Haq qaror topadi, albatta!" – deydi u".

Oradan bir yil o'tgach, Yozuvchilar soyuzining 1938 yil 16 oktyabridagi yig'ilishida Hamid Olimjonni Yozuvchilar soyuzidan chiqarishga asos yo'qligi aniqlangach, u O'zbekiston Yozuvchilar soyuzining haqiqiy a'zosi qilib qoldiriladi.

Hammaga tanish bu mulohazalarni aytishdan maqsad bitta: talant e'tiqodsiz o'zini to'liq namoyon qilmaydi. Chunki e'tiqodda umumbashariylik, umuminsoniylik bor. Unda haqiqatga va Haqqa yetishning yo'li bor. E'tiqod to'liq his etishga yetaklaydi va shundagina bular gullaydi, hosil beradi. Ya'ni, talantli san'atkor aytmoqchi bo'lgan haqiqatiga, g'oyasiga ichdan to'liq ishonmasa undan go'zal asar bunyodga kelmaydi; badiiy pafosning ishonchsizligi – tuturiqsiz g'oyani pala-partish ifodalaydiki, unga kitobxon ishonmaydi, kitobxon ishonmagan asarning qimmatini sariq chaqaga ham arzimaydi. Ayni paytda, "sariq chaqalik" asarning muallifi

muayyan g'oya va tuzumga ishonmaydigan odamni tarbiyalaydi. "Tuzini ichib, tuzlug'iga tupuradigan"larni yaratadi, shunday yashashni targ'ib etadi, e'tiqodsiz yoki chala e'tiqodga amal qilib, yashayverish mumkinligini ko'ngilga joylaydi... Bu esa katta fojia. Shu bois, "...Qahhor ko'p narsalarni bilgan, anglab etgan, lekin tiliga chiqarmagan, qog'ozga ham tushirolmagan. Aks holda, qatag'on qilichi uning boshi uzra ko'tarilardi. U hamma vaqt tilini tiyib yurishga majbur bo'lgan. Uning fojiasi mana shunda, deb bilaman. U aytishi mumkin bo'lgan ko'p narsalarni aytolmay qoldi. Nafaqat Abdulla Qahhor, balki G'afur G'ulom ham shunday bo'lgan", - deb taxmin qilishlar o'zini oqlamaydi. Ijodkor va uning asarlariga yondashuvdagi tarixiylik prinsipini buzadi. Ularning tuzum kamchiliklarini tanqid qilishlari hisobiga sotsialistik Vatanga bo'lgan e'tiqodlariga rahna solish, shubha bildirish asossizdir. Bu gumonlarni ular yaratgan bironta asar ham isbotlamaydi. Ular ham, Hamid Olimjon ham o'z davrining haqqo'y farzandlari bo'lishgan, sotsialistik tuzumga e'tiqodlari yuksak bo'lgan. Axir, ular bizning bugungi Mustaqillik, Istiqlol bergan haqiqatlardan, sovet tarixining yangi xulosa va saboqlaridan, bilimlaridan bexabar bo'lganlar. Ularning davriga, haqiqatiga, xotirasiga shubha solish asossizdir. O'tmishga "tosh" otganda bugunimiz, ertamizni ham o'ylashimiz zarur. Toki biz otgan "tosh" qaytib kelib, avlodlar boshini yormasin, ulardan e'tiqodsizlarni yoki chala e'tiqod egalarini yaratmasin.

Balkim, shuning oqibatidanmikan, Istiqlol ma'naviyatiga yuzaki yondashish va nomigagina o'zini unga mahliyo qilib ko'rsatishning natijasi xunuk alomatlariga olib kelmoqda, sayozlikka yetaklamoqda, yyengil – yelpi turmushga o'rgatmoqda, axloqsizlikka, odobsizlikka yo'lni keng ochmoqda. Qadr-qimmat, e'zoz-u hurmat, ishonch-u sadoqat taqchil bo'lmoqda, soxta fidoyilar soni ko'paymoqda. Bugun Istiqlol ma'naviyati haqida gapirmagan biron-bir rahbarni topa olmaysiz. Lekin ularning ba'zilari aytdanlariga amal qilmayaptilar, hatto viloyat hokimi bo'la turib, "Nafs balosiga giriftor bo'lib, qing'ir – qiyshiq, jinoiy ishlarga berilib ketgan shaxslar va to'dalar bilan Bahromovning aloqalari qalindlashib ketgani, qo'poruvchi ishlar bilan shug'ullanuvchi shaxslarga otalik qilgani ko'p narsani, avvalambor, uning haqiqiy ichki dunyosini ifodalaydi...

Tabiiyki, viloyat rahbarining ana shunday xatti-harakatlari, ma'suliyat va javobgarlikni butunlay unutib qo'ygani bu hududdagi ishlarning ahvoliga, ma'naviy muhitga, eng yomoni, hokimiyatning obro'-e'tiboriga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasavvur qilish qiyin emas. Hayotning o'zi shuni tasdiqlab beradiki, yuqori pog'onalarda tartib-intizom, talabchanlik bo'shashib, o'zibo'larchilikka yo'l ochib berilsa, joylarda o'z vazifasini suiste'mol qilishlar, poraxo'rlik va buzg'unchilikka yo'l ochiladi..." (I.A.Karimovning Samarqand viloyati Kengashining 2008 yil 15 aprel sessiyasidagi nutqidan). Shu bois, xalq "Bitta chirigan nok bir savat nokni nobud qiladi," deydi. Darvoqe, Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlagan bu haqiqatning "hosili" tezda ko'zga tashlandi: bir yil o'tmasdan Samarqand viloyatida og'ir jinoyatlar soni, poraxo'rlik, axloqsizlik, o'g'irliklar ko'payib, Istiqlol "ma'naviyati chegarasidan chiqish hech chidab bo'lmaydigan darajaga yetib borganini ko'p misollar tasdiqlaydi"...

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov aytganidek, "Xalqning kuydirgi yaralari bular... Xalqim, xalqim deydi, amal kursisiga o'tirgandan keyin o'sha xalqni talaydi. Litsenziyalik o'g'riga aylanadi".

Buni ko'rib turganlar ne qilsin? Xo'p, xalq, oriflar qonun kuchiga, adolat tantanasiga, ma'naviyati pok va boy bo'lgan odamlarimizga ergashadi. Lekin olomon-chi? Avom-chi? Bular harom-harish yo'llar bilan quturtiradigan boylik to'plab, bosar-to'sarini bilmaganlarga ergashsa, jamiyatimiz taqdiri ne kechadi? Shoir Gulnora Karimova aytganidek, "Bizni nima kutar – parvozm, qulash?..."

Demoqchimizki, har bir shoir, yozuvchi o'z davrining sadoqatli farzandi bo'lgandagina, u qaysi g'oyaga, tuzumga xizmat qilganidan qat'iy nazar, umumbashariy qadriyatlarni kuylay oladi, umuminsoniy xislat va xususiyatlarni ifodalab, abadiyatga daxldor bo'la oladi. Bu aksiomani Navoiy ijodi ham, Yassaviy ijodi ham, "Qutadg'u bilig" ham, "Uch mushketyor" ham to'liq tasdiqlaydi.

* * *

Vatan – sajdagoh tuproqdir. Shu tuproqdan yaralgan barcha borliqdir, tirik mavjudotdir; uning shohi sanalgan insondir; o'tmishni, bugunni, kelajakni bir butun qiluvchi insoniyligidir. Vatan – qismatdir. Vatan – har bir shaxsning o'zligi va o'zligini chuqur

anglashdir. Anglangan o'zlikni ko'pning baxtiga beminnat sarflashdir. Buyuk istiqbolga ishonch-la intilishdir, xalqing bilan qondosh, jondosh bo'lib ilgari odimlashdir; mamlakat yuragini qalbingga, qalbingni Vatan yuragiga jo qila bilishdir; Vatanga, uning har bir gyohiga daxldorlikdir; Vatanning barcha yaratqlariga vorislikdir...

Vatan ta'rifi va tavsifining chegarasi yo'q. Uning bepoyonligi va ma'nosining ko'pligini aytgan bilan kamaymaydi, balki aytilganlaridan ham ko'proq qirralari yangi kon kabi ochilaveradi.

Vatanga tug'ilmasingdan tug'ilgan muhabbat, unga mahliyolik yuz ko'rsatib, so'zga aylanganda Hamid Olimjon bo'lib hayqirasan:

*"Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim deb seni, uyg'ondim,
Odam baxti birgina senda
Bo'luriga mukammal qondim".*

Vatanim – borlig'im, baxtimsanki, sen-la tirikman, sen-la yaratuvchi faoliyatdaman, sen-la qalbi butunman. Doimo senga, senga maftunman. Shu bois,

*"Qulog'imga noming kirganda
Qumlik kabi tashna boqurman,
Sening jannat vodiylaringdan
Nahlarday to'lib oqurman".*

Bunday o'xshatish ("Qumlik kabi", "Nahlarday")lar, sifatlash ("jannat vodi") va jonlantirish ("tashna boqish", "to'lib oqish...")lar go'zal fikrga, silliq va aniq fikrga shunchalik vobasta birlashganki, fikr va tuyg'uni qalbga oson va yoqimli singishini ta'minlagan. Faxr tuyg'usini, ona – Vatanni jonu dilidan sevgan farzandning borlig'ini ro'yi-rost gavdalandirgan. Demakki, lo'nda fikr va mehrga to'la so'z yaxlitlashganda Vatan mohiyati va unga baxshidalik ajoyib aniqlik bilan gavdalanadi, yurakni hapqirtiradi. Ha, aniqlik – qisqalik bilan, qisqalik – topib ifodalash bilan tug'iladi. Ana shunda bu misralar har qanday qalbni egallaydi, qalbga eng sevimli, eng ardoqli tuyg'u bo'lib, umrbodga joylashadi, asrlarga tatiydi.

Hamid Olimjon o'zi yashagan zamonasining bosh haqiqatlarini kashf etmasdan, ularning mohiyatini ochmasdan, qalbida "gullagan", fikrida "tinigan" xulosalarini ifodalamasdan tura olmaydi:

"Bilsinlarkim, yo 'ldoshim bo'lmis

Ko'zda yoshi bilan kulganlar,

Tillari bor, o'zlari hayot

Lekin yurak-bag'ri o'lganlar".

Sovet tuzumini qabul qilmagan millatchilarga atalgan, ularning qalblariga nashtar bo'lib sanchilgan bu misralar muallifini aybsitish, bugungi Istiqlol nuqtayi nazaridan uning bu haqiqatlarini rad etish, bizningcha, noto'g'ridir. Chunki zamonaviy shoir bo'lmagan umriboqiy shoir bo'lolmaydi. Bu adabiy ijodning azaliy va o'zgarmas qonunidir. Umriboqiylikning asosida o'z zamonasining asosiy dardlarini, ko'plab zamondoshlarining urib turgan yuragi shodliklari va og'riqlarini kashf etish, umumlashtirish, uni o'zga avlodlar his qiladigan darajada anglatish yotadi. Darvoqe, XX asrning 30-yillari – Lenin davri, VKPB mafkurasi davri edi. Lenin – Stalin va sotsialistik partiya – yagona yetakchi edi. O'zbekistonning "Moskvada suyangan tog'i, Gurjistonda sevgan o'rtog'i – Unga husn va iftixor edi", "Odamga baxt va toleni yor etgan ajib diyor"da yashaganlarni "qo'shiq Leninga eltgan" davr edi.

"Hamma yoq intilar Moskovga qarab,

Shu yerdan qon olar qalbiga hayot;

Shu quyosh o'ngida aylanar dunyo,

Shu yerdan boshlanar butun koinot".

Shunday tushuncha, bu tushunchaga to'liq ishonch 28 yoshdagi Hamid Olimjon qalbida ham hukmron edi. Va bu haqiqatlar shoir poeziyasida aks etmasligi mumkin emasdi.

Bugun biz Hamid Olimjon bilgan haqiqatlarning mag'zi puch bo'lganini, totalitar tuzum o'ziga g'ov bo'lganlarni ayovsiz mahv etganligini, xalq boshiga ko'plab qirg'inlarni solganini bilamiz. U paytlar esa, shoir biz bilgan haqiqatlarni xayoliga ham keltirmagan, sotsialistik jamiyatni baxt va saodatga eltuvchi yagona jamiyat deb

tushungan, sotsialistik Vatanga o'zligini baxshida qilgan, "sovet shoiriman", deya faxr-tuyg'uga to'lib yashayotgan yigit edi.

Shu sababli, Hamid Olimjon "O'lka" she'rida aytgan, uning qa'ridan, mantig'idan kelib chiquvchi quyidagi so'zlarida shoir asarining umriboqiyiligini anglaymiz; Vatanga bo'lgan mehrimizni, ishonchimizni, safarbarligimizni, unga bo'lgan qaynoq muhabbatimizni, aql va yuragimiz amrini biz ham, kelajak avlodlar ham shunday izhor qilamiz:

*"Har aytganing buyuk jangnoma,
Qayga desang qaytmay keturman,*

*Ko'zlarimni yummasman aslo –
Daryo kabi uyg'oq o'turman".*

YASHAMOQ BAHONASIDA...

O'lish qiyin emas, yashamoq qiyin.

Yapon xalq maqoli

"Hayotning ma'nosi farog'at-u aysh-u ishrat bo'lsa, Allohning eng suygan kishilari fir'avnlr bo'lib chiqadi. Agar – yashash bilmoq, his qilmoq, sevmq, dard chekmoq, yonmoq, o'rtanmoq bo'lsa, eng baxtli odamlar bizlar bo'lamiz. Ko'nglim derki, bizlar saodatliroqmiz", - deydi shoir Erkin Vohidov.

"Ha, yashamoq, muncha yil yeb-ichmoq, mansab va pul deb o'lib-tirilmoq, bo'sh vaqtlarda esa mudrab, pashsha qo'rimoq va qartavozlik qilmoqdan iborat emas... Yashamoq bu his etmoq va fikrlamoq, iztirob chekmoq va rohat qilmoqdir. Bulardan boshqa har qanday hayot o'limdir. Bizning tuyg'u va tafakkurimiz qanchalik katta mazmunni qamrab olsa, iztirob va rohatlanish qobiliyatimiz qanchalik kuchli va teran bo'lsa, demakki, biz shu qadar ko'p yashayapmiz. Bunday hayotning lahzasi mayda-chuyda ishlar-u bir chaqaga qimmat niyatlarni deb ruhsiz, mudrab o'tkazilgan yuz yildan ahamiyatliroqdir....

Ha, hamma narsani ruhan zabt etmoq, egallamoq, hamma-hammasida ustun kelmoq va hech narsaga tobe bo'lmaslik – mana hayot shu!" (V.Belinskiy. Adabiy orzular, 97-bet).

Naqadar topib aytilgan gaplar. Odilona mulohazalar. Asrlarga tatiydigan va asrlar osha yashayotgan haqiqat, haq so'zlar. Takror – takror aytishga arziydigan, amaliyotga ko'chirilsa buyuk mazmun ato eta oladigan o'lmas fikrlar.

Ammo inson uchinchi ming yillikda ham o'zi yaratgan, nafsiammorasi bunyod etgan "zanjirlar" sirtmog'idan ozodmi?

"Naqadar og'ir, naqadar qadrdon bu zanjirlar. Ularni topguncha insoniyat uzundan-uzoq taraqqiyot yo'llarini bosib o'tdi. Aqli ortgani sari zanjirlari ko'paydi. Zohiriy zanjirlar botiniyga almashdi. Temirlari yechilib, oltinlari bog'landi. Taraqqiy zanjir topdi va zanjir taraqqiy topdi. Zanjir odatga aylandi. O'lmagan qulning qulligi o'lmadi. Koinotning xojayi arzandasi va o'z nafsining bandasi bo'lib yashadi inson. Mol-u davlatning, shon-u shavkatning urf-u odatning, vaqt-u soatning va yana ming bir holatning quli bo'lib yashayotir inson".

Shoir shaxsi ham bu zanjirlardan ozod emas. Ana shu zanjir ila u "insoniyatga tutash", "zamonga daxldor" (E.Vohidov)dir. Shuning uchun ham alloma shoir E.Vohidov "Cheksiz, abadiy makonu zamon ichra mavjudlikni ulug' baxt va olamu o'zni anglamaslikni ulug' dard" deb biladi. O'zini zarra sanab, zohiriy va botiniy zanjirlarga qarshi matonat ko'rsatishga chorlaydi, "ming bir holatning quli" bo'lib emas, umidbaxsh ertaning yaratuvchisi bo'lib yashashga chaqiradi, "olamda mehru-sahovat, poklik va ezgulik g'olib bo'ladigan" zamonlar kelishiga ishonadi-yu, suyuqli O'zbekistonni, hur va ozod Vatanni, mehnatkash xalqimizni ulug'laydi, ularni qalbiga joylaydi:

"Ey, mening buyuk va ozurda yurtim, qudratli va jafokash Vatanim! Sen o'z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og'riqlisi bo'lgan tobelik va mutelik zanjiridan xalos bo'lding. Ozodlik kuning asr desa asr, ming yillik desa ming yillik ichida eng buyuk kundir. U sening yangi tarixing, mening yangi umrim boshlangan kun. Milodiy va hijriy yil hisobi yonida qalbimning o'z yil hisobi bor. Yangi yil milodiy ikki ming birinchi, hijriy – bir ming yuzu yigirma birinchi, ozodiy - o'ninchi yil bo'ladi" (Ta'kidlar bizniki – H.U).

Ushbu fikrlar "Ajab saodat erur..." va "Assalom, kelajak"! nomli jajji badihalarda ifodasini topgan. Aql va qalbdagi pishib, teranlashib, dur shodasi kabi yaxlitlashib, hayqiriq bo'lib qog'ozga to'kilgan. "Yangi asr ostonasidagi o'ylar" (O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 22 dekabr 2000 yil) turkumidagi bu badihalar XXI asr o'zbek ijodkorlarining **bosh dasturiday** taassurot uyg'otadi. Uning har bir satridagi yoniq mulohazalar – "yashashning ma'nosini teran anglashga" da'vat etadi. Vatan va xalqimizning tepib turgan yuragiga qondosh va jondosh bo'lib yashashga, ularning ruhiyatini yorqin ifodalashga, haqqoniy tasvirlashga – poetik dunyosini kashf etishga chaqiradi. Ayni paytda, bu talablar o'ziga ham daxldor ekanini chuqur anglagan shoir uning isbotini ham beradi: badihalariga uchta she'rini ilova qiladi. Bu she'rlarning har birida E.Vohidov poetik qudratining yuksak va beqiyosligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, ko'pgina shoirlarimiz bugungi kunda o'z ijodlari nafasini – maqtovlarga va nasihatlariga burkaganlari uchunmi, o'zlarini kashf etishda davom etish o'rniga, aytganlarini takrorlayotganlari sabablimi, umum dardini, g'am-u anduhini, jasoratini, sog'inchini, shodligini kuylash o'rniga, o'zlarining shaxsiy sadoqatlari va muhabbatlari "qo'shig'ini" kuylayotganlari oqibatimi yoki bu uchala holatning aniq birlashib ketgani va avjda ekani sababidanmi, har qalay, bu she'rlar yuksakligi, **istiqlol g'oyasiga chambarchasligi** bilan uxlaganni uyg'otadi, uyg'onganni fikrlatadi, fikrlaganni harakatga soladi. Hissiyotining jo'shqinligi, ohangining o'ynoqiligi, mazmunan chuqurligi sabab hammada hayrat qo'zg'otadi. Mushohadalarimizni birgina asar ham isbotlay oladi. U – "O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa...".

*O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo'lgani shudir.*

Yuragingiz hapqirib ketdimi? Oddiy va dono haqiqatning mag'ziga birdan yetdingizmi? Buyukligingizni, kimligingizni his qildingizmi? 150 yillik bosqinning shafqatsiz va ayanchli fojiasini tuydingizmi? Bir olam mazmunni ikki baytga sig'dira bilgan shoir mahoratiga hayratlandingizmi? So'zlarning oddiyligiga,

ma'nodorligiga, o'z o'rnida nurlanishiga, rangdor ohangiga – barining sozligiga, sehriga lolmisiz?

Bir banddanoq xayoligizni band etgan, unda dengizday hayqirayotgan tuyg'ularni uyg'otgan, u tuyg'ularingizdagi bahodirona qudratni va mu'telikning oqibatini pafos darajasiga ko'targan poetik kashfga, shoirning chechanligiga to'yimsiz, keyingi bandga shoshamiz:

*O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir
Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa.
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir.*

Prezidentimiz Navoiyni o'rganishga chorlasalar, "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma'rifatdir. ... Ma'rifatchi fidoiy bo'lmog'i kerak", - deya ta'kidlasalar, mutafakkir xuddi shu haqiqatlarning ta'sirdor poetik tasvirini beradi. Muhtaram I.A.Karimov: "ongli yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan shaxs, ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh g'oyamiz bo'lishi kerak"ligi yo'lida jon kuydirsalar, shoir mushohadani talab qiluvchi poeziya (asar)ni yaratadi. Birlari - birlaridan ta'sirlanib, istiqlol uchun yonishni voqe qiladilar, yashashning mohiyatini o'zlarida mujassam etib namuna ko'rsatadilar... Asardagi lirik qahramon - Istiqlol qalbini o'zida jo etgan zamondoshimizdir. Bor haqiqatni aytishdan qo'rqmaydigan, mavjud kasallikning mohiyatini ochuvchi va undan qutilish yo'lini ko'rsatuvchi yonib, kuyib yashayotgan uyg'oq qalbli birodarimizdir.

*O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Aldangani, alla bo'lgani shudir.
Yulg'ich aziz bo'lib, bilgich xor bo'lsa,
Paytavaning salla bo'lgani shudir.*

Bu band kuchli qalbingizga eng katta zarbni uradi: larzaga tushasiz. Undagi mazmun va ehtiros kuchli zilziladek, g'ami zilzambil temirdek. Yurakni tars yorvoradigandek qudratli.

Ayniqsa, "Alla" so'zining "Go'dakni uxlatishda aytiladigan qo'shiq" dan, yana boshqacha – "Chirpirak bo'lib, qulamoq"

ma'nosini tashishini bilganingizdan so'ng shoirning topqirligiga, so'z sehgari ekanligiga qoyil qolasiz. Qalbingizda to'lqin toshadi. Mardonalik va ravshanlik bilan, poeziya tilida – teran aytilgan zalvorli haqiqat ruhi qalbingizga ko'chadi. Bir o'qishdanoq yod olgan misralaringizni takrorlamaslikka imkon topa olmaysiz; chunki u sizning ham, mening ham qalbidagi jarohatni uyg'otib yubordi:

*Yulg'ich aziz bo'lib, bilgich xor bo'lsa,
Paytavaning salla bo'lgani shudir.*

Bu balolardan, kasofatlardan qanday qutilish mumkin? Qanaqa yo'llari bor? Yorug'lik qanisan? Umid bormi? ... Chekayotgan qayg'ungizdan qutilishga intqlik sezasiz. Shoir tarang tortilgan, olovlangan tuyg'ularni yechish yo'liga o'tadi. Komil bo'lish uchun ham, xalq qalbi to'la nur bo'lishi uchun ham, o'zlikni anglash uchun ham Navoiyning o'lmas ta'limoti zarurligiga ishontiradi. Yuzlab navoiyshunoslarning tashviqini, orzularini birgina poetik asari bilan millionlab qalblarga singdiradi, Navoiyga oshno etadi. Shunday yechim tufayli bir oz yengil tortasiz, qalbingizda yaratish ruhi hukmron kuchga aylanadi:

*El komil bo'lmasa, yurt emas ulug',
Beqadr mahalla bo'lgani shudir.
Qalb to'la nur xalqning rizqi ham to'lug',
Ombor to'la g'alla bo'lgani shudir.*

*O'zbek o'zligin anglasa bekam,
Uning "Barakalla" bo'lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan,
Ovozi baralla bo'lgani shudir.*

Kashfiyot bo'lib tug'ilgan bu asar chuqur zamonaviy hamdir. O'zbekona milliylikni tashishi bilan, ayni paytda, umuminsoniy hamdir. Qalb va onglarni birlashtirib ezgulik, komillikka yetaklovchi oqilona ilhomning betakror, hayratomuz mevasidir.

Demak, E.Vohidov haqli ravishda XX asrning so'nggi va XXI asrning birinchi buyuk shoiridir.

Agar Samarqand ko'chalarida kichkina, ko'rimsiz, vaqtincha ochilgan do'konchalar oldida ertadan kechgacha qartavozlik bilan

shugʻullanuvchi qariyalarni koʻp koʻrmaganimda, balkim, bu bitikni yozmagan boʻlar edim. Qalbning, talantning, odamiylikning qarimasligiga ishonmaganimda, balkim, men ham jim turaverardim. Eng yomon tomoni – bu nuqsning yoshlarga ham yuqayotganidir. Xoʻsh, bu holatlarga ijodkor ahli ham daxldor emasmi? Bir jihatdan sustkashligimiz, boqibegʻamligimiz, “biz ulugʻ emas, bizga shu ham boʻlaveradi” deb koʻngilni tinchitishimiz” (E.Vohidov) taʼsiri emasmikan? Jamiyatimizda yuzaga kelayotgan bunday falokatli zanjirlarni oʻzimiz yaratmayapmizmi? Yoshimiz ulugʻ boʻlsa-da, yonishimiz, oʻzligimizni xalqimiz va Vatanimiz ertasi uchun baxshida etish burchimiz va masʼuliyatimiz; odamiyligimiz mezon, poetik dunyomizning mazmuni emasmi? Axir “qari bilganni pari bilmasligi” ayon-ku!... E.Vohidov aytganidek yosh-u qari hammamiz yaxshilik, goʻzallik, mehrdan bogʻ yarataylik:

*Sendan farzandingga bogʻ qolsin, ey doʻst,
Bogʻing Vatan degan nom olsin, ey doʻst.*

“YAXSHI SHEʼRNI YOZISH – OSON ISH EMAS”

*Sizdan iboratman,
O, mening orqada qolgan asarlarim.
Asqad Muxtor*

Asarni jonli vujudga oʻxshatsak, shu vujudning mohiyatini ifodalovchi badiiy til ruh(jon), har bir soʻz esa ana shu ruh(jon)ning rishta(tomir)laridir. Ruh va vujud (shu sabab badiiy til bir vaqtning oʻzida ham mazmun, ham shakl hodisasi) shunchalik uygʻunlashganki, vobastalikda tiriladilar, ajralganlarida oʻladilar. Vobastalik, uygʻunlik doimo samimiylilik va zarurlik asosida zuhur boʻlishi lozimligi badiiy asar yaratishning universal talabidir.

*“Maktab oʻqituvchisining Soʻzi oʻttiz bolaga yetib boradi.
Dorilfunun domlasining Soʻzi yuz talabaga yetib boradi.
Notiqning Soʻzi ming tinglovchiga yetib boradi.*

Qalamkashning So'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi.

Demak, uning so'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir", – deydi nasrdagi shoir O'tkir Hoshimov "Дафтар хошиясидаги битиклар"ida. Bu haq gap... Xo'sh, so'zning poetik dunyosi (ifoda – tasvir qudrati, yorqinligi, tirikligi) qanday voqe bo'ladi?

Adabiyot – so'z san'ati ekan, demak, har bir so'z, dastavval, obrazlilik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. Bunga san'atkor tasvirlayotgan voqea-hodisaning, narsa-predmetning, tug'yon-kechinmaning yaqqol qiyofasi, holatini kitobxon ko'z o'ngida jonli qilib gavdalanitiradi. Oddiy kitobxon ham uni ko'radi, his etadi va shu orqali tirik tuyg'ularni qalban va aqlan sezadi, anglaydi.

Ikki narsa og'irdir ko'nglimga asli,

Ikki narsa uchun yo'q menda bardosh:

Biri – dushmanimning shodon qahqahasi,

*Biri – do'st ko'zida **mitillagan yosh**¹⁰⁹.*

Asqad Muxtorning ushbu to'rtligini tahlil qilishdan ko'ra, uni yana bir o'qib, uqib yod olish va qalbingizdan chiqarib aytganingiz – o'zingizga ham, menga ham, ko'pga ham ma'qul bo'ladi. Chunki uning asosida har bir inson qalbidagi tuyg'u manaman deb turibdi, ma'nosining chuqurligi, aforizm xislati bilan – qalbdagi insoniy qudratning kuchini salmoqli, qisqa ("Yurak qoni bilan yozgan odam uzun yozolmaydi", deydi A.Muxtor) qilib, qabariqli (mubolag'ali), ta'sirdor (estetik ta'sirchan) shaklda jonlantirmoqda. Bularning barchasini asardagi so'zlar voqe qilmoqda.

Bunday dilbar to'rtlik osongina yuzaga kelmagan. Uning anchayin tarixi bor. Saydi Umirov "Da'vatkor so'z" kitobida G'afur G'ulomning so'z qiymati, salmog'i qadriga yetuvchi san'atkor ekanligini, yosh qalamkashlar uchun katta ibrat va saboq maktabi yaratganini asosli tadqiq etadi. Bu fikrlarni misollar bilan isbotlashga harakat qilib yozadi: "Bir yig'inda Asqad Muxtor xarakterli bir faktni aytib bergan edi. G'afur G'ulom ishtirok etgan mushoiralardan birida yosh shoir Asqad Muxtor tortinib – qimtinib quyidagi to'rtligini o'qiydi:

¹⁰⁹ Asqad Muxtor. Asarlar. –T., Ga'fur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyati, 1983, 21-bet (tadqiqotdagi ta'kidlarning barchasi biznikisi – X.U).

*Ikki narsa og'irdir ko'nglimga asti,
Ikki narsa uchun yo'q menda toqat:
Biri – dushmanimning shodon qahqahasi,
Biri – do'st ko'zida yaltillagan yosh.*

She'rdan ta'sirlangan G'afur G'ulom o'rnidan turib ketib: **“Mo'ltillagan” de, joyiga tushadi**, deydi. Chindan ham **“Yaltillagan”** so'zining **“Mo'ltillagan”** degan so'z bilan almashinuvi to'rtlikning ta'sir quvvatini oshirib yuborgan. Bu fakt G'afur G'ulomning so'zning potensial imkoniyatlari, nozik tovlanishini naqadar teran his etganligidan dalolat berib turibdi”¹¹⁰.

Shu o'rinda **“mo'ltillagan”** so'zini G'afur G'ulom taklif etmaganga o'xshaydi. Chunki har bir **“so'zning nozik tovlanishini teran his etgan”** shoir **“mo'ltillamoq”**, **“mo'ltaymoq”**ning ma'nosi **“ayanchli qaramoq, ma'yuslanib, ezilib qaramoq, javdiramoq, xayol parishonlik bilan qaramoq”** ekanligini, bu holat to'rtlikdagi mazmunga yopishmasligini tushunmasligi mumkin emasdek tuyuladi. Bizningcha, G'afur G'ulom **“Miltillagan” de, joyiga tushadi**, degan bo'salar kerak, chunki shu so'zning ma'nosi – **“pirpirab, kuchsiz yonib yoki yorug' berib turmoq, ko'zga arang tashlanmoq, zo'rg'a ko'rinmoq”** asardagi bosh mazmun (g'oya)ga, uzukka ko'z qo'ygandek, mos keladi; ana shundagina u nozik jilolanadi, samimiyligi va shu o'ringa zarurligi bilan tiriladi. Shu sabab Asqad Muxtor **“Uyqu qochganda”** asarida yozadi: **“Yolg'on o'zi xavfli emas, uning haqiqatga o'xshab ketishi xavfli”**. Bu eng zarur saboq.

Darvoqe, do'st ko'zidagi “yosh yaltillaganda” - uning ahvoli nochorligini, og'irligini bildirmaydi, balki, uning ahvoli yaxshiligini, nur taratayotganligini bildiradi. **“Yosh mo'ltillaganida”** esa, yolverish, nimadandir umidvorlik, javdiramoq holati – bosh tuyg'uga aylanadi. **“Yosh miltillaganda”** - uning ahvoli chatoqligini, og'ir ahvolda ekanligini, pirpirab, arang yonib turganini bildiradi. Ana shu uchinchi holatdagina ma'no va mantiq o'zaro bog'lanadi, **“do'stning yoshi”** poetiklashadi.

Lekin hali she'rdagi so'zlarning barchasi ham poetiklashmagan, hammasi ham muayyan **“yuk”ni** tashimayapti. San'atkor doimo minglab so'zlar ichidan eng keraklisini tanlaydi; zargarona tanlangan

¹¹⁰ Сайди Умиев. Даъваткор сўз. Т., “Ёш гвардия”, 1985, 100-бет.

ana shu soʻz qahramon va sharoitning mazmuni (gʻoyasi), holati bilan chambarchas bogʻlanishi, u aniq estetik maqsad (mazmun)ni voqe qilishi shart. Bundan har qanday soʻz badiiy asarda oʻz “yuk”iga ega boʻlishi kerak, degan qoida kelib chiqadi. Shu nuqtayi nazardan sheʼrga eʼtibor qilsak, asarning birinchi variantidagi “toqat” soʻzi keyingi variantda “bardosh” soʻziga almashtirilgan, bu ham bejiz emas. Agar oʻzbek tilining izohli lugʻatini varaqlasak, “Toqat” - “arabcha soʻz boʻlib, chidam, bardosh berish qobiliyati; sabr bardosh, toʻzim”; “Bardosh” - “fors-tojikcha soʻz boʻlib, chidam, sabr, toqat, matonat, toʻzim” maʼnolarini berishini, ikkalasi ham deyarli bir xil mazmunni tashishini bilib olamiz. Biroq “toqat” bilan “yosh” qofiyadosh emas, “bardosh” bilan “yosh” qofiyadoshdir. Sheʼrdagi qofiya, qofiyadagi nutq tovushlarining evfoniyasi (ohangdorligi) aynan shu soʻzni talab qilgan, buni Asqad Muxtor tushungan va ustalik bilan topgan. Oʻz oʻrniga tushgan soʻz asarning musiqiyiligini, taʼsirdorligini, bir-ikki oʻqishdanoq yod olish imkoniyatini yuzaga chiqargan.

Xuddi shuningdek, toʻrtlikdagi “asti” soʻzi (arabcha, “aslo” maʼnosini beradi) “asli” (arabcha, “yaxshisi, toʻgʻrisi; zotan, haqiqatda” maʼnolarini beradi) bilan almashtirilgach, hamma soʻzlar poetiklashib bosh maʼnoni yorqin va taʼsirchan voqe qilib, asarni, ana endi, goʻzalligini, bus-butunligini taʼminlagan.

Aytganlarimizga bugungi shoirlarimiz sardori, ijodiy tajribalari boy, qadrdon shoir Abdulla Oripov yakun qilsinlar va bizga bu doimiy saboq boʻlsin:

“Oʻrni kelganda yosh shoir ukalarimga bir gapni aytib oʻtay, zinhor bitta sheʼrni bir oʻtirishda yozdim deb maqtanib yurmang, sheʼr, yaʼni soʻz ayrim unli va undoshlariga qadar tinimsiz sayqal topgandagina va ayni chogʻda birinchi yozilishdagi ruhiy quvvati va sehrini yoʻqotmagan taqdirdagina mukammal asarga aylanishi mumkin” (“Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati”, 2001 yil, 23 fevral).

UYDIRMA IJODNING AZALIY QONUNI

“Aslini bilmay soʻz demaslar...”

Xalq maqoli

Maʼlumki, yozuvchi hayotning qaysi sohalarini jonlantirmasin, uni xuddi oʻzi koʻrganday, oʻzi boshidan oʻtkazganday ishonarli va

ta'sirchan qilib tasvirlaydi. Shunga asoslangan ko'pgina sodda kitobxonlar asar qahramonini muallifga nisbat beradilar. Ularning tushunchasiga ko'ra, "O'tkan kunlar"dagi Otabek – Abdulla Qodiriy, "Bolalik"dagi Muso – Oybek, "Sudxo'ring o'limi"dagi Qori Ishkamba – Sadridin Ayniy... Chunki bu asarlardagi qahramonlar shunchalik aniq hissiyotlarga, kechinmalarga, hayotiy tajribalarga egaki, mualliflar ularni bevosita o'z boshlaridan kechirmaganlarida, bunchalik aniq va go'zal qilib yozmagan bo'lardilar, deb o'ylaydilar.

Bunday tushuncha tamoman noto'g'ridir. Adabiy ijodning qonunlarini tushunmaslik oqibatidir. So'z san'atining kuch-qudratini to'lasincha anglamaslikdir.

Muallifni asardagi qahramon (garchi bu qahramon-yozuvchi avtobiografiyasi asosida yaratilgan bo'lsa ham) bilan baravarlashtirish, tenglashtirish yozuvchi haqida, uning turmushi to'g'risida, dunyoqarashi va shaxsiyati borasida ko'pgina anglashilmovchiliklar, noto'g'ri xulosalarni, tushunmasdan ayblashlarni, unga nisbatan noo'rin, isboti yo'q, g'arazli sub'yektiv fikrlarni yuzaga keltirishi mumkin.

F.M.Dostoevskiy "O'lik xonadondan xotiralar" ("Записки из мертвого дома") asarini o'z xotinini o'ldirgan jinoyatchi, to'qima asosida yaratilgan shaxs nomidan yozgan. O'n besh yildan keyin uni chorizm siyosiy jinoyatchi sifatida surgun qilganiga qaramay, ko'pchilik kishilar Dostoevskiy o'z xotinini o'ldirgani uchun surgan qilingan, deb o'ylaganlar va hatto tasdiqlaganlar.

"Bir qism kitobxon... Yozuvchining o'ylab chiqarishga bo'lgan huquqini hech tan olmaydi va barcha voqea hamda odamlarni o'z nomi bilan atashni talab qiladi. "Boshsiz odam" degan hikoyam munosabati bilan sodir bo'lgan, sirtidan qaraganda qiziq, lekin aslida juda ham jiddiy bir voqea sira ham esimdand chiqmaydi. Erga zo'rlab berilgan qiz va uning fojiali qismati to'g'risidagi bu hikoyani 1929 yili yozganman. U paytda Qo'qonda chiqadigan "Yangi Farg'ona" gazetasida ishlar edim. Bu hikoyani yozishga turtki bo'lgan voqeani hozir xotirlay olmayman, biroq aminmanki, hikoyadagi voqea unda ko'rsatilgan joyda va o'sha hikoyada qanday tasvirlangan bo'lsa, shunday sodir bo'lmagan; garchi ayrim epizodlar, jumladan, kasalxonadagi epizodni, ya'ni hikoya qahramonini eri ko'rmoqchi bo'lib kelganida meditsina xodimlari haydab yuborganligini eslab

qolgan bo'lsam ham, haqiqiy faktlar tikiladigan kashtaga tag bo'lgan xolos. Xullas, men hikoya qilgan voqea bilan eshitganim o'rtasida o'xshashlik juda oz darajada edi. Hikoya "Yer yuzi" jurnalida bosilib chiqdi, shundan keyin ko'p o'tmay, prokuraturadan... Chaqiriq qog'ozi oldim!

Prokuror meni sovuq qarshi oldi. Hikoya avtori men ekanligimga obdon ishonch hosil qilgach, ta'na toshlarini boshimga yog'dira ketdi.

Yozuvchilarning hammasi qo'rqqoq bo'ladi, dedi u. Prokuratura men tasvirlagan faktlarni tekshirib chiqibdi. Natija nima bo'libdi deng? Hikoyadagi nomlarni men uydirma qilgan ekanman. Buni qarang-a! Bunday odamlar Qo'qonda topilmaydi! Ishni tekshirib, jinoyatchini topib jazolash mumkin bo'lsin uchun men odamlarni o'z nomlari bilan atashga jur'at qilmagan emishman. Unga, bu axir hikoya, bunaqa narsalarni jinoyat qonunlari moddalariga ro'para qilib bo'lmaydi, deb tushuntirishga zo'r berib urindim, lekin butun harakatlarim behuda ketdi, u menga baribir ishonmadi. Jurnalda bosilib chiqqan narsani yozuvchi umuman uydirma qilishi mumkinligini o'ylab tasavvur qilolmas edi..." - deydi Abdulla Qahhor "Hayot hodisalaridan badiiy to'qimaga" maqolasida.

Sadriddin Ayniyning "Sudxo'ning o'limi" asarida o'taketgan xasis obrazi yaratilgan. Lekin hozirga qadar xasislikni Sadriddin Ayniyga nisbat beruvchilarni, Sadriddin Ayniyning yashash tarzidan, mehmon kutishidan, bozor qilishidan xasislik alomatlarini topib, hikoya qiluvchilarni uchratish mumkin.

Holbuki, Sadriddin Ayniyda xasislik xislati bo'lmaganligini, u o'ta tadbirkor, tejamkor, oqil inson ekanligini dalillovchi odamlar ko'p. Jumladan, Sadriddin Ayniy bilan maslakdosh bo'lgan, jadid maktabidan sovet maktabiga ko'prik solgan-Samarqanddagi 10-son o'rta maktabning o'qituvchisi, uzoq vaqtlar o'quv bo'limi mudiri bo'lib ishlagan Abdusamatov Avliyoqul (1887-1980) hazrat ham Sadriddin Ayniy bilan bog'liq ikkita holatni hikoya qilib bergan edilar.

Birinchisi. Sadriddin Ayniy bozorga borib, shalg'om olmoqchi bo'libdi. Ba'zilar puli ko'p yozuvchi shalg'omning katta-kattalarini - kichkina kosadek keladiganlarini xarid qilsa kerak, deb o'ylabdi. Boshqa sotuvchilar esa puli ko'p odam to'g'ri kelganini, katta-kichik aralash turgan to'pni olsalar kerak, degan tushunchaga borib,

shalg'omlarini taklif qilishibdi. Lekin Sadriddin Ayniy shoshilmasdan, hamma shalg'omlarni nazardan kechirgach, uzoq savdolashib, piyoladek-piyoladek keladigan shalg'omlarni sotib olibdi. Bundan ko'pchilik taajjubga tushibdi va ulardan bitta gapdonrog'i Sadriddin Ayniyga savol beribdi: "Domla, Sizni boy yozuvchi deyishadi, lekin uzoq savdolashib shalg'omni o'rtachasini oldingiz. Buning sababi bormi?" Sadriddin Ayniy javob aytibdi:

"Ukaxon, shalg'omni maydalarini olsangiz, barakasi bo'lmaydi, ko'pi po'choqqa chiqib ketadi. Kattasini olsangiz, archib yarmisini qozonga solasiz, yarmisini ertangi ovqatga solguningizgacha, hamma vitaminlari havoga uchib ketadi. O'rtachasi yaxshi bo'ladi, po'chog'i ham kam bo'ladi, barcha vitamini ham ovqatni mazali qiladi, shamollashga qarshi davo bo'ladi!"

Ikkinchisi. Sadriddin Ayniy hammayoq tinchiganidan so'ng to tonggacha ishlashga o'rgangan ekan. O'ninchi lampali chirog'ning shishasi tepasiga kichkina degcha (qozoncha) osilar, chirog'dan chiqayotgan issiqlikka qozonchadagi ovqat hil-hil bo'lib pishar va uni yozuvchi sahar payti tanovvul qilar ekan...

Bundan tashqari, Said Ahmad ham "Yo'qotganlarim va topganlarim" asarida Sadriddin Ayniyning uyida G'afur G'ulom bilan birga bo'lganligini xotirlab: "Domlani pulga, xarjga pishiqroq deyishardi. Biz kechgacha domlanning uylarida mehmon bo'lib, bu xususiyatlarni sezmadik. Dasturxon noz-ne'matlarga to'lib ketgan edi", deb tasdiqlaydi.

Bu fikrlardan shu narsa aniqki, yozuvchi jinoyatchini, xasisni tasvirlar ekan, albatta, o'zi jinoyatchi, xasis bo'lishi shart emas. U yaratayotgan o'sha jinoyatchining, o'sha xasisning qiyofasiga kirib, ularning hayotida bo'lishi mumkin bo'lgan hamma holatlarni tiriltirish qudratiga ega. Chunki har birimizda bo'lganidek, yozuvchida ham hamma insoniy xususiyatlarning kurtagi mavjud.

Ikkinchidan, har qanday badiiy asar umumlashma xarakterda bo'lar ekan, uning asosida hech vaqt bir shaxs (muallif) ning konkret hayoti, aniq avtobiografiyasi yotmaydi, undan badiiy haqiqat tug'ilmaydi.

Shuning uchun ham "Oltin gul" avtori K. Paustovskiy "Avtobiografik qissada men o'zimning haqiqiy hayotimni tasvirlayman. Biroq boshqa adiblardagi singari **menda ham**

qo'shimcha biografiya bor. Bu biografiyam real emas, uni yashamaganman. U faqat mening istak va tasavvurlarim olamidagina mavjuddir", – deydi. – "Uni tasavvurimda har qanday tasodiflardan mone holda, istak-xohishim asosida qanday yaratgan bo'lsam, asarimda ham xuddi shundayligicha tasvirlamoqchiman".

Ko'rinyaptiki, avtobiografik xarakterdagi ijod bilan san'at boshqa-boshqa narsa ekan. K.Paustovkiy avtor obrazi ikkinchi bor reallashganda o'zida tanlashni, umumlashtirishni, jamlashni to'g'ri tushunadi. Chunki avtobiografik faktlardan kuchsiz nusxa yuzaga keladi, u san'at asari bo'lishi uchun qayta ishlanishi, ijodiy tasavvur bilan boyishi, umumlashtirilishi zarur. Ayni paytda, tasvirlanayotgan xotira va kechinmalarni muallif o'z shaxsidan ajratishi, ularni ob'yektivlashtirishi lozim. U haqiqatan o'z boshidan kechirgan voqealar, xotiralarni jonlantirganda ham, o'zini bu xotiralar orqali jonlanuvchi voqealarning **ishtirokchisi** sifatida emas, balki **guvohi** sifatida tutishi kerak. Uning shaxsini emas, umumlashtirilgan ko'pchilikka xos bo'lgan xususiyat, vaziyat, kechinmalarni berishi va kitobxonda bu – muallif turmushining hujjati degan tasavvurni uyg'otmaslikka intilishi kerak.

Demak, asarda tasvirlangan qahramon bilan hayotdagi muallif-inson o'rtasida katta farq bor. Garchi "Bolalik"dagi Muso, "Ko'rgan-kechirganlarim"dagi Nazir, "O'tkan kunlar"dagi Otabek, "Sudxo'rning o'limi"dagi Qori Ishkamba obrazlari asosida Oybek, Nazir Safarov, Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniylarning ma'lum darajada avtobiografiyalari yotsa ham, ularda ijodkorning shaxsiyati muhri bosilgan bo'lsa ham, ularni Oybek-inson, Nazir Safarov – inson, Abdulla Qodiriy – inson, Sadriddin Ayniy – inson bilan baravarlashtirib yubormaslik kerak.

Xullas, yozuvchi o'zining avtobiografiyasidan, ko'rganlaridan, kuzatishlaridan, o'qiganlaridan, fikr va hissiyotlari yig'indisidan foydalangan holda **bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni – uydirma hayotni** yaratadi. Bu adabiy ijodning azaliy va o'zgarmas qonunlaridan, sirlaridan biridir, uni anglagan kishigina badiiy asarni ham, uni yaratgan san'atkorni ham ob'yektiv baholay oladi.

ADABIYOTNING ISHI YARATISHDIR

Kecha-kunduz yotgan ham bir,

Tong uyqusin totgan ham bir.

Xalq maqoli

Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yangidan ta'sirli va jonli, tabiiy va go'zal, tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi.

Adabiyotda hatto bir obrazning portreti ham bir necha yoki o'nlab tanish chehralarning tashqi ko'rinishlarini jamlashdan yoki hayotda ko'rgan, bilgan kishilarning o'z xotirasida qoldirgan ko'rinishlarini ko'z oldiga keltirishdan; ularning qiyofalaridan keragini tanlashdan va konkret qahramonda mujassamlashtirishdan yaratiladi.

Biroq Abdulla Qodiriy aytganidek, buning bir sharti bor: portret sun'iy, yasama nusxa bo'lmasligi, xalq orasida birov bo'lmasa birovda ko'rilgan, tabiiy, mantiqqa to'g'ri keladigan, kitobxonni ishontiradigan bo'lishi kerak.

Adabiyot, Onore de Balzak yozganidek, rassomlikda ishlatiladigan usuldan foydalanadi, go'zal obrazning yaratilishi uchun qo'lni bir ayoldan, oyoqni ikkinchi ayoldan, ko'krakni-boshqasidan, yelkani unisidan oladi. Buni tushunmaganlarga Abdulla Qodiriy kulib, "O'tkan kunlar" romanidagi O'zbek oyimni o'z onasi Josiyat bibidan, Oftob oyimni qaynonasi Xonim bibidan, Kumushni esa yaqin qarindoshi Oyqumushdan olganini aytar ekan.

Bu narsa "Qodiriy ayollar obrazini, xususan, o'z oilasidan, yaqinlaridan olgan, o'rgangan" deb mulohaza yuritish"ning noilmiyligini ko'rsatadi, lekin o'z yaqin kishilaridan ba'zi shtrixlarni, muayyan obraz uchun zaruriy xususiyat va holatlarni olganligini rad etmaydi.

Ikkinchidan, yozuvchi qaysi qahramonning realistik portretini yaratmasin, uning tashqi qiyofasidagi eng xarakterli belgilarni chizishga va shu orqali ularning ruhiy dunyosini aks ettirishga intiladi.

Xonim bibi ham, Oykumush ham, Josiyat bibi ham hech vaqt O'zbek oyimning, Oftob oyimning, Kumushning ruhiy olamini boshdan kechirmaganlar. Bu fikr ham H. Qodiriyning yuqoridagi da'vosini rad etadi. Habibullo Qodiriy xotira kitobida yozadi:

"Eshonguzar mahallamizda mulla Alijon ismli dadamning domlasi bo'lardi. O'zi dadamdan o'n besh yoshlar katta, 1910-1916 yillarda rus-tuzem maktabida o'qituvchilik qilgan, dadamga dars bergan, keyinchalik esa do'stlashib qolgan kishi edi. Dadam bu kishini "ham ustoz, ham yetuk inson" deb nihoyatda hurmat qilardilar. Agar Qodiriy o'z umrida birgina kishini hurmat qilgan, deb faraz qilsak (albatta, ota-ona bundan mustasno), o'sha shaxs shu Alijon domla, deyilsa, mubolag'a bo'lmas...

- Ilgarilari mullalar aksar o'ttiz yillab o'qib, madrasini bazo'r xatm qilardilar. Lekin Alijon domla Buxoro madrasalaridan birini besh yilda tamomlab qaytgan. Bilag'onligi uchun uni madrasadagilar "Alicha" deb atashgan. Domlaning yaxshi xislati shundaki, u pok ko'ngil, kibrsiz, ta'magir emas, sabr-qanoatli, kamtar, mutolaasi zo'r olim, - der edilar dadam.

Alijon domla 1964 yili sakson besh yoshlarda vafot etdilar. Domla menga ham fors tilidan dars berganligi vajidan men ham u kishini yaxshi bilaman. U oq-sariqdan kelgan, ozg'in, cho'ziqroq yuzli, soqol murtli, kichik boshiga oq simobi salla telpak yoki chorqirra moshrang duxoba do'ppi, uzun peshmat kamzuli ustidan to'n, oyog'ida mahsi-kavush kiyib yuruvchi, tik qomat, nuroniy chehra kishi edilar. Domlaning ichki dunyosi ham nurga to'lgan kabi edi. Gapni o'ylab, bosiq, sodda, yoqimli so'zlardilar. So'zlarida mantiqsiz ortiqcha iboralar mutlaqo bo'lmas, tinglovchi go'yo huzurlanar, yana-yana tinglasam, der edi. Buningdek otalar xalqimizda garchi ko'plab uchrasa-da, negadir, ayniqsa, bu kishini men Yusufbek hoji obraziga juda-juda o'xshataman. Muallif, albatta, Yusufbekni siyosiy arbob, ma'lum tabaqaning vakili qilib tasvirlaydi. Alijon domlada garchi bu tomonlar ko'rinmasa-da, har holda boshqa jihatlarini menimcha, ruhan va jismonan Yusufbek hojiga timsoldekdir"¹¹¹.

¹¹¹ Habibullo Qodiriy. O'tam haqida. T., Gafor Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyati, 1983, 98-99-betlar.

Alijon domlani "ruhan va jisman Yusufbek hojiga timsol qilib ko'rsatish", "mezonga olish", uni Yusufbek hojining prototipi deb tushunish ijod jarayonining murakkabligini va uning mohiyatini ma'lum darajada soxtalashtiradi. Chunki, asardagi Yusufbek hojining qiyofasini, uning xislatlarini birgina Alijon domlada emas, yuzlab boshqa kishilarda ham uchratish mumkin. Agar yozuvchining vazifasi – Yusufbek hojini o'z davrining yirik savdogarlar tabaqasining vakili, siyosiy arbobi, tik qomat va nuroniy ota, tinglovchi huzurlanuvchi darajada yoqimli so'zlovchi bosiq qaynota qilib tasvirlamoq ekan, tasvirlaganda ham tipik, umumlashma obraz qilib yaratarkan, albatta, o'sha tabaqaga, o'sha arboblarga, o'sha otalarga, o'sha qaynotalarga xos bo'lgan asosiy fazilat va kamchiliklarni – xususiyatlarni tanlab, Yusufbek hoji xarakterida berishi tabiiy edi. Shunday bo'lgach, Yusufbek hoji obrazini yaratishdagi ijodiy tanlashning, umumlashtirishning, hayotdagi kishilarga o'xshash qilib yaratishning ahamiyatini, hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanish jarayonini o'ta soddalashtirmaslik, balki bunga asosiy urg'uni berish lozim. Chunki N.V.Gogol aytganidek, yozuvchi hech vaqt oddiy nusxadan portret chizmaydi. U portret yaratadi.

Tarixiy shaxslarning portreti yaratilganda ham san'atkor real faktlar (yuz tuzilishi, qomati, kiyinishi va sh.k.)ga, tashqi ko'rinishlarga asoslansa-da, lekin o'zining poetik tasavvuri va asarining rejasiga muvofiq qilib, uni "ichdan" o'zgartiradi.

"O'tkan kunlar"da tasvirlangan tarixiy shaxslardan biri Musulmonqul. Avtor uning portretini quyidagicha chizadi:

"Xonning so'l tomonidagi oltin hallik kursi ustida O'ratepa chakmani ustidan qayish kamar bog'lab, soddagina qilich taqingan, boshiga oq barra popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarli tekis yaratilgan, o'rtacha soqol, qisiq ko'z, bug'doy rang, o'rta yoshli bir kimsa – Musulmonqul o'tirar va hozirgina hudaychi tarafidan o'ziga topshirilgan ariza va maktublardan ochib o'qir edi"¹¹².

Musulmonqulning ja'sur kishi bo'lganligini kitobdagi izohda ham ta'kidlaydi: "Musulmonqulning o'zi ham favqulodda yuraklik edi. 1853m. tarixida Musulmonqul qo'qonliklarga asir tushib, uni to'pdan otib o'ldirish uchun dordek bir narsaning ustiga o'tqizarlar.

¹¹² Абдулла Қодирий. Ўтган кунлар. Т., 1985, 115-бет.

Ikkinchi tomondan to'pga o't berish kutiladi. Shu vaqtda kishilar Musulmonquldan so'raydilar: "Endi qalaysan, cho'loq?" Musulmonqul kulibgina javob beradi: "Alhamdulillah, hali ham sizlardan yuqori bir erda o'tiribman!.." ¹¹³

Garchi keltirilgan bu faktlar hayot haqiqatiga mos bo'lsa-da, lekin yozuvchi o'tgan asrdagi xonliklar va oliy amaldorlarning beburligini, adolatsizligini, xalq qonini so'ruvchi zulukligini, yurtni talashdan boshqa manfaati bo'lmagan, qirg'in va urushlar ijodkorlarning tipik obrazini yaratishda Musulmonqul portretini "ichdan" yangilaydi. Uni "kipriksiz ko'zlarida o'tlar yonadigan", "nihoyatda tutaqqan", "alamga chiday olmaydigan", "xonlikdagi yuqori bir kuchga molik siyosat kursiga o'tirgan", hiyla va nayrangboz, "makkor tulki", "qahr-u g'azab egasi", "istehzo iljayuvchi", "cho'loq supurgi", "uyatsiz" qilib yaratadi.

Demak, yozuvchi haqiqiy san'atkor bo'lsa, u hamma vaqt (asarning eng nozik zarralarigacha) yaratadi. Chunki uning vazifasi tabiatni, shaxsning nusxasini yaratish emas, balki o'xshash qilib yaratilgan narsaga jon va harakat ato qilishda, uning qalbi, mazmuni, xarakterli ko'rinishi haqida taassurot uyg'otishdadir.

Xullas, yozuvchi muayyan bir shaxs portretini yaratganda, shu shaxs mansub bo'lgan tabaqa vakillarining u yoki bu darajada keng tarqalgan ijobiy va salbiy xislatlarini (ko'rinishlari)ni payqaydi va ularni konkret bir shaxs (obraz)da uyg'unlashtiradi. Albatta, bu portret o'ziga xos jonli kishilarga mumkin qadar nozikroq, chuqurroq darajada o'xshash bo'lishi va avtor aks ettirmoqchi bo'lgan narsani yorqinroq ko'rsatishi shart.

Shuning uchun ham "yozuvchi ko'plab shaxslarda ko'ringan fazilatlardan o'z g'oyasiga, ijodiy maqsadiga muvofiq keladiganini xillab olib, qahramonida mujassamlashtirmoqchi bo'lganda xuddi seleksionerga o'xshab ish tutadi. Ya'ni odamlarning xususiyatlarini tirik holicha va boshqa tirik xarakterga chatishib, yashab ketadigan qilib o'tkazadi. Bug'doyda hayotning eng barq urgan payti va boshqa bug'doyning ham xususiyatini olib, o'zida mujassamlashtirishga qodir bo'lgan payti – gullagan payti bo'ladi. Yozuvchi yaratayotgan qahramonning hayoti ham barq urib turishi va boshqa yaxshi

¹¹³ Ilyo kitob, 24-bet.

kishilarning fazilatlarini o'ziga olib singdirishga layoqatli bo'lishi kerak.

Abdulla Qodiriy o'z qarindoshlari Oykumush kabi o'zbek ayollarining husnlari, odoblari, boshqa insoniy fazilatlarini Kumush obrazida tirik bir xarakter shaklida mujassamlantirgan. Romandagi yorqin voqealarsiz, keskin to'qnashuvlarsiz, Otabek kabi sevimli yigitsiz, ikkovini taqdirini belgilagan ulkan hayotiy asoslarsiz bu mumkinmidi? Yo'q. Kumushning shunday bir davrda yashashi, shunday ota-onaning qizi, Otabekday yigitning yori, O'zbekoyimday ayolning kelini-yu, Zaynabdek juvonning kundoshi bo'lishi – hammasi birlashib, yozuvchiga bu obrazdagi g'oyaviy-badiiy kuchlarni barq urdirish imkonini beradi. Kumush o'ziga o'xshash o'zbek ayollarining juda ko'p fazilatlarini mana shu sharoitdagina tirik holicha olib, bir xarakterda mujassamlashtirishi mumkin edi¹¹⁴.

BADIIY ASAR – UMRNI UZAYTIRUVCHI MO'JIZA

Sarlavhadagi tushunchaning juda oddiy isboti bor: faqat chuqurroq mulohaza darkor. Inson tanasini-ochlik (Navoiy bobomiz "Ochlik negizida hikmat bor, to'qlik tagida g'aflat bor" deb bekorga aytmaganlar) poklaganidek, inson qalbini – ko'z yoshi tozalaydi. Ko'z yoshi qalbning katarsissi ("tozalanish")dir. U yoki bu tarzda jarohatlangan, yaralangan qalbni-tozalovchi, davolovchi; u yoki bu tarzda xursandchiligi "oshib, toshib" ketganda ham qalbni yorilib ketishidan saqlab, o'zligiga qaytaruvchi vosita – ko'z yoshidir.

Orzularingiz amalga oshmasa, turmushdan, ishongan kishingizdan xafsalangiz pir bo'lsa, xafagarchilik, achchiqlanish, qoniqmaslik, ranj-alam hislari cho'lg'ab olsa, fojia yoki dahshatga, dilozorlik yoki qadrsizlanishga duch kelsangiz – kishi qalbi larzaga keladi: vahima, ma'yuslik, alam o'rab oladi. Azobli o'y-fikrlar tomirlarni toraytiradi, qonda adrenalin ko'payadi, "iztirob" garmonlari haddan oshib ketadi, o'zingizni qayoqqa urishni, qayoqqa qo'yishni bilmaysiz... Ana shunday paytda ko'z yoshi davo vazifasini o'taydi. U

¹¹⁴ Перимкул Қодиров. Ўйлар. Т. 1971, 118-119-бетлар.

qanchalik achchiq bo'lmasin – obi diyda qilib olganida odam o'zini ancha ravshan tortadi.

Siz "O'tkan kunlar" romanini o'qir ekansiz, "Navo kuyi" bobiga kelganingizda, albatta, Otabek holatiga tushasiz:

"... Dutorni sozlash uchun reza kuylardangina olib turgan mashshoq, Otabek kutmagan joyda "Navo" dan boshlab yuborgan edi. Kuyning boshlanishi bilan naq uning vujudi zir etib ketgandek bo'lib keyin piyolasini bo'shatdi va ixtiyorsiz ravishda dutorning mungli tovushiga berildi. Dutor tovushi qandaydir o'zining bir hasratini so'zlagandek, hikoya qilgandek bo'lib eshitilar edi. Yo'q, bu hasratni o'z tilidan so'zlamas edi – Otabek tilidan so'zlar edi... Otabekning ko'z o'ngida O'tkan kunlari birma-bir o'ta boshladilar-da, nihoyat "anavi" xotiralarni, "anavi" hangomalarni ham ko'rinish berib o'tdilar... Dutor bu ko'rinishni uning ko'z o'ngida keltirib to'xtatgach, bu fojeyaga o'zi ham chidab turolmagandek yig'lay boshladi. Dutor quruqqina yig'lamas edi, balki butun koinotni "zir" etdirib va xasta yuraklarni "dir" silkitib yig'lar edi... Otabek ortiq chidab turolmadida, ro'moli bilan ko'zini yashirib, yig'lamoqqa kirishdi... u ko'z yoshlarini to'xtatmoqchi bo'lar edi, biroq hozirgi ixtiyor o'zida emas edi – hamma ixtiyor dutorning hazin "Navo" sida, toqatsiz yig'isida edi... Dutorning nozik torlaridan, tilsimli yuraklaridan chiqqan "Navo" kuyi o'z nolasiga tushunguvchi Otabekdek yigitlarga juda muhtoj edi. O'z dardini tushungan bu yigitga borgan sayin dardini ochib so'zlar, yig'lab va ingrab so'zlar edi... Eshituvchi esa dunyosini unutib yig'lar, kuchini yig'ishtirib yig'lar va hasrat-u alamini ko'z yoshisi bilan to'kib yig'lar edi...

Nihoyat, "Navo" kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko'zi orqali to'ktirdi-da, falakning teskari harakatidan shikoyat etib qo'ydi va dunyoda yolg'iz hasratgina bo'lmaganini bildirgandek o'zining "Savi" kuyini yer yuziga shodlik va sevinch yog'dirib arz eta boshladi. "Navo" ning sehrli "savti" Otabekning ko'z yoshlarini quritdi-da, bir yengillik bag'ishladi. "Navo" bilan yuvilib ketgan uning umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi..."

Otabekning ushbu tuyg'ularidagi kuydiruvi alam – qaynotasi tomonidan haydalgan, xo'rlangan kuyovning, Kumush tomonidan achchiq maktub orqali "hiylakor tulki, og'zi qon bo'ri, uyatsiz yigit" kabi martabalar bilan siylangan sevimli yorning butun iztiroblarini

o'yo o'zingizning boshingizdan o'tkazayotgandek tasavvur etasiz. ozuvchi tomonidan o'ylab topilgan badiiy dunyoni tamoman unutib, z bilan yuz berayotgan hayotiy hodisadek his etasiz. Ichki issiyotingiz uyg'onib, sizni tamoman rom etadi: siz Otabek kabi tirobalar ta'sirida adoyi tamom bo'lmaslikka, yurak tomirlarini jraytirishini (u o'linga olib kelishi mumkin) to'xtatishga intilib, o'ldiruvchi" his-hayajoningizni tarqatish uchun xayolan o'zaxonadan taskin izlaysiz, "anavini" unutish uchun o'zingizni nastlikka urasiz, "Navo"ni tinglab bor hasrat-u alamingizni ko'z oshingiz orqali to'kasiz. Qo'lingizdagi kitob sahifalari ko'z oshingiz bilan namlanadi, davomini o'qish uchun duv-duv ushayotgan ko'z yoshlaringizni artasiz, yuragingiz hapqirishidan ngranasiz... Ko'z yoshlaringiz yurak g'ashligini, alamli tashvishlarini yuvib ketadi, xalqimiz ta'biri bilan aytganda "ko'z yoshi ko'ngilni eritadi". Hamma holatlarni ifoda etish qiyin, lekin bitta haqiqat ayon: badiiy asardagi o'ylab topilgan hayot samimiy yaratilgani sababli sizga yuqadi, ta'sirdorlik otashi zo'rliigi tufayli sizning qalbingizdagi tug'yon qo'zg'ab, unga behisob harorat beradi, yondiradi. Qahramon (asar) bilan birga yig'laysiz. Shuning evaziga qalbingizdagi bor dog'lar, tushkunliklar, alamlar, vahimalar, xavotirlar, iztiroblar yuvilib ketadi, ko'nglingizni bo'shatib olasiz. Natijada tomirlar kengayadi: qon yoyilib, bemalol oqadi; har xil zo'riqishlar pasayib, qon bosimi ham mo'tadillashadi: charchoq o'rniga kuch-qudratingiz oshadi.

Buloq suvida cho'milgandan so'ng badan qanchalik poklansa, yayrasa, badiiy asar tufayli qalbingiz shunchalik tozaradi, yayraydi. Kelajakdagi hayotingiz mazmuniga baraka qo'shadi, maqsadlaringizga erishmoq yo'llarida mayoq vazifasini o'taydi. Tozalik badanning yashovchanligini oshirgani kabi, toza qalb hayotga maftunkorlikni oshiradi, umringiz uzayishiga asos beradi.

Endi inson taqdiri va holatidagi-quvonch va shodlik yoshlari haqida mulohaza yuritaylik.

Ko'nglingiz yayrasa – qo'shiq yoki kuyni xirgoyi qilasiz. Zavqingiz oshsa, xursandchiligingiz ko'paysa – ezguliklar ulashasiz, hammaga yaxshilik qilgingiz keladi, charchoqni bilmaysiz. Lekin juda xush keladigan, asaldek yoqadigan his-hayajonlar oshib ketsa, uni boshqara olmasangiz – quvonch o'lim eshigini ochib berishi mumkin. "Quvonganidan o'lib qolganlar" tarixda juda ko'p: Sofokl shon-

shuhrati avj payti-olomon olqishlayotgan vaqtda o'lib qolgan. Per otasi mashhur yozuvchi Bomarshega "Seviliya sartaroshi" asarini o'qib berayotganda, otasi kulgudan o'lib qolgan... Demak, bunday holatlar bo'lmasligiga ham ko'z yoshi yordamga keladi: ortiqcha zavq-shavq, qalbning yondiruvchi olovini – zararli va ortiqcha tuyg'ularini ko'z yoshi "yuvadi", uni me'yoriga keltiradi, aqlni ishga soladi:

"Qutidor tanchaga borib o'tirmadi-da, ayvon peshonasidan turib, qo'lidagi xatni yuqori tovush bilan o'qib chiqdi:

"Muhtaram qayin otamizga!

Siz bilan meni qorong'u zindonlarga tushurib, dor ostilarigacha tortgan, buning ila o'zining vahshiyona tilagiga yeta olmagandan keyin, mening tilimdan soxta taloq xati yozib darboza yonidagi haydattirishga muvaffaq bo'lgan va bir gunohsizni shahid etgan Homid ismli bir to'ng'izni, nihoyat ikki yillik sargardonlik so'ngida, yordamchilari bilan tuproqqa qorishtirishga muvaffaq bo'ldim... Sizning shonli hovlingiz yonida voqe bo'lgan bu kurash, albatta, sizni va uy ichingiz ham yor-do'stlaringizni anchagina tinchsizlikka qo'ygan bo'lsa kerak... Sizdan bu ulug' gunohi uchun avf so'rab, haydalgan o'g'lingiz – Otabek Yusufbek hoji o'g'li".

Ammo qutidor "haydalgan" so'zini tashlab o'qidi. Maktub o'qilib bitganda Ofiob oyim, ayniqsa Kumush qutidorning boyagi holiga tushgan edilar. Kumushning bu daqiqadagi holini qalam bilan chizib ko'rsatish, albatta, mumkin emas. U titrar edi, ko'kargan edi, to'lg'anar edi... Hozirgi eng kuchli hayajon va hissiyotni, hissiyotning a'lo ifodasi bo'lgan yosh bilan to'kar edi".

Ko'rinib turibdiki, ikki yillik hijron azobini boshidan o'tkazgan, qanchadan-qancha (taloq xati, bevalik dardi, Komilbekka unashtirish kabi) azoblarni boshidan kechirgan farishta bu quvonchli xabarni eshitganda, dastlab "dahshat va taajjub ichida qotib qoladi". So'ngra ota-ona huzurida ekanligini unutmay (odobni saqlagan holda), dardini oshkor ayta olmay "titraydi, ko'karadi, to'lg'anadi" va qalbida junbushga kelgan tuyg'ularni ko'z yoshi bilan "yuvadi" va uni sizga, menga ham yuqtiradi. Bu quvonch yoshlari – Kumushni ham, siz-u meni ham poklaydi, ruhimizni yengillashtiradi, harakatimizga, o'yimizga, orzularimizga qanot beradi. Chunki "yosh ko'zdan emas, balki yurakdan chiqadi". Shu sabab U.Freyd: "Yig'i – inson uchun

zo'riqish vaqtidagi eng yaxshi himoya vositasidir... Sog' bo'lish uchun yig'lang", - deydi. Amerikalik ruhiyatshunos T.Lekner "Yig'lashdan uyalmang. Agar, Alloh insonga ko'z yoshi atalmish ne'mat bergan ekan, demak, ular to'kilishi kerak", - deydi. Jonli asar tufayligina tiriklikni ma'nisini teran anglaymiz, ertangi hayotimizga e'zozlangan mazmun beradi. Buni ijod etish, shunday tuyg'uni boshdan kechirish (Adabiyot bergan huzur) hayotingizga ezigulik baxsh etadi. Ezgulik esa - yaratishga chanqoqlik tug'diradi, umrni mazmunli kechirishga undaydi, besamar va gunoh ishlardan, tuhmat va bo'hton uyushtirishdan, alam va og'riqlar o'tkazishdan, fisq-u fasod va g'iybat yuritishdan, ko'rolmaslik va hasaddan... saqlaydi. Kitobxon o'zini, o'zligini tezroq anglaydi. O'zini anglamoq baxti-komillikka yetaklaydi.

Shu sabab qalbdagi nozik qirralarning usta tasvircisi - A.Qodiriy o'zi ta'kidlaganidek, "Eng kuchli hayajon va hissiyotni, hissiyotning a'lo ifodasini" ko'z yoshi orqali beradi. Ko'z yoshi qahramonlar qalbidagi po'rtanalarni - qayg'u va shodliklarni ta'sirchan ifodalaydi va har bir holatda (romanda o'ttizdan ortiq yig'i tasviri bor) ko'z yoshi "detali o'quvchida yozuvchiga ishonch uyg'otadi", u "asarning xuddi shu joyida tasvir etilayotgan ahvolga, ideyaga to'g'ri" keladi.

Demak, badiiy asarni mutoala qilish, o'qish, "O'tkan kunlar"ga o'xshash klassik asarlarni uqish va shu jarayonda tasvirlanayotgan hayotni yozuvchi, san'atkordek yaratish, kashf etish umringizga umr qo'shadi, dunyongizni boyitadi, yo'lingizni ravshan qiladi, ezigulikka yetaklaydi.

Xullas, har bir inson hayotda qiyin vaziyatga tushib qolgan paytda, bunday vaziyatda qanday harakat qilishni badiiy asarlar bergan haqqoniy va nafosatli qadriyat bilan xayolan taqqoslab ko'rishi lozim. Bunday taqqoslash muammoli vaziyatni yumshatadi, uning zarari oldida insoniylikdek bosh maqsadning naqadar ulug' ekaniga ishonch hosil qiladi, o'zligini - bosh qadriyati va hayotining bosh maqsadini yo'qotmaydi. Yaxshi tomonga, yaxshilikka intiladi. Baxtga qadam qo'yadi.

Ha, jismoniy hayotimiz ozuqaga qancha talabgor bo'lsa, ruhiy hayotimiz ham go'zallikka shunchalik talabgordir. Badiiy asardagi go'zallik ruhan sokinlik, o'lchab bo'lmas quvonch, tuganmas kuch-

quvvat ato etadi, bu vujudning yayrashiga, kuchli bo'lishiga sabab bo'ladi. Bekorchilikdan, harom-xarish ishlardan xalos qilib, bilim nuri va go'zallik zavqi bilan barkamollikka yetaklaydi. Ruhiiy o'zlashtirish, demakki, salomatlik baxsh etadi. Adabiyot xaloskorlik rolini o'taydi. Boqiylik xislatlari tomon yetaklaydi. Ruhan sog'lom va go'zal odamning, albatta, umri uzoq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Зулфия. Асарлар. 3-жилд, Камалак. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
2. Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами.1 том, Т., "Фан", 1979.
3. Эркин Воҳидов. Сайланма. Т., "Шарк", 2001.
4. Асқад Мухтор. Асарлар. 4 жилд, Т., Ё.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
5. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. Т., "Ўқитувчи", 1985.
6. Умуров Ҳ. Бадий ижод асослари. Т., "Ўзбекистон", 2001.

MAVZU: ISTE'DODNING DARAJALARI

Tayanch tushunchalar: qobiliyat, qobilik, layoqat, iste'dod, talant, daho

"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"da ijodiy tushunchalar tahlili

Ijodiy jarayonning ko'plab ishlangan va ayni paytda, qat'iy xulosalar qilinmagan noyob muammolari ko'p. Buning boisi, har bir shaxs (ijodkor)ning o'ziga xos va takrorlanmas olam ekanligi bo'lsa, ajab emas. Shunday qiziqarli, ko'p qirrali, murakkab muammolardan biri – iste'dod va talantdir.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Iste'dod – ijodiy qobiliyat, layoqat, talant"; "Talant – katta qobiliyat, iste'dod" deb ta'riflangan. "Qobiliyat" – "biror ishga qobilik, yaroqlilik layoqat" va ikkinchi ma'nosi "iste'dod, talant" tarzida qayd qilingan. Demakki, "Qobiliyat" ham, "Iste'dod" ham, "Talant" ham bir-biriga ma'nodosh so'zlar qabilida tushuntirilgan, deyarli farqlanmagan.

Yozuvchi O'tkir Hoshimov ham "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" (T., "Sharq", 2009) asarida talant va iste'dodni bir xil mazmundagi tushunchalar sifatida ishlatadi.

U "Hayotning boshqalar ko'rmagan tomonini ko'rish – talant. Haqiqiy iste'dod boshqalar ko'rmagan narsani topadi va o'sha "narsa" insonni, xalqni, boringki, jamiyatni qayoqqa boshlashi mumkinligini tasvirlab beradi" (225-bet), deb yozadi. Ikkinchi bir o'rinda "talant" tushunchasini shunday "tiriltiradi":

"No'noq haykaltarosh tirik odamni shohsupagacha chiqarib qo'ysa ham o'likka o'xshaydi.

Haqiqiy haykaltarosh o'lik jondan yasagan haykal tirikka o'xshaydi.

Talant degani shu!" (242-b).

Demak, O'tkir Hoshimov talant va iste'dod deganda, asar qahramonlariga "jon ato etish", ya'ni ularni tirik insonlarga aylantirishni tushunadi. Bu "tirik inson" boshqalarga o'xshamagan tarzda kashf qilingan bo'lishi va o'zining mazmuni bilan kitobxonni ezigulikka yetaklashi lozimligini asosli ta'kidlaydi.

Xo'sh, iste'dod tug'ma bo'ladimi yoki u hayotiy faoliyat davomida qo'lga kiritiladimi? degan savolga O'tkir Hoshimov ishonch bilan "... **Ijodkor bo'lish uchun eng avvalo iste'dod kerak. Iste'dodni esa yolg'iz Alloh beradi**" (261-b) deydi. Bu mulohazani esda qoladigan tarzdagi rivoyat bilan asoslaydi:

"Chekka qishloqlardan birida ikki qadrdon do'st bo'lgan ekan. Ikkovlari bir ko'rpada tepkilashib, bir adirda mol boqib voyaga etibdi. Yigit yoshiga kirganda ikkovlari poyi-piyoda, chorig'ni sudrab, katta shaharga yo'l olibdi. Katta o'qishga kiribdi. Taqdir taqazosini qarangki, ikkovlari sohibjamol bir qizni sevib qolibdi. Taqdir taqazosi bilan do'stlardan biri kattagina amaldor, biri esa shoir bo'lib etishibdi. Taqdir taqazosini qarangki, qiz amaldorni tanlabdi.

Shoir hijron alamida yonib, she'rlar bitibdi. Dovrug'i olis-olislariga ketibdi.

Shoir baribir shoir-da! Tili o'tkir, so'zi keskir bo'ladi. Sobiq do'sti-yu, sobiq sevgilisi kelib qolgan davralarda "do'st"ni chandishdan o'zini tiyolmas ekan. Kunlardan birida ayol bunday kamsitishlarga chidolmay, aytibdi:

- Menga, qara! Seni shoir qilgan men bo'laman! Menga bo'lgan muhabbating seni shoir qildi. Agar men bo'lmasam, sen shoir bo'lmas eding! Qachongacha erimni kalaka qilasan?

Shoir javob qilibdi:

- To'g'ri, men senga bag'ishlab ko'p she'rlar yozdim. Ammo sening muhabbating hammani shoir qilishga qodir bo'lsa, nega yoningda o'tirgan to'nka shu paytgacha shoir bo'lmadi?

...Aytishlaricha bu ulug' Ozarbayjon shoiri Samad Vurg'un ekan".

Bu fikrlar bilan O'.Hoshimov iste'dodning yombi oltindek yaxlitlashishi va o'tkir (keskir)ligiga asos beradigan mehnatni tamoman rad etmaydi; balki "Chinakam" ijodkor bo'lish uchun odamda iste'dod"dan tashqari "bilim, mehnat, hayot tajribasi, izlanish va albatta... Vijdon bo'lishi kerak..."(239-b)ligini ta'kid qiladi. Iste'dod egasining "Qalbi qog'ozdek oppoq, qog'ozdek lovillab yonadigan odamdangina chinakam adib chiqishi"(223-b)ni uqtiradi.

Iste'doddek bepoyon tushunchani yana ba'zi qirralarini ochar ekan, yozuvchi iste'dodli va iste'dodsizlarni solishtirish orqali iztirobli va zarur orzularini bayon etadi:

"Iste'dodlilar hadeganda qovusha qolmaydi. Ular yulduzga o'xshaydi. Har bir yulduzning o'z mehvari bo'ladi. Yulduzlar bir-birini inkor etmaydi. Ammo bir-birining mehvariga kirmaydi ham. Iste'dodsizlar esa bir zambil shag'aldek gap. Darrov to'dalashadi. To'da bo'lib jim yotsa-ku, mayli. Baraka topgurlar iste'dodlilarga tosh otaverib bezor qilgani chatoq...

Modomiki, talantsizlar yovuz niyatda bir-biri bilan til topishar ekan, talantlilar ham yaxshi niyatda birlashmog'i kerak"(227-b).

Bu mulohazalardan tashqari yana bir muhim gapni, ya'ni iste'dodning hamma yaratganlaridan mamnun bo'lib qolmaslikka, balki iste'dod o'nlab yillar davomida erishgan mukammallikdan, mutanosiblikdan past ketmaslikka, dastlabki yaratilgan "uyg'un bir butunlik"ka bo'ysinmagan asarlarni nashr etishdan saqlanishga chaqiradi. Har qancha qiyin bo'lishiga qaramay, ana shu oqilona saboqqa amal qilishga chorlaydi:

"Iste'dodli adib hayotida ikki marta xatarli bosqichdan o'tadi. Birinchisi - nimaiki yozmasin chiqarishi mushkul bo'lgan palla. Ikkinchisi - nimaiki yozmasin, chiqarishi oson bo'lgan palla. U

birinchi bosqichdan eson-omon o'tadi. Ammo ikkinchi bosqichdan o'tishi og'ir, juda og'ir..."(234-b).

Yozuvchi o'zining hayotiy tajribasiga, talantiga suyanan holda gapiradi, iste'dodli shaxslarning ichki ikmoniyatlarini yuzaga chiqarish yo'llarini ko'rsatishga intiladi va ayni paytda, ba'zi iste'dodli odamlardagi manmanlik, xudbinlik, boshqalarni nazar-pisand qilmaslik kabi "g'ururlanish" noo'rinligini ko'rsatadi. Iste'dod qudratining bepoyonligini ayonlashtiradi:

"Katta iste'dod avval xalq e'tiborini, keyin xalq muhabbatini va nihoyat xalq e'tiqodini qozonadi. Aslida mana shu uch bosqichning har bittasi bir umrga teng"(234-b).

"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"da talantga nisbatan ba'zan noo'rin, noto'g'ri aytilgan yoki u haqda hali pishib yetilmagan mulohazalarga ham duch kelamiz. Jumladan, yozuvchi "Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi! Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi"(226-b) deydi. Nemislar aytganidek, "Har bir o'xshatishda bir kamchilik bo'ladi" ekan-da!

Darvoqe, talantsiz odam "tuxum"dek narsa ham yarata olmaydi. U tuxum tuqqan boshqa tovuqqa qo'shilib "qaqog'lashi" va "olamni buzishi" mumkindir. Nafsilamrini aytganda, tovuqdan "Yong'oqdek tuxum" tug'ilishi – yangi bir olamning dunyoga kelganidir, "qaqog'lash" esa – dunyoni xabardor etishga intilishning zavql oqibatidir. Shunday ekan, bu o'xshatishning mantig'i, mohiyatidan kelib chiqib "Talantsiz yozuvchi tuxum tuqqan tovuqqa taqlidan qaqog'lab olamni buzadigan makiyonga o'xshaydi" deyilsa, bizningcha, fikr aniqlashgan, teranlashgan bo'lardi; "talantsiz yozuvchi"ning qiyofasi boricha yaqqollashardi. "...asarda har bir so'z, har bir jumla ma'no tashishi va jaranglab turishi kerak", talabi buzilmagan bo'lardi.

Ushbu kitobning ta'siri beqiyoski, bevosita sizni ham yangi fikr-mulohazalarga yetaklaydi. QOBILIYAT-ISTE'DOD-TALANT-DAHO kabi tushunchalarga chuqurroq yondoshishga va anglashga da'vat etadi. O'ylashimizcha, bu tushunchalarni farqlashning, har biriga xosliklarini aniqlashning vaqti kelganga o'xshaydi.

"Qobiliyat" – "Biror ishni bajara olish layoqati" ma'nosidagi so'zdir. Hamma inson ham muayyan bir qobiliyatga daxldor bo'lib dunyoga keladi. O'sish jarayonida u yoki bu hunarga, kasbga qiziqishi

etadi va unga uquvi kelayotganini sezadi, shu sohani uddalashga layoqati yetishini anglaydi. Qobiliyat o'quv, tajriba va malakani egallash jarayonida mukammallik kasb eta boshlaydi, hayotiy ta'lim va tarbiya asosida yetuklik bosqichiga kiradi. Ko'pning diqqatini o'ziga tortadi. Millionlab odamlarga xos bo'lgan bu xislat o'zini "faqat faoliyatda namoyon etadi".

"Iste'dod" qobiliyatlar yig'indisidan iborat bo'ladi va uning egasi, muayyan sohaning ustasi, komil "piri" darajasiga ko'tariladi. Sohaning har qanday qiyinchiligini ilm va tafakkur bilan hal etadi; bugungi holati va darajasini yanada yaxshilaydi, boyitadi. Jamiyatning talabiga muvofiqlashadi, boshqalar tomonidan ochildigan dunyoning sifatiga amal qiladi va shuning shukronasi bilan yashaydi. Millatning e'tiborini o'ziga qaratadi. Minglab odamlarga xos xislatni o'zida tashiydi.

"Talent" grekcha so'z bo'lib, "tabiiy, tug'ma iste'dod" ma'nosini bildiradi. Talantli inson deb, yuqori darajadagi iste'dodga ega bo'lgan, u yoki bu ishni "xamirdan qil sug'urgandek" oson bajaradigan, muayyan sohani boyituvchi kashflar yaratadigan, chuqur his va idrok orqali an'analarni qo'rqmasdan buzuvchi, tanlagan sohasini qismati darajasiga ko'targan Shaxsga aytiladi. Ularni jamiyat yaratadi va talantlar yaratgan jamiyatlarining ruhini aks ettiradilar. Ular xalq muhabbatini qozonadilar. Millat va xalqning mutki sanaladilar. Bu A.Qodiriy, A.Qahhor, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, G'afur G'ulom, P.Qodirov, O.Yoqubov, R.Parfi, E.Vohidov, A.Oripov, T.Murod kabi yuzlab ijodkorlarning nasibasidir.

"Daho" – "Favqulodda zehn va zakovot, ijodiy talant" egasi. Bu xislat uning peshonasiga yozilgan azaliy taqdirdir. Uning uchun mako ham, vaqt ham, davr ham ahamiyatga ega emas. U hammaga to'g'ri kelaveradi, barcha avlodlarga yangilik beraveradi, lekin hech kim unga teng bo'lolmaydi. U o'z davridan uzib ketadi, asrlarga va olamga tatiydigan yangilik bunyod etadi, sohasida toqilib yaratadi va uning sardoriga aylanadi. Umumbasharning e'tiqodini qozonadi. Bashariyatning mulkiga aylanadi. Bu olamzodning Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Mirzo Ulug'bek kabi g'ulab farzandlariga nasib etgani ham dalildir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qobiliyat ham, iste'dod ham, talant ham, daholik ham Allohning inoyatidir. Shu xislat egalarining mehnatlariga yarasha yaratilgan mo'jizakorlikdir.

Xulosamiz tushinarli bo'lishi uchun matematik amallar yordamida izohlamoqchimiz. Yaratganning berganini uzluksiz va kundalik mehnatga **qo'shsak** ($5+5=10$) – qobiliyat, **ko'paytirsak** ($5 \times 5=25$) – iste'dod tug'iladi. Mehnat va yana mehnat zaruratga aylanadi.

Allohning berganini va ijodiy, zo'r mehnatni **darajaga ko'tarsak** ($5^2 \times 5=125$) – talant, **darajasini darajaga ko'tarsak** (5^2)²=625) – daho tug'iladi. Shu sababdan ular titanlarga xos mehnat va mashaqqat chekadilar.

Alloh bergan qobiliyat, iste'dod, talant va daholik xislatlari bilan mehnatning nisbati elikka ellik yoki M.Gorkiy aytganidek, birga to'qson to'qqiz foiz bo'ladi, degan xulosadan uzoqmiz. Ular o'rtasidagi dialektika o'ta sirli, murakkab va serqirradir. Nisbatlarning o'zaro uyg'unlashi ham turlichadir, balkim har bir ijodkorning o'zligiga xos va mos, ungagina atalgan o'lchamdir... Lekin eng qizig'i shundaki, **bu ikki nisbat** qanday va qay tarzda bo'lishidan qat'iy nazar, **biri-birisiz yaratish xislatiga ega bo'lmaydi**, shu bois, biri ikkinchisini zaruratga aylantiradi. Ular biri-biriga muxolif ham bo'lmaydi, balki **o'zaro chatishib yaxlitlikni, anqlikni, yagona birlikni** voqe qiladilar. Ana shundagina tabiiy go'zallik (yangilik, kashfiyot) yaraladi.

Xullas, qobiliyatli va iste'dodli insonlarsiz, talant va daholarsiz jamiyat ham, insoniyat ham istiqbolini yarata olmaydi. Istiqbolimizning kamoloti ham, Prezidentimiz asoslagan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi ham, xalqimizning baxt va omadi ham ana shunday odamlarga, ularning ko'plab yetishuviga bog'liqdir.

MUHAMMAD, BORINGGA SHUKR!

Qalbga qarimoq yo'q, sevgiga o'lim!

Xalq maqoli

"She'riyat! Bu hayotimni barcha sahifalari, azizdan azizim, og'rig'im, shodligim, sodiq do'stim, sirdoshim mening", – deb yozganida,

"O, dardginam!
Iztirob, oromim,
Taqqirim,
Shuhratim,
Toleyim va komim", –

deya tasvir etganida shoira tamomila haqki, uning isbotini Zulfiyaning tarjimai xoli – biografiyasining qatlaridan ham yaqqol ko'rish mumkin.

1935-yil 23-iyulda 21 yoshga qadam qo'ygan Zulfiyaning va 26 yoshga to'lgan qirchillama yigit – Hamid Olimjonning to'ylari bo'ldi. 1932-yilda tasodifan ko'rishuvdanoq tug'ilgan, yillar davomida Buyuk muhabbatga aylangan sevgi – zavqli, totli, fayzli, barakali bo'ldi. Xonadonda baxt va shodlik, totuvlik va hurmat, ezigulik va yaratish, safarbarlik va teranlik hukmronlik qildi. "Men yayrab yashadim. Inson chinakam sevib sevilganda atrofidagi barcha qiyinchiliklar ushoq bo'lib ko'rinadi. To'rt fasl ham bahor bo'lib ko'rinadi", – deydi shoira.

Shuning uchun ham Hamid Olimjon "Sog'inganda", "Xayolimda bo'lding uzun kun", "Sevgi desam", "Ishim bordir o'sha ohuda", "Eng gullagan yoshlik chog'imda", "Hol" kabi she'rlarida sabotli ishqni, yurakda gullagan buyuk va ardoqli muhabbatni tarannum etar ekan, bu asarlarning ilhom parisi – Zulfiya edi, Zulfiyaning xayoli, sevgisi, sadoqati edi:

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni, –

deya shoir "sevgining bo'yi" bilan mastligini, yoriga maftunligini izhor etsa, "dunyoni yorituvchi" muhabbatni kuylasa, boshqa bir

o'rinda sadoqatli va vafodor bo'lish axloqiy husn va fazilat ekanini hayajon-la so'zlaydi, yurak amrini olovli misralarda jonlantiradi:

Unutmasman seni hech qachon,
Yuragimda qolarsan abad.
Sen bo'larsan men bilan mangu,
Yuragimga oshno bo'lgan dard.

So'rog'im shul: qora ko'zlarning
Yo'qolmasin sira vafosi.
Boshlarga tushmasin hech qachon,
Shu ko'zlarning hijron jafosi.

Ikki qalbni birdan lovullatgan bu ishq, Zulfiya qalbini ham tug'yonga soladi. U o'nlab she'rlarida sevgisining sahifalarini ochib beradigan "ishq qo'shig'ini" kuylaydi, baxtiyorligini tarannum etadi:

Seni go'yo hayotdan uzib,
O't parchasi singari tutdim.
Chehrang behad baxtiyor ko'rib,
Ishon, o'zimni ham unutdim.

Sen sezdingmi bizning nafasdan,
Koinotda ortgan edi nur.
Hatto qora sochlar cho'g'ida,
Baxt-u shodlik etgandi zuhur.

O'n yillik hayotini, turmushini, baxtini, lo'nda qilib: "Men ishq edim, Ishqdan mastdim bearmon", – deb umumlashtiradi. Biroq, 1944 yilda "nomus va ori – odamlarga baxt bermoq, baxtlilardan gul termoq" bo'lgan Hamid Olimjon "eng gullagan yoshlik chog'ida", umrining 35 yoshida fojeali tasodif natijasida hayotdan ko'z yumdi. "Men o'zimni u bilan halok bo'ldim, dedim hayolimda, Mana hozir ham oradan shuncha vaqt o'tganiga qaramay, u ayriliqning kuyduruvchi alamlarini butun og'irligi bilan his qilib turibman", – deydi shoira.

"Baxtiyor sevgini kuylovchi soz" – "o'lim xanjariga tegsa-yu, sinsa bunga kim chidaydi? Kim? Shodlikka to'liq umr yuksak darajadagi musibatni qanday ko'taradi? Aql lol! Til lol! Baxt –

baxtsizlikmi? Bunday g'am, bunday yo'qotish, bunday azob, bunday dard nechun? Nega tirik ekansan, tashlab ketmading, tashlab ketmading-da boshlab ketmading?!"

Shukronalik shundaki, Hamid bo'lmasa-da, uning sevgisi hayot. Bu – sevgi quyosh nuri yanglig' quvvat, quvonch baxsh etadi, ayni paytda, yo'qotishning azobiga, umidsizlik qismatiga ham zarba beradi. Buyuk muhabbat, jondan aziz sevgi o'limni tan olmaydi. Ikki tanning biri bo'lmasa ham, ikkinchisida o'sha kuch, o'sha bahor, o'sha jingalak soch, o'sha do'st, o'sha mehribon, o'sha ustoz yashaydi. "...Hurlikka chiqqan hayotning har bir daqiqasiga ona Vatanning bir qarich bo'lib ko'tarilgan giyohidan sarviqor tog'larigacha asl oshiq", insonlarni sevgan shoir hayot! Ana shunday ishonch, ana shunday e'tiqod, ana shunday sadoqat shoirani yangitdan yaratadi. "Kishini lol qoldirgudek darajadagi she'riyat" (Mirtemir) sohibasiga aylantiradi. Umr yo'ldoshing:

"Bilarmisan: sevgan kishingga
Sodiq bo'lmoq o'zi saodat," –

ahdini qalbiga ko'chirgan, yashashning ma'nisiga aylantirgan shoir o'z she'rlarida bevaqt o'lim olib ketgan yorining xayolini, ayriliq alamini, muhabbatning mangu va boqiyiligini, ishqning hijronga bardosh berishini, "sovush bermagan" tuyg'ularni tasvirlash orqali Hamid Olimjonning haqqoniy obrazini yaratdi. Demakki, u Hamid Olimjonni qaytadan tiriltirdi.

Shoiraning sadoqat tuyg'ulari tasviri betakror, yagona va durdona ko'rinishi bo'lmish, "she'riyatimizning hech bir shubhasiz eng nodir durdonalari qatoridan o'rin olgan" (E.Vohidov) "Bahor keldi seni so'roqlab" she'riga bir nazar solaylik. Asar bahor tasviri bilan boshlanadi:

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, qirlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Bu xabar ko'nglimizga bahor yanglig' tozarish, yangilanish, uyg'onish, sevinish tuyg'ularini uyg'otadi. Qandaydir yengillik

sezasiz. Biroq bu tuyg'ularingizga tezda chek qo'yasiz. She'rning keyingi misralari sizni esankiratadi. Bahor kuychisini, bahorning shaydosini qumsashga, yo'qotishning azobiga duch kelasiz:

Qancha sevar eding bag'rim bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mani qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari...
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari, -

misralarini o'qirkansiz, beixtiyor Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda" she'rini, uning latif bandlarini esga olasiz:

Mayli deymen va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman.
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so'rayman...

"Savol"ni - kuydek yoqimli, jozibadek sodda, yorga bo'lgan intilishning beg'ubor va mayin tasvirini, yoqimli qo'shiqni xirgoyi qila boshlaysiz:

Kiyintirsam seni bahorga,
Yulduzlarni o'rasam qorga.
Olib kelib oldingga qo'ysam,
Ham yulduzni, ham seni suysam.
To tonggacha so'ylasam ertak,
Chechak terib etak va etak.
Oyog'ingga keltirib to'ksam,
Seni maqtab, ag'yorni so'ksam, -
Shunda sening ko'ngling to'lurmi?
Aytganlaring bajo bo'lurmi?.. "

Bahorning, Baxtning, Shodlikning, Muhabbatning kuychisi –
Hamid Olimjonning bahor va baxt tushunchalari egizak, mushtarakdir.
U sevgi va shodlik, go'zallik va nafosat ijodkori sifatida mashhurdir.
Bahor o'zining ana shu sevimli do'stini, betakror kuychisini –
Hamidini izlamoqda...

Ammo, shoir yo'q, bahor bundan betoqat. U shabboda bo'lib
izlay boshlaydi, topmagach, sabri tugab, bo'ronga aylanadi...Bahor
yanglig' Sizning qalbingizda ham po'rtana boshlanadi, tuyg'ularigiz
junbushga keladi.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
Yoyib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,
Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog'laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog'ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo'ychivonlardan
Qayda shoir, deya ayladi so'roq.
Barida sukunat, ma'yuslik ko'rib,
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

"Toqatlari toq" bahor jilo bo'lib, nur bo'lib shoira yotog'iga
kiradi, Hulkar va Omonning yuzidan o'padi, u yerda ham kuychisini
topolmagach, "Bir nuqtaga uzoq tikilib qoladi", jilodan yelga
aylanadi-yu, "sarsari kezib", Zulfiya "qalbini tilib so'roqqa tutadi":

Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
"Baxtim bormi, deya yakkash so'roqlab",
Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?..

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?

Hamid Olimjon ijodining, yashash tarzining mohiyatini, uning butun qiyofasini yaqqol gavdalandiradigan bu va boshqa misralar, ayni paytda, yurakni larzaga soluvchi shu so'roqlar kitobxon qalbidagi achinish va sevinch tuyg'ularini eng baland pardalarda to'qnashtiradi. Qarshilantirish usuli bahor tasviri bilan lirik qaxramonning ruhiy holatida kelishib bo'lmaydigan ziddiyatni yuzaga chiqaradi:

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u keldim qoshingga.
U ham g'aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamda tutoqib daraxtga ko'chdi,
Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.

Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g'unchasini etdi chok-chok.

Shoira bu she'rida ham o'z dardi, iztirobi bilan o'zganing ham ana shunday dard-tug'yonlarini tafovutsiz his etadi. Shoira "O'zganing dardini dard ko'rgan biladi". "Mendan keyingilar dard ko'rmasin deb, dardim selobini to'kdim she'rga", - deydi.

Lirik qahramondagi iroda, o'z xalqiga ishonch tuyg'usi alam va iztiroblarni yengadi... Boqiy va yaratuvchi sevgi aziz-u mukarrama insonni harakatga, yashashga, yaratishga undaydi. Shunday faoliyatgina baxt keltirishiga, tole yor bo'lishiga ishontiradi.

Shunday firoqning azobini totgan bahor ham, taqdir zarbasidan gangigan shoira ham "hayotbaxsh", otashga to'liq, "yaqin oshno" qo'shiqni, Hamid so'zlarini eshitgach, quyidagi hayotiy xulosaga to'liq ishonch hosil qiladi:

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozining yangradi jo'shqin, zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham sensiz hali olmadim nafas.

Xalq va farzand mehri, buyuk va sof muhabbatga sadoqat shoira qalbini olijanob va mardona hissiyotlarga to'ldiradi. Ayol qalbi

mo'jizakorlik kasb etadi. Ishonch kuch va qudratga aylanadi: Hamid Olimjon o'lmagan, u bilan birga, sevimli yor, sadoqatli do'st, izlari yo'qolmagan safdosh, yaratishga chorlovchi ustoz sifatida odim otmoqda:

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Bugunga qadar shoira Hamid Olimjondan ayrilib yashagani yo'q. "Kuyaman-u bo'lmaymon ado", – deydi. "Hijroning dog'ida oltingugurt olovisimon ko'rinmay hamon yonaman", – deydi. "Sovush bermaydi menga yoqib ketganing olov", – deydi. Ana shu olov, Hamidning sog'inch shoirani (1996 yil 1-avgust) ham olib ketdi. Qalblarni poklovchi, insoniylikni e'zozlovchi, Istiqlolimizning yoniq nur bilan boyituvchi BUYUK MUHABBAT qoldi. U tobora balandroq va kuchliroq yonaversin! Bu olov sovushni bilmasin! Ko'pga qudrat baxshida etsin! Ha, hammani sadoqat va mehrga to'liq umr – katta harflar bilan yoziladigan Insonga xos umrga yetaklasin.

Xulosa. Xalqimizning otashqalb shoiri, bahor va baxt kuychisi Hamid Olimjonga, uning Buyuk Muhabbatiga sadoqati uchun Zulfiya ayajonimizga – she'riyatimizning malikasiga umrboqiylik nasib etsin! Shunday umrboqiylik – tiriklar qalbiga nur sochsin! Shunday muhabbatning, shunday sadoqatning, shunday vafoning, shunday irodaning, shunday e'tiqodning xislatlarini o'z qalbiga ko'chirgan kitobxonlarga – aziz qizlarimga, singillarimga, opalarimga, do'stu birodalarimga, og'a-inilarimga, qavm-u qarindoshlarimga betakror muhabbat, muhabbatni ulug'lovchi, ardoqlovchi vafodorlik yor bo'lsin.

Zulfiya opa ijodi samimiyat durlari shovullab to'kilib turgan aziz bir bog'dir... Birgina sadoqat-u vafu mavzusini oling, bu borada Zulfiya opamiz she'riyati yakto she'riyatdir (Abdulla Oripov, O'zbekiston xalq shoiri).

Adabiyotlar:

1. Ўткир Ҳошимов. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. Т., "Шарқ", 2002.

2. Пиримқул Қодиров. Ўйлар. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
3. Ҳотам Умуров. Бадиий ижод асослари. Т., “Ўзбекистон,” 2001.
4. Эркин Воҳидов. Асарлар. 5 жилд, Қалб садокати (Мақолалар, баҳслар, адабий ўйлар). Т., “Шарк”, 2018.

MAVZU: ILHOM VA UNING TABIATI

Tayanch tushunchalar: Abdulla Qahhor. Badiiylik o'lchovi, xalq hayoti, xalq qalbidagi tuyg'ular, ichki dard, ehtiros. Hamid Olimjon. Ilhom va uning ko'rinishlari. Ohu. Ilhomning pokligi.

Abdulla Qahhor talqinida ilhom. Abdulla Qahhorni bugun ham sevimli san'atkor qilgan mehriyolardan biri – uning estetik dunyosining boyligi, beqiyosligi, ta'sirchanligidir. Bu dunyoning adabiyotimiz, yozuvchilarimiz hayotida o'ynagan ahamiyati va ta'sirining davomiyligida, tirikligidadir. Said Ahmad, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Asqad Muxtor, Shuhrat, Shukur Xolmirzaev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Umarali Normatov, Norboy Xudoyberganov kabi yirik va qudratli shogirdlar pleyadasining – mamlakatimizdagi adabiy jarayon sardorlarining yaratuvchanligidadir, **adabiy go'zallik yaratishga baxshida umr maktabining** tobora rivojlanayotganidadir.

Ko'rinadiki, yozuvchi – san'atkor qanchalik yirik bo'lsa, u shunchalik adabiyotning ertangi rivojiga turtki beradi; noyob va asosli nazariy-adabiy qarashlari bilan hamohang o'lmas asarlar yaratadi. A.Qahhor – nazariyotchi sifatida A.Qahhor – san'atkorning yozuvchilik sirlarini tahlil va tadqiq etadi, ularni yagona mezon – **badiiylik kriteriysi (o'lchovi)**¹¹⁵ dan kelib chiqib, aniq va ayovsiz tarzda, halollik, shijoat bilan baholaydi. Shu hamkorlikning natijasi o'laroq, ijodiy jarayonning sirli jihatlarini kashf etadi; hayot va badiiy mahorat, ilhom va shijoat, talant va haqqoniylik, yozuvchi hunari va poklik kabi o'nlab muammolarning mag'zini chaqadi.

¹¹⁵ Maqoladagi barcha ta'kidlar bizniki – H.U.

Abdulla Qahhor estetikasida «Ilhom» eng ko'p yoritilgan xilqatdir. Uning tushunchasiga ko'ra, «Daraxtni undiradigan, o'stiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, yer va suv bo'lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o'stiradigan, samarasini jozibali qiladigan **xalq hayotidan olingan ilhomdir**» (*"Yoshlar bilan suhbat". T., "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1968, 98-b*).

Demak, **Ilhomning birinchi asosi – xalq hayotidir**. Xo'sh, ilhom nima? Uning yaratish (kashf qilish) bilan aloqasi qanday? U qachon keladi? «Ilhom degan parizod, nozanin yorning makoni qayerda?» kabi muammolarni yoritir ekan, A.Qahhor yozadi: «Ilhomning makoni xalqning dilida – majburiyat emas, zaruriyat, xohishga aylangan mehnatning shavkatida, baxtiyor odamning qahqasida, jabr-diydaning ko'z yoshida, oshiq va ma'shuqlarning ko'zlari va so'zlarida, odamda mehr va g'azab uyg'otadigan hodisa va voqealarning mag'zida... Ilhom qidirgan yozuvchi xalqning qalbiga qo'l solishi kerak» (*"Yoshlar bilan suhbat". T., "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1968, 137-b.*).

Demak, **ilhomning ikkinchi asosi – xalqning qalbidagi eng sara, eng jonbaxsh, eng aziz tuyg'u va dardlarida, tilining uchida turgan so'zlarida yashiringan – haqiqatdir**, u tinimsiz izlaganga, hayot va insonning mohiyatini topganga, «qanoatidan kelib chiqqan rozilik yoki norozilik» bilan baholash asosida uni zo'r muhabbat yoki nafrat bilan ifodalay bilganga o'zini ko'rsatadi.

Bu mulohazalar, baribir, ilhomning o'zi nima? degan savolga aniq javob bera olmayapti, uni to'liq tasavvur qilish va anglashga imkon bermayapti. Shuning uchun adabiyotning **bo'lishi mumkin bo'lgan hayotning badiiy tasvirini** berish qoidasini eslashimiz lozim. Badiiylikdan maqsad – «kishilarning ongiga his orqali – yurak orqali ta'sir qilmoq»dir.

«Bundan ma'lum bo'ladiki, yozuvchi biron hodisaga o'quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo'zg'atishi uchun avval o'sha his o'zida bo'lishi kerak.

Kishi hech qachon dushmanning go'ri ustida boshqalarning ko'zidan yosh chiqaradigan ta'sirli nutq so'zlolmaydi...

Talant, bilim, hunar jihatidan bir darajada bo'lgan ikki yozuvchi muhabbat to'g'risida yozsa, shu muhabbat hissini boshidan kechirgani yaxshiroq yozadi.

Yozuvchi o'zi his qilmagan narsa to'g'risida yozsa, buni o'qigan o'quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart. His qilinmasdan yozilgan narsa qog'ozdan qilingan gulga o'xshaydi.

His, ichki dard kishining qalbini yemirib yuboradi. Bunday vaqtda kishi o'zini qayerga qo'yishini bilmaydi, o'zining dardiga boshqalarni sherik qilish, yuragini bo'shatish xohishi kishiga azob berish darajasiga yetadi. Shu vaqtda qo'l qalamga boradi.

Kishidagi mana shunday holatni, odatda, ilhom deyishadi. ("Yoshlar bilan suhbat". T., "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1968, 50-51-betlar).

Demak, ilhomning uchinchi asosi – inson va voqelikning ichki dardi (ruhi)ni to'liq his etishdir. Uni o'zining dardi (ruhi)ga aylantira bilishdadir. Yozuvchi hayotni chuqur o'rgansa, uning qalbidagi haqiqatni anglab etsa, yozolmasdan turolmaydigan darajaga kelsa, ya'ni «o'sha hayot odamlarining qalbiga qalbni payvand qilsa» - u ehtirossiz, dardsiz yoza olmaydi.

«Yozuvchining qulog'i hamisha xalqning ko'ksida bo'lishi, uning qalbidagi hayajonini darhol sezishi», ilg'ab olishi, shundan ilhomlanishi, asarini mana shu ilhom, kuchli ehtiros bilan yozishi kerak. O'shanda yozuvchi xalqning tili uchida turgan gapni aytadi, xalq dilining tarjimoni bo'ladi. Ehtiros bilan yozilgan haqiqiy asarda loqayd sahifalar emas, hatto satrlar, so'zlarga ham o'rin bo'lmaydi» ("Адабиёт атомдан кучли". Т., Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 3-4 бетлар).

Demak, ilhomning to'rtinchi asosi – ehtirosdir. Bu ehtiros – ilhomning olovli qalbidir. «Yozuvchi kitobxonni ilhom o'ti bilan alanga oldirolmasa, kitobxonning qalbiga o't yoqolmaydi. Kitob kitobxonning qalbiga ezgulikka otashin muhabbat, qabohatga ommonsiz nafrat uyg'otmasa, yozuvchi maftun qiladigan fazilatdan mahrum bo'ladi» ("Адабиёт атомдан кучли". Т., Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 51-бет).

Xuddi shunday haqiqatni saxovatli adib A.Qahhor takror-takror aytadi: «Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o'lik bo'ladi. Bundoq asarga hech qanaqa g'oya, muhim mavzu jon kirgizolmaydi» ("Адабиёт атомдан кучли". Т., Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 51-бет).

Abdulla Qahhor tushunchasida ilhom badiiy asar yaratish jarayonining yetakchi tamoyili, u yozuvchi qalbiga tushgan ma'naviy olov, u asarning tug'ilishiga asos bo'ladi, uni harakatga keltiradi, jozibaga o'raydi. Shuning uchun ham «**Har qandoq yozuvchi uchun ham mahoratning ibtidosi ilhomdir**» ("Адабиёт атомдан кучли". Т., Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 49-бет).

Bu «yozuvchining... har qanday mayda orzu – havasini, har qanday manfaat – g'arazni quvib chiqaradigan, yirik yuksak g'oya mavj uradigan ilhom» ("Ёшлар билан суҳбат". Т., "Ёш гвардия" нашриёти, 1968, 18-бет) bo'lishi kerak. **Demak, ilhom pok, sof va yaratuvchan bo'lishi shart.**

Abdulla Qahhor «Badiiy mahoratni oshirish uchun so'z san'atining qonun – qoidalarini bilish, go'zal asarlarning go'zallik «sirlari»ni o'rganish, buning uchun hayotga yaqin bo'lish, ko'p o'qish, ko'p mashq qilish kerak»ligini ("Ёшлар билан суҳбат". Т., "Ёш гвардия" нашриёти, 1968, 68-бет) ta'kidlaydi. Uningcha, «Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera biladi» (Абдулла Қаҳҳор ҳикматлари". Т., "Ўзбекистон" нашриёти, 1990, 55-бет). Shu sabab «Ilhom bilan mahorat topishganlaridagina kitob yozuvchining qalbidan qo'shiqday otilib chiqadi, kitobxonning qalbida aks-sado yangraydi» ("Ёшлар билан суҳбат". Т., "Ёш гвардия" нашриёти, 1968, 18-бет)¹¹⁶.

Demak, ilhom va badiiy mahorat, xuddi kun va tunday, biri-biridan tug'iladi, biri-biridan kuch-quvvat oladi, birlashganlaridagina hayotga to'liq go'zallik, «adabiyotni bezaydigan, umriboqiy va mag'zi to'q go'zallik» yaratiladi.

Xullas, Abdulla Qahhor anglagan ilhom ijodiy mehnatning tabiatidan kelib chiqadi, hayot bag'rida yashirinib yotgan haqiqatni kashf etishdan va uni shijoat, halollik ila yurak qoni (ehtiros) bilan ifodalashdan tug'iladi. Tug'ilgandanoq asarga oid barcha unsurlarni

¹¹⁶ Maqolada ko'chirmalar ko'p deb ajablanmang? Ularni ilm tiliga aylantirsa bo'ladi, unda Abdulla Qahhorga xos qisqalik, so'zga zargarlik va ko'p ma'noni (mohiyat) siqiq anglatish san'ati ko'p so'zlilikka olib borgan bo'lardi, asar semirib ketardi. A.Qahhor uslubiga xos mag'izli va topib aytilgan so'zlar, mashohadalarining teranligini ko'rish va anglashning o'zi tarviy saboqligini sezdirish maqsadi ham borligini unutmassiz, degan umid bilan, ayni shu yo'lni ma'qul ko'rdik.

o'z tevaragiga yig'ib, tartibga soladi va ularning o'zaro hamkorligini ta'minlab, yaratishga safarbar qiladi. Ilhom – asardagi barcha qo'shinlar (g'oya, mavzu, syujet, til...)ning bosh qo'mondonidir, bu qo'mondon shaxsi qanchalik bilimdon, salohiyatli, donishmand bo'lsa, uning g'alabasi (asari) shunchalik aziz, umriboqiy va insoniyat uchun kerakli bo'ladi.

Ilhom – yurakning yonishi (Hamid Olimjon ijodida ilhom obrazi)

Anchadan buyon ilhom degan schrning tabiatini bilishga qiziqaman. Uning shunchalik izhori, tushunchasi, ko'rinishi, asoslari ko'pki, bir joyga to'plansa, "ilhom" degan go'zal – takrori yo'q bir zarur "guldasta" boqiy bo'lardi.

Ba'zilar uni "qanot qoqib uchgan farishta" deb o'ylaydi. Ba'zilar uni ilohiy ne'mat, shoirga "tangrining yaqinlashishi" deydilar. Yana ba'zilar "inson qalbidagi tuyg'ular muvozanatining buzilishi" (A.Oripov) desalar, ikkinchilari "tuyg'ularning shoir qalbidan toshishi va vujudni larzaga solishidir", (E. Vohidov) – deydilar. Boshqalar san'atkorning ma'naviy "kayf" holatda bo'lishi – ilhomdir, deydi. Shota Rustaveli "Dardni bilgan odamgagina ilhom birdaniga keladi" desa, K. Paustovskiy "Ilhom – bu odamning qat'iy ishchanlik holatidir", deydi... "Ilhom – turma tug'ruqxonasi" (Anvar Obidjon) deganlar ham bor.

Ba'zilar ilhomni uchqur tulpor ot (Pegas) tarzida ilg'asalar, ikkinchilari farishta (bu farishta o'zining lirasida kuy chalib, kuylay boshlaganidan muallifga ilhom kelarmish) qiyofasida ko'radilar, uchinchilari birinchi muhabbatning iztirob va quvonchlari tarzida anglasalar, to'rtinchilari ilhom parisiga sig'inadilar...

* * *

Xo'sh, ona tabiatdan doimo quvonchga to'lgan shoir Hamid Olimjon-chi? U ilhomni qanday tushunadi? Unda bu holat qay tarzda yuz ko'rsatadi?

Shoir ilhom haqida alohida fikr yuritmasdan, birdaniga uning mukammal poetik obrazini yaratgan, ya'ni ilhom parisiga bag'ishlab, 27 yoshida "Ishim bordir o'sha ohuda" (1936) degan she'rini bunyod etgan.

Ishim bordir o'sha ohuda,
U menga ko'rinar har zamon,
Fikrimni chulg'aydi beomon,
O'tlarga tashlaydi ko'p yomon, –
Ishim bordir o'sha ohuda.

Birinchi baddanoq ko'rinyaptiki, shoir ilhomni – o'hu timsolida ko'radi. Ilhom ijodkorning butun borlig'ini egallashini, o't (olov) yanglig' yondirishini, beomon fikrlarga chulg'ashini jonlantiradi. Bu jonli tasavvurni yana boyitadi, ilhomning tozaligini, osudaligini, o'hu kabi qoyalarda bemalol uchishini va uni ko'rgach, barchaga titroq kirishini, lol qotishini so'zlaydi:

*U ko'rinar soydagi suvda,
Bir paridir, toza, osuda...
Qoyalardan uchar bemalol,
Qushlar ko'rsa titrab qolar lol, –
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Albatta, ilhom o'zidan o'zi kelmaydi. U tinimsiz mehnat qilganga, uyqu bilmasdan izlanganga, tabiat va xalq hayotidan nur olinganga yor bo'ladi:

*Tunda uxlamadim axtarib,
Kutib turdim buloqqa borib,
U-chi? Qoqib o'tdi qanotin,
Oq bulutlar bag'rini yorib, –
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Yor bo'lganda esa qalbdagi gullar ochiladi, bahori cho'llar baxmalga burkanadi, ko'llar chayqaladi, hayot jonlanadi. Sevinch, go'zallik bo'y ko'rsatadi, hayot mohiyati ochiladi:

*U yurganda ochilar gullar,
Baxmalga burkanar bahori cho'llar,
U bor yerda jonlanar hayot,
Uni ko'rsa chayqalur ko'llar, –
Ishim bordir o'sha ohuda.*

*O'lkasidan o'tar shabboda,
Sevinch bilan to'liqdir jomi:
Go'zallarga u tutar boda,
Ko'rsa kelar pari ilhomi, –
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Odamni bunchalik sezgir, mehrli qilib qo'yadigan ilhom yurakni shunchalik yondiradiki, bu yonishdan faqat qo'shiq, qalblarga oshno qo'shiq tug'iladi. Bu "pari ilhomi"ni keltiradigan qo'shiq shunchalik yoqimli, shunchalik to'liq, shunchalik go'zalki, uni hatto tabiatning viqorli tog'i tinglaydi; u shunchalik mukammalki, unda Vatanning betakror qiyofasi Hamidona ko'z o'ngingizga keladi:

*Qo'shig'ini tinglar Qashqa tog',
Og'ushida mangudir bahor,
Chiroyida zarra yo'qdir dog',
Dalasida yozda uxlar qor, –
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Ilhom ijodiy mehnatning tabiatidan kelib chiqar ekan, u doimo shoir salohiyati bilan bog'liq bo'ladi. Ilhomsiz asar yozilishi mumkin emas (ilhomsiz yozilganlari esa yasama, jonsiz gulga o'xshaydi. Shakli bor-u mazmuni – gulning ifori – mazasi, ta'mi, hidi bo'lmaydi). Ilhomsiz shoirda lazzatlanish, yaratish, ruhiy ko'tarilish, ishidan beadad qoniqish yuz bermaydi. She'r yozish azobini esa xuddi shu holat yengadi, yangi quvvat beradi, ixtiro va kashfiyotga chorlaydi, ijodga maftun etadi. Shu bois, kuchli ehtiros bilan shoir deydi:

*Men halok etarman o'zimni,
Tinchlanmasman, topmay qo'ymayin,
Shikoyatim, dardim, arzimni,
Qulog'iga so'ylarman mayin, –
Ishim bordir o'sha ohuda.*

*Usiz mening tinchim yo'qolur,
Usiz yurak cholg'usiz qolur,*

*Usiz esdan chiqar odatim,
Unutilar bor saodatim, –
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Darvoqe, ilhom asar yaratishning mehvari ekan, usiz shoir qalbidagi tinchlik bo'lmaydi, yurak hapqirmaydi, o'zini qo'yarga joy topa olmaydi. Ilhomsiz yashash – shoirning o'limiga teng holatdir, degan xulosa o'z-o'zidan kelib chiqaveradi.

Shu o'rinda Hamid Olimjondagi ikki "odat"ni eslash foydadan xali emasga o'xshaydi. Birinchisi: "Sodiq bo'lmoqni o'ziga saodat" sanagan Zulfiya o'zining "Kamalak" kitobida yozishicha, Hamid Olimjon she'riy bandlarga avval miyasida shunday sayqal berib olardiki, keyin bu bandlar qog'ozga "to'kilgani"da billurday jilolanib turardi. U ona Vatanning bir qarich bo'lib yerdan ko'tarilgan giyohidan serviqor tog'larigacha asl oshiqligini, odatda, saharda turib yozardi. Hamid Olimjon **o'zi belgilab qo'ygan ish intizomiga temir qonun kabi amal qilgan.** Katta iroda, katta bardosh egasi, she'riyatning fidoyi mehnatkashi, mohir ishchisi, qat'iy intizomli inson sifatida hammavaqt Zulfiyani hayron qoldirgan.

Saharda havo musaffo, yengil, yoqimli bo'lganidek, ijod ham tong kabi tiniq, yuksak, go'zal bo'ladi. Zaif, takror, chaynalishlar qog'ozga to'kilishiga iqtidor yo'l bermaydi. Hayot mag'zini, odamlar qalbini chuqur anglashga, tug'yonlarini tartiblashtirishga, ishonch va e'tiqodni butun qilishga, yaratayotgan ("bo'lishi mumkin bo'lgan") borliqqa mehrini ulashishga, yetti o'lchab xulosalar chiqarishga va ularning oqibatida ilhom huzurini tuyishga to'liq imkon beradi. Ayni paytda, yana ijod qilishga tashnalikni kuchaytiradi.

Demakki, Hamid Olimjon **har kuni ma'lum bir vaqtda ijod qilishga o'tirar ekan, bu shoirning doimo ilhomga jo'rovozliligiga isbotdir.** Darvoqe, shu sababli ham A.S.Pushkin "Ilhom – o'zni ishchanlik holatiga sola bilgan qobiliyatidir", deb ta'kidlaganida haqdir.

Ikkinchisi: Hamid Olimjonni yaqindan bilganlarning, ulfat va shogirdlarining, olimjonshunos olimlarning ta'kidlashlaricha, u umri bo'yi mayxo'rlikni yomon ko'rgan. Ulfatlarning qistovlari bilan jindak ichganda, shu zahoti quloqlarigacha qizarib ketib, o'zini noqulay sezgan. So'z va qalamni ilohiy ne'matlar sanab, ozgina

ichganiga qaramay, ijod stoliga yaqinlashmagan. U sog'lom turmush tarzini yoqlagan va unga o'zi amal qilgan. Yolg'onni, aldashni or sanagan, shunday xislatli kishilarni yoqtirmagan. Toza, pok, yoniq yuraklarni qo'llagan, samimiyat va jo'shqinlikni, insoniy fidoyilikni qadrlagan. Shu bois ham uning she'rlarida tuyg'ular osmondek tiniq, shishadek shaffof, kelinchakdek jozibali va sevimli yordek maftunkordir. Shu sababdan ham Hamid Olimjon o'z she'rlariga batamom o'xshagan, muallif bilan asar o'rtasidagi uyg'unlikda hatto darz bo'lmagan.

Bu mulohazalarni aytishdan maqsad bitta haqiqatni takrorlashdir: Ilhom kelganda san'atkor, qadimgi donolar aytganlaridek, ma'naviy "kayf" holatida bo'ladi, ya'ni o'zi qilayotgan ishni to'liq anglamaydi; o'zligini, o'zi yashayotgan dunyoni unutadi; o'zi yaratayotgan yangi olamda va shu olam "kishilari" – qahramonlari bilan birga yashay boshlaydi; ularning kechinmalarini juda yengillik bilan qog'ozga tushirib boradi...

San'atkorlar tabiatidagi bu g'ayri-shuuriy holatni, demakki, taassurot va ilhomni o'tkirlashtirishni ba'zilar spirtli ichimlik va giyohvand moddalardan izlaydilar. Go'yo mast-alastlik tarzidagi kayf (jinnilik, telbanoma holat) ilhomiy "kayf"ni betakror bo'lishiga, demakki, sara asarning yaratilishiga yordamga kelarmish... Bu hech asosga ega bo'lmagan yolg'ondir, u ilhomni kuchaytirish, taassurotni o'tkirlashtirish o'rniga, san'atkorni aroqxo'rga, giyohvandga aylantirishi turgan gap. Shu paytgacha adabiy ijod tarixida bironta durdona asar spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarning kuchi bilan yuzaga kelgan emas. Balki, bunday asar tinimsiz izlanish va kashf etishning, hayot va odamlar mohiyatini to'liq his qilishning, salohiyat kuchlarini bir maqsadga jam etishning – ulkan mehnatning oqibatida tug'iladi. Muallifning pokligidan poklik, ilm-u donishidan ilm-u donolik, jasoratidan jasorat, mehridan mehr, sabr-u matonatidan sabr-u matonat... tajribasidan tajriba yuzaga keladi. San'atkorning sog'lom hayoti tarzidangina sifat bo'y ko'rsatadi. Bu mulohazalarimizning isboti "she'riy imkoniyatlari poyonsiz" (N.Karimov) bo'lgan Hamid Olimjon va uning betakror asarlaridir.

Xullas, "Ishim bordir o'sha ohuda" she'ri bilan Hamid Olimjon ijodiy jarayonning eng nozik, eng hayajonli, eng zarur oni – ilhom ilmini borlig'icha egalladi. Bu ilm hayot va odamlarni tinimsiz

o'rganish, ularning mohiyatini kashf etish lozimligini, eng sara, eng jonbaxsh, eng aziz tuyg'u va dardlarni badiiy ifodalash kerakligini, bu sifatlarni o'zligidagi yaratuvchi, ulug'lovchi, poklovchi ehtiros ila boyitish shartligini chuqur angladi. Ayni shu yo'l bilangina tiniq va go'zal, betakror va shoh asarlar yaratish mumkinligining isbotini berdi. Ha, **ilhom sehrini tuymagan shoir yo'q, lekin faqatgina u ilhomning timsolini she'rga sola bildi.**

Xullas, Hamid Olimjon XX asrning 30-yillaridayoq, "Ilhomning hukmdoriga aylandi. U unga amr qilish" (I.Gyote) huquqini qo'lga kiritdi.

* * *

Federiko Garsia Lorkaning aytishicha, "Ilhom obrazni beradi, lekin uni kiyintirmaydi, uni kiyintirish uchun so'zning xarakteri va sadosini mustahkam chidam va xavfsiz ishtiyoq bilan kuzatish lozim". Asosli bu fikrning isboti Olimjonshunos Naim Karimovning "Sehr'i (N. Karimov, XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. Toshkent, "O'zbekiston", 2008, 360-366 betlar)da berilgan. Olim "Ishim bordir o'sha ohuda" asarining mazmuni va shaklini, ayniqsa, poetik obrazlarini, qofiya va tovush tovlanishlari(musiqasi)ni tahlil qiladi. Sizning qiziqishingizni orttirish maqsadida bitta ko'chirma keltiramiz: "Ohu" so'zining tovush komponentlari Hamid Olimjon she'rining boshidan oxiriga qadar qizil ip singari o'tar ekan, bu musiqiy mavzu she'r leytmotivini ochish, undagi g'oyaviy pafosni yanada ta'kidlash uchun xizmat qiladi.

Tovush tovlanishlari she'rning musiqiy mavzusini yaratibgina qolmay, ba'zan har bir band, ba'zan har bir misra doirasida she'rning ichki ohangdorligini ham vujudga keltiradi:

*U yurganda ochilar gullar,
Baxmalga burkanar bahori cho'llar,
U bor yerda jonlanar hayot,
Uni ko'rsa chayqalur ko'llar, –
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Dastlabki misralardagi "gullar-cho'llar" qofiyasi "ochilur" so'zidagi aktiv *ch* tovushi tufayli mukammal va nafis qofiya tusini

oladi. Ikkinchi misradagi *b* tovushining izchil takrori esa she'rning umumiy ichki musiqasiga yangi ohang qo'shadi. "Ochilar", "gullar", "cho'llar" so'zlaridagi *-lar* qo'shimchasining jarangi esa keyingi misralardagi "jonlanar", "ko'llar" so'zlarida aks-sado yangligi takrorlanib, she'rning sehrli oqimiga yanada ravonlik bag'ishlaydi".

Maqolaning oxirida Hamid Olimjon "oliy insoniy qalbining nozik va nafis tebranishlarini, davrning o'z qalbi osha o'tgan g'oyalarini yuksak she'riy shaklda aks ettirdi. U she'r ilmini, she'r sehrini butkul egalladi", – degan xulosa qilinadi. Bunga bizning mulohazalarimiz ham hamohangdir. Ha, haqiqat bitta, unga yetishning yo'llari ko'p ekaniga shukr! Ha, Hamid Olimjon 35 yil umr ko'rganiga qaramay, "o'limni qoldirib dog'da", she'riyatda abadiyat shoiri bo'lib yashayveradi, ohori ketmagan "ajib his"lariga insoniyatni oshno qilaveradi.

Adabiyotlar:

1. Абдулла Қаҳҳор. Ёшлар билан суҳбат. Т., "Ёш гвардия", 1968.
2. Абдулла Қаҳҳор. Адабиёт атомдан кучли. Т., Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
3. Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. 1 том, Т., "Фан", 1979.
4. Умутов Ҳ. Бадий ижод асослари. Т., "Ўзбекистон", 2001.

MAVZU: BADIY MAHORAT SIRLARI

Tayanch tushunchalar: Badiiy mahorat. Badiiy mahoratning mazmuni va shakli. Detal va tafsilot. "Vaqt"ning tug'ilishi, falsafasi, mazmuni va shakli. Mavzu va g'oyasi, syujeti va kompozitsiyasi. "Vaqt"ning tili.

Abdulla Qodiriy ijodi va "O'tkan kunlar" badiiyatiga chizgilar

Abdulla Qodiriy tug'ilganiga bir asr, "O'tkan kunlar" yaratilganiga 80 yilga yaqin vaqt o'tdi. Bu yillar davomida zamona necha bor o'zgardi, o'zini buyuk sanaganlarning ko'pchiligi davrning elagidan o'tib, yo'qlik qa'riga ketdilar. U yoki bu tuzumni, siyosatni ulug'lash hisobiga vaqtincha buyuk bo'lganlarning soxtaligi fosh bo'lgan sayin insoniylikni ulug'lagan san'atkorlarning mavqeyi ko'tarilib bormoqda, ulardagi buyuklikning haqqoniyligini davrlar tan olmoqda, xalqlar e'zozlamoqda. Haq hakamligi – vaqt hakamligidirki, Abdulla Qodiriyga o'xshab, unga sazovor bo'lgan san'atkor buyuklikdan tashqari, asrlarga zamondosh bo'lib, ezgulikka astoydil va rostgo'ylik bilan chorlayveradi, siz-u men bilan yashayveradi.

Ma'lumki, "Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotiga xuddi momaqaldiraqdek kirib keldi va xuddi chaqmoqdek hammaning diqqatini o'ziga jalb etdi... Qodiriy ...o'zbek xalqi tarixida birinchi bo'lib realistik prozaga asos soldi" (I.Sulton). O'zbek romanining to'ng'ich asarini yaratib, shu sohada inqilobga teng jasorat ko'rsatdi. "O'tkan kunlar" bilan o'zbek romanchilik maktabini yaratdi, ayni paytda, shu asari bilan o'ziga zamonlar va asrlar-la bellashadigan umriboqiy haykal o'rnatdi.

Shu bois, A.Qodiriyning badiiy dunyosini tadqiq va kashf etish tinimsiz davom eta beradi. Har qaysi avlod o'zining ixtirosi bilan qodiriyshunoslikni boyitib boraveradi. Uning bu dunyosi tugamas badiiy xazina, uni ocha bilganga-istagiga, tilagiga, iqtidoriga, mehnatiga yarasha boylik nasb qilaveradi...

1-fasl

Xazina kaliti – badiiy pafos

Har qanday xazinaga kirish uchun, dastavval, uning eshigini ochadigan kalitni topish lozim. Adabiyotshunos va adabiy tanqidchilarning fikriga ko'ra, har qanday badiiy xazinani ochuvchi – yozuvchi shaxsini va asarlarini tushunish, kashf etish, baholash kaliti – pafosdir. "Pafossiz shoirni qo'liga qalam olishiga nima majbur etganini va unga ba'zan ancha katta asarni boshlash va oxiriga etkazish uchun imkoniyat bergan narsa nima ekanligini tushunish mumkin emas", - deydi V.Belinskiy. U davom etib shunday tushuntiradi: "Pafosda shoir xuddi jonli, go'zal mavjudodga ko'ngil bergandek, g'oyaga maftun bo'lgan zot sifatida namoyon bo'ladi, bu mavjudod ana shu g'oya bilan ehtirosli ravishda to'lib toshgan bo'ladi va san'atkor bu g'oyani ongi, idroki bilan emas, faqat bir his bilan emas va o'z –o'zining ruhining birorta qobiliyati bilan emas, balki o'z ma'naviy hayotining butun to'laligi va yaxlitligi bilan mushohada etadi. "Pafos" deganda ehtiros ko'zda tutiladi, shu bilan birga boshqa har qanday ehtiros kabi insonning to'lqinlanishi, butun asab sistemasining larzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan ehtiros ko'zda tutiladi; ammo pafos doimo inson qalbida g'oya kuchi bilan alanga oldirilayotgan va doimo g'oyaga intiluvchi "ehtirosdir"¹¹⁷.

Mashhur nazariyotchi olim I.Sulton Abdulla Qodiriy ijodining pafosini – "umum ma'nosini" – zamonaviylik va badiiylik deb ta'riflaydi (I.Sulton. Adabiyot nazariyasi, Toshkent, 1980 yil, 169-bet). Bizningcha, bunday belgilash unchalik asosli emasga o'xshaydi. Chunki, "yozuvchi ijodining pafosi uning asarlari qaysi konkret tarixiy sharoitda, ne niyat bilan yozilganiga va ijtimoiy hayotda qanday tarbiyaviy estetik rol o'ynayotganligiga qarab tayin etilar" ekan, shu nuqtayi-nazardan qaraganda Qodiriy o'zbek xalqining XIX asrdagi hayotini mehnatkash xalq boshiga tushgan "qora kunlar" tariqasida tasvirlaydi va Chor Rossiyasining bu bosqich "qaro kunlar" ni ikki bora kuchaytirishi mumkinligiga sha'ma qiladi.

Uning ijodi pafosi o'tmish va bugunning sarqitlarini, fojeiy oqibatlarini realistik tasvirlash va xalqning shu fojعالardan tezroq qutilishga chorlashdir. **Mana shu pafos – Qodiriy asarlaridagi fikr**

¹¹⁷ В.Г.Белинский. Собр.соч. т 3, стр.378.

va hissiyot birligini, asarlarining asosiy g'oyasini, ijodining umumiy yo'nalishini tayin etadi.

A.Qodiriy ijodining pafosini to'g'ri tushunmaslik yoki uni sotsialistik realizm va kommunistik partiyaviylik nuqtayi nazaridan kelib chiqib belgilash ba'zi (H.Abdusamatov kabi) tanqidchilarga A.Qodiriy Oktyabr inqilobini tushunmagan, tarixiy o'tmishga murojaatini sovet voqeligini tasvirlashdan qochish, unga salbiy munosabat natijasi deb da'vo qilishlariga imkon berdi. I.Sultonovga o'xshash olimlarga esa A. Qodiriy Oktyabrning kuychisi, sovet voqeligining madh etgan yozuvchisi deb xulosa qilishga olib keldi. Bu ikkala nuqtayi nazarining bir yoqlamaligi san'atkorga turli bo'hton va kamchiliklarni yopishtirishga sabab bo'ldi. Ushbu ikki xil noo'rin qarashlar – adabiyotning qalbiga siyosatni joylashtirishga urinish oqibatidir. Har qanday adabiy hodisani yetakchi siyosatning talab va ehtiyojlariga moslashga judayam berilib ketishning natijasidir. Bugungi Mustaqillik va istiqloq mafkuramiz, estetik saviyamiz ularni rad qilmoqda. Hayot haqiqatini va ezguliklarni kuylash, insoniylik qadri uchun kurash osongina yuz bermasligini yana bir bor isbotlamoqda. Darvoqe, Abdulla Qodiriy umri davomida buyuk haqiqatni izladi. Bu haqiqatni Oktyabr revolyutsiyasi ham kashf eta olmadi, lekin uni e'tirof etishga baxt-saodat yo'li sifatida qabul qilishga yozuvchi majbur bo'ldi. Kommunistik partiya poeitsiyasini yoqlashida ham samimiylilikni sezgir kitobxon his qilmaydi, balki "O'tkan kunlar"ni mutoala qilarkan, kofirlarni, o'rislarni-yov sifatidagi (jumladan, "Musulmonqul istibdodiga xotima" bobida) tasvirlarda samimiylilik balqib turganini ochiq sezadi.

Jumladan, romanning uchinchi bo'limidagi "cho'talchi beklarga" qarshi Hojining asabiy va qizg'in monologi buning yaqqol isbotidir:

"...Birodarlar! O'ris o'z ichimizdan chiqadurg'an fitna fasodni kutib, darbozamiz tegida qo'r to'kib yotibdir. Shunday mashhar kabi bir kunda biz chin yovg'a beradigan kuchimizni o'z qo'limiz bilan o'ldirsak, sen falon deb qirilishsak nima bo'ladir. Bu to'g'rida ham fikr qilg'uvchimiz bormi? Kunimizning kofir qo'lga qolishi to'g'risida ham o'ylaymizmi yoki bunga qarshi hozirlik ko'rib qo'yganimizmi?"¹¹⁸

¹¹⁸ A. Qodiriy. O'tkan kunlar. Mexrobdan chiq. T., 1994, 276-bet.

"Men yovni (o'ruslarni – H.U.) har zamon o'z yaqinimga yetgan ko'raman" deb ochiq fikr yuritgan Yusufbek hoji asarning "Qipchoqqa qirg'in" bobida jo'shqinlik bilan mushohadalariga yakun yasaydi; asosli bashoratlar qiladi:

"... Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadiringan, bir-birimizning tegimizga suv quyadiringan bo'lsak yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'yniga o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'lamiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lga tutqin topshirg'uchi – biz ko'r va aqlsiz otalarga Xudoning lan'ati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun (dafn qilingan) Turkistonimizni to'ng'uzxona qilishga hozirlangan biz itlar yaratuvchining qahriga, albatta, yo'liqarmiz! Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali-Sino kabi olimlarning o'sib-ungan, nash-u namo qilg'onlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudraguvchi, albatta, tangrining qahriga sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalarini yetim, xonalarni vayron qiluvchi zolimlar – qurtlar va qushlar, yerdan o'sib chiqqan giyohlar qarg'ishiga nishonadir, o'g'lim!... (295 - bet).

Ko'rinyaptiki, A.Qodiriy ulkan san'atkor sifatida turli siyosatlarni emas, balki el baxti uchun kurash yo'lini, bu baxtga qarshi bo'lgan "cho'p-xaslarni supura borish" yo'lini – buyuk haqiqat deb bildi va uni yoqladi, ezgulikni, insoniylikni, mustaqillikni, ozodlikni ulug'ladi, realistik romanini tasvirini berdi. Buning isbotini romanning turli unsurlari misolida ham ko'rsa bo'ladi.

2-fasl

Badiiy mahorat ustasi

A.Qodiriy va Otabek munosabatlarini tahlil etishda davom etamiz. A.Qodiriy "Yozuvchi o'z ishi to'g'risida" nomli maqolasida qat'iy ta'kidlaydi:

- Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo'lgan narsam haqidagi materiallarni puxta o'rganib chiqaman. Men biror joy

to'g'risida asar yozmoqchi bo'lsam, o'sha joyni avval necha marotaba ko'rgan esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o'rganib kelaman...

Yozuvchining o'zidan qo'shishi (ruscha aytganda «vymisel») adabiy asarda katta rol o'ynaydi, - deydi yana yozuvchi, - lekin men turmushda ko'rmagan, bilmagan narsa haqida hech narsa yozmayman. Har bir asarning yozilishiga turmushda uchragan biror voqea sababchi bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan «O'tkan kunlar» ga yondoshilsa, undagi har bir bob, bobdagi har bir lavha chuqur o'rganilganiga, yozuvchi tomonidan «Ushlab ko'rilgani» ga to'liq ishonch hosil qilish mumkin. Lekin hayotda ko'rilgan, bilingan voqea – hodisalar bilan asardagi voqelik o'xshab ketsa-da, farqi, ta'siri tamoman boshqadir. Buning mohiyatini tushunish uchun «Navo kuyi» bobining yozilishiga turtki bo'lgan «Otam haqida kitobida» yozilgan tarixga murojaat qilaylik:

«Qudratilla amakim dadamdan uch yosh kichik, jussasi ham chog'roq, bo'ychan, yuzi cho'ziqqa moyil, bir-yarim qora sepkilik kishi edilar. U kishi sodda, ko'ngli toza, serzavq, ulfati yaxshi dutor-tanbur chaluvchi, ba'zan kayfiyatlari kelganda esa, garchi ovozlari bo'lmasa-da, o'zlari chalgan kuyiga jo'r bo'lib, xirgoyi qiluvchi edilar. «Ajam», «Nasrullo», «Qalandar», «Cho'li iroq», «droq», «Munojot», «Rohat», «Navo» kabi kuylarni juda nozik ijro etar edilar. Dadam bu kuylarni berilib tinglar yengil, o'ynoqi kuylarni esa negadir uncha yoqtirmaganday bo'lar edilar (Men buni u kishining e'tiborsiz tinglashlaridan sezardim).

Bir gal shunday o'tirishda Qudratilla akam tolga suyanib, oyoqlarini chalishtirib, dutorni qo'lga oldilar-da, dadamdan so'radilar:

- Qanday kuy chalay, aka?
- Chalaver... -dedilar dadam hafsalasiz ohangda va yostiqli tortib yonboshladilar.
- «To'rg'ay»ni chalaymi?
- Mayli.

Akam (Biz Qudratilla amakimni shunday atardik) dutorlarini sozlab kuyni boshladilar. U kishi chalganda o'z mashqlariga o'zlari o'ral bo'lgan kabi boshlarini quyi solib o'tirar, dadam esa uzoq xayolga tolib tinglar edilar. «To'rg'ay» kuyi sho'x ham, mungli ham emas, yoqimli ko'ngilning allaqaysi yerini qitiqllovchi edi. Akam kuyni chalib-chalib horiganday bo'ldilar-da, so'radilar:

- Qanday, aka yoqdimi?
- Yoqdi, - dedilar dadam xayoldan bosh ko'tarib va kuldilar, - lekin hali xomsan, Quadrat.
- Xo'sh?
- Dutoringni qulog'iga to'rg'ay kelib qo'nmayotir...
- Hoh-hoh! - kuldilar akam va tevarak osmonga alangladilar. - Yaqin orada to'rg'ay yo'q chog'i, aka, bo'lmasa kelib qo'nar edi».

Ushbu suhbatdan anglashilyaptiki, A.Qodiriy va Quadratulla aka kuy bilan bog'liq yana bir hikoyani bilardilar, balkim, bu hikoya quyidagidir:

«Mavlono Sohob ismli tengsiz tanburchi bor ekan. U o'zi bastalagan kuylarni ham, o'zidan ilgari yaratilgan maqomlarni ham ijro etganida har safar tinglovchilar qalbini qattiq larzaga solar ekan, ularni sarhush qilib qo'yarkan. Shomga qarashli g'oyat go'zal boqqa jam bo'lgan katta izdixohga chorlangan xonanda-yu sozandalar orasida Mavlono Sohob ham bor ekan. Anjumanda ajoyib kuy va qo'shiqlar ijro etilgandan so'ng Mavlono Sohob qo'lga tanburni olib, o'zining eng sevimli kuyi «Cho'li iroq» ni chala boshladi («Tavorixi musiqiyun» asarining muallifi bu kuyning yaratilish tarixi va bastakori haqida ham keng ma'lumot beradi). Kuy schriga mahliyo bo'lgan, tinglovchilar ko'z oldida tanbur qulog'iga qo'ngan bulbul kuyning ajib bir avji ijro etilayotganda xuddi odam singari sarhush bo'lib, yerga ag'nab tushgan. Bir ozdan so'ng bulbul o'zini o'nglab olib, qanot yozib tanburning kosa tomoniga butun gavdasi bilan bir necha bor o'zini uradi. Nihoyat erga qulab, qimirlamay qoladi. Kuydan sehrlangan parrandaning bu holati anjuman ahliga qattiq ta'sir qiladi. Kuy yanada avjiga chiqqanda anjuman ahli, yani sulton ham, mehmonlar ham, soqchilar ham, kuydan larzaga kelgan qalblarini qo'lga ololmay, birovlar dodlab, birovlar ingrab birin-ketin hammalari hushidan ketishgan. Eng oxirida hushidan ketganlarining biri Mavlono Sohobning o'zi edi.

Bir soatdan ko'proq, ahli anjuman shu alfozda yotarkan, ish yuzasidan kelgan boshqa mulozimlar bu holga avvaliga hayron bo'lib, keyin es-hushlarni yig'ib olib, hushsiz yotganlarining yuziga gulob sepib, og'izlariga muzdek sharbat quyib, arang xushlariga keltirishadi. Hamma ish sarishta bo'lgach, qarashsa, ikki mavjudod, ya'ni bulbul bilan Mavlono Sohob hayot bilan vidolashib bo'lgan ekan».

Ko'rinyaptiki, har qanday kuy yurakdan chiqsa, yaralsa kishiga hayotiy quvvat, ma'naviy zavq baxsh etadi: Fikrlar, hissiyotlar olamiga boshlab kiradi, odam o'zini unutadigan darajada sarhushlik tuyadi.

So'z bilan musiqa birlashsa-chi? Undan shunday ohangrabo yaratiladiki, uning sehrli kuchidan chiqib keta olmaysiz. Chunki ikkala san'atning ta'siri bir necha bor ortadi: musiqa konkret va aniqlashadi, so'z esa ohangga singdirilgan kechinmalarga o'ranadi. So'z orqali aytilayotgan mulohaza, fikrlar, kechinmalarni musiqa o'z asboblari vositasida jonliligini ta'minlaydi, so'z orqali aytilmagan qismini to'ldiradi va inson qalbini junbushga keltiradi.

Abdulla Qodiriy bu haqiqatni chuqur anglaydi. Uni «shu asarning xuddi shu joyida tasvir etilayotgan ahvolga, ideyaga to'g'ri kelish-kelmasligini surishtirib ishlatadi» («Kichik asarlar», 211-bet). Demak, yozuvchi hamma vaqt hayotiy fakt va hodisalardangina turtki olib, badiiy haqiqat kashfi tomon yo'l oladi. Yozuvchining ko'rgan-bilganlari, shaxsiy tajribasi, kechinma va taassurotlari badiiy asarning yuzaga kelishida asosiy omil sanaladi.

Yozuvchi ma'lum g'oya asosida to'plangan alohida faktlarni o'zining shaxsiy tajribasi bilan boyitib, qalb prizmasidan o'tkazib, ko'pchilikka mos qilib umumlashtiradi. Ya'ni, konkret g'oyaga asoslanib, yozuvchi hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi, umumlashtiradi va jonli, tabiiy, go'zal, ta'sirli narsa yaratadi. «Navo kuyi» bobi ham bundan mustasno emas.

Otabek qaynotasidan «Uyatsizga mening uyimda o'rin yo'q, uyatsiz bilan so'zlashishga ham toqatim yo'q... Boringiz, eshigim yonida to'xtamangiz!» - degan so'zlarini eshitgan, izzat-nafsi xo'rlangan, Kumushdan zaharli muammoli maktub olgan. Bu voqealarni bir-biriga bog'lay olmaydigan, «go'yo» isitma vaqtida bo'ladigan tuturiqsiz, bog'lanishsiz alji-bilji holatda» edi. Kumushni sog'inib, xo'rlanganining sababini bilishga intilib Marg'ilonga qatnar, Marg'ilonga kelgach, qaynotasining so'zlari qulog'i ostida jaranglar, darboza qarshisida jasorati so'nar va Toshkentga qaytar edi. Borib-kelishdan natija chiqara olmas, Kumushni esa tinimsiz qumsardi... Hojtsizlik, muammoli hijron, tubsiz o'y-xayollar tuzog'idan qochishga urindi: yigirma kun o'tar-o'tmas Marg'ilondan qaytib kelgach, Oqmasjid shahriga (Qizil o'rdaga) savdogarchilik bilan ketdi.

«Besh oylab Oqmasjid safarida yurib kelgach, Otabek to'g'ri shu Chuqur qishloq bo'zaxonalaridan biriga kelib tushgandek bo'ldi. Uni kunduz kunlari bo'zaxonada uchratib bo'lmasa-da, ammo bo'zaxonaga kelmagan kechasi juda oz edi. Bo'zagar Otabekni kimning bolasi ekanligini yaxshi bilgani uchun hamma ishni uning tilagiga qarab qilar, u keldi deguncha, oddiy bo'zaxo'rlar yoniga o'tqizmay o'zining maxsus hujrasiga olib kirar, boshqalarga beriladigan loyqa bo'zadan bermay, bo'zaning guli bilan mehmon qilar edi.

Hozir ham u shu bo'zaxonada edi. Endi uchinchi kuvachani tugatib, to'rtinchini chaqirgan edi. Bo'zagar kirdi:

- Bo'za beraymi, bek? – deb so'radi.
- Bering,- dedi,- mashshog'ingizni ham kirgizing!

Vaqt yarim kechadan ham oqqan, kunduz kundan beri ichishib charchagan xo'randalar baqirishib-chaqirishib tarqalishgan edilar. Bo'zaxona tinchigan edi. Qo'lma-qo'l yurib charchagan mashshoq ham bo'shab, Otabekdan katta-katta ehsonlar ko'rgani uchun, vaqtning kechligiga ham e'tibor qilmay kirgan edi. Mashshoq Otabekning sarxush qo'lidan bir piyola bo'zani ichgach, dutorini chertib so'radi:

- Qanday kuyni chalay, bek aka?
Otabek sarxush tovush bilan jiddiygina qilib javob berdi:
- Bilsangiz, haydalish kuyini chalingiz, ajralish kuyini chalingiz!
Mashshoq ajabsingan edi:
- Dunyoda bunday kuylar borligini umrimda birinchi marotaba eshitaman, bek aka!

- Dunyoda bunday kuy yo'q deb o'ylaysizmi, siz eshitmagan bo'lsangiz mening eshitganim bor... Bilmasangiz bilgan kuyingizni chalingiz!

Mashshoq dutorini sozlar ekan, yana so'radi:

- Bu kuylar yangi chiqqanmi?
- Yangi chiqqan.
- Qayerda eshitdingiz?

Otabek kayfi tarqagandek bo'lib, mashshoqqa qaradi:

- Bu kuylarni Farg'onaning Marg'ilonida eshitdim... - dedi.

Dutori sozlash uchun reza kuylardangina olib turgan mashshoq, Otabek kutmagan joyda "Navo" dan boshlab yuborgan edi. Kuyning

boshlanishi bilan naq vujudi zir etib ketgandek bo'lib, keyingi piyolasini bo'shatdi va ixtiyorsiz ravishda dutorning mungli tovushiga berildi. Dutor tovushi qandaydir o'zining bir hasratini so'zlagandek, hikoya qilgandek bo'lib eshitilar edi. Yo'q, bu hasratni u o'z tilidan so'zlamas edi – Otabek tilidan so'zlar edi... Otabekning ko'z o'ngidan O'tkan kunlari birma-bir o'ta boshladilar-da, nihoyat "anovi" sotiralari, "anovi" hangomalari ham ko'rinish berib o'tdilar... Yo'q, o'tmadilar... uning ko'z o'ngida kelib to'xtadilar-da, shu kuyi tura berdilar... Dutor bu ko'rinishni uning ko'z o'ngiga keltirib to'xtatgach, bu fojiaga o'zi ham chidab turolmagandek yig'lay boshladi... Dutor quruqqina yig'lamas edi, balki butun koinotni "zir" ettirib va xasta yuraklarni "dir" silkitib yig'lar edi. .. Otabek ortiq chidab turolmadi-da, ro'moli bilan ko'zini yashirib, yig'lamoqqa kirishdi... U ko'z yoshlarini to'xtatmoqchi bo'lar edi, biroq hozirgi ixtiyor o'zida emas edi, hamma ixtiyor dutorning hazin "Navo" kuyida, toqatsiz yig'isida edi... Dutorning nozik torlaridan, tilsimli yuraklardan chiqqan "Navo" kuyi o'z nolasiga tushunguvchi Otabekdek yigitlarga juda muhtoj edi. O'z dardiga tushungan bu yigitga borgan sayin dardini ochib so'zlar, yig'lab va ingrab so'zlar edi... eshituvchi esa dunyosini unutib yig'lar, qo'lini yig'ishtirib yig'lar va hasrat-u alamini ko'z yoshisi bilan to'kib yig'lar edi...

Nihoyat, "Navo" kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko'zi orqali to'ktirdi-da, falakning teskari harakatidan shikoyat etib qo'ydi va dunyoda yolg'iz hasratgina bo'lmaganligini bildirgandek o'zinig "Savi" kuyini yer yuziga shodlik va sevinch yog'dirib arz eta boshladi. "Navo"ning sehrli "savi" Otabekning ko'z yoshlarini quritdi-da, bir yengillik bag'ishladi. "Navo" bilan yuvilib ketgan uning umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi...

Bu o'tirishdan so'ng bir oylab bo'zaxonaga kelmay ketdi. Marg'ilondan qaytib kelgach, yana eski odatida davom eta boshladi...¹¹⁹

Ushbu keltirilgan parchadagi voqeani –har bir kitobxon ko'z o'ngida yuz berayotgan voqeadek, chetdan turib hamma holatlarni aniq ko'rayotgan kishidek his etadi. His etadigina emas, uning haqqoniyligiga, bundan boshqacha bo'lishi mumkin emasligiga to'liq imon keltiradi. Bu, birinchidan.

¹¹⁹ А. Қодирий. Ўткан кунлар. Т., 1985, 220-бет.

Yozuvchi o'zini Otabek qiyofasida ko'rsatar ekan, o'sha holatda "Otabek bo'lsam nima qilardim, nimani o'ylardim, qanday harakat qilardim, qanday suhbatlashardim", - degan masalalarga javob izlaydi. O'zining bor mehrini, iqtidorini ishga solib qaynotasi tomonidan haydalgan, xo'rlangan kuyovning, achchiq va zaharli maktub orqali "Hiylakor tulki, og'zi qon bo'ri, uyatsiz yigit..." kabi martabalar bilan Kumush tomonidan siylangan Otabekning xatti-harakatlarini samimiy tasvirlaydi. Otabekning bo'zaxonadan taskin izlashini, "anovini" unutish uchun sarxushlikka (mastlikka) urushini, "Navo" kuyidan dunyosini unutib yig'lashini, hasrat-u alamni ko'z yoshisi bilan to'kib yig'lashini shunchalik ishonchli va ta'sirchan tasvirlaydiki, u ta'sirdan siz ham Otabek holiga tushasiz. Taskin izlaysiz, sarxushlikka berilasiz, borlig'ingizni unutib yig'laysiz. Ha, **Samimiyluk yuquvchandir. Samimiyluk badiiylukka o'ransa, yuz bora ta'sirchanligi oshadi, yuquvchanligi beniboya ko'payadi.** Qayta yaratilgan badiiy dunyoni unutib, go'yo reallikda yashayotgandek his etasiz. Bu, ikkinchidan.

Ma'lumki, "O'tkan kunlar" ning "Navo kuyi" bobi eng ta'sirli yozilgan sahnalaridan biri, Otabekning ahvol-ruhiyasini haqqoniy va samimiy ochib beruvchi lavhalardan. Bu lavha asarning umumiy g'oyasini ifodasi uchun xizmat qiladi. Kitobxon shu voqealargacha Otabekning "eng aqli", "xudo har narsadan bergan yigit", "Otasining bolasi" ekanligini biladi. "Kutilmagan bir baxt" tufayli sof muhabbatga erishgan mard yigittligiga ishonch hosil qiladi. "O'g'lingizning vujudi bilan orzuingizni qondirish oson bo'lsa ham, kelingiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o'rni tasavvur qilingiz" deb, ota-ona orzusiga bo'ysunishga majbur bo'ldi. Farishtalar ko'nglidek ko'ngil egasi - Kumush ham Otabek unutmashligiga ishonch bilan kundoshlikka rozilik berdi... So'nggi Marg'ilonga kelishida "sovuq kundosh sovg'asi" bor edi. Balkim, shu sababli uni qaynotasi haydagandir...

Bu voqealardan va Otabek fe'l-atvorining mana shu xislatlaridan xabardor kitobxon, endi haydalgan kuyovning ruhiyasini, holatini, tadbirlarini bilishni, Kumush muhabbatiga qanchalik sodiqligini, hijronli iztiroblari uni qay ahvolga solishi mumkinligini ko'rmoqni istaydi. "Navo kuyi" bobi kitobxonni bir qadar shu istagini qondiradi. Unda Otabek aqli va tuyg'usidagi beg'uborlik ("Navo"

kuyi nola qilar, yig'lar, ingrar va Otabek ham "anavi" xotiralarini ko'z o'ngiga keltirib, kuchini yig'ishtirib yig'lar va hasrat-u alamini ko'z yoshi bilan to'kib yig'lardi), oliyjanoblik (qaynotasining haydashi sababini bilishga andisha qilishlik, ikkinchi uylanganim natijasi deb bilishlik), beqarorlik (Marg'ilonga tinimsiz va natijasiz qatnash), qarama-qarshilik ("hiylagarning... o'zi ham qursin, yuzi ham!" va bormay qolsa keyinchalik o'zi o'kina turgandek...") bilan tanishadi; yozuvchi shunday tasvirlaydi:

"Marg'ilondan natijasiz, tamoman bo'shga qaytib Toshkentga kelgach, Kumushni unutgandek bo'lib, uch-to'rt kun u-bu bilan ovunib yurar, so'ngra hafta, o'n kundan so'ng yana Marg'ilon to'g'risida o'ylay boshlab, o'ylab o'yining tagiga yeta olmagach, o'zini qayoqqa urishini bilmay qolar, shundan so'ng hamma alamini Chuqur qishloqqa havola qilib, o'n-o'n besh kun bosib ichganidan so'ng ichkilikdan ham lazzatlanmay qolar va shuning yonida ko'ngli bir narsani bo'yini olgandek sezinar, go'yo Marg'ilonga borsa bir gap bo'ladigandek, bormay qolsa keyinchalik o'zi o'kina turgandek... Shundan so'ng to'satdan Marg'ilon yo'liga tushib qolar, yo'lda borar ekan, o'zini to'rt ko'z bilan kutib turgandek sezilgan Marg'ilonga har nimadir, bir soat ilgariroq yetish uchun oshiqar edi. Lekin... lekin Marg'ilon darbozasidan kirishi ila uning holi o'zgara boshlar, yuragi qinidan chiqar darajada o'ynamoqqa olur ayniqsa, poyafzal rastasiga yaqinlashgach, uning bu iztiroblari shiddatlanur, poyafzal rastasining yaqini bilan bunchalik o'zgarishda qolgan Otabek rastaning o'zida qanday holda tushmog'ini tasavvurdan ojiz kelur va rasta ko'rindi deguncha, otining boshini chapga burib yuborar va orqasidan kimningdir "...boringiz, eshigim yonida to'xtamangiz... uyatsiz!" tovushi eshitilgandek bo'lar edi..." (221-bet).

Otabekning bu holatini – tirik qalb iztirobini, sevgan eshigidan qivilgan kuyov iztirobini, ixtiyorsiz tarzda tinmay qatnovchi sodiq eshiq iztirobini, chigal tugunni qanday yechishni bilmaydigan oriyatli yigit iztirobini – hasrat, xo'rlik, haqoratni, kuchsiz umid va ishonchni "Navo" jonlantiradi. "Navo" dastlab hayotning azob va uqubatlarini, slam va ko'z yoshlarini jonlantirsa, uning "Savt" qismi yorug'likdan, nardan, sevinch va umiddan xabar qiladi. Shunga mos tarzda Otabekning ruhi aniq va ravshanlik kasb etadi, kechinmalari o'zgaradi: "Navo" kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko'z orqali

to'ktirdi". "Savt" Otabekning ko'z yoshlarini quritdi"... "Navo" bilan yuvilib ketgan uning umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi..."

Xullas, uning xarakteridagi oromsizlik va besaramjonlik, alam va umid qirralari ochiladi. Otabekni harakatga, dushmanlar bilan olishuvga tayyorlay boshlaydi; o'z baxti uchun kurashishga asos hozirlaydi. Shu tarzda asarning qismlarini, voqealarni zanjirdek bir-biriga bog'laydi, Otabekning xarakteridagi ojizlikni, mardlikni, beqaror va oromsizlikni, yaxshi-yomonni tezda ajratib olmaslik kabi xislatlarini ochadi. Demak, mazmun va shaklning yaxlit bir butunligiga g'oyaviy mazmunning ta'sirdor bo'lishiga xizmat qiladi. Bu, uchinchiidan.

"Yozuvchi mahorati, - deb yozadi I.Sulton, - aytilmoqchi bo'lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va yorqin ifoda eta oladigan so'z va iboralarni topa bilishdan iboratdir". Darhaqiqat, "yozuvchining dilida ajoyib tuyg'ular mavj urib turgani bilan, ularni kitobxonning ko'ngliga yetkazib beradigan haroratli, jozibali so'zlar topilmasa, yozuvchining tili chinakam badiiy bo'lmasa, har qanday ijodiy reja ham hayf bo'lib ketadi" (P.Qodirov, "O'ylar", 128-bet).

Badiiy asardagi hayot-so'z vositasida yaratilar ekan, badiiy til-bevosita real fikr va hissiyotning obrazli ifodasidir. "Jajji" (mikro) obraz - har qanday so'z kontekstda (boshqa so'zlar bilan aloqada) hayotiylikni, o'zining xususiyatini, rangini, hidini, ohangini ko'rsata oladi. Yozuvchi so'zning grammatik, leksik, stilistik ma'no ko'rinishlaridan eng zarur va kerakligini kontekstga muvofiq ishlatadi, ya'ni tasvirlayotgan hayot (epizod, obraz, xarakter) ning mohiyatini chuqur ochib beruvchi so'zlarni tanlaydi. Tanlangan har qanday so'z adabiy asarda, albatta, ma'lum yukni tashishi lozim bo'ladi. U tasvirlanayotgan voqeaning haqqoniyligi va to'laligini, qahramonning his-tuyg'ulari, kayfiyat va kechinmalarini o'zida mujassam etishiga - shu yukni qanchalik ko'targanligiga qarab uning ahamiyati va kuchini belgilaymiz.

"O'tkan kunlar" romanida tasvirlangan - hammaning esida qolgan ko'rinishni diqqat bilan o'qiylik:

"-Nega qochasiz?! Nega qaramaysiz?!-dedi bek. Kumushbibi shu choqqacha qaramagan va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yovqarash bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda

himuncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlangan bir soyush bilan so'radi:

- Siz o'shami?

- Men o'sha! – dedi bek. Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar.

Kumushbibi og'ir tin olib:

- Ko'zlarimga ishonmayman! – dedi.

- Men ham! – dedi.

Shu vaqt ikki lab o'z-o'zidan bir-birisig qovushdi...

Kichkina nozik qo'llar elka ustiga, kuchli qo'llar qo'ltiq ostiga yopishdilar" (62 - bet) Ma'lumki, so'z umumiylikni bildiradi. U boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishib, muayyan holatdagi qahramonning qalbiga, harakatiga, qilig'iga mos bo'lsagina-shu qalbdagi his-tuyg'ularni, xarakterdagi xatti-harakatlarni ifodalay olsagina - u jonlanadi, har bir kitobxon qalbiga ko'chadi, o'shanday his-tuyg'uni boshqalarda ham uyg'otadi, tiriltiradi.

Parchadagi boshqa so'zlarning ahamiyatini pasaytirmagan holda, oddiy tuyuluvchi "Siz o'shami?" so'ziga to'xtaylik.

Bu so'z – uzukka qo'yilgan ko'z, kishini butun diqqatini o'ziga rom qiluvchi gavhar. Chunki unda Kumushning shu paytgacha kechirgan ixtiroblari jamuljam: "Men Sizni favqulodda ko'rganimdan buyon sevib qolgandim. Izlab, o'ylab o'yimning oxiriga yetolmay ko'z yoshlar to'kkandim. O'y – xayolim Siz bilan edi. Ichimdagi bu orzuni aytolmasdan, qanchalar qiynalдим. Sizni o'sha ko'rganimdan buyon qanchalik qumsaganimni bilsangiz edi..." kabi tuyg'ular... Bu tuyg'ularni "Siz o'shami?" degan jumla bilan jonlashtirish, unga yana "Men Sizni sevaman" ma'nosini o'zbekona, Kumushona qilib singdirish- ulkan san'atkorlik belgisidir. Dushmannning o'quvchi ko'z o'ngida sevimli yorga, chimildiqqa kirgan Kumushning ko'z yoshlari hovlilarga eshtilgan kulgusiga, ikkala sevishgan uchun muhabbatning – "kutilmagan bir baxt" ga aylanishi kabi holatlarni- achchiq va og'riqli tuyg'ularni shirin tuyg'ular qilib jonlantirish ham Qodiriy talantining yorqinligidan, ham qalamining mo'jizakorligidan dalolat beradi, chunki bu parchadagi haqiqat butun murakkabligi va ifosilotlari bilan o'quvchi qalbiga umrbod unutilmaydigan sevinch bo'lib, baxt bo'lib, go'zallik bo'lib ko'chadi.

Bunday misollarni "Navo" kuyi bobidan ham keltirish mumkin. Otabekning cholg'uchiga qarab "haydalish kuyini chalingiz, ajralish kuyini chalingiz!" deyishida ham Otabekning qalb urishini, uning qalbidagi og'ir haqoratlanishni, sevganidan ajralishning azobini yaqqol jonlantiradi. Qisqa va topib aytilgan (Otabek ongi va qalbida pishib yetilgan) rost so'zlar ila uning his-tuyg'ularining murakkabligini, nozikligini ravshan ifodalaydi; badiiylikni, demakki, ta'sirdorlikni yuzaga keltiradi. Bu, to'rtinchidan.

Xullas, badiiy mahorat – "yozuvchining badiiy talanti o'lchovidir" (Ch.Aytmatov). Uning yuqorida ta'kidlangan to'rtta belgisi – o'lchovlarning asosiysi bo'lib, ular badiiy asarda yaxlit, butun bo'lib namoyon bo'ladi. Biri birining yaratuvchanlik va ta'sirchanlik xususiyatlarini zo'raytirishga, tabiiylikni yaratishga xizmat qiladi. Badiiy mahorat, bir tomondan – real hayotdagi yangilikni ko'ra bilish va uni adabiyot vositalari ila tahlil qila bilish san'ati bo'lsa, ikkinchi tomondan san'atning sirlarini, texnikasini minglab hissiy—tasviriy vositalarni chuqur bilishga bog'liqdir. Bu ikki tomon dialektik aloqada bo'lsa, uzviy birlashgan holda "Tasvirlashga niyat qilingan qahramonlarning hayotini butun to'raligi va aniq nuqtalari bilan ko'ra bilishga" (Ch.Aytmatov) xizmat qilsa, tasvir o'quvchini hayajonga sola bilsa, ana shundagina hayotning katta haqiqati o'zining tugal va go'zal ifodasini topadi.

Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan, chegarasiz jarayon. Yozuvchi o'z ijodining ma'lum davrida – usta san'atkor darajasiga ko'tarilishi mumkin. Agar u shu bilan cheklansa, badiiy mahoratini o'stirmasa – hayotdan va san'atdan o'rganishda davom etmasa, u orqaga ketaveradi, o'quvchilari soni kamayaveradi. Demak, o'rganish, kashf etish to'xtagan joyda talant kuchi, ta'siri susaya boshlaydi. Talant yangilik bermagach, chaynalgan "kashf"larni – yasama, sun'iy gullarni taqdim qila boshlaydi...

3-fasl

Qalbning usta tasvirchisi

A.Qodiriy Sotti Husaynning "O'tkan kunlar" tanqidiga ba'zi izohlar berar ekan, uning bir nuqtasi haqida yozadi:

"Ba'zan mening so'zga ustaligim to'g'risida hazm va qolipdan yuqoriroq madhlarda bo'lingan. "Bu holning tasviriga qalamim ojizdir" kabi uzrlarimni "yolg'on aytadi, so'zga juda usta" degan kabi talqin qilinadi. Durust, menga qaraganda tuban kishilar uchun men juda ham so'zni qotiradigan ko'rinarman, biroq "o'zimdanda o'tadi, o'zim bilaman" deganlaridek, har kimning ahvoli o'ziga ma'lumdur. Ba'zi ruhiy kechinmalar (perejevanie) borki, kishi sezmaydi, hushunadi. Biroq shu holni qog'ozga tushirmoqchi bo'linganda so'z topilmay, ifoda qilolmay hayratda qolinadi, noiloj ojizni iqrar qilishga, "qalamim ojizdir" deyishga majbur bo'linadi. Mening "O'tkan kunlar"dagi ojizlarim ham shu jumladandir"¹²⁰.

Bir hisobga Sotti Husaynning "A.Qodiriy har qanday holning tasviriga, so'zga "juda usta" deb ta'riflashi haqiqatga sadoqatidir. Uning bu xulosasini Oybek ham tasdiqlab, "Romanning tili haqiqatan boy, buyoqli, sodda, ifoda kuchi zo'r, ommaga anglashilari... bo'yoqli, jonli, obrazli til" ekanligini, uning "musiqiyli va lirik jo'shqinligini" ham ta'kidlaydi: "O'tkan kunlar" tili kartinali, emotsional bir til. O'quvchining hissiga ta'sir qilish, ma'lum fikr, tuyg'ularni singdirish uchun yozuvchi tilini juda rangdor qilganligini uqtirib, "asarning badiiy to'qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, tugal gaplar, qochirmalar, so'z o'yinlari yarqirashini" asarning turli qismlari tahlili orqali isbotlaydi. U yozadi: "Kumushning so'z o'yini" degan qismida yozuvchining til ustidagi mahorati juda yaqqol ko'rinadi. Kundoshlarning o'zaro pichingi, kesatik-misatiqlari va ingichka hiylakorliklari, kundosh psixologiyasining eng chuqur va tutilmas tomonlarini ifodasi uchun yozuvchining tili ming tovlanadi, rangdan rangga kiradi, porlaydi"¹²¹.

Ushbu fikrlardagi haqiqatni to'liq anglash zarurati - asarga murojaat qilishga, kundoshlar so'z o'yinidan hech bo'lmaganda birini keltirishni taqozo etadi; ana shundagina yozuvchining tilga ustaligi, judayam ustaligi yaqqol ko'rinadi:

-Necha yoshga kirdingiz, Zaynab opa?

-O'n to'qqizga shekilli.

-Hali siz bola ekansiz, - dedi Kumush.

¹²⁰ «U'tgan kunlar» ham «U'tgan kunlar» tanqidi ustida biaz izohlar. - A.Qodiriy. Kichik asarlar. F.Gulom nomidagi adabiyet nashriyati, T., 1969, 197-6et.

¹²¹ Oybek. Abdullo Qodiriy ijodiyi v'uli. 14-tom, T., «Fani», 1979, 145 - bet.

-Siz nechaga kirdingiz?

-Meni so'ramang, men endi qarib qoldim...

Zaynab unga hasadlanib qaradi va kuchlanib aytdi:

-Hali yoshga o'xshaysiz-ku.

-Necha yoshga kirgan deb o'ylaysiz?

Zaynab Kumushning to'lib etmagan gavdasiga va o'n olti yoshlar chamali g'ubor tegmagan husniga hayron bo'lib, mulohazasini aytishdan qo'rqdi.

Zaynabga qolsa ehtimolki Kumush o'zidan ham yosh chiqar edi.

- Men qayoqdan bilay...

- Yigirmaga kirdim.

- Mendan bir yosh katta ekansiz.

- Sizdan, albatta, kattaman! - dedi Kumush.

Kumushning "Albatta, kattaman" degan so'zini Otabek ichidan tasdiqladi, uning husndagina emas, aqlda va boshqada Zaynabdan necha barobar yuqorida ekanligini o'yladi"¹²².

Lekin so'zga bunday ustalikni - mohirlikni ruhiy kechinmalar kashfiyoti bilan barobarlashtirish, ikkalasini bir xil hodisadek tushunish noto'g'ridir. Sotti Husaynning til bilan psixologizمنى farqlamasligining, yozuvchi talantining o'ziga xosligini hisobga olmasligining oqibatidir. Buning natijasida u asar g'oyasining talabiga zid bo'lgan "ruhiy holatlarni inja tahlil qilishni", ularning dialektikasini ochib berishni talab etadiki, bu A.Qodiriy talantining o'ziga xos qiyofasini inkor etishdir, hamma talantlarni bir xil andozaga solishga intilishning yorqin ko'rinishidir.

Darvoqe, psixologizm asar badiiyligini asosiy ko'rsatkichlaridan, yozuvchi kamoloti va buyukligini o'lchovlaridan, san'atkor uslubining o'ziga xosligini ta'minlovchi bosh vositalardan biridir. Chunki, "Odam adabiyotning tasvir predmetidir. Odam tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q, shu bilan birga "Odam tasviri" - demak - boshlicha odamning ichki dunyosi, uning kechinmalari tasviri demakdir" (I.Sulton).

Demak, birinchidan, psixologizm adabiyotning o'ziga xos qonuniy hodisasi bo'lib, yozuvchining xohishiga bog'liq bo'lmagan holda namoyon bo'ladi va u "har xil bo'lishi mumkin: bir shoirni xarakterning xislatlari ko'proq qiziqtiradi; ikkinchi shoirni ijtimoiy

¹²² A.Qodiriy. «Uttan kunlari». T., «Yulduz», 1985, 336-bet.

munosabatlar va turmushdagi ikir-chikirlarni xarakterlarga ta'siri ko'proq qiziqtiradi, uchinchi shoirni tuyg'ularning ish bilan aloqasi ko'proq qiziqtiradi; to'rtinchisini – hissiyotni tahlil qilish ko'proq qiziqtiradi; keyingisini...ruh dialektikasi hammadan ko'proq qiziqtiradi"¹²³.

Ikkinchidan, badiiy adabiyotda "Hamma gap xarakterda", xarakter va uning ichki reja va dasturini belgilovchi ruhiyatining bir butunligida; tashqi va ichki olamning hamohangligida, dialektikasida. Shuning uchun adabiyotda inson xarakteri ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: "Yo odam o'zini u yoki bu voqealarga aralashgan holda xatti-harakatlarda, faoliyatda ko'rsatadi. Yoki xatti-harakat qilmasdan uni o'rab olgan atrof-tevarakdagi hayotiy voqelikni kechinmalari orqali qabul qiladi"¹²⁴.

Uchinchidan, psixologizm – adabiyotning qonuniy badiiy hodisasi, psixologik tahlil esa ana shu qonuniy-badiiy hodisaning murakkab ko'rinishidir. Psixologik tahlilda yozuvchining "e'tibori hammadan ko'proq qanday qilib bir xil tuyg'u va fikr tufayli boshqa tuyg'u va fikrning rivoj olishiga qaratilgan; biroq holat va taassurot natijasida bevosita paydo bo'lgan tuyg'uning xotira va xayolda bo'ladigan har xil fikr ta'siriga berilib, boshqa tuyg'ular holiga kirishini, yana dastlabki holiga qaytishini, butun shu holatlar dunyosida sayr etib, o'zgarib va yana daydib yurishini juda qiziqib mushohada qiladi; dastlabki tuyg'u natijasida paydo bo'lgan fikrning boshqa bir fikrga olib borishini, yana undan ham nari o'tib sayr qilib yurishini, shirin xayollarni haqiqiy hislarga qo'shib yuborishini, kelajak to'g'risidagi orzularni hozirgi zamon refleksiyasi bilan qo'shib yuborishini juda maroq bilan mushohada qiladi"¹²⁵.

Shuning uchun ham psixologik tahlil – hamma yozuvchilarda yoki ularning hamma asarlarida ham uchramasligi mumkin. Shu sababli A.Qodiriy "O'tkan kunlar"da o'jizlarini aytishga majbur bo'ladi. Psixologik tahlilning bo'lish-bo'lmasligi konkret asarning g'oyasiga, shu asar muallifining xohishiga bog'liqdir.

Bu mulohazalardan ayon bo'lyaptiki, har bir hodisa asta-sekinlik bilan o'z kamolotiga erishadi. A.Qodiriy "O'tkan kunlar"i yaratilgan

¹²³ Чернышевский А.Г.Танланган адабий-танқидий мақолалар. Ўздавнашр, Т., 1956 йил, 327-бет.

¹²⁴ Тимофеев А.И.Основы теории литературы. М., 1963, стр. 329.

¹²⁵ Чернышевский Н.Г.Танланган адабий-танқидий мақолалар. Т., 1956, 326-бет.

paytda yozuvchi ta'kidlaganidek, "Tohir va Zuhra", "Chor darvesh", "Farhod va Shirin", "Bahrom go'r" tipidagi o'rta asr doston va hikoyalari, shu xil asarlarning o'quvchilari ko'p edi: u asarlarda hayot juda bo'rttirilib, romantik ohangga o'rab, balandparvoz qilib tasvirlanar, orzuga, xayolga keng parvoz berilardi (Buning yaqqol misoli "Shum bola"da ancha keng berilgan). "Ommaning shu holini nazarga olganda barmoq bilan sanarli besh-o'ntagacha (ular ham o'z hunarlarida no'noqdirlar) yoshlarimiz uchun "so'nggi priyom"ni berish – tishi chiqmagan bolaga qurt shimitish kabi bo'lar edi"¹²⁶.

Shunday ekan, o'zbek badiiy nasrida realizmning to'ng'ichi – "O'tkan kunlar"ning paydo bo'lishi "o'zimizga ma'lum shu xalqning zavqini, ruhini nazarda tutib yozilgani" uchun qo'lma-qo'l bo'lib ketdi, shov-shuvga sabab bo'ldi, roman ko'plar tomonidan yodlab olindi, kecha kunduzki berilib o'qiladigan kitobga aylandi, xalqimiz rag'batini jo'sh urdirdi.

Shu sabab, A.Qodiriy "O'tkan kunlar"da qahramonlar tuyg'ularini bevosita tahlil etmaydi, balki tashqi qiyofa ko'rinishlarida ruhiy holatlarning aksini beradi. U realistik tasvirning to'ng'ichida psixologiyaning 20-yillar kitobxonlari hazm qiladigan dinamik prinsipda yaratadi; ongli ravishda "fikr yoki tuyg'u hosil qilinishiga yordam beradigan qandaydir sirli jarayon to'g'risida o'ylanmasdan, ko'proq ichki hayot natijalari to'g'risida, uning qanday namoyon bo'lishi to'g'risida, kishilarning bir-biri bilan to'qnash kelishi, ularning harakatlari to'g'risida o'ylandi".

Abdulla Qodiriy "butun e'tiborini bosh qahramonlar his va ehtirolari tahliliga, lirik tuyg'ular tufayli paydo bo'lmish fikrlar dialektikasiga qaratadi" emas, balki qalb iztirob va kechinmalarini xatti-harakatlar, yuz qizarishlari, ko'z qarashlari, manglayini qashish, yerga qarash kabilar orqali ochadi. Haqiqatdan ham birinchi bor Otabek qalbini tug'yonga solgan mahabbatning Hasanali tomonidan kashf etilishi Otabekning uyalishiga ("yuzini chetga burishga majbur bo'ldi"), gunohkorlardek aybiga iqror bo'lishga ("gunohkorlardek yerga qaragan edi") olib keladi va h.k.

Darvoqe, asar qahramonlarini harakatlantiruvchi kuch, mazmun, ruhiy holat Abdulla Qodiriy asarida ularning yashayotgan hayotdan, eskicha turmushdan ma'naviy qoniqmasligi va "qora kunlar" ning

¹²⁶ A. Qodiriy. Kichik asarlar. T., 1969, 194-6et.

fojiali oqibatlaridan tezroq qutulishga intilishi bilan chambarchas bog'liqdir, Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar"ida ana shu g'oyadan kelib chiqib, o'zbek romanchiligida psixologik tasvirning yuzaga kelishiga, uning realistik tasviriga asos soldi. U birinchi bor romanchiligimizda qahramonlar ruhiy dunyosining tashqi qiyofa, xatti-harakatda voqea bo'lishini teran tahlil qila bildi.

Xulosa

Abdulla Qodiriy XX asrning buyuk san'atkori sifatida jahon adabiyoti shohsupasidan joy egalladi. O'zbek romanchiligi maktabining asoschisi va mashhur ustasi bo'lib tanildi. Ezgulik va insoniylikni, mustaqillik va ozodlikni – baxt va buyuk haqiqat deb tushungan Abdulla Qodiriy shu yo'lni yoqladi, el baxtiga qarshi bo'lgan har qanday kuchni, uning dahshatli oqibatlarini fosh etdi. Haqiqat yo'lida jon berdi. Bunday o'lmas g'oya, insoniyatning barchasiga birday tegishli g'oya, ayniqsa, "O'tkan kunlar" romanida o'zining yaxlit va barkamol badiiy ifodasini topdi. Ayni paytda, o'zbek romanchiligida psixologik tasvirning yuzaga kelishi, uning realistik tasviriga, ruhiy dunyoning tashqi qiyofa va xatti-harakatlarda voqea bo'lishiga asos soldi. Teranlik va ustalikda-betakrorligini badiiy isbot qildi. O'zbekistonning mustaqil odamlari va odimlari bilan yangi XXI asrga insoniylik mazmunini baxsh etishga kirishdi.

Mahorat maktabining bunyodkori

Har qanday yozuvchining talanti – badiiy mahorati darajasi bilan o'lchanishini nazarga olsak, Abdulla Qahhorning san'atkorligi bugun ham havas qilsa arziydigan cho'qqi bo'lib turibdi.

Badiiy mahorat, bir tomondan, real hayotdagi boqiy va yashirin haqiqatlarni kashf etish va uni yurak qoni ila tahlil qilish san'ati bo'lsa, ikkinchi tomondan, san'atning sirlarini, mehriyosini, texnikasini chuqur bilishga bog'liq. Bu ikki tomon (hayot va san'atdan doimiy o'rganish) yaxlitlashgan holda «tasvirlashga niyat qilingan qahramonlarning hayotini butun to'laligi va aniq nuqtalari bilan ko'ra bilishga» (Ch.Aytmatov) xizmat qilsa, ehtirosli (pafosli) tasvir kashxonni hayajonga sola bilsa, ana shundagina hayot va insonlikning katta haqiqati o'zining go'zal ifodasini topadi.

Abdulla Qahhorning badiiy mahoratda beqiyos mo'jizakorligi nimada? Uning qanday sirlari bor? Nega uni XX asr o'zbek adabiyotida mahorat maktabini yaratgan san'atkor deb ulug'laymiz?... Bu savollarni yechishga ko'pchilik harakat qilgan bo'lsa-da, allomaning 100 yilligi to'yi bahonasida, bugungi estetik tafakkur yutuqlariga tayangan holda javob topishga intilish g'oyatda qiziqarlidir.

Tengi yo'q mo'jizalar ijodkori

Baquvvat arqon qillardan yasaladi.

Chuqurroq o'ylasangiz, havasingizni keltirayotgan chiroyli daraxtning mo'jizakorligi uning boshlang'ich asosi – danakka borib taqaladi. Kichkina danakda daraxtning ildizi ham, tanasi ham, butoqlari ham, shoxlari ham, yaproqlari ham, gullari ham, mevalari ham, qo'ying-chi, uning barcha xususiyatlari yashiringan bo'ladi. Xuddi shuningdek, badiiy asarning joni, bu jon (ruh)ning tirikligi, yorqinligi va yaratuvchanligi badiiy detalga kelib taqaladi. Chunki har qanday asar minglab detallardan, bu detallarning bir maqsadga – asar g'oyasiga tomon yo'nalishidan va uni yaxlit, ta'sirchan mo'jizaga aylantirishidan bino bo'ladi.

Shuning uchun ham badiiy asarning yuzlab hayratlantiradigan vosita va unsurlari (so'z, syujet, kompozitsiya, mavzu, g'oya, janr...) ichida **eng porlog'i, eng go'zali – kashf etilgan detaldir**. U asar ruhi (g'oyasi)ning yorqinligini, jilvalanishini ta'min qiluvchi tengi yo'q mo'jizadir. Harqanday xarakterning negizidir, sharoitning mag'zidir va ayni paytda, asarning mukammaligini kamol toptiruvchi kerakli topilmadir.

«Detal – san'atning miniatyura modeli» (E.Dobin)dir, «Ko'z ilg'amaydigan har bir mayda narsani» (A.Pushkin) barchaga bo'rttirib ko'rsatadigan ko'zgudir, u «pardoz emas, husn bo'lib asarni ochishi kerak» (A.Qahhor) bo'lgan zaruratdir, yozuvchilar san'atining haqqoniylik darajasini ko'rsatuvchi vositadir. Demak, tomchida quyosh aks etganidek, detalda butun bir koinot (asar mikrodoniyosi) joylashadi ekan, uning aniq, haqqoniy, ta'sirchan bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan Abdulla Qahhorning «O'g'ri» (1936) asaridagi bir lavhaga, uning yaratilishiga nazar tashlaylik.

Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasi, yozuvchi ta'kidlaganidek, «boshdan –oyoq detallar, xarakterli savol-javoblar asosiga» qurilgan. U yozadi:

«Kunlardan birida xotira daftarimga xalqning **hazil-mutoyibalaridan «Yo'qolmasdan ilgari bormidi?»** degan iborani yozib qo'ydim. «O'g'ri» hikoyamni yozayotganimda shu ish berib qoldi. Shunchaki **beg'araz hazil uchun aytiladigan bu iborani** keksa dehqon ho'kizi o'g'irlanganidan shikoyat qilib borganda Aminning tilidan ayttirgan edim, **o'tkir piching ma'no kasb etdi. Mening ixtiyorimdan tashqari ijtimoiy umumlashgan kuchga ega bo'ldi, ayni chog'da, individual shaxs xarakterini ochib yubordi»**¹²⁷ (Ta'kidlar bizniki – H.U.).

Ushbu iqroynomadan ham ko'rinyaptiki, xotira daftaridan olingan ana shu kabi detallardan xarakterlar qad ko'taradi, «farazlari samarasi bo'lgan amaldorlar real hayotdan ko'chirib yozgan ilgarigi qahramonlariga qaraganda jonliroq chiqqanligini ko'rib hayratlanadi. Buning bosh sababi Chexovning ta'siri ekanligini yozuvchi ta'kidlaydi; ustozi Anton Chexov asarlaridagi go'zallik sirini – mehriyoni topadi:

«Men, yozuvchi uchun butun borliq allaqanday qotib qolgan narsa emasligini, uni qismlarga ajratmoq, ana shundan so'nggina qog'ozda qayta tiklamoq lozimligini va shu bilan birga hayotda ko'zga juda muhim bo'lib ko'ringan ko'pchilik narsa va hodisalar qog'ozga tushganda ortiqcha bo'lib qolishi sababini tushunib oldim» (Shu asar, 214-bet), - deydi.

Ana shu tushunchaga amal qilib yozilgan, har bir sahifasi 15-16 marta ko'chirilgan va har safar sayqal topgan «O'g'ri»dagi har bir epizod, ibora, detal, tafsilot «shunchalik aniqki, kishini sehrlab qo'yadi, ularni turmushda o'z ko'zing bilan ko'rganday bo'laverasan». Natijada ularning har biri judayam kuchli ta'sir qiladi, turli-tuman mushohadalarga, tuyg'ularga, tasavvurlarga va ular orasidagi bog'lanishlar kashflariga yo'nalish beradi, ularni kitobxon o'zicha kengaytirishga, mohiyatini yechishga, ixtiro qilishga intiladi. Asarda detallar rivojlangani, o'sgani sayin – mohiyat (g'oya) shunchalik yiriklashib ta'sirdorlik kasb etadiki, butun diqqatingizni

¹²⁷ Абдулла Қаҳҳор. Ҳаёт ҳодисасидан бадий тўқимага. – Адабиётимиз автобиографияси, Т., Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973, 214-бет.

o'ziga qaratadi, asardagi ruhga hamohang tuyg'ularingizni uyg'otib, junbushga keltiradi.

Nazariy fikrlar, mushohadalar va yozuvchi saboqlari isbotini ko'rish maqsadida asarga murojaat qilaylik:

«Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

- Ha, sigir yo'qoldimi?

- Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

- Ho'kizmi?... Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

- Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini, ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

- Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?

- Ola ho'kiz...

- Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

- Qo'sh mahali...

- Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

- Bisotimda hech narsa yo'q...

- O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov, olib ketsa qaytib kelaber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

- Qidirtirsakmikin-a? - dedi amin chinchalog'ini etikning ostiga artib. - Suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga «Ma, ho'kizing» deganday bo'lib ketdi.

- Kam bo'lmang, - dedi pulni uzatib, - yana xizimatingizdaman. Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi»¹²⁸.

Aminning «og'zini ochmasdan qattiq kekirishi» - uning mechkayligidan, juda to'yib ovqatlaniganidan dalolat bersa, «bag'baqasini osiltirib kulishi» semizligidan va ayni paytda, Qobil boboni mensimayotganidan, uning g'amidan, arzidan huzurlanayotganidan, ovqatni hazm qilish va vaqtini xushnud o'tkazish uchun hazil-mutoyibaga moyilligidan darak beradi. Darvoqe, «Qorin to'qligi - quturtiradi», «To'qlikdan sho'xlik chiqadi». Shu bois, u garchi ho'kiz yo'qolganini bilsa-da, «Ha, sigir

¹²⁸ Абдулла Қаҳҳор. Асарлар (беш жилдлик). Биринчи жилд.-Т., Ф.Ғулом номидagi Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 292-бет.

yo'qoldimi?» deya ermak qilishni boshlaydi. Qobil boboning tushuntirishlari, gaplari uning uchun hech qanday ahamiyati yo'q, shuning uchun Qobil boboning gaplarini oxirigacha tinglamaydi ham. Amin shunchalik kekkaygan, takabbur va manman amaldorki, o'zidan katta, keksa dehqonning falokatini, fojiasini sariq chaqalik nazarga ilmaydi, masxara qilish uchun bahona deb biladi. Bu fojiaga u tomonan befarq, surbetlarcha **«chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuladi»**. Bu detal aminning fahm-u farosati, axloq-odobi haminqadar ekanligini yaqqol namoyish etadi. Yozuvchi **«chinchalog'ini etigi ostiga artti»** detali orqali otgan satirik o'qi aniq mo'ljalga tegadi: surbet, befarosat, kaltafahm aminning xarakterini butun iflosligi bilan ishonchli va esda qoladigan tarzda yaqqol gavdalantiradi: amaldor jaholatning yaqqol timsoli bo'lib ko'z o'ngingizda jonlanadi.

Qobil boboning «Ola ho'kiz... Qo'sh mahali... Bisotimda hech narsa yo'q...» kabi yarim-yurim gaplari orqali o'zbekchilikni yaqqol ko'rsatadi: u o'zidan kattaga-amaldorga **tavoze va kamtarlik** bilan quloq soladi, **andishaga** borib so'zining yarmida to'xtaydi, **istihola** qilib, aminning piching va istehzosini **sezmaganga oladi**, **xijolatlar** tortadi. Najot topish **umidi bilan yerga qarab** turaveradi.

Qobil bobo ho'kizining yo'qolishi amin uchun o'ng'ay o'lja bo'lgani sabab, hali topilmagan, to'g'rirog'i, ho'kizni qidirtirishga kirishmasdan **suyunchi, suyunchidan chashna** so'raydi. Pora so'rashni turmushning kundalik va oddiy tashvishidek tushunadi. Ha, «To'raga ishing tushsa, chaynamay yutadi», degan xalq maqoli esga keladi. Darvoqe, amin pora botqog'iga cho'kib ulgurgan. Uningcha, hayotning ma'nosi pora olmoqdir, shuning evaziga zavq-u safo nirmoqdir.

Shu sabab har qanday **jamiyat, odamiylik hayoti uchun zahar, afat bo'lgan porani, poraxo'r aminni** yozuvchi «xavfli mikroorganizm», uni katta qilib ko'rsatadigan mikroskopga» soladi.

«O'zi qaytib kelmasmikan?... Birov olib ketsa qaytib kelaber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!» tarzida Aminning uchinchi shaxs tilidan gapirishida ham (o'zining nuqsonini yuqumli niqob bilan yashirishga urinishidek ayyorligi manaman deb o'zidan qat'i nazar) uning qalbidagi hokim kuch - kambag'al fojiasiga befarqligi, loqaydligi, fojiadan ko'proq pul undirishga

intilishi oshkora ochiladi, nutqi orqali bunday iflos xarakter yarqirab jonlanadi: u kekxa dehqon bilan «Siz»lab gaplashishni o'ziga or biladi. Sansirashga niyati (pora olish umidi) imkon bermaydi. Ayni chog'da, farmonbardorligini dehqon sezishi, uningsiz ish bitmasligini chuqur anglashi ham lozim...

Asardagi ushbu parchadan ham ko'rinyaptiki, yorqin, aniq detallar qo'sha-qo'sha keladi (Masalan, «Chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi», «Chinchalog'ini etigining ostiga art(ti)»). Biri – ikkinchisini to'ldiradi, muayyan harakat yaxlitlik kasb etadi, ayni paytda, xarakterning eng muhim xislat (kambag'alni nazar-pisand qilmaslik, «chashna» undirish) larini, ruhiyatining haqqoniyligini rad qilib bo'lmaydigan darajada umumlashtiradi. Demak, yozuvchi detaldan xarakter yaratadi, xarakterdan umumlashtiruvchi g'oyani keltirib chiqaradi. Natijada bu unsurlar shunday jipslashadiki, bironta so'zni, detalni ularga qo'shish yoki ulardan olib tashlash mumkin bo'lmaydigan yaxlitlik, jozibaga to'liq bir butunlik yaraladi. Shuning uchun ham «Ko'p so'z – kumush, oz so'z – oltin»dir. «Ko'p so'z yolg'onning yuzini pardozlash uchun kerak. Haqiqat shunday jononki, pardoz uning husnini buzadi» (A.Qahhor). Shu sabab ham hikoyada tafsilotlar ko'paysa, undagi harakatga ziyon keltirardi. Harakatning susayishi – dialog dramatizmining jozibasini so'ndirardi. Holbuki, dialog ham, detal ham hikoyaning voqeasini harakatga solishi va undagi qahramonlarni xarakterlashi – qonuniyatdir.

Abdulla Qahhor qoldirgan bu nazariy va amaliy saboqlar o'lmasdir, asrlar osha hikoya san'atiga xizmat qiladigan qoidadir, yosh adiblarga zaruriy yo'riqnomadir.

Xulosa: detal qanchalik kichik bo'lmasin, unda shu asarning butun borlig'i ham jamuljamdir. Demak, detal – kashf orqali ham yozuvchining mahoratini o'lchasa, ko'rsatsa bo'ladi. Bunga ishonavering. «Butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera biladi»gan Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyotida benazir san'atkor bo'lib qolaveradi. Badiiy detalning hikmatini chaqqan va uni beqiyos san'at darajasiga ko'targan halol va haqgo'y, insofli va shijoatli adib bo'lib yashayveradi.

«Vaqt» she'rining poetikasi

Haqiqiy talant... buyuk shoir – yurak qo'ri doimo yoniq, dil otashi doimo lovullab turadigan, o'z davrining quvonch va og'riqlarini, undagi makon va vaqtning aniq qiyofasini insoniylashtirib akslantiradigan, zamona va inson komilligi yo'lida tinimsiz kurashuvchi, isyonkor ijodkordir. Bu toifa shoirlar doimo “elga darkor... xalq uchun fidolikka tayyor”, “she'r dardida bemor”, “cho'g'i ado bo'lmaydigan” (Erkin Vohidov) lardir.

*Shoir bo'lsang,
Bo'lsin qalbing
Elga qurbon bo'lgudek.
Shoir bo'lsang,
Bo'lsin xalqing
Senga qalqon bo'lgudek...
Shoir bo'lsang,
Qalamingni
Nayza qilib tutolsang.
Shoir bo'lsang,
Qalb chirog'ing
Yonib tursa to abad.
Bu dunyodan
ketar chog'ing
Yig'lab qolsa she'riyat¹²⁹.*

Adabiyotimizda ana shunday iz qoldirgan, “tosh ustida gul o'stirish sanati”ning (Oybek) betakror ijodkori, “asrga bo'ydosh, asr ko'zgusi darajasidagi o'lmas she'rlar” muallifi (Mirtemir), “falsafiy realizm” (N. Karimov)ning donishmandi G'afur G'ulomdir.

Badiiy ijod tarixidan ma'lumki, ba'zida bitta asar, jumladan, “O'tkan kunlar” Abdulla Qodiriyning, “Navoiy” Oybekning, “Yulduzli tunlar” Pirimqul Qodirovning, “Ulug'bek xazinasi” Odil Yoqubovning san'atkorlik salohiyatini, badiiy olamining buyuk va jozibali xislatlarini o'zida jamlay oladi, uni o'zgalarga ochiq-oydin namoyish eta biladi. Buning bosh sababi o'sha asarning doimo “tirik”

¹²⁹ Erkin Vohidov. Sadoqatnoma. Saylanma, ikkinchi jild. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyati, 1986, 394-bet.

ekanida, doimo o'ziga maftun eta olishida, doimo yangilik bera bilishida, doimo ezgulikka yetaklay olishidadir.

Xuddi ana shu mulohazalar G'afur G'ulomning shoh asarlaridan biri – "Vaqt"ga ham tegishlidir. Qatrada quyosh aks etgani kabi, "Vaqt" G'afur G'ulomning "butun ijodiy kuchini, san'atkorlik cho'qqisini belgilab" (Said Ahmad) bera oladi. "Asar olingan masalani mukammal yoritib berishi – g'oyaviy yuksakligi, falsafiy chuqurligi, fikr o'tkirligi, mantiqiy qudrati, mushohadalarga boyligi, badiiy yetukligi bilan kishini o'ziga maftun qilib oladi" (Salohiddin Mamajonov). "U siyosiy – falsafiy lirikaning eng yaxshi namunalaridan biridir" (Homil Yoqubov).

Donolarning "Bir qozon oshning ta'mini bilish uchun hammasini yeb ko'rish shart emas, bir qoshiq uchi kifoya" degan o'gitlariga amal qilgan holda "Vaqt" she'rining tahlili orqali G'afur G'ulom poetik olamining ba'zi qirralarini o'rganishga kirishamiz.

Vaqt

(Menga soat taqdim etgan jiyanim mayor Hamidulla Husan
o'g'liga bag'ishlangan)

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

*Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat-
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.*

*Yashash soatining oltin kapkuri
Har borib kelishi – bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z ko'rasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon*

*Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor;
Ko'z ochib yunguncha o'tgan dam –qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.*

*Bir onning bahosin o'lchamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.*

Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayhannos ovoz.
Yigit termuladi qizning ko'ziga,
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...
Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam,
Tiriklik ko'rkdir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

Bebaho damlarning tirik joni biz,
Har oni o'tmishning yuz yiliga teng.
Barhayot Leninning avlodlarimiz,
Har nafas mazmuni fazolardan keng.

Qatrada osmon aks etganidek,
Jahonday ma'nodor qorachig'imiz.
G'olib asrimizga quyoshdan mash'al,
Zamon ko'rasining so'nmas cho'g'imiz.

Kreml kuranti zang urar mudom,
Minglab hodisalar minutlarga qayd;
Qahramon tug'ildi, shahar olindi,
Bir gigant qurildi sharaflı bu payt.

Reyxstag ustiga G'alaba tug'in
Qadashda otilgan Sovetning o'qi -
Yalt etgan umri-la barqaror qildi
Basharning muqaddas, oliy huquqin.

G'alaba amri-la mag'lub nemisning
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal'un imzoda odamlar o'qur
Million yil fashistning umriga la'nat.

*Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog'idir umr daf'arin.*

*Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma'badin yoqmoq shart emas,
Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.*

*Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal,
Umrda o'tajak, har lahza uchun
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.*

*Hayot sharobidan bir qultum yutay
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.
Quyoshki falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.*

19-sentyabr 1945-yil.

1. *Muncha ham shirinsan har olgan nafas.*
2. *Kelajak naslning manglayin o'pib,
Umrin o'lmas bo'lib qiladi davom...*

G'afur G'ulom

Vaqtning tug'ilish jarayoni

“Vaqt”ning tug'ilish jarayoni haqida turli-tuman va qiziqarli farazlar, fikrlar ko'p. Jumladan, Naim Karimov “Shoirning estetik prinsiplari” (1984) maqolasida shunday yozadi:

“Bu she'rning ijodiy tarixida ibratli jihatlar ko'p. G'afur G'ulomga soat sovg'a qilingan ayyom qayerdadir to'y – hasham bo'lib o'tadi. Shoir ana shunday to'y – hashamlarning birida qadaliq so'nar ekan, daf'atan o'sha sovg'ani eslab: “Mana bu o'lja soat. U kuni kecha bir fashistning qo'lida edi. Bugun esa mening qo'limda – mening vaqtimni ko'rsatmoqda”, deydi. Bu so'zlar uning o'ziga tayyor bir she'rdek bo'lib tuyuladi. Ammo u qanchalik urinmasin

she'r tug'ilmaydi. Oradan bir necha kun o'tgach, u nashriyotga borib, tanish muharrir bilan suhbatlashar ekan, korrektor qizga ko'zi tushib qoladi. Qiz korrektura varaqlarini o'qir ekan, uzun va qop-qora kipriklari kapalak qanotchalaridek harakat etadi. Bu hol har bir lahza sayin takrorlanaveradi.

G'afur G'ulom, nihoyat, o'zini qiynab yurgan mavzuning kalitini topgan edi. U, Arximed singari, "Evrika!" deya nashriyot xodimlaridan qog'oz so'rab, she'r yozishga tutinadi:

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat-
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Ana shu tarzda o'lja soat, qiz kipriklaridan uchayotgan kapalak Vaqt obrazini yuzaga keltiradi. Aniqrog'i, Vaqt kapalak (lahza) obrazi orqali inkishof etiladi"¹³⁰.

G'afur G'ulomning "ilhom parisi" – Said Ahmadning "Vaqt" ning tug'ilishi" (1969) badiasida yuqoridagi holat boshqacharoq izohlanadi. Said Ahmad "Qizil O'zbekiston" gazetasining redaktori topshirig'i bilan G'afur akadan bir she'r undirish ilinjida tayinlangan vaqtda shoirning uyiga boradi. Biroq:

"Domla o'sha kuni meni kechgacha ovora qildilar. Fe'llarini bilganimdan xalaqit bermadim. Kech bo'ldi. Qorong'i tushdi. Domlaning she'r yozib berish niyati yo'qqa o'xshardi, - deb yozadi Said Ahmad va davom etadi: " – Menga qara, - dedilar. – Ke, shu ishini ertaga qoldiraylik.

Men ko'nmadim. Ertaga ertalab she'rsiz redaksiyaga borsam, redaktor xafa qilishini aytdim.

- Azonda yozamiz. Bo'ptimi? G'afur G'ulomning gapi bitta bo'ladi. Tamom. Yaxshi she'r yozaman, degan shoir kechqurun palov yeb yotishi kerak. Hozir ikkovimiz osh qilamiz.

Ko'nmay ilojim yo'q edi. Oshdan keyin to yarim kechagacha Bedil o'qib ma'nosini tushuntirib berar, afandi aytib kulardi. Bilib turibman, domla she'r yozish oldidan ruhini yengillatmoqchi, o'ziga

¹³⁰ G'afur G'ulomning badiiyi olami. T., «Fano», 1984, 27-bet.

yaxshi kayfiyat yaratmoqchi. Yotish oldidan bilagidagi soatni yechib, ko'zoynak taqib qaradi.

- Bo'ldi, - dedi domla, qayta o'rnidan turib - She'r tayyor. Komil Aliev shunday degan edi: "Sarlavhasi bilan tagiga yoziladigan o'z noming naqd bo'lsa, asaring bitdi deyaver". She'rning nomi bilan tagidagi G'afur G'ulom bitdi.

U kishiga savol bilan qaradim.

- Jiyanim Hamidulla o'tgan kuni shu soatni sovg'a qilgan edi. Shu soatga bag'ishlab she'r yozaman.

Boshqatdan kiyinib o'tirib oldik. Men pastga tushib choy damlab chiqdim. Stolga choynakni qo'ya turib qarasam, she'rning ikki satri yozilib qopti.

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapalak umriga qiyos etgulik.

Xayolini buzmaslik uchun choy qo'yib stol qirg'og'iga qo'ydim. Qarab turibman, G'afur aka o'ylayapti. Ko'zi goh shiftga tikilar, goh qoshlari chimirilib xuddi urishmoqchi bo'lgandek, menga yomon qarab qolardi. Bilaman, bunaqa paytda G'afur aka qaragani bilan meni ko'rmaydi. Xayolida yaratayotgan narsasinigina ko'radi. Ruchkani siyohdonga zarda bilan botirdi-yu yoza ketdi:

Gohida bir muddat olgulik nafas...

Bu satrni shoshib o'chirdi-yu, boshqatdan yozdi:

Ba'zida bir nafas olgulik muddat

Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik¹³¹.

"Vaqt"ning tug'ilishi haqidagi ikki xil fikrning qaysisi qay darajada to'g'ri-yu, qaysisi qanchalik to'qima ekanligini, chuqurroq anglash uchun adabiy ijodda rejaning tug'ilishi qonuniyatlarini bilish talab etiladi.

Ilk ijodiy rejaning tug'ilishi qanday yuz berishini "jonli" tasavvur qilmoq uchun yozuvchi Pirimqul Qodirov iqromomasiga murojaat etaylik. Uning yozishicha, "Kimyo laboratoriyasida turli xil moddalar har biri o'z kolbasida yoki qutisida sokin, jim turaveradi. Ularning ba'zilarini bir-biriga qo'shganingizda ham reaksiya boshlanmaydi. Lekin kimyoviy moddalar orasida katalizatorlik xususiyatiga ega bo'lganlari bor. Jim turgan moddalarga ana shu katalizatorlardan ozginasini, goho birgina tomchisini qo'shsangiz,

¹³¹ Сидд Ахмад. Ўқутганларим ва тонганларим. Т., «Иллар», 1998, 56-бет.

to'satdan reaksiya boshlanib ketadi. Ba'zi moddalar reaksiyaga kirganda gugurtsiz yonadi. Ba'zilari sovuq bo'lsa ham biqillab qaynashga tushadi. Ikki xil rangsiz oq suyuqlikni bir biriga qo'shsangiz kutilmaganda rangi o'zgarib, qizil yoki ko'k tusga kiradi. Bu moddalarning tarkiblaridagi atomlar miqdori o'zgarishi – ulardagi sifat o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Ijod jarayonining boshlanishi va yangi rejaning tug'ilishi ham mana shunga o'xshash kuchli ma'naviy reaksiyadan va miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishiga aylanishidan kelib chiqadi. Yozuvchining hayotiy tajribasi, ilg'or ongi, zo'r talanti, o'tkir fantaziyasi, olijanob intilishlari-barchasi yangi rejasi tug'ilmasdan oldin xuddi har biri o'z kolbasida sokin turgan kimyoviy moddalarga o'xshab – potentsiya tarzida turadi. Ulardagi o'zgarishlar – miqdoriy o'zgarish tarzida tinch davom etaveradi. Yozuvchi doim izlanishda bo'ladi. Miqdoriy o'zgarishlar ko'payib, sifat o'zgarishi bo'sag'asiga borib qoladi. Shunday paytda, yozuvchi uyquda ko'rgan tushmi yoki haydalgan dalada turgan o'simlikmi, nimadir kimyoviy katalizatorning vazifasini bajaradi. Qizib, yonishga tayyorlanib turgan o'tin uyumiga go'yo uchqun kelib tushadi-yu, uni alangalatib yuboradi...¹³²

Yuqoridagi ikki (S.Ahmad va N.Karimov) mulohazalariga diqqat qilsak, shoirning jiyani mayor Hamidulla Husan o'g'li sovg'a qilgan soat vaqt haqida asar yozish rejasini uyg'otgan. Lekin bu reja osongina amalga oshmagan, shoir qalbida pishib qolgan mavzuga "uchqun" kelib tushmaguncha, shoir turli bahonalar to'qishga, she'rni kechiktirishga harakat qilavergan, lekin tinimsiz mushohada qilish, izlash davom etavergan.

"... Eng qizig'i shundaki, umumiy tafakkur bilan konkret manzara sening xayolingda uzoq vaqtgacha ayrim-ayrim hollarda yashaydi-da, keyin birdan ikkovi bir-biriga qo'shilib ketadi. G'afur G'ulom o'zining keyinchalik mashhur bo'lib ketgan "Vaqt" she'rini yozishni niyat qilib qo'yib, qanday qiynalib yurganini aytib bergani esimda, - deydi shoira Zulfiya. - allaqanday umumiy tasavvurlar tafakkurini cho'lg'ab yuraveribdi, fikrlar bir-biriga to'qnashib ketaveribdi, she'rning ayrim bandlari yetilib ham qolibdi-yu, lekin she'rning ibtidosi, asosiy konkret obraz, birinchi misralar hadeganda

¹³² Адабиёт назарияси. 2-том. Т., «Фан», 1979, 97-бет.

tug'ilavermabdi, u tuyqusdan bir zamonlar bir shahlo ko'zli qizni taniganini, uning ajoyib quyuq kipriklari kapalak qanotiga o'xshash bo'lganini eslab qolibdi. O'sha qizning kiprik qoqishini eslash bilan ko'z o'ngida bir lahzali fursatning jonli obrazi gavdalanibdi, she'rga kamlik qilib turgan obrazning ibtidosi xuddi mana shu ekan!"¹³³

Ana shu "kalid" (N.Karimov), ana shu "uchqun" (P.Qodirov) G'afur G'ulomning Vaqt haqidagi poetik mushohada va mulohazalari, o'y va orzulari bilan chatishgachgina, "Vaqt"ning shakl-u shamoyili tug'ilgan, tirik bir organizm sifatida shakllana boshlagan... Shu asosda she'r bino bo'lgan.

Holbuki, Said Ahmadning badiyasiga quloq solsangiz, unda "kalid", "uchqun" – Hamidulla sovg'a qilgan soat bo'lib chiqadi, Zulfiya va Naim Karimovning fikrlariga tayansak – qiz kipriklarining kapalak qanotiga o'xshashligini eslash (ko'rish) katalizator vazifasini o'taydi.

To'g'risi ham shundaki, G'afur G'ulomning vaqt haqidagi mushohadalari uning ko'plab poetik asarlarida uchrashini qayd qilgan Salohiddin Mamajonov yozadi: "Masalan, G'afur G'ulom 30-yillarda yozgan "Ko'k bo'sag'asida" she'rida "istasak nur minib yarim sekunda ucharmiz fazonining burchdan – burchiga" deb "yarim sekund" so'zini ishlatadi... "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak" degan she'rida "andak" so'zi quyidagicha ishlatiladi:

Qarindosh, qondoshlar xalqasin qoqib,
Erinmay aytarman: "Ayyom muborak!"
Afv etsin olamning posboni erlar,
Afv etsin g'oliblar, kechiksam andak.
Bizning ko'chamizda ham bayram bo'lajak.

Bu parchadagi "andak" so'zining o'rniga "yarim sekund", "bir sekund", "bir soat", "ayyom", "bir nafas" yoki vaqt bildiruvchi boshqa so'zlarni qo'yib bo'lmaydi. Chunki bular she'rning badiiyligiga va haqqoniyligiga putur etkazishi mumkin. Shoir tabriklagani so'zsiz keladi, ammo o'sha g'alaba qozonilgan onda yetib kelishi qiyin va mumkin emas. Shuning uchun "yarim sekund" yoki "bir zum" kabi

¹³³ Зулфия. Асарлар. 3-жилд, Камаляк. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, 150-бет.

so'zlarni ishlatib yolg'on gapirishni, to'g'rirog'i, sun'iylikni xohlamaydi. Aksincha, "bir soat" yoki "bir kun"dan keyin boraman deb aytish ham sira – sira mumkin emas, bu o'zining ham, g'oliblarning ham dilini og'ritib qo'yadi. "Andak" so'zida haqqoniylik ham, samimiylilik ham, imkoniyat ham bor: andak so'zining ichida bir minut, soat va hatto, kunlar bo'lishi mumkin..."¹³⁴

Ko'rinadiki, G'afur G'ulom ongida vaqt hodisasining alomatlari, vaqt obrazining qirralari to'planib boradi va ular obrazda yaxlit, birbutun bo'lib gavdalanish uchun faqat aniq sababga, katalizatorning topilishiga qarab qoladi.

Said Ahmad badiasidan ham shu narsa aniqki, G'afur G'ulom she'r yozib berishi kerak, lekin u qanaqa she'r bo'ladi, qaysi mavzuni yoritadi, qaysi fikrni o'zida jamg'aradi, inson ruhiyatining qay jihatlarini ochadi? – kabi muammolarga shoirning o'zi ham javob bera olmaydi. Chunki she'rga talab, uni yozishga orzu bo'lsa-da, hali maqsad ham, aytiladigan poetik fikrlar ham, ularni bir markazga to'plovchi mavzu va g'oya ham, ularning barchasini muhayyo etadigan sabab ham ravshan emas. Sovg'a qilingan soat – vaqt haqida she'r yozish rejasini aniqlaydi. Poetik reja aniqlashgach, uning "Vaqt" bo'lib dunyoga kelishi uchun "urug'lanish"i talab etiladi. Natijada, vaqt rejasi qiz kipriklarining kapalak qanoti singari harakati bilan "qovushadi". Ota-onadan paydo bo'lgan farzand singari, birdaniga dunyoga keladi. Katalizator vazifasini o'tagach, yozuvchi xayolida chuvalashib yurgan sanoqsiz, tarqoq voqealar, obrazlar yaxlit shaklga kiradi. Shoir ijodiy qobiliyati, iste'dodi, talanti kuchli vulqonday shiddat bilan ishga kirishadi. "O'ylangan asar san'atkorning ko'z o'ngida o'zining barcha go'daklik nafosati bilan namoyon bo'ladi va onalik tuyg'usiga to'lib toshgan san'atkor xushbo'y g'unchaning rangini ko'radi, tez yetilayotgan mevaning mazasidan lazzatlanadi" (Onore de Bal'zak). Xullas, yozuvchining talant kuchi, diqqati, salohiyati bir markazga to'planadi; asarning asosiy poetik g'oyasi, uning obrazli ifodalanishi ko'zga tashlanadi va shu doira atrofida lirik qahramon harakat qila boshlaydi. San'atkor ongida yaratmoqchi bo'lgan asarining badiiy modeli yaratiladi. Endigi gap tug'ilajak asarning hayotiyiligini, jonliligini ta'minlovchi shoir yuragidagi dardning yoniq mazmuniga, san'atkorning so'z sehriga, o'tkir

¹³⁴ Skovorodinin Mamajonov. Shoir va zamonaviylik. T., «Fano», 1963, 138–bet.

fahmiga, ajoyib ilhomiga... va yana juda ko'p ruhiy jarayonlariga bog'liqdirki, ularni alohida-alohida o'rganish zarurdir.

"Vaqt" falsafasi

Vaqt, vaqtning qadr – qimmatini kashf etish uchun G'afur G'ulom lahzaning mohiyatini tahlil qiladi. Nega shoir Vaqtning kattaroq birliklari – asrni, yilni, oyni, sutkani poetik tadqiq etmaydi? Ular vositasida materiyaning asosiy yashash shakllaridan biri-fazo va vaqtning mohiyati sonroq ochilmasmidi? Vaqt va vaqtning mazmuni nima? degan savol fanda hamon ochiqligidan qat'i nazar, nisbiy haqiqatlar ochilgan. Jumladan, Vaqt haqida Eynshteyn yozadi: "Agar siz go'zal qiz bilan bir soat vaqtangizni o'tkazsangiz, siz uchun bu vaqt bir daqiqaga tengday tuyuladi. Agar bir daqiqa qizib turgan tosh ustiga o'tirib ko'ring-daqiqangiz bir soatga tatiydi. Mana shuni nisbiylik deyishadi. Bu men uchun juda ishonchli jaranglaydi. Biroq, ushbu tushuntirishga shubha bildirib, uni tekshirib ko'rmoqchi bo'lsangiz, marhamat – Siz qizigan tosh ustida o'tiring, men esa go'zal qiz bilan bir daqiqa suhbatda bo'laman".

Ko'rinadiki, faylasuf G'afur G'ulom Vaqtning eng kichik birliklaridan bo'lgan lahzani bekorga tanlamagan. Lahzaning poetik kashfi orqali vaqtning qaytarilmasligini, uning qadriga yetishning ahamiyatini teran ifodalaydi. Takrorlanmas lahzalarning yashash, yaratish ruhini, ularning bir-biriga o'xshamagan olamlarini o'ta nozik fahmlaydi va shoirona tasvirini beradi.

She'rning dastlabki bandi:

*G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olgulik muddat –
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.*

tarzida gavdalanarkan, uning mag'zidagi poetik falsafa-lahzaning asrlarga tatigudek mazmuni haqida bosh fikr qalbingizni tamoman egallaydi. Shoir bunga erishgach, bosh fikrdan tug'ilgan "yordamchi", ayni paytda, uni yanada teranroq, asosliroq ochuvchi, bir-birini ham mantiqan, ham hissiy, ham ma'nan to'ldiruvchi fikrlar yaratadi:

*Yashash soatining oltin kapkuri
Har borib-kelishi – bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z ko'rasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon*

*Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor;
Ko'z ochib yunguncha o'tgan dam-qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor*

*Bir onning bahosin o'lchamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.
Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayhannos ovoz.*

Garchi bu poetik isbotlar assotsiatsiyasi (jilosi) bosh fikrni rad etib bo'lmaydigan darajada yangi-yangi qatamlar bilan asoslasalar ham, birinchi bandni chuqurlashtirsalar ham, baribir qalbga ularning daxli uzoqday. Holbuki, she'rdagi asosiy mehvar – lahzaning ko'ngil va muhabbat bilan, yaratuvchan mehnat bilan bog'liqligidadir; she'rdagi mantiqning hayotiy talabiga berilayotgan birdan-bir quyidagi to'g'ri javobdadir:

*Yigit termuladi qizning ko'ziga
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...
Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.*

*Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam,
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.*

*Bebaho damlarning tirik joni biz,
Har oni o'tmishning yuz yiliga teng.
Barhayot Leninning avlodlarimiz,
Har nafas mazmuni fazolardan keng.*

*Qatrada osmon aks etganidek,
Jahonday ma'nodor qorachig'imiz.
G'olib asrimizga quyoshdan mash'al,
Zamon ko'rasining so'nmas cho'g'imiz.*

Lahzaning bunchalik qimmatiga – lahzaning falsafasiga bugungi zamon kishilarining, to'g'rirog'i lirik qahramonning munosabati qanday? Shoir zamonasining mavjud (o'zi ishongan, anglagan) haqiqatlari bilan mustahkam aloqada bo'lsa, shu voqelikni tiriklik sanasa ("Mening Leninimsan, oilamdasan / Hatto nabiralar nafasi Sensan!" - desa), qanchalik ahamiyatli bo'ladi? She'rni "aziz, mukarram" qilguvchi zamonaviylikning qudrati asar abadiylikiga putur yetkazmaydimi? Yoki she'r umriboqiylik xislatining asosi – o'z zamonasining ma'naviy-axloqiy muammolarini yoritishdami?

Ha, "She'rga bunchalik kuch-qudrat, fayz va yetuklik bergan narsa – har bir nafasi ulkan voqelar bilan to'lib toshgan sovet voqeligidir, sovet kishilarining sermazmun hayotidir, har bir daqiqada berayotgan qimmatli fikr, xulosalardir va eng muhimi shoirning bu narsalarni chuqur tushunib yetishi – ularning mazmunini chaqishidir, ya'ni insoniyat hayoti tarixining har bir onini aql tarozi ustiga qo'yib haqqoniyat, adolat, insoniyat manfaati va kelajak toshi bilan tortib ko'rib, ma'lum xulosaga kela olishidir" (Salohiddin Mamajonov, yuqoridagi asar, 138 – bet).

Bugungi o'quvchi, bu fikrlardan cho'chimasligi, uning mag'zini chaqishga intilishi lozim: ya'ni shoir Vaqtning qalbini, ovozi boshqacha idrok qilishi ham mumkin emas edi, yashagan zamonasining bosh haqiqatlarini kashf etmasdan, ularning mohiyatini ochmasdan G'afur G'ulom donishmand va faylasuf shoir, Vaqt va makonning ovozi bo'la olmasdi, "Vaqt" ham noyob bo'lib tug'ilmasdi.

*Kreml kuranti zang urar mudom,
Minglab hodisalar misralarda qayd;
Qahramon tug'ildi, shahar olindi,
Bir gigant qurildi sharaflı bu payt.*

*Reyxstag ustiga G'alaba tug'in
Qadashda otilgan Sovetning o'qi –
Yalt etgan umri-la barqaror qildi
Basharning muqaddas, oliy huquqin.*

*G'alaba amri-la mag'lub nemisning
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal'un imzoda odamlar o'qur
Million yil fashistning umriga la'nat.*

O'z zamonasining haqiqatlarini bunday ifodalagan shoirni aybsitish, bugungi nuqtayi nazardan uning bu haqiqatlarini rad etish, bizningcha, tamoman noto'g'ridir. Chunki, **zamonaviy shoir bo'lmasdan umriboqiy shoir bo'lolmaydi**. Bu adabiy ijodning azaliy va o'zgarmas qonunidir. **Umriboqiylikning asosida o'z zamonasining asosiy dardlarini, zamondoshining urib turgan yuragi shodliklari va og'riqlarini kashf etish, umumlashtirish, uni o'zga avlodlarga his qiladigan darajada anglatish yotadi**. Darvoqe, XXasrning 40-yillari – Lenin davri, kommunistik mafkura davri edi. Lenin – oftob, Kommunistik Partiya – yagona yetakchi edi.

Shoir:

*"Ulug' e'tiqodda o'laman qarib
Abaddir lenincha padariy huquq"*

("Sog'inish") degan ishonchda edi. Keyinchalik "Lenin bo'lmasaydi... Toptalgan xinadek men so'lgum edi",- ("Eng yirik yulduz") deb yozgandi...

Vaqt, vaqtning qadriga yetish hamma tuzumlarda ham qadrlangan. **Inson o'zi yashagan makon va fazoni doimo ulug'lagan**. Chunki o'tmish bilan kelajak orasidagi inson umrining vaqti-bir on, bir fursat, bir kulgu, bir oh! Shu bois, biz ham istiqlolimizning har bir sekundini asrlar mazmunidan ortiq sanaymiz. Inson har bir quvonchida, yutug'ida, yaratganida, izlaganini topganida lahzalarning "Har oni o'tmishning yuz yiliga teng", deya asrlarga tenglashtirgan, yuragi to'lib-toshib ketganida "Bir lahza mazmuni bir butun bahor" deya tasavvur qilgan. Biz – istiqlol egalari ham G'afur Gulomning "Vaqt" misolida aytgan yuqoridagi bandlar qa'ridan, mantig'idan, mag'zidangina kelib chiquvchi quyidagi so'zlarida shoir

asarining umriboqiyiligini anglaymiz; insoniylikning yaratuvchan shiori qilib, uni kelajak avlodlarga uzatamiz:

*Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog'idir umr daftarin.*

*Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek
Diana ma'badin yoqmoq shart emas,
Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.*

*Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal,
Umrden o'tajak, har lahza uchun
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.*

Vaqtning qadriga etgan XXV asr odamlari ham, xuddi bugungi zamondoshlarimiz singari G'afur G'ulom bo'lib,

*"Umrden o'tajak, har lahza uchun
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal"* –

deya hayqirishlariga, uning amaliyotiga intilishlariga, mening, sizning ham shubhangiz bo'lmasligining o'ziyoq – "Vaqt" kabi asarlarning insoniyat uchun abadiy barhayotligiga isbotdir. G'afur G'ulom ijodining chuqur zamonaviyligidan tug'ilgan bu fikrlar hamma vaqt o'z kuchini saqlashiga asosdir.

Garchi she'r g'oyaviy-badiiy ehtiyoj nuqtayi nazaridan yuqoridagi misralar bilan yakun topgan bo'lsa-da, lekin u "xira ilhom parisi" – Said Ahmadning talabi bilan davom etadi:

*"– Yo'q. – dedim. – Tamom bo'lgani yo'q. Menga qarang,
G'afur aka. – Domlani jindek maqtab ishga solmoqchi bo'ldim. –
Navoiy ham, Mashrab ham, umuman ilgari shoirilar she'rlarining
oxiriga "ketur soqiy" degan gap qo'shib qo'yardilar. Nima, G'afur
G'ulomning o'shalardan kamligi bormi?"*

G'afur aka o'ylanib turdi-da, darrov ruchkani oldi.

– Gʻafur Gʻulomniki boshqacha boʻladi. Gʻafur Gʻulomniki Gʻafurovskiy boʻladi. – U shunday deb yozishga tushib ketdi...” (Said Ahmad, yuqoridagi asar, 58-bet).

*Hayot sharobidan bir qultum yutay
Damlar gʻanimatdir, umrzoq soqiy.
Quyoshki falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.*

“Buyuk yozuvchilarning oʻz ijodlarini abadiyligi haqidagi fikrlari (“Zamon qoʻrasining soʻnmas choʻgʻimiz”; “Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy”- H.U.) chuqur zaminga ega: Ular oʻz zamonasidagi konkret tarixiy hayotni shunchalik teran tasvir etadilarki, bu tasvir shu hayotning abadiy yashovchi qirralarini ham oʻzida saqlab qoladi” (Izzat Sulton). Bu poetik izhor ham, nozik va asosli mulohaza ham “Vaqt”ning, Gʻafur Gʻulomning umriboqiy ekanligiga yana bir dalil boʻla oladi.

Ha, “Zamonlar umridek uzun lahza”larning egasi boʻlishga shoshilaylik! “Daraxt haqida mevasiga qarab hukm qilish kerak” maqoliga asoslanib, “Vaqt”ning poetik kashfiyotchisi, donishmandi Gʻafur Gʻulomni ulugʻlaylik! Bunday shoshilish va bunday ulugʻlashni tugʻdirgan Istiqlolni eʼzozlaylik!

«Vaqt»ning mazmuni va shakli

Maʼlumki, har qanday predmet, hodisa, narsa (shu jumladan, badiiy asar ham) oʻzining mazmuni va shakli mutanosibligida voqe boʻladi va shundagina mavjudligini, bir butunligi namoyon etadi.

Aniq bir asarda tasvirlangan hayot parchasi shu asarning mazmuni sanalarkan, “Vaqt”ning mazmuni deganda, ikkinchi jahon urushidan endigina chiqqan insonlarning vaqt haqidagi oʻylari: lahzaaning ahamiyati, fursatning qudrati, onlarning qadri haqidagi tushunchalari va ayni paytda, shu falsafiy tushunchalarga asos bergan Oʻzbekiston voqeligi tushuniladi.

Ushbu mazmun fikr bilan, toʻgʻrirogʻi yozuvchi gʻoyasi bilan chambarchas bogʻlanadi; gʻoyaviy mazmuni lirik qahramon qismati eqali tiriladi. Lirik qahramon har bir onni aziz biladi, uni bekorga oʻturmashlikka undaydi. “Koʻplarning baxtiga oʻzlikni jamlab, shu

ulug' binoga hech bo'lmaganda bir g'isht qo'yishga" chorlaydi. "Umrдан o'tajak har lahza uchun qudratli qo'l bilan haykal qo'yish" ga chaqiradi.

Ana shu g'oyaviy mazmunni yuzaga chiqaruvchi barcha vositalar (lirik qahramon, mavzu, g'oya, syujet, kompozitsiya, poetik til... ritm, bo'g'in, turoq, vazn, qofiya, band...) she'rning badiiy shaklidir. "Vaqt"da bu shakl judayam harakatchan va faoldir, u yuqoridagi mazmunni go'zal, tiniq, betakrorligini ta'min etadi; mazmun bilan vobastalikda voqelikning mohiyatini yoniq, maftunkor qilib kashf etadi:

*Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor.
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam – qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.*

Birgina shu bandda aytilgan mazmun talabiga mos poetik nutqda yonib, yoqlab, ardoqlab ifodalangan tuyg'u va fikr "ko'z ochib yumguncha o'tgan dam"ning qimmatini "bir butun bahorga" tenglashtiradi; bunday mubolag'ali haqiqatning hayotiylikiga ishontiradi, hayajonga soladi; mazmundor hayot kechirishga da'vat etadi, ko'nglingizni shu ruh bilan to'ldiradi.

A1-ziz2 as3-ri4-miz5-ning6 / a1-ziz2 on3-la4-ri5 6+5=11 a

A-ziz o-dam-lar-dan / so'-ray-di qad-rin. 6+5=11 b

Fur-sat g'a-ni-mat-dir, / shoh satr-lar -la 6+5=11 v

Be-za-moq cho-g'i-dir / umr daf-ta-rin. 6+5=11 b

Ushbu paradigmadan ko'rinyaptiki, "Vaqt" barmoq sistemasining 6+5 turoqli 11 bo'g'inli vaznida yozilgan. Asar 15 (murabballi) banddan tashkil topgan 60 misrali she'rdir. Har bir band a-b-v-b tarzida qofiyalangan. Faqatgina o'ninchi bandda qofiyalanish tartibi buzilgan (a-b-v-a):

*Reyxstag ustiga G'alaba tug'in a
Qadashda otilgan Sovetning o'qi – b
Yalt etgan umri-la barqaror qildi v
Basharning muqaddas, oliy huquqin. a*

“Vaqt”da qofiyalanish tartibining birgina bandda buzilishi ham ohangning ritmini muayyan darajada o'zgartiradi; bir me'yorda va qonunan takrorlanuvchi ohangdoshlik tartibini saktalashtiradi.

Demak, turoqlanish she'rdagi his va fikrning uyg'unligidan, g'oyaviy mazmundan kelib chiqadi, she'r birdaniga (mazmun va shakli bilan) yaxlit tug'iladi, vazni ($6+5=11$), qofiyasi (a-b-v-b), bandi (murabba)-o'zligi bilan dunyoga keladi. Aytmoqchimizki, so'zlarni, bo'g'in va turoqlarni o'lchovga solsagina vazn “tiriladi”, “vaznli va qofiyali so'z toza va porloq gavhar”(Xondamir) ga aylanadi. Kerakli mazmunni, tushunchalarni misralar oxirida ta'kidlovchi, ohangdosh so'zlar - qofiya ta'sirdorlikni yuzaga keltiradi va she'rni oson eslab qolishga yordam beradi. Band o'z navbatida g'oyaviy mazmunning qirralarini, bir oniy kechinmaning xulosasini kengaytirib, yoyib, asoslab ochib beradi. Ayni chog'da, band bandlararo “sochilgan” fikr va kechinmalarni yaxlitlashtiradi, mantiqan va zarur tarzda ularni jonli qilib (bir tan-bir jon tarzida) birlashtiradi, birgina so'z bilan aytsak, band yaratilayotgan asarning barcha qismlarini bir butun va go'zal qilib badiiylashtiradi.

Ushbu mulohazalar shuni isbotlaydi, ya'ni she'rning shakli-ritmikasi, fonikasi, strofikasi, poetik sintaksisi, fonetikasi, badiiy-tasviriy vositalarining barchasi birvarakayiga lirik qahramonning voqelik va vaqtga bo'lgan munosabatini, aniqrog'i “Umrda o'tajak, har lahza uchun qudratli qo'l bilan haykal qo'yish”dek maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Mazmun va shakldagi ana shunday quymalik poetik asarni serzavq va ta'sirchan bo'lishiga olib keladi.

Xullas, badiiy asarda mazmun shaklga, shakl mazmunga tabiiy monand bo'ladi, shundagina vobastalik va birbutunlik yuzaga keladi. Shakl mazmunga, mazmun shaklga kirib, bir-birini to'ldirib, yagona va jonli organizmga aylanganda “Vaqt”ga o'xshash yetuk badiiy asarlar kashf etiladi.

“Vaqt”ning mavzu va g'oyasi

Badiiy asar mazmuni va shaklidagi qonuniyatlar o'z navbatida mavzu va g'oyada ham, ularning uzviy birligida ham namoyon bo'ladi. Chunki badiiy asarning tasvir ob'yekti – hayot (mavzu), tasvir usuli – tuyg'ular tarbiyasi (g'oya) – quyulmadir.

“Adabiyotning mavzusi butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o‘z ichki – tashqi dunyosida sezib anglaganlaridir. Bir tomchi suvdan dengizgacha, bir uchqundan buyuk bir yong‘ingacha, kichkina bir yaproqdan ulug‘ o‘rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib – yozuvchi uchun mavzu bo‘larlik narsalardir” (A.Fitrat. “Adabiyot qoidalari”). Lekin bu mavzularning aniq bir zarrasida ham inson bilishi lozim bo‘lgan, uning yashashi uchun zarur bo‘lgan hikmatlar, saboqlar, sirlar, mo‘jizalar mujassamdir. Bu cheksiz, chegarasiz, eskirmaydigan, vaqt singari doimo ilgariga intilayotgan dunyodirki, unda har bir san’atkor hayotiy tajribasi va qiziqishiga, hayajoni va kashfiga, bilimi va salohiyatiga yarasha o‘zi yaxshi bilgan va sevgan mavzudan hikmatni, mo‘jizani, saboqni (g‘oyani) kashf etadi. Mavzu va g‘oyaga niyat ham, ishq ham qalbda birdaniga tug‘iladi.

Xuddi shunday holatni “Vaqt” ham isbot etadi. Nima haqda she‘r yozishni bilmagan shoir yotish oldidan bilagidagi o‘lja soatga vaqtini bilish istagida qarar ekan, birdaniga fikri yorishadi.

Vaqt va vaqtning qadriga yetishning mohiyatini o‘rganishga, tahlil etish (mavzu va g‘oya) ga ishqiy uyg‘onarkan, o‘rnidan turib ketadi. Yanada aniqroq aytsek, g‘oya va mavzu yaxlittlashib, bir butun bo‘lib dunyoga keladi va ana shu shaklda G‘afur G‘ulomni o‘ziga batamom mahliyo qiladi. G‘afur G‘ulomda ilgaridan vaqt hodisasining alomatlari to‘plangan, u haqda sonsiz-sanoqsiz va boy tushunchalar chuvalashib yotgan, uning yuzaga chiqishiga aniq sabab, vaziyat bo‘lmagan. O‘lja soat (sabab) topilgach, vaqtga ishq uyg‘ongach, shoirida muhokama va mushohada, talant, salohiyat vulqonday shiddat bilan ishga kirishadi. Ishlashga mayli beqiyos darajada ortadi. Ungacha bo‘lgan bahonalar (“Yaxshi she‘r yozaman, degan kechqurun palov yeb yotadi”; Bedilxonlik, askiyabozlik; yaxshi she‘r azon payti yoziladi”... kabi) dan asar ham qolmaydi. Balki g‘ayratiga g‘ayrat, shijoatiga shijoat, yurak zarbiga zarb qo‘shiladi. She‘r o‘zining barcha atributlari bilan namoyon bo‘ladi, uning ifodasi mazmunidan, mazasidan, shakl-u shamoyilidan, rangidan, ohangidan shoir lazzat topadi. She‘r qog‘ozga zavq-shavqqa to‘liq dil izhori samarasi bo‘lib, ya‘ni **vaqtga bo‘lgan ishq ilhom bo‘lib to‘kila boshlaydi.**

Yuqorida ta’kid etganimizdek, “Vaqt” mavzusi G‘afur G‘ulomning aytmoqchi bo‘lgan salmoqli fikri, g‘oyasi (Bir-ikkitasini

eslataylik: "Aziz asrimizning aziz onlari /Aziz odamlardan so'raydi qadrin"; "Umrndan o'tajak, har lahza uchun /Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal") bilan chambarchas bog'liqdir. G'oya o'z navbatida asardagi lirik qahramon qismatiga singigan bo'lib, uning faoliyati, xatti – harakatlarining natijasi bo'lgan orzu-istaklari, his-tuyg'ulari orqali reallashadi.

Shuning uchun ham "... badiiy asardagi g'oya turmush hodisalari ustidan chiqarilgan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsional ifodalash yakunidir. Bu yakun badiiy asar organizmining har bir hujayrasiga singib ketgan bo'ladi. Shu sababli badiiy asardagi g'oyani faqat shu asarning butun obrazlari mazmuni orqaligina anglash mumkin. L.Tolstoy ta'biri bilan aytganda, har bir badiiy asarning g'oyasini ifoda etish uchun u qanday yozilgan bo'lsa, shunday qayta yozib chiqish kerak bo'ladi" (I.Sulton, "Adabiyot nazariyasi", T., 1980, 170-bet).

Agar biz "Vaqt" she'rida G'afur G'ulom har bir on, fursat, muddat, lahza, sekund, minut, yilning qadriga eting", degan tushunchani tasvirlagan desak, unda "Vaqt" asarining g'oyasi rangini, ko'rinishini, latofatini, go'zalligini, ta'sirini yo'qotadi. Shoir aytmoqchi bo'lgan fikrlarning o'ndan birini ham ayta olmagan va ularni lirik qahramon hayotidan ajratgan bo'lamiz.

Holbuki, "Vaqt" bo'rttirilgan (demakki umumlashtirilgan) yorqin g'oyalar dunyosi, obrazli fikrlar guldastasidir. U lirik qahramon qismatiga aylangan badiiy tarixdir; har bir bandda quyidagicha ta'kid qilingan (aforizm darajasidagi) baytlardadir; ularning ba'zilarini o'qing-a:

1. *Tiriklar ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.*
2. *Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.*
3. *Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la,
Bezamoq chog'idir umr daftarin.*
4. *Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.*

Demak, badiiy g'oya – asarning mehvari sanaladi va hamma shakliy vositalar ham ana shu mehvarga bog'lanadi, yopishadi, ayni paytda, ijodkor maqsadi, qarashlari pafosini tartiblashtiradi, bir o'zanga soladi, yagonalashtiradi, betakror o'ziga xos olamni bunyod etadi.

“Vaqt” syujeti

Ma'lumki, barcha badiiy asarlarning majburiy, universal uchta elementi (poetik til, mavzu, syujeti) borligi – syujetsiz badiiy asar bo'lmasligining isbotidir. Demak, syujet hayotning ob'yektiv oqimini, tarixini va uning qalbdagi ehtirolarini oddiy tasvirlash (chunki san'atkor nusxa ko'chiruvchi shaxs emas) bilan yuzaga kelmaydi, balki san'atkor tomonidan eng xarakterlilari tanlangan, ishlov berilgan, mohiyati kashf qilingan, g'oyaga muvofiqlashtirilgan voqealar, harakatlar, his-tuyg'ulardan tug'iladi.

Epikada – voqea, dramada – harakat, lirikada – his – tuyg'ular predmet ekan, lirikada syujet kechinmalarning, ehtirolarning, “xos hol va xos ma'no”ning rivojiga (ular asosida yotgan kuchsiz “voqea”larning tashkil topib borishiga) asoslanadi. Bu rivoj lirik qahramon xarakteri (to'g'rirog'i, lirik qahramon qalbida yuz beradigan tuyg'ularning, oniy-ruhiy harakatning barcha tafsilotlari, “ikir - chikirlari” mantig'i va tarixi) bilan bog'lanadigan – universal qonuniyatga bo'ysunadi. Lirik qahramon va his-tuyg'ular o'rtasida uyg'unlik, hamkorlik shu darajada bo'lishi lozimki, his-tuyg'ular lirik qahramon ruhiyatini yaqqol ko'rsatishga, ruhiyat o'z navbatida his-tuyg'ularni va ularni uyg'otgan tipik makon va zamonning mohiyatini tushunishga kalit bo'lishi lozim. Pirovardida shu kalit g'oyaning tirikligini, yuquvchanligini ochishi shart.

Shu nuqtayi nazardan qarasak, “Vaqt”da qahramon ruhiyatini yorqin namoyon qiladigan “voqea”lar zanjirini yaqqol sezamiz: Lirik qahramon chuqur bilimlar egasidir, uning tushunchasida, har on mazmuni “ming yulduz so'nishi uchun yetgulik, “bir butun bahor”, “bir olam zamon” ... **(Bu oniy kechinmaning boshlanishi)**. O'zi esa, ana shunday “bebaho damlarning tirik joni”, “jahonday ma'nodot qorachig'i”, “zamon ko'rasining so'nmas cho'g'i”dir. Uning, “Reyxstag ustiga G'alaba tug'in” qadagani sabab “Basharning muqaddas oliy huquqi” barqaror bo'ldi, mal'un nemis ustidan

qozonilgan G'alaba orqali "Million yil fashistning umriga la'nat" tamg'asini taqdi (**Bu ruhiy kechinmaning rivojlanishi tarixi**). Ha, uning qalbidagi hukmron kuch – umr daftarini shuhrat bilan bezamoqdir. Lekin bu shuhrat Efeslik grek Gerostratdek dunyo mo'jizalaridan biri bo'lgan Artemida ibodatxonasiga o't qo'yishga, yondirishga, vayrona qilishga qaratilgan emas. Uning asosiy maqsadi "Ko'plarning baxtiga o'zligini jamlab", "Shu ulug' binoga bir g'isht qo'yish"dir. "Umrдан o'tajak har lahza" ichida ezgulikka, yaratuvchanlikka shohidlik qiluvchi haykal yaratishdir (**Bu oniy – ruhiy kechinmaning xulosasi**).

Ushbu oniy-ruhiy kechinma rivoji tarixi – demakki, syujet "Vaqt"da lahza va abadiylik, lahza va tarix, lahza va g'animatlik, lahza va muhabbat, lahza va mehnat, lahza va bunyodkorlik, lahza va insoniylik o'rtasidagi kurash va ziddiyatning o'tmishi, buguni, kelajagi tarzida tashkil topadi, ochiladi; falsafiy fikr yuritishni zaruratga aylantiradi, taqqoslash usuli – ishontirish san'atiga doyalik qilishini ta'minlaydi. Hayotni keng qamrashni yuzaga chiqaradi va siq, lekin ko'lamdor mulohazalarni ifodalashga imkoniyat yaratadi, ayni paytda, she'r ohangini zalvarli, jarangdor bo'lishiga olib keladi. Qahramon qalbidagi kechinmalarning ichki ziddiyatlarini ham (masalan, Gerostratning xudbinligi bilan qahramonning pok, ezgu tuyg'ularini solishtiring) ro'yi-rost ochadi va insoniy bunyodkorlik, yaratuvchanlikning hayotiyiligini, zaruriyligini, asriyligini, umriboqiyligini ulug'laydi.

Shoir tomonidan to'qilgan mana shu syujet tafsilotlari tufayli tirik qahramon ruhiyati o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi: bu ruh yaratuvchan, o'zgalar baxtiga hamdam, har lahzaning qadrini to'liq anglaydigan bilimdon va ezgulik yaratishgagina mahkam bel bog'laganligi bilan tipikdir, tirikdir, zamonaviydir. Shuning uchun ham bu ruh asardagi tipik tarixiy – konkret sharoit va ana shu sharoit tug'dirgan his-tuyg'ular bilan vobastadir, mantiqan bog'liqdir. Bir-birining mohiyatini ochuvchi teran fikr va tuyg'u ("Xos hol va xos ma'no")ning birdan-bir asosli va kerakli vositalaridir.

Bundan aniqlashadiki, har qanday she'rdagi syujet shoirning sezgi mevasi, bir oniy ilhomining natijasi, muayyan bir vaddatda (bir necha minutda yoki soatda) "pishib" yetilgan poetik tuyg'u va fikrining voqe bo'lishi, ifodalanishidir; ana shu

ifodasini topgan oniy-ruhiy kechinma tarixining boshlanishi, rivoji, xulosasidir.

“Vaqt” kompozitsiyasi

Har bir narsa, hodisa jonli qiyofa kasb etgandagina (mazmun va shakl kabi betakror tarzda yaxlitlashganda) va o'zida hayotning mohiyatini go'zal ifoda qilganida – betakrorligi, o'xshashi yo'qligi bilan kishi diqqatini jalb etadi. Badiiy asar ham o'zidagi minglab, millionlab zarralarni mutanosiblik bilan birlashtirganda va bo'lishi mumkin bo'lgan hayot mohiyatini, g'oyasini yaxlit va qiyosi yo'q qilib jonlantirganda uning qudrati asrlarga tatiydi.

Shuning uchun ham kompozitsiya zarur vositadir va unda ham yozuvchi g'oyasi (nuqtayi nazari) hal qiluvchi vazifani bajaradi. Shu asos tufayli har bir asarda, dastavval, kompozitsion markaz (L.Tolstoy) tayin etilishi shart, ya'ni kompozitsiyaning “o'q tomiri”ni aniqlashib olish lozim bo'ladi; ana shu “o'q tomir”ga bog'liq holda asar qismchalari, zarralari xuddi inson organizmidek, o'z o'rinlariga, tayin joylariga, aniq vazifalariga ega bo'ladilar. Darvoqe, insonning son-sanoqsiz organlarining har biri o'zicha tugal va mukammal bo'lishi bilan birga, ularning barchasi yagona organizmning tirik bo'lagidir. Ya'ni, inson tanasining “o'q tomiri”-inson miyasi sanaladi va barcha organlar ana shu miyaning talabiga muvofiq joylashadilar, muayyan vazifani bajaradilar va uning tirikligini ta'minlaydilar. Miyaning tirikligi-barcha a'zolarining faoliyatiga bog'liq bo'lganidek, har bir a'zoning tirikligi-miya faoliyatiga bog'liqdir. Shuning uchun ham “san'at asarlarida ham tugallanmagan, nuqsonli yoki oshiqcha hech narsa bo'lmasligi kerak; har bir vosita, har bir obraz zaruriy va o'z o'rnida bo'lishi lozim” (V.G.Belinskiy PSS, Tom SH, str. 200).

G'afur G'ulom “Vaqt”ning markaziga umrning har bir lahzasini g'animat bilish va har bir onni ko'plarning baxtiga jamlab ezgulik yaratish g'oyasini qo'yadi va bu vazifani lirik qahramonga, uning aniq his-tuyg'ulariga, o'y va orzulariga yuklaydi, ular o'z navbatida bosh g'oyani ochish yo'lida faol xizmat qiladilar.

Jumladan,

*G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,*

*Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat –
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik, -*

deya birinchi bandda vaqtning tezkorligi tasviri berilsa, ikkinchi bandda ana shu mazmunning ma'nosi – vaqtning qimmatligi yanada tadrijiy (tadrij san'atiga asoslanib) qiyosda, rivojlantirish asosida yangicha qirralarini mantiqan namoyish etadi:

*Yashash soatining oltin kapkuri
Har borib kelishi – bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z ko'rasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.*

Vaqtning mazmuni shu tariqa mantiqiy va izchil tarzda rivojlanib boradi, oldingisidan yana bir bahya balandroq qilib vaqtning g'animatligi kashf etiladi:

*Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor;
Ko'z ochib yunguncha o'tgan dam-qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.*

Birinchi bandda g'uncha ochilguncha (masalan, namatak g'unchasi ertalab soat 4 dan kechqurun soat 20 gacha gulga aylanadi) fursat – kapalak umriga teng va bir nafaslik muddat – ming yulduz so'nishi uchun yetarli bo'lsa, ikkinchi bandda soat zangi (kapkuri)ning har borib kelishi – bir olam zamon va shu muddat ichida koinot o'z chuqurlaridan yangi jahonlar yasab chiqishi mumkinligi – asosiy fikrni izchil rivojlanayotganini isbot qiladi (Bu banddagi mazmunni keyingi bandda yanada rivojlanib ochilayotganiga shubhangiz bo'lsa, yuqorida keltirilgan uchinchi bandning “tiliga, diliga, salmog'iga” boqing). Shu tarzda har bir misra, band yagona vazifa (bosh g'oya)ning muhim bir qismini bajaradi; ayni paytda, ularning har biri zaruriy qism ekanligini, bularsiz bosh g'oya (vazifa) mukammal, bir butun, jonli bo'lishi mumkin emasligini aksiomaga aylantiradi. Bu o'z navbatida “Vaqt” asarining kompozitsiyasi mukammal va bekam-u ko'st ekanligini isbotlaydi.

G'afur G'ulomning "Vaqt" asaridagi lirik qahramon-tafakkur doirasi keng, turli sohalar (fizika, biologiya, tarix kabi)ning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor, yaratuvchan mehnatdan barkamollik va ulug'vorlik kasb etgan insondir. Uning bu xislatlari – uch qismda bir-biriga bog'liq holda ochiladi (Ushbu asarning "Vaqt" syujeti" fasliga qarang): Dastlabki 5 bandda Vaqtning tasviri va qadrining qimmatini (Oniy kechinmaning boshlanishi va uning mantiqiy rivoji tarixi) berilsa, 6-banddan 12-bandgacha Vaqtning zamona bilan aloqasi, ya'ni lirik qahramon qalbidagi zamonaviy yaratuvchanlikning qirralari, asoslari (Oniy kechinmaning davr, makon va vaqt bilan aloqasi tarixi) ochiladi. 12-14 bandlardan iborat uchinchi qismda lirik qahramonning Vaqtga bo'lgan munosabati – "Umrдан o'tajak har lahza" ichida ezgulik va baxt uchun o'chmas haykal qo'yish ahdi (Oniy kechinmaning tugashi, yakuni) xulosa topadi. Eng so'nggi 15 – band shoirning lirik chekinishi bo'lib, undagi murojaat yashayotgan davrdan mamnunligini, umrining bemaqsad o'tmaganini, tirikligidayoq umriboqiylikka asos solganini o'z shaxsiyati, holati orqali bashorat qiladi:

*Hayot sharobidan bir qultum yutay
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.
Quyoshki falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.*

Kompozitsiyani asarning vujudi desak, asarning hamma badiiy unsurlari uning ichida yashaydi, degan xulosa chiqadi. Darhaqiqat, syujetning yuqorida ko'rganimiz qismlari ham, syujetdan tashqaridagi bo'laklar (asar nomi, peyzaj, ruhiy tahlil, lirik chekinish, qo'shimcha va zarur lavhalar va h.) ham kompozitsiyaning ichida o'z o'rinlarida faoliyat qilishlari bilan ayni paytda, kompozitsiyaning bir butunligini, go'zalligini, barkamolligini "Vaqt" asaridek, ta'minlashlari lozim. Ana shundagina syujet kompozitsiyalashadi (betakror vujud yuzaga keladi), kompozitsiya syujetlashadi (asardagi g'oya yaxlitlashadi), biri-biriga joziba, noziklik, yuqumlilik, ta'sirdorlik baxsh etadi.

Yuqorida aytilgan hamma she'riy qonuniyatlarga tayansak, "Vaqt" she'rini yetti bandini yozib bo'lgach (she'r tugamagan, yaxlitlik kasb etmagan, uning g'oyasi hali deyarli ochilmagan bo'lsa-

da), G'afur G'ulomning she'r yaratish jarayonini quyidagicha qayd qilish ishonarli emas:

" - Endi bo'lar-a?

- Yo'g'-e, dedim, - G'afur G'ulom bo'laturib shunaqa kalta she'r yozasizmi? She'r degan gazetada bitta qaraganda ko'rinadigan bo'lishi kerak.

- Shoshma, hali aytadigan gap ko'p.

Uy tutun bo'lib ketgan edi. Derazani ochib shamollatdik.

O'zimiz boloxonadan pastga tushib hovlida aylanib yurdik.

Shahar jimjit. Tramvaylar ham yotgan. G'afur aka papiros tutatib kuldi:

- Bu shoirlik ham ajib g'alati hunar ekan-da. Odam bolasi borki, hammasi maza qilib uxlayapti. Biz magazin qorovulidek ko'z yummaymiz.

Domlaning haziliga hazil qildim:

- Xo'p, she'rni-ku siz yozasiz, ertaga pulini ham siz olasiz, men nima qilib yuribman.

- Senmi, sen, - dedi bir oz o'ylanib G'afur aka. - Sen bir vaqt kelib G'afur G'ulom qanaqa qilib she'r yozishini maqola qilib pul olasan. Mendanam senga maza.

Tong yorishay deb qoldi. Indamasam she'r qolib ketadigan. Yuqoriga chiqishga qistadim. G'afur aka ancha sovub qolgan ekan, ko'ngli tilar - tilamas yuqoriga chiqdi.

- Ilhom parisi bo'lgandayam judayam xira ilhom parisi ekansan.

Achchiq choydan keyin men yana qimirlamay o'tiraman. G'afur aka ruchkani qitirlatdi" (Said Ahmad, "Yo'qotganlarim va topganlarim", 57 - bet).

Balkim, bu gaplarning ba'zilari bo'lib o'tgandir, biz bunga shubha bildirayotganimiz yo'q. Lekin G'afur G'ulomning she'r yarmiga kelganida "Endi bo'lar-a?" deyishida mantiq yo'q, chunki she'r doimo birdaniga barcha shakl-u shamoyili bilan (kompozitsion yaxlitlikda) tug'iladi. Bu qonuniyatni shoir to'liq angelaydi, his etadi. She'r pafosining butunligi ham, holat va fikr mantig'ining monolitligi ham bu mulohazalarni isbot qiladi. Badiiy asarning mukammal kompozitsiyasi ortiqcha biron - bir vositaning kirib qolishiga imkon bermaganidek, adabiy ijod jarayoni qonuniyati ham "kichkinagina" yolg'onga yo'l bermaydi.

Shundan keyin o'chib qolgan papirosni so'rdi... Ushbu lavhadan ko'rinib turibdiki, "Gohida bir muddat olgulik nafas" o'zidan keyingi misrani yuzaga chiqishiga monelik qilyapti, chunki undan oldin aytilgan

*G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik-*

ning mazmuni bilan asosli (ichdan) bog'lanmayapti. Buni anglagan shoir, ilhom beruvchi shuurga bo'ysinib, birinchi ikki misradan kelib chiquvchi "ilohiy mantiq"ni **"Ba'zida bir nafas olgulik muddat"** tarzida tasavvur qilgach, o'z-o'zidan "Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik" misrasi tug'iladi. G'afur G'ulomning sara she'rlarida misralar ana shunday tarzda, faqat shoirga xos ilhomning mevasi bo'lib, o'zaro ichki (botiniy) bog'lanishda yuzaga chiqadi.

Endi "gohida" va "ba'zida" so'zlariga bir e'tibor qilaylik. O'zbek tilining izohli lug'atida "Gohi(da) – ba'zida, ba'zan" ma'nolarini, "Ba'zida – har zamon-har zamonda, goh-goh, ba'zi vaqtlarda, ayrim hollarda" kabi mazmun ohanglarini tashishi aytiladi. Lekin, shoirning mohirligi, bilimdonligi shundaki, u "goh" so'zining uyushiq bo'laklarni yoki ikki sodda gapni ayirib bog'lash uchun xizmat qilishini (bunda u takrorlanib, galma-gallikni, voqea-hodisalarning galma-gal ro'y berishini ifodalashini), "ba'zan" so'zi gapning uyushiq bo'laklarini bog'lash uchun qo'llanishini fahmlaydi. Ana shunga asosan, galma-gal nafas olish muddatida emas, balki bir nafaslik muddatda ming yulduz so'nishi uchun yetgulik vaqt joylashgandir. Bu, o'z navbatida, vaqtni falsafiy tahlil qilish va uning natijasini bir so'z bilan aniq ifodalash, inson ruhiyatida yuz berayotgan holatning jonli manzarasini yaratishga olib kelgan. Ayni paytda, chuqur ma'noni bunday qisqalik va siqqlikda berish – G'afur G'ulom badiiy salohiyatining qudratini ko'rsatadi.

*Yashash soatining oltin kapkuri
Har borib kelishi – bir olam zamon.*

*Koinot shu damda o'z ko'rasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.*

Ko'pchilik "ko'ra" so'zini o'zlaricha (masalan, Salohiddin Mamajonov "Shoir va zamonaviylik" monografiyasida, Homil Yoqubov "Lirik qahramon va lirik pafos" maqolasida) "kurra" (shar shaklidagi narsa; Yer kurrasi-yer shari) ma'nosida tushunib, go'yo G'afur G'ulomning imlosini to'g'rilaganday bo'ladilar, shoirning har bir so'z fahmiga chuqurroq yetguvchi sinchiligini tan olmaydilar. Holbuki, she'rdagi "ko'ra" so'zi "Pista ko'mir tayyorlanadigan chuqur" tushunchasining ko'chma ma'nosida, ya'ni bir sekund-(soat zangining bir borib-kelishi)da koinot o'z chuqurlaridan yangidan jahonlar yasab chiqa olishini aniq anglatmoqda. Yer kurrasini – shar shaklida tasavvur qilish asosli, lekin koinotni shar tarzida deb o'ylash – anglanmagan tasavvurdir, uning miqyosini, mazmunini noto'g'ri ilg'ashdir. Bundan ko'rinadiki, shoir har bir gapni, so'zni shunday tahlilatdiki, uni o'zgartirish, o'z o'rnidan boshqa joyga siljitish mumkin emas. Shu sababdan G'afur G'ulom poetiklashtirgan har bir so'z, gap shoir aytmagan fikr-mulohazalarni ham oson anglab olaverishimizga imkoniyat yaratadi. Bu esa, shoirni so'z san'atkori, so'z podshohi ekanligini yana bir bor isbot qiladi.

G'afur G'ulom ushbu she'rida vaqtni ifodalovchi sinonim so'zlarni ko'plab qo'llaydi va vaqtni belgilovchi o'lchovlar ifodasining ma'nolarini yetkaza biladi. She'rda qo'llanilgan "**fursat, umr, muddat, (bir olam) zamon, yarim soat, dam, lahza, (bir) on, sekund, (bir)zum, yil, minut, payt**" kabi so'zlar vaqt tushunchasining turli darajalarini ifodalaydi.

Jumladan, kapalak umriga-g'uncha ochilguncha o'tgan fursat (chunki "fursat" shu o'rinda eng ma'qul, eng zururdir) teng qo'yiladi, uni "lahza" ham, "sekund" ham, "dam" ham, "bir olam zamon" ham asosli isbotlay, o'lchay olmaydi. Faqatgina "fursat" taxminan 16-18 soat ichida yuz beradigan jarayonning aniq ifodasini, o'lchovini, nozik ma'nosini tashiydiki, uni boshqacha aytsa, vaqtning holati o'zgaradi, tasavvur noaniqlashadi, natijada poetik ta'sir, aniqlik yo'qoladi.

"Biroq shuni aytish kerakki, G'.G'ulom she'rlarida jonli, go'zal obrazga aylana olmagan, mavhumligicha qolavergan yangi birikmalar ham yo'q emas. Ba'zi birikmalar konkretlikni kuchaytirish o'rniga, aksincha, mavhumlikni kuchaytirgan va osongina tushunilishi mumkin bo'lgan narsalarni murakkablashtirib yuborganki, bu kishi sayolini chuvalashtiradi:

*I. Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam.*

Axir haqiqatan ham "yashash darbozasi ostonasidan" birikmasidan nimani tushunish mumkin? "Yashash darbozasi ostonasidan olamning zarhal kitob kabi ochilishi" nima degani? Kitobxon bu misralardan o'zicha biror fikr chiqarib olishi mumkin, albatta. Biroq misralardagi mazmun folbinlikni talab qilar ekan, ularni poetik misra deb bo'lmaydi" (N.Shukurov. "G'afur G'ulomning lirik poeziyadagi mahorati", "Fan", 1966, 99-bet).

Xullas, inson yuragi qanday urib tursa, qanday tovlansa, yonsa, adabiyotdagi so'z ham shunday jonli bo'lishi, tovlanishi, yonishi lozim. O'shandagina qalb tiriklikni bildirganidek, so'z poetiklashadi, ya'ni u adabiyot (badiiy til)ga daxldor bo'ldi.

Ha, tan jon bilan tirik bo'lgani kabi, inson so'zi bilan tirik, aziz, umriboqiydir. Shu asos sabab, so'zga o'ta ehtiyotkorlik bilan, muhabbat bilan, halollik bilan, ilm bilan, insoniylik bilan qadr-qimmatiga yetib foydalanish shart. "Adabiyot degani, bu-imon" (Ne'mat Aminov)dir. So'z esa amal (imon) daraxtining mevasi" (Jaloliddin Rumiy)dir, badiylashganda hayotbaxsh olovga, yaratuvchi nurga tengdir.

Xulosa. "Vaqt" - birbutun, yaxlit asardir. Uni "bo'lishi mumkin bo'lgan hayot"ning jonli vujudi tarzidagina o'rganganda, sevganda uning ta'siri beqiyos mo'jizaga, dono maslahatchiga, insoniy ezgu tuyg'ularning buyuk tarbiyachisiga aylanadi. Faqatgina ana shu tushuncha, haqiqat borlig'icha namoyon bo'lishiga to'liq tasavvur bersin degan asosda biz uni qismlarga bo'lib o'rgandik. Aslida asar mazmuni va shakli vobasta bo'lganda yaratuvchanlik qudratiga ega bo'ladi, ajralganda ikkalasi ham o'ladi, yaratuvchanlik kuchidan tamoman mahrum bo'ladi. Bu haqiqat Mavlono Rumiyda chiroyli ifodasini topgan: "Agar danakni chaqib, mag'zini eksang, unmaydi. Agar qobig'i bilan tuproqqa qadasang-chi, unish hodisasi yuz beradi". Demak, badiiy mazmun va shakl ham doimo birlashib, yaxlitlashgandagina yangilik beradi, bunyodkor bo'ladi. "Vaqt" ning go'zalligi ham, ko'p avlodlarga sirdosh bo'lib, insoniylik g'oyasiga maftun etib yashashining boisi ham shundadir.

Xulosa va saboqlar

"G'afur G'ulom shartta-shartta she'r to'qib yuborishdek deyarli beandoza iste'dodga ega bo'lganligidan, uning hamma narsani o'z bag'riga sig'dirishga qodir to'lib – toshgan past-baland misralari ham sirtidan qaraganda, xuddi o'ziga o'xshar edi: G'afur G'ulom ongida charx urgan fikrlarni birvarakayiga aytib olishga oshiqqani uchun ishga birdan yopishib, uni bir o'tirishdayoq tugatib qutilishga odatlangandi. Shuning uchun ham she'rlarini birovga aytib turib yozdirishi ham mumkin edi. **Men boshqa bunday shoirni bilmayman.** Masalan, bir kuni u mening she'rimdagi bir misrani ovozi chiqarib to'g'rilay boshladi-da, yangidan olti band she'rni aytib turib, yozdirib qo'rganini o'zi ham sezmay qoldi. Yoki biz jurnal uchun she'r so'raganimizda, bir nafas o'ylab turib: "Qani, yozib o!" deb butun boshli she'rni aytib turib yozdirib ketgan paytlari ham bo'lgan".

Zulfiyaning ushbu mulohazalaridan ham ko'rinadiki, G'afur G'ulom-shaxsi yuksak, xayol kuchi keng, aql ufqi betakror, ijodiy hozirjavobligi kamyob hodisalardan biridir. Shoir qalbi hamma vaqt suv to'la kosadek, xalqimiz va Vatanimiz mehriqasiga limmo-lim bo'lgan. Uni ifodalashga esa doimo ruhan tayyor turgan. Kosadagi suvga biror tomchi suv qo'shilsa yoki turtki bo'lsa toshganidek, G'afur G'ulomning badihago'y qalbidan turli sabablar bahonasida she'rlar favvoradek otilib chiqqan.

"Vaqt" xuddi shu tarzda – sehrli, zavq-u shavqqa to'liq ilhomning eng sara "meva"si bo'lib tug'ilgan. Uning talanti o'lovchi – badiiy mahorati darajasining ko'rsatgichiga aylangan. "Kapalak umriga qiyos etgulik" umrini boqiy umrga aylanishiga tug'ilgandanoq asos solgan. "Shoh satrlar umr daftarini" umrboqiy go'zallikka burkagan. "Vaqt" - G'afur G'ulomning qudratli haykalini o'lmas qilib yaratgan.

Ustozlar ilmiga tayanib biz bajargan "Vaqt" ning poetik tadqiqi – bu asar haqida aytilishi, yozilishi lozim bo'lgan fikr-mulohazalarning shubhasidir. Harqalay, birgina she'r tahlilini kitob qilsa bo'ladi, shu ishonchga asos berishdir. Ishonsangiz, biz tanlagan mavzularni chuqur va atroflicha o'rganish asosida har birini alohida kitob qilsa bo'ladi, "Vaqt" kabi asarlar ularga zarur va kerakli "olam"larni ato eta

oladi, chunki ularning har bandi mazmunida "bir butun bahor" yashirindir. Siz ham o'z "bahor"ingizni izlang, uyg'oting! "Yangidan jahon" yarating! "Qorachig'i jahonday ma'nodor"do'st, "damlar g'animatdir", G'afur G'ulom nomli "binoga g'isht qo'yish baxti" Sizga ham nasib aylasin! Vassalom!

Adabiyotlar:

1. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. Т., "Ўқитувчи", 1985.
2. Абдулла Қодирий. Кичик асарлар. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт нашриёти, 1969.
3. Ойбек. Абдулла Қодирийнинг ижодий йўли. -14 том, Т., "Фан", 1979.
4. Ғафур Ғулом. Мукамал асарлар тўплами. 2 том, Т., "Фан", 1984.
5. Эркин Воҳидов. Сайланма. 2 жилд. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
6. Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. Т., "Шарқ", 1998.
7. Нуриддин Шукуров. Ғафур Ғуломнинг лирик поэзиядаги маҳорати. Т., "Фан", 1966.
8. Умунов Х. Бадий ижод асослари. Т., "Ўзбекистон", 2001.

MAVZU: TIRIK ASARLAR BADIHIYATI

Tayanch tushunchalar: Cho'lpon. "Qalandar ishq". "Sochilgan sochingdek sochilsa siring". G'.G'ulom. "SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim". Hamid Olimjon. "Kuygay". "O'rik gullaganda". Erkin Vohidov "To'rtlik", "Qarilik gashti". Muhammad Yusuf. "Qalb ko'z ochganda".

"Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi..."

*Ishq – porloq yulduzdir, bashariyat
ko'zining nur-u ziyosi shundan.*

Alisher Navoiy

Azizim kitobxon!

Siz ham ko'p guvoh bo'lgan hodisani eslaylik. Avtobusda ketyapsiz. Sizdan oldingi o'rindiqla o'tirgan ayolning bir yoki ikki yoshlik bolasi Sizga (xuddi mo'jiza ko'rgandek) tikila boshlaydi, Sizni "gaplashishga" chorlaydi. Samimiyat va beg'uborlik Sizni ham maftun etgach, "suhbatlasha" boshlaysiz: darrov yuzingizdagi ajinlar yoyiladi, tirishib turgan asablaringiz yoziladi va bolaga qarab, u tushunadigan "tilda" turli maqomlar qila boshlaysiz. O'rtada o'z-o'zidan mehr tug'iladi va undan Siz zavqlana boshlaysiz, bola esa qiqirlab kula boshlaydi. Bu zavqni, dastlab onasi his etadi, ko'ngli to'lib toshadi, lekin hayosi Sizga qarashga yo'l qo'ymaydi. Unga hojat ham bo'lmaydi, chunki ayolning ko'ngil ko'zi yaqqol ko'rib turadi, bolasining harakatidan uning hislari hamma quvonchlarni qabul qilaveradi... Bu holatdan avtobusdagilarning birontasi ham bebahra qolishmaydi; ikkalangizdagi pok, daryo tuyg'ular muloqotidan ularda shu his-tuyg'ular uyg'onadi.

Hamma ham yoqimli tarzda ko'nglida uyg'ongan shodlikni namoyish etadi va ko'z qarashlari orqali yonboshi, qarshisida turgan o'zga olamga uzata boshlaydi. Ular orasida qarib-qartaygan, burishgan-u tirishgan bironta yuzni ko'rmaysiz, balki hammasi ham chiroyli chehralar, yoqimli yuzlarga aylanganiga shohid bo'lasiz. Yengillik, go'zallik, insoniylik tug'iladi (Bolajon, senga rahmat, boringga shukr! Uchratganga shukr!). Mana shu «kichkina» shodlikdan o'sha kungi ishingiz unumli bo'ladi, kayfingiz chog' bo'ladi.

Mana shunday holni (beg'ubor, samimiy, sodda tuyg'ular

oqimini) eng yaxshi asar ham uyg'otadi, lekin undagi his-tuyg'ular anglangan, donolikka ko'milgan, haqiqatga yo'g'rilgan, poklikka cho'miltirilgan, qalb taftida pishirilgan, ong bilan porlatilgan, bekam-u ko'st yaratilgan va shu turishda butun jonliligi bilan o'zgalarga yuqadigan bo'ladi.

O'zbekning «eng katta shoiri» – Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning «Qalandar ishq» g'azali ham ana shunday bebaho, umriboqiy durdonadir. Unda Cho'lponingagina xos ishq kuylanadi.

G'azal o'quvchiga pok ko'ngilning, pok oshiqning hayajonli murojaati bilan boshlanadi; iztiroblarga to'lib-toshgan yurak nolasini eshitasiz:

*Muhabbatning saroyi keng ekan, yo 'lni yo 'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo 'lda qotdim-ku.*

Qalandar - diniy g'azallar o'qib, Islomni targ'ib qilib darbadar kezuvchi, tarkidunyo qilgan, zud-taqvo egasidir. Ishaq uni shunchalik maftunu sehr etgandek, shunchalik yondirganu kuydirganki, u ishq yo'lini xatarli ekanini anglasa-da, uni yo'qotib, adashadi. Aql-u xushidan ajralib, tom yanglig' qotib qoladi. Hatto, halokatga olib borishini sezsa-da, kuyganidan, suyganidan ishq domiga tortilishga tayyor, ishq yoqimli nozlar bergan bo'lmasa ham, uning dengizida cho'kishga (g'arq bo'lishga) hozir:

*Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to 'lqini bordir,
Halokat bo 'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku.*

Ha, «Oshiq – ishq balosiga giriftor; uning kuydiruvchi ofatiga duchor» (A.Navoiy). Shunday azobda o'rtanuvchi, ayni paytda, unga maftun-u mahliyo oshiq baxtiyor, dilining roziligi bilan «o'zligi»dan ham voz kechadi - boqiy dunyosidan yuz o'giradi; yurak zirillay boshlaydi:

*Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do'stlar
Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.*

Ishaq Yashin yanglig' Qalandarning aql-u din xazinasini kuydiradi. Ishaq gulzorida qo'shiq kuylovchi devona bulbul qo'shig'idan uning yurak-bag'ri qonga aylanadi, ko'zidan ariq-ariq yoshlar oqizib, g'amga botadi. Gunohkorligini yashirmaydi, uning pardalarini yirtib, alamlarini oshiraveradi. Qalb quyoshiga teng yorni topa olmay ko'ngli qayg'ular, g'avg'olar, ohlarga ko'miladi; siz esa bunga to'liq ishonasiz:

*Uning gulzorida bulbul o'qib qon ayladi bag'rim,
Ko'zimdan yoshni ju aylab alamlar ichra botdim-ku.*

*Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni
Yana kulbamga qayg'ular, alamlar birla qaytdim-ku.*

Ishq qalandar qalbida, aqlida qo'zg'alon qo'zg'aydi. Qo'zg'alon beadam azobu quvonch, shodlig-u g'am, zavq-u shavq, ozor-u kulfat keltiradi, uni siz ham hislaringiz orqali sezasiz, qalbingiz torlari shu qo'shiqni kuylay boshlaydi. Dardmanlarning – ishqqa muhtalolarning joni tanasiga sig'maydi, ishq haroratining kuchliligidan, hayajon olovining balandligidan ko'ngil kuya boshlaydi. Unga chiday olmay, nuriga toqat qilolmay, hayronlik bilan, maftunlik bilan Qalandar ham taslim bo'ladi va pok dil bilan erga botishdan ozodlik topadi:

*Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay erga botdim-ku.*

Bu ishq, Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, «sidiqlar-haqgo'ylar ishq bo'lib, ular haqning jamolini ochiq ko'rish umidi bilan yashaydilar va shuning bilan matlubdirlar. Ularning haqni ko'z bilan mushohada qilish umidlari o'zini unutish darajasiga yetgan va bundan ham o'tib, halok bo'lish maqomiga ko'tarilgan bo'ladi» ("Mahbub ul-qulub", 54-bet).

Xullas, g'azaldagi bu g'oya va ohang, haqiqat va poklik ko'nglingizdan ma'nisiz shovqin-suronlarni, kir-chirlarni, o'tkinchi hoy-u havaslarni quvadi va Sizni o'zligingizni topishga, tanishga, shu orqali Allohni bilishga yetaklaydi. Bunday xulosa Sizdagi insoniylikni mazmunan boyitadi: inson qadr-u qimmatini teranroq anglaysiz, hayot mazmunini to'liqroq idrok etasiz. Qalbingizda uyg'otilgan da'vat va ilohiy quvvatga ishonch bilan komilikka intilasiz: o'zligingizni poklab, istiqlol olamiga yaratuvchan joziba ulashasiz...

Shu o'rinda bir fikrni ta'kidlash lozimga o'xshaydi. Menimcha, shu g'azal matni asosidagi qo'shiqda zamonadan zorlanish ohangi ustun turadi; eshitsangiz shunchalik ma'yuslanasizki, o'zingizni qayerga qo'yishni bilmaysiz. Holbuki, Cho'lponning g'azalida Allohga yetishish yo'lida chekilgan alamlar, umidlar ohangi yetakchidir. Shu tarzda kuylansa, asar mohiyati, qiymati to'g'ri ochiladi.

Xulosa. Hayotdagi barcha «kichik» shodliklardan zavqlanishni, baxtiyor bo'lishni kanda qilmang. Yutasiz!

Badiiy asarlarni ham o'qing. Ozgina mehnat sarflasangiz – qalbingizni poklikka ko'masiz. «Haq yo'liga kirib bo'lmas pok bo'lmasang» (A.Yassaviy) deysiz. Mehr-u oqibatga, sadoqat-u vafoga boyitasiz. O'zlingizni taniysiz, demakki Alloh, Alloh yaratgan insonni taniysiz, insoniylikni bayroq qilasiz. Yana yutasiz!

Muddaom: Siz yutqizmang, shayton yutqizsin!

Barchamizni Alloh qo'llasin! Vassalom!

“Sochilgan sochingday sochilsa siring...”

*Tishlabki soching o'rdung, ochqanda parishon qil,
Ofoq savodinda jon royihasin butrat¹³⁵*

Alisher Navoiy

Ba'zi she'rlarni satrma-satr tahlil qilish mumkin. Chunki ular "Xos hol" (o'tkir kechinma)dan ko'ra "Xos ma'no" (sara fikr) shoda marjondek ketma-ket va qalashib keladi.

Aqlingizni xo'p peshlaydi, lekin yurakda tuyg'u uyg'onmaydi, qalbda olov gurillab yonmaydi.

Ba'zilarini tahlil qilishning imkoni bo'lmaydi, ularda «Xos ma'no» o'rnida ham ruhiy holatdagi turfa ranglar», oniy tuyg'ular jilosi aks etadi. Uni faqat o'qish yoki yodlab aytish mumkin, xolos. Lekin u tez xotiradan ko'tariladi, uzoq eslab, mag'zini chaqib yurishning imkoni bo'lmaydi. Va u hamma qalblarni ham ohanrabodek o'ziga torta olmaydi. Qalbdagi olov bir zum yonadi-yu, iz qoldirmay o'chadi.

Ikki holatda ham she'riyatdagi me'yor buzilganda shunday bo'ladi. She'riyatdagi ikki qanotning biri ishga tushadi, ikkinchisi birinchisiga hamohang kuch bilan ishlamaydi. Natijada she'r qalb bo'stonida «uchish»ga yaramaydi, samimiylik yo'qoladi, o'quvchi bilan sirdosh (I.Sulton) bo'lishga badiiy quvvatning qudrati etmay qoladi.

¹³⁵ Ma'nosi: Sochingni tishlab turib o'rdung, ochqanda yoyib yuborgil, olam qorong'usigida sochingdan taraladigan xushbo'y isni tarqatgil.

Shunday she'rlar ham borki, ularda Navoiy bobomiz ta'kidlagan «Xos hol» va «Xos ma'no» shunchalik birlashib, chatishib ketadiki, bunday birbutunlik, yaxlitlik mukammalligi bilan Sizni hayratga soladi. She'r o'qiyotganingizni tamom unutasiz, o'zingizning qalbingiz kuylay boshlaydi, go'yo uni o'zingiz kashf etganday, toshib ketgan yoqimli hislaringizni, hislaringizga singigan fikrlaringizni ohang bilan (xuddi ashuladek) kuylay boshlaysiz.

Ha, qalbingiz «bulbuli» o'z qo'shig'ini oshnolarga izhor eta boshlaydi:

*Bir tutam sochlaring mening qo'limda,
G'ijimlab o'paymi, yo tarab-yechay,
Sir deb saqlaganing mening qo'ynimda,
Sir deb saqlayinmi yo elga sochay.*

*Sochilgan sochingday sochilsa siring,
Anor yuzlaringni kimga tutasan?
O'zing-ku «ularda vafo yo 'q!» deding,
Nimaga ularni tag'in kutasan?*

Negadir shu yerda bir to'xtagingiz keladi. So'zning sehriga, oshiqning yoriga bo'lgan mehriga, o'rtalaridagi sirga mahliyo bo'lasiz. Sochning tasavvuf tushunchasida sir ramzi hisoblanishini esga olasiz. Uning realistik ifodasi shunchalik sodda, shunchalik musiqiy, shunchalik samimiyki, beixtiyor tasavvur etgan qo'llaringiz sochlarni silay boshlaydi, lablaringiz o'pa boshlaydi...

Ikkinchi bandda birdan bu holat boshqa o'y, boshqa mushohadalar bilan almashinadi. Yurak talavasaga tushadi (sochilgan sochingday sochilsa siring), qalb zarblari tezlashadi. Anor yuzlariga vafosizlar dunyosi rahna solsa-chi? Ularga ishonib qo'ysa-chi? Sevgini yallig'lantirib turgan, birlashtirgan o'rtadagi sir-chi? Ayni paytda (O'zing-ku «ularda vafo yo 'q» deding), «vafosizlik-nomardlik, eibutsizlikning o'zginasidir. Vafosizlik-go'zallikni o'ldirish, yolg'onchilikni urchitishdir. Vafosizda sadoqat va do'stlik bo'lmas. Vafosiz-sotqindir, irodasizdir», degan xulosalarni, hayot isbot etgan haqiqatlarni unga uzatasiz.

Hazrat Navoiyning «Vafo to'g'risida» yozganlarini eslatasiz: «Vafo shunday pokiza ko'ngulli mahbubaki, u tabiati va ko'ngli pok bo'lmagan kimsaga rom va ulfat bo'lmaydi; vafo shunday bir pok zot

matlubiki, u zoti toza, tabiati pok bo'lmagan odamga yaqinlashmaydi va unga rag'bat ko'rsatmaydi».

«Vafodorlik - muhabbatning orzusi, joni, butun borlig'i, u o'lguncha beqarorlikdir-soflikdir» deya uni ezgulikka, baxtiyorlikka, hamkorlikka chorlaysiz. Negadir o'zingdan o'zing qo'shib to'ldiraverasan, negadir tushunchang boyib ketaveradi...

Demak, mantiq va mutanosiblik talabiga ko'ra qo'shiq davom etadi.

Hali (shoirning) Sizning izhor dilingiz murojaati tugagani yo'q. Sizning aytganlaringizga, sevgingiz qudratiga yorning munosabati aniq emas. Uning qalbi ne deydi? U jim. Shunda Sizning qalbingizdan hayqiriq otiladi, u bardamlik kasb etadi, sevganingiz ko'ngliga o'qdek uchadi:

*Ochilgan qo'ynimda to'lg'angan taning,
Ko'ngildan qilcha ham hid yetkazmasa,
Menga yaqinlashma, ay, tirik bo'sa!
«Sevdim» deganlaring yolg'ondir sening!..*

Ha, she'r tugadi. Lekin uning ta'siri umrbod qoldi. Qalbingizdagi vafo tuyg'usini, samimiylik, beg'uborlik, ishonchni yana bir bor uyg'otdi. Hatto, toshdillarni ham eritib, hammamizni pokladi. Hayotga, sevgiga to'lib yashashga chorladi...

Cho'lpon she'rlarining har birida hayot bor, har satrida mamot bor. Shunday bo'lgach, «Muhabbatning saroyi keng ekan», unda Cho'lpon go'zallik timsoli bo'lib, Istiqlolimiz bunyodkori-sarvari, Mustaqilligimiz osmonining o'lmas Cho'lponi bo'lib yashayveradi.

«SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim»

(G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni...)

G'afur G'ulom shaxsining yuksakligi, xayol kuchining parvozi, aql ufqining kengligi, ijodiy hozirjavobligi kamyob hodisa edi. Shoir qalbi hamma vaqt suv to'la kosadek xalqimiz va Vatanimiz mehriiga limmo-lim edi. Uni ifodalashga esa doimo ruhan tayyor turardi. Kosadagi suvga biror tomchi suv qo'shilsa yoki turtki bo'lsa

toshganidek, G'afur G'ulomning badihago'y qalbidan turli sabablar bahonasida she'rlar favvoradek otilib chiqardi.

Said Ahmad ta'kidlashicha, ba'zan «G'afur akani yozuv stoli yoniga o'tqazib olish qiyin edi, bir o'tirib olgandan keyin turmasdi. Ayniqsa, she'r bo'lsa bitta to'rtlik, hikoya bo'lsa birinchi sahifa to'lgandan keyin o'zi ham qiziqib ketib, to asar bitmaguncha o'rnidan turmasdi». Shukrullo: «U qayerga borsa, o'sha er uning uchun ijodxona, ham dam oluv yeri hisoblanardi. Odamlar orasida tug'ilgan fikrlarni o'sha yerda qog'ozga tushirib, ularni o'qib ham berardi. G'afur akaning ish vaqti hech kimnikiga o'xshamasdi. U dam oluv orasida ijod qilar, ijod qilayotgan paytida dam olaverardi» - deb eslaydi. «Birorta so'z yoki tarixiy voqealar ildizlarini ish bahonasida so'rasang, u shu turtki sabab bir zarb bilan she'r to'qirdi» - deya xotirlaydi ustozni Nuriddin Shukurov.

Said Ahmad «Nazm chorrahasida» kitobida yozganidek, G'.G'ulomning ko'plab she'rlarining tug'ilishiga u «doyalik» qilgan. Jumladan, mazkur kitobning 19-betida muallif shunday yozadi: «Men G'afur akaning ... erkaliklarini yaxshi bilardim, Uning qaysarligi-yu, jindek maqtangannamo gapirishlarini, yozilgan har bir to'rtlik ketidan maqtab turadigan odam zarurligini ham bilardim. Boshqalardan ko'ra u kishini men kelishtirib maqtardim. O'zi ham bunga tan berib: «Maqtashni senga-yu yozishni menga chiqazgan» derdi». Uning yozishicha, G'. G'ulom rasmlar chizar edi. U raqs tushganida zo'r raqqosalar ham davradan chiqib, tomosha qilardi. Qo'liga taqsimcha olib, xalq termalarini aytganda, hamma jimib qolardi. Dutor chertganda, tinglovchilar bosh egib tebranishardi. G'afur aka Yusuf qiziqilar bilan teng kelib askiya aytishardi. Xalq dostonlarini baxshidek ohangi, ifodasi bilan boshdan-oyoq ayta olardi.

Xullas, G'. G'ulom haqidagi bu xotiralarni o'qir ekansiz, shoir bo'y-basti bilan ko'z o'ngingizga keladi... Ushbu aytilgan fikrlarni Shukrulloning «Javohirlar sandig'i» kitobi, kitobdagi ustoz va shogird (G'afur G'ulom va Shukrullo)ning munosabatlari yanada boyitadi.

Unda G'. G'ulomning istalgan mavzu bo'yicha, istalgan narsa haqida, istalgan hodisa to'g'risida she'r yoza olish qudrati, hozirjavoblik qobiliyati ishonarli ochib berilgan:

- Ko'zingga ko'ringan narsani bir lahzada she'r qila olasanmi? - deb so'radi. - Har bir narsani she'r qilish mumkin. Mana, ko'zingga

ko'ringan, ko'nglingga kelgan biron narsani aytib ko'r, she'r bo'ladimi, yo'qmi - bilamiz qo'yamiz.

Men shoirning xonasi va hovli atrofidagi narsalarni ko'zdan kechira boshladim. Bu uydagi har bir narsa shoirona did bilan tanlangan. Har bir narsada shoirning nozik tabiati, o'tkir farosati ko'rinib turadi. Ish stoli ustida Gyotening bronzadan qilingan kichkina byusti... devorlarda gilam, tanbur, dutor osig'liq. Men hali hech kim she'r qilishi uchun qo'l urmagan, G'afur akaning o'zi ham kutmagan narsani izlar edim. Birdaniga ko'zim siyohdonga tushdi-yu, shu haqda bir she'r qilishlarini so'radim. G'afur aka siyohdonga bir tikilib, guvranib oldi. Nimanidir tutmoqchi bo'lgandek, yirik-yirik barmoqlari harakatga keldi. Ko'zlari yondi, lablari nimanidir pichirlay boshladi. Hamlaga otlangan sherdek bir on jim qoldi, ketma-ket satrlar qog'ozga tusha boshladi:

Alisher davotga qilganda xitob,
Qalami yodidan ko'tarildimu
Siyohdon, azizim, qora ko'zlugim,
Qora tunlar aro yorigan ko'zgu...
Ulug' jang kunlarni yozar chog'imda
Shahidlar qonidek daftarga tomding,
La'nati ma'lunlar nomin yozganda
«Men qora emasman» deding-ku, tonding.
G'afur aka she'rni bitkazib, mening fikrimni so'radi:
- Qalay?

Men nima derdim... Bitta siyohdon orqali shuncha gaplarni topib aytish mening xayolimga kelmagan edi. Albatta, maqtadim. Bu she'rning yozilishi men uchun mo'jiza edi».

G'afur G'ulomning zukkoligiga, bilimdonligiga, tantiligiga, mardligiga, soddaligiga, erkaliklariga qoyil qolmagan, beqiyos iste'dod egasi ekanligini tan olmagan kishilar topilmasa kerak. U kishi mo'jiza yaratadigan afsungar - «she'riyatimiz afsungari» ekanligiga bizlar ham shohid bo'lganmiz.

1961 yil mart oyida SamDuning majlislar zalida G'afur G'ulom bilan uchrashish uchun shahar ahli, o'quvchilar, talabalar to'planishdi. Ayniqsa, oldingi qatorlardan joy olish, shoirni yaqinroqdan ko'rish va eshitish istagidagi yuzlab tolibi ilmlar eshikdan kirishga oshiqar edik.

Hali kirishga ulgurmasimizdanoq G'afur G'ulomni hamrohlari bilan viloyat rahbarlari kuzatib kelib qolishdi. Bir qismimiz ularga yo'l berishga majbur bo'ldik. «Yo'lak» ochilganidan foydalangan bir guruh qizlar olg'a intilishdi. Qizlar ham mehmonlarga aralashib ketishdi. Shunda G'afur G'ulom o'sha qizlarning bir nechtasini to'xtatib, nimalardir deyayotganligi va suqlanib boqayotgan nigohlariga ko'zimiz tushdi. Qizlardan biri nimalardir degandi. G'afur G'ulom kulib yubordi. So'ng hamma birin-ketin majlisxonaga kirib ketdi. Gulduros qarsaklar ostida mehmonlar prezidiumdan joy olishdi. Tantana boshlandi. G'afur G'ulom haqida kim gapirmasin, zal uni ham shoirga qo'shib olqishlardi. G'afur G'ulom esa o'tirgan chog'idanoq kissasidan qog'oz va ruchka chiqardi. Zalga bir zum nigoh tashladi-yu, nimalarnidir yoza boshladi. Ma'ruzachilarning nutqi unga tegishli emasdek, o'zi bilan o'zi band edi. Chehrasida ba'zan nimkulgi balqir, ba'zan o'ta jiddiylik namoyon bo'lardi. Biz tabiiyki, so'zga chiquvchilarning gaplariga munosabat bildirish uchun biror narsalar qoralayotgan bo'lsa kerak, degan fikrga borardik. So'z berilganda ularni «boplasa» kerak, deb o'ylardik.

Majlis raisi G'afur G'ulomga so'z berdi, olqishlar yangradi. Shoir o'ng qo'lini ko'tarib zaldan tinchlanishni so'radilarda, «Sizlarga bag'ishlab hozirgina yozganim she'rimni o'qib beraman» dedilar:

«SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim».

Bu misrani eshitish bilan zaldagilar gulduros qarsak chalib yuborishdi. Birozdan so'ng shoir mamnun qiyofada zalga nigoh tashladi va qo'lini ko'ksiga qo'yib, rahmat, deganday egilib qo'ydi. Bir zunda zal shunchalik tinchlandiki, pashsha uchsa ham eshitilardi. Q. G'ulom jarangdor va shirali ovozda she'r o'qiy boshladi:

SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim,
Yetti rang tovlangan quyosh kabi pok.
Koshkiydi o'ttiz yil orqaga qaytib,
Ishqimni aytsaydim qilib yoqa chok.
So'zlarning jarangin eshitmak uchun,
Izlanib, topoldim bahona - savol.
Samarqand tongining yeliday mayin
Kulimsirab lab ochdi, bir butun jamol:
- Mayiz bozoriga chapdan borilur,
Anjir ham shu erda, anor ham shunda.

Muncha ham soddasiz, muncha o'zbeksiz,
 Yo'l yitib bo'larmi, yop-yorug' kunda...
 Agar-chi, qadimiy Samarqandiyman,
 Kaftim chizig'iday hamma yer ayon.
 Bag'rimni erkalash, musiqa tinglash,
 G'oyat zarur edi shu nozik bayon.
 SamDU qopqasida ko'rganim qizning
 Qaymoq mazmuniga jonim omoda.
 Samarqand mazmunli ko'rkam yulduzni
 Sevsam sevibman-da, o'zbekman, sodda...

SamDuning qizi – «Ilhom parisi» sabab G'.G'ulom hamma samarqandliklarga mehr-u muhabbatini ana shunday izhor etdi. Ayni paytda, betakror badihago'y shoirligini, yoshlikni judayam qumsagan hazilkash va nuroniy insonligini, umuman, o'zbekning sodda mutafakkiri, she'riyatimizning ko'rkam yulduzi ekanligini ko'rsatgan edi, o'shanda. Shoir «Kapalak umriga qiyos etgulik» umri jarayonida sodda, ammo mazmunga boy, faylasufona satrlari bilan she'riyat ixlosmandlari qalbida o'chmas iz qoldirdi. Qalbimizda u shunday naqshlanadi va o'lmas asarlari bilan tirikday bugun ham Siz-u men bilan Istiqlo'l sari ulkan odim otmoqda.

“KUYGAY”

a) G'azalning matni:

Guloyin

1. So'zingning sharpasi tekkanda olam bob, bob kuygay,
 Dengizlar, daryolar, hattoki ko'llarda hubob kuygay.

Muqanna

2. Kamondek qoshlaring, kipriklaringdin o'q otar doim,

Guloyin

Sening yoding bilan tinmay hama nozu itob kuygay.

Muqanna

3. Yonib ishqingda qalbim kulga aylansa ajab ermas,
 Ko'zing osmonga tushganda lovullab oftob kuygay.

Guloyin

Olay toqatni qaydin ko'zlaringga hech qarolmayman,

Muqanna, Guloyin

Tushubdir uchquning bag'rimga go'yoki kitob kuygay.

b) G'azalning vazni: Nomlanishi – ramali musammani solim

I rukn	II rukn	III rukn	IV rukn
foilotun	Foilotun	foilotun	Foilotun
- U - -	-U - -	- U - -	- U - -
So'zingni shar	pasi tekkan	da olam bob	bob kuygay
Dengizlar dar	yolar hatto	ki ko'llarda	hubob kuygay

Ushbu jadvaldan ko'rinayaptiki, g'azalning har bir misrasi to'rt rukndan iborat. Har bir rukn to'rt bo'g'indan tuzilgan bo'lib, ikkinchisi qisqa, qolganlari cho'ziq. Bu rukn "Foilotun foilotun foilotun foilotun" shaklida va ohangida o'qiladi, ayni paytda, g'azaldagi "So'-zing-ning shar-pa-si tek-kan-da o-lam bob-bob kuygay" misrasidagi bo'g'inlarning cho'ziq-qisqaligi ham shu ohangga moslanadi. Birinchi bayt bir necha bor shu vazn ohangiga solib o'qilgach, qolgan baytlarni ham ramali musammani solim vazniga muvofiq ifodali o'qish mumkin bo'ladi.

v) lug'at va izohlar:

Bob – 1. Eshik 2. To'g'risida, haqida, masalasida. 3. Bo'lim, qism, parcha. 4. Muvofiq, munosib mos; **kamon** – kamalak, yoy.

hubob – 1. Suv yuzida paydo bo'ladigan pufakchalar. 2. Osmon gumbazi.

Noz – 1. Noz, kibr, iftixor. 2. Toza, yangi narsalar; **itob** – qahr, g'azab, qiynoq, mashaqqat, ta'na.

G'azal "Muqanna" tarixiy dramasi uchunchi parda, to'rtinchi ko'rinishida joy olgan.

g) Baytlarning nasriy bayoni:

1. Sekingina eshitilgan so'zlaringdan (ovozingdan) olam parcha-parcha bo'lib kuygay.

Dengiz, daryolar va hattoki ko'llar yuzida paydo bo'ladigan ko'pik qubbalari ham yongay.

2. Kamalak (yoy) dek qoshlaring, kipriklaring birday (doimo) saftun qiladi.

Seni yodlash (eslash) bilan tinmay hamma ishvalar-u malomatlar kuygay.

3. Sening ishqingda qalbim yonib, kulga aylanishi mumkin. Chunki ko'zing osmonga boqsa lovullab oftob kuygay.

4. Ko'zlaringga qarashga qayerdan bardosh (to'zim) izlayin. Olovli muhabbatningning uchquniyoq yuragimni kitobdek kuydirgay.

d) G'azal tahlili:

"Muqanna" – tarixiy drama va u A.Fadeev ta'kidlaganidek, g'oyat zo'r iste'dod bilan yozilgan. Ayniqsa, uning muzikali drama nusxasi ustida shoir tinimsiz ishlagan. Ariyalarni, qo'shiqlarni shunchalik ta'sirli va musiqiy qilib yaratganki, ulardan ulug'vor xarakterlarning qalb talpinishlarini chuqur his qilasiz, shoirona ifodasidan hayratga tushasiz. Birgina dalil. G.Hidoyatovning xotirlashicha, 1943-yili Hamza teatri (hozirgi Milliy dramatik teatr)da "Muqanna" premerasida respub-likaning barcha rahbarlari rafiqalari bilan qatnashadilar. Birinchi qatorda o'tirgan respublikaning birinchi rahbari Usmon Yusupov drama va aktyorlar san'atidan ruhlanib, hayajonlanib o'tiradi. Tomosha tugagach, 15 minutlar qarsaklar guldurosi davom etadi. Kutilmaganda Usmon Yusupov o'rnidan sakrab turib, yonida o'tirgan Hamid Olimjonni qo'lidan yetaklab, sahnaga olib chiqadi. Uni dast ko'tarib, hayajon bilan hayqiradi: - Mana, mana o'zbek Shekspiri! Zal yana gulduros qarsaklarga to'ladi...

Ha, tomoshabinlar ham, aktyorlar ham, Hamid Olimjon ham bunday ijodiy yutuqdan, hamkorlikdan, bag'ributunlikdan, birlashishdan, ko'ngilxushlikdan go'yo yonadilar, ana shu yonishning uchquni esa yuqorida keltirilgan "Kuygay"dir. U dramadagi ikki asosiy qahramonning sevgisini kuylaydi. Ularning to'y kechasidagi oniy bir holatlarini gavdalantiradi.

Guloyin – mard, dono, jasur ayol. U faqat ozodlikka topinadi va Muqannani – ko'ngli istagan yorini mehr ila ardoqlaydi, ulug'laydi. Muqanna o'z navbatida arab bosqiniga qarshi xalqni kurashga chorlaydi. O'zini "ozodlik xudosi" deb e'lon qiladi. Guloyinni ko'rsa ozori ham qolmaydi, qop-qora tundek ko'ngli charog'on bo'ladi, xarobati gulzorga aylanadi. Ular o'rtasidagi muhabbat-ikkalasiga ham qanoat beradi, ezgulik, ozodlik yo'lidagi kurashlariga behisob qudrat va kuch baxsh etadi.

Guloyin "Sen bir dunyo, men unda bir nahrman (dengizman)" desa, Muqanna "Ko'karadi dunyo o'sha nahrdan" deydi. Guloyin "Sen tengi yo'q bog'bonsan bu chamanda" deya e'zozlasa, Muqanna "Shuning uchun men sendaman, sen menda" deydi.

Go'yo ular "Ikki tan-u bitta jon" bo'lgan-laridan, ular qalbida oquvchi kechinmani ham, qo'shiqni ham bo'lish (ikkiga ajratish) mumkin emas: sevgi solgan otash-olovli muhabbatning uchquniyoq ikkalasini ham kuydiradi. Guloyin Muqannaning so'zlaridan yonsa, uni eslashi bilanoq hamma ishvay-u malomatlarni unutsa, Muqanna uning ishqida yonib kulga aylanishga tayyor. Bu muhabbat taftidan olam ham, oftob ham, kitob ham kuygay... Faqat sadoqatli oshiq-largina, bir-biri uchun baxshida jonlarga bu otashdan kuch olishlari mumkin. Go'yo ikki uchqun birlashib olov bo'lgani kabi...

Ana shunday muhabbatni, fidoyilikni shoir dialog (duet) usuli orqali jonlantiradi va har bir kishi qalbiga, ruhiga kiruvchi go'zallikni, musaffolikni, tiniqlikni, sadoqatni baxshida etadi.

Shu o'rinda yana bir holatni qayd qilish ma'qulga o'xshaydi. "Kuygay"ni ashula qilib aytuvchi yakka xonandalar (Yunus Rajabiy, Hurriyat Isroilova, Hasan Rajabiy...) ko'p. Ularning talqinida g'azal muayyan chiroy ochishi turgan gap. Lekin u "Muqanna" tarixiy dramasi-dagidek duet qilib aytilsagina butun borlig'ini ko'rsatadi, sevishtanlar qalbiga o'zgacha qutqu va ishonch soladi, ikkala sevishtanning qalb urishidagi hamohanglikni, loyullab yonishni, ozodlik ruhidan nur olgan muhabbat gulxanini bus-butunicha voqe qiladi.

Garchi davrlar, tuzumlar, avlodlar o'zgargan bo'lsa-da, Hamid Olimjondan qolgan bunday bebaho meros xalqimizning ma'naviy ulg'ayishida, ozodlik va odamiylik muhabbatini "simirishi"da xizmatini ayamay, abadiyatga daxldorligini saqlab qolaveradi.

"Baxtim bormi, deya so'rayman"

*"Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'otgan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni."*

Zulfiya

a) She'rning matni:

*Terazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi.*

*Novdalarni bezab g'unchalar
Tongda aytdi hayot otini*

*Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.*

*Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.*

*Mayli deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi, deya so'rayman.*

*Yuzlarimni silab-siypalab,
Baxting bor deb esadi ellar.
Etgan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyillar.*

*Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so'ylar roz.
Men yurganda bog'larga to'lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:*

*"Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo'l,
To o'lguncha shu o'lkada qol.*

*Umrida hech gul ko'rmay yig'lab
O'tganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig'lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda..."
Terazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...*

b) She'rning vazni:

1	2	3	4	1	2	3	4	5					
Te	-	ra	-	zam	-	ning	ol	-	di	-	da	bir	tup
1	2	3	4	1	2	3	4	5					
O'	-	rik	op	-	poq	bo'	-	lib	gul	-	la	-	di.
4			+	5			=	9					

v) Lug'at va izohlar:

tof – ta'm, maza, lazzat;

roz – 1. Maxfiy topilgan narsa sir. 2. Dildagi orzu; tilak, dard;

tole – 1. Omad, baxt. 2. Qismat, taqdir.

Ushbu she'r 1937 yilning 30 martida yozilgan va birinchi marta «Qizil O'zbekiston» gazetasining 1937-yil 5-aprel sonida bosilib chiqqan.

“Oydin sahifa” filmida (ssenariy avtorlari S.Azimov, postanovkachi rejissyor Y.A'zamov) “O'rik gullaganda” she'ri qo'shiq qilib aytiladi.

g) She'r tahlili:

Hamid Olimjon 1937-yil bahorida Qozog'istonda bo'lib, qozoq xalqining hayoti bilan tanishadi. Hasan Qayg'i, Jambul kabi oqinlar (jodini o'rganadi, ularning xalq qalbida yashayotganini ko'radi. O'z umrini ham sarhisob qiladi. Orzu-umidlarga, boqiy xayollarga to'lib-toshadi. Martning oxirlarida Toshkentga keladi va ertalab uyg'onganida ishxona derazasi oldida bir tup o'rik chaman bo'lib, oppoq gullagan. Ko'ngildagi o'y-orzulari ham o'rikdan turtki olib ochila boshlaydi, uning xabari qog'ozga to'kiladi:

Terazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Bu xabarni eshitgan o'quvchida ham turli-tuman fikrlar uyg'onadi. Lekin shoir nima demoqchi? O'rik gullari-hayotning navbahori, navbahorning ilk elchisi shoir qalbidagi qaysi kechinmalarni yuzaga chiqarar ekan? Bu kechinma, hissiyot, fikrlar oqimi sizni bizni o'ziga oshno qilarmikan? Shoir his-tuyg'ulari bizning kechinmalarimizni ham uyg'ota olarmikan? Hayajonga sola bilarmikan? Hayot ritmini so'z va obrazlarning harakati orqali

ifodalay olarmikan? Bu emotsionallikni, romantikani, ularning turfa ranglarini bo'yi-basti bilan ko'rsatib, qalblarimizga zarur bo'lgan estetik "ozuqani" bera bilarmikan?

*Novdalarni bezab g'unchalar
Tongda aytdi hayot otini.
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.*

*Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.*

Ko'rinyaptiki, o'rikning gullashi shoir qalbidagi kechinmalarni uyg'otdi: har bahor o'rik gullarining mazasini shabboda olib ketadi. Bu yil ham shunday takrorlanayapti. Inson umri ham shunga o'xshash emasmi? Eng zavqqa, kuchga, shodlikka to'lganingda, gullaganingda hayoting rishtalari gul kabi sochilmasmikin?..

*Mayli deymen va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman.
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so'rayman.*

O'rik novdalarini bezagan g'unchalar – gul hayotining bahori ekan, lirik qahramon hayotining bahori nima? Bu – baxt. Baxtli hayot. Lekin u bormi, mangu barqarormi?

"Ana shu tarzda gulning toti to'g'risidagi fikrlar baxt haqidagi o'ylar bilan uyg'unlashadi. Gulning toti, lirik qahramonning baxti – she'r g'oyasi ana shu ikki qalbning uchrashgani va uchqun sochgan nuqtasida ochiladi" (N.Karimov). "Baxtim bormi?" degan so'roq lirik qahramonni o'ylatsa, "ikkinchidan, o'quvchining ongida qandaydir savol alomatini ham, ya'ni "bundan keyin nima bo'ladi?" degan qiziqishni, masalaga faol munosabatni ham uyg'otadi. Shoir o'z o'quvchisida shunday tuyg'uni uyg'otib olgandan keyingina, bu esa poetik mahoratning "sir"laridan biridir, baxtli hayot bahorini ifoda etuvchi yaxlit fikrlarni misralarga tizib tashlaydi" (S.Azimov):

*Yuzlarimni silab-siypalab,
Baxting bor, deb esadi yellar.
Etgan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyillar.*

*Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so'ylar roz.
Men yurganda bog'larga to'lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:*

*"Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo'l,
To o'lguncha shu o'lkada qol.*

*Umrida hech gul ko'rmay yig'lab
O'tganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig'lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda..."*

Demak, lirik qahramon baxtining borligiga yellar ham, qushlar ham, har bir kurtak ham, baxt ovozi ham iymon keltiradi, tasdiqlaydi. "Baxti mangu barqaror el", "har gulistonda bahor mangu" bo'lgan Vatan ulug'lanadi.

O'quvchi qalbiga ana shu oliyjanob tushunchalar, ana shu bir olam hislar ko'chgandan so'ng, "har narsadan baxt mo'l o'lka"ga sodiq farzandligidan sevinch tuygach, shoir she'rini tugatadi:

*Terazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...*

Ha, "She'r ko'ngillarga nur olib kirgani yaxshi, g'ashlik va najotsizlik tuyg'usin emas" (E.Vohidov). Baxt va baxt haqidagi orzu inson kamoloti uchun suv va havodek, quyosh va yerdek zarur e'natdir.

Ko'p qatori men ham bahorni sog'inib yashayman. U ba'zan e'taroq, ba'zan kechikibroq keladi. "O'rik gullaganda" qo'shig'ini eshitganimda, qalbim gul ochadi. U tabiatdagi uyg'onishning,

chiroyning, iforning, tanaga yoqimli iliqlik baxsh etuvchi quyoshning, zavq-u shavqqa to'liq hayot ohangining huzurbaxsh qudratiga qo'shilib, yuraginga bahorni mangulaydi. Tabiat, she'r, qo'shiq uyg'unligi joziba, mo'jiza yaratadi; ezgulikka, elning baxti uchun bunyodkorlikka chorlaydi.

Umr... Bamisli otilgan o'q"

(«Shoshiling, odamlar!» turkumidan)

To'xtang! Bir zum diqqatingizni olmoqchiman. Sizdan, dastur ahamiyatiga molik bir she'r bahonasida, umr va umringiz haqida sarhisob so'ramoqchiman: «Jamiyatga, odamlarga naf keltirdingizmi? Ezgulik qildingizmi? Qalbingizni toblay, poklay oldingizmi? Nur sochayapsizmi yoki yomon ishlar bilan ovorasizmi? Porlayapsizmi yoki burqsiyapsizmi?...» Bunday jur'atimni ayblashdan oldin, keling birga mulohaza yuritaylik:

Ha, umr - kishi tug'ilgandan to o'lguncha beriladigan vaqt. Vaqtdan esa umrning tarixi yaratiladi. Umr va vaqtning qo'shiluvidan har kimga berilgan taqdir o'zligini namoyon qiladi: avvalambor, ishda, kurashda!

Uning mazmuni - Sizning har kungi hayotiy kashfingizga, ezgulik yaratish yo'lidagi sharaflı mehnatingizga, qalbingizdagi saxovatni odamlarga sochishingizga qarab belgilanadi, baholanadi, xotiralarga joylanadi:

«Hamma kunlar
Butun hayot -
Ish uchun, kurash uchun.
Oxirgi kun -
Odamlardan
Rozilik so'rash uchun».

Kimning qancha umri bor? Unga qancha vaqt berilgan? Bir necha yilmi yoki yuz yil?... Ollohdan boshqa hech kim buni bilmaydi. «Hayot degan mo'jiza»ga vaqt berilmagan, millionlab asrlar davomida u yer uzra ijod etishdan charchamaydi, insoniyatni kamolotga yetaklashdan to'xtamaydi, faoliyatga, kurashga hamma vaqt imkon yaratadi...

Shunday ekan, umrguzaronlik qanday bo'lishi kerak? Uzoq umrga erishish yo'li bormi? Umr o'lchovi - yillarmi yoki esda qoladigan ezguliklar, saxovatlar, yaratishlarning jami bo'lgan insoniylikmi?

Bunga «odamning yashashi uchun, kurashning ulg'ayishi uchun zarur» (A.Muxtor) bo'lgan she'r qanday javob aytadi? Qani, mutafakkir shoir nidosiga quloq soling-chi!

«Qalb talpinar

Oylar, yillar,

To'satdan to'xtash uchun

Yozish, o'chirish kerak,

Nimanidir tushunish.

Kimnidir kechirish kerak,

Kimdan avf, o'tinish».

Ha, odamning umri oqar suv. U goh loyqalanib, goh tinib, goh tez, goh zo'rg'a, goh to'lqinlanib, goh sokin oqadi.

Goh iliq, goh sovuq bo'ladi... Bandaman degannning hammasida ham shu holat zuhur bo'ladi. Eng buyuk kitob «Qur'oni karim»ning «An'om» surasi 160-oyatida quyidagi haqiqat bitilgan: «Kim biron chiroyli amal qilsa, unga o'n baravar qilib (qaytarilur). Kim biron yomon ish qilsa, faqat o'shanning barobarida jazolanur va ularga zulm qilinmas».

Inson mehnatu mashaqqatga qancha tez bo'ysinsa, qalbini mehru shafqatga to'ldirsa, u hamma vaqt har ishda ezgulik yaratish bilan band bo'ladi, umrining oqishi hamma uchun har doim rohatbaxsh bo'ladi. O'zining yashashi oson va go'zal bo'ladi. O'zgalar dunyosini ham gulga ko'madi. Bunday yashashga doimo shoshilish lozim. Shunday qadr-qimmatga ega bo'lish uchun tinimsiz olg'a intilmoq zarur; mukammallik, komillikka erishmoqni bugungi burch deya tushunmoq va amaliyot uchun qo'llanma qilmoq talab qilinadi. Umrni behuda sovrarmoqdan, nomunosib ishlarga sarflamasdan, uning har lahzasini, oylarini, yillarini Hayotning mazmuni uchun, Erk va Ozodlikning qadri uchun, Mustaqillik va Istiqlolning bunyodi uchun haxshida qilishga ulgurish kerak. Inson birodaring uchun beminnat xizmatni qoyilmaqom qilib bajarishga erishmoq, «Umrni g'animat bilmoq»(A.Navoiy) lozim. Chunki, u kiprikdagi yoshday - omonat. Insho'lloh,

*«Bariga bugun ulgur
Erta balki fursat yo'q.
CHunki umr deganlari -
Bamisli otilgan o'q.
Uni o'tday yondirib qo'y*

*Dunyoda qolish uchun
So'nggi soat -
Odamlardan
Rozilik olish uchun».*

Haq gap: odam bo'lib tug'ilish mumkin, lekin haqiqiy inson bo'lib, boshqalarga qalbdan nur ulashib yashamoq judayam og'ir ish. Ana shu og'ir yukni ko'tara olgan, uni manzilgacha olib borgan odamgina ko'pdan «rozilik» ola biladi, **«yaxshi odam edi»** degan sharafiga muyassar bo'ladi.

Darhaqiqat, Sa'diy bobomiz aytganlaridek,

*«Qololmas jahon ichra mangu kishi
Faqat qolgusi yaxshi nomu ishi».*

Navoiy bobomiz yozganlaridek, «Umr - bevafoqdir, mardona hayot abadiydir». Shu sababdan, ma'naviyat - kimningdir qalb nidosi, kimningdir qalb qo'shig'i, kimningdir qalb ehsoni, kimningdir qalb so'zi, kimningdir qalb quyoshi... Ma'naviyat insonning ijobiy va samimiy xislatlari jamidir. Unda insoniylikka zid hoyu havaslarga, maishatu gunohlarga o'rin ajratilmagan. Barkamollik, mehnat-u mashaqqat, poklig-u saxiylikka o'xshash ming-minglab xislato fazilatlar bo'lishi, o'sishi, rivoji, kamoli uchun maydon yaratilgan, xolos. Hammamiz uchun uni egallash imkoniyati jamuljam. Gapning hammasi - o'zligimizda! O'z umrimizning egasi bo'la olishimizda!

Fikrlarimizni yakunlaymiz. Birinchidan, Siz bilgan gaplar aytilgan bo'lsa, bu yaxshi gaplarni takrorlash - savob, degan tasalli bizga etarli. Xo'sh, bugun qanday ezgulik qildingiz? Kimning og'irini yengillatdingiz? Kimning ko'nglini oldingiz? Ulgurdingizmi yoki endi kirishmoqchimisiz?.. Jur'atingizni qo'shing, birgalashib hayqiraylik:

«Shoshiling, hazrati inson!»

Ikkinchidan, Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov

ta'kidlagan so'zlarni, uning mag'zini yana bir o'ylab ko'ring:

«Ellikdan oshgan odam shoshilishi kerak. Chunki bu yoqda qancha umr qolganligi yolg'iz Oллоhga ayon. Savob ishlar, ulug' ishlarni ulgurib qilib ketmoq esa hamma inson uchun ham farz, ham qarzdir».

Ey inson! Hayotdan qarzingni uzish harakatini boshlagan bo'lsang, senga ofarin! Boshlamagan bo'lsang, bugundan kirish - vaqt g'animat! Oллоh madadkor! Istiqloл talabgor!

“Hangoma” va “to'rtlik”

Muhiddin qiziq Darveshovning to'ng'ich shogirdlaridan biri Mansurjon Oxunovning qiziq hangomalari (Mushtum, №4, 2010)dan biri – “Hurmat”ni o'qidim:

“Kechagi yig'ilishda xo'p so'kishlarni eshitgan, tanqidga uchragan xodim, ertasiga azonda ishxonaga kiraverishda qo'lida yarimta g'isht bilan turganmish. Hamkasbi so'rab qolibdi.

– Iye, Imomali, bu nima turish?

– Kechagi gaplarni eshitding-ku! Menga qanchalar mag'zava ag'darganini ko'rding-ku! Kechasi bilan uxlo olmay chiqdim! Hozir xo'jayin mana shu yerdan keladi. Mana shu yarimta g'isht bilan boshiga solaman, o'ldiraman, – debdi.

– Bo'lmaydi, **hurmatlari bor**, butun g'isht olvolgin! – dermish hamkasbi.” (Ta'kid meniki – H.U.)

Asarning qatidagi topib aytilgan achchiq kinoyadan huzur qilib kuldim. Kulgum tamom bo'lmasdan, shunga monandroq mazmun akslangan, mo'ljalga aniq uradigan, san'atkorona bitilgan Erkin Vohidovning qo'shtirnoq ichidagi “Tarbiya”si (1994) xayolimda jonlandi:

“Tarbiya”

Jiyan tog'asiga / “jinnisan” desa,

Ota tanbeh berdi / o'g'liga sekin:

Tog'ang **katta odam**,/ kattani esa

Sizlash kerak, o'g'lim, / “jinnisiz” degin.

(Ta'kid meniki – H. U.)

Xalqimiz yaratgan va turli tovlanishlarda uchraydigan bu mazmundan qiziq hangoma va to'rtlikning yaratilgani bejiz emas. Bu shakla asarning ham hayotiyligini tasdiqlaydi.

Birida noo'rin tanqidga uchragan xodimning xatti-harakati orqali xo'jayinga ("rahbar"ga emas) nisbatan munosabati va bu munosabatni ("butun g'isht" orqali) qo'llab-quvvatlovchi quv hamkasbning topqirligi jonlantirilgan. "Xo'jayin" darajasiga ko'tarilgan shaxsda o'zligini tamoman unutgan, istagan xodimini asossiz haqoratlaydigan, ularni o'ziga xizmatkor sanaydigan boshliqning xarakteri umumlashtirilgan; u kishining "hurmatlari borligi" shundan.

Ikkinchisida ilmi haminqadar, olijanob xulq-odobdan yiroq tarbiyachining buzuq dunyoqarashi aks etgan. O'ziga bino qo'ygan, hamma narsadan o'ziga manfaat izlaydigan, o'zi tarbiyalanmagan ota xarakteri o'z ifodasini topgan. U o'z farzandiga ichidagi mug'ombirlikning urug'ini ekayapti, bu urug' o'sgan sayin farzand ham o'ziga bino qo'yadigan, mag'rurlanish kasaliga moyil, faqatgina "kattalar"ni "siz"lashga o'rganadigan sayoz odamga aylanishi hech gap emas. U qarindosh-urug'ni hurmatlash lozimligini emas, balki teskari qismat egasini tarbiyalamoqda. Farzanddagi insoniylik, bag'ri butunlikni yoshligidan o'ldirmoqda...

Birinchisida xo'jayin, Imomali, hamkasblar, bir joyda ishlashlarini hisobga olmasak, bir-biridan anchayin uzoq odamlar timsolidir.

Ikkinchisida tog'a, jiyan, ota – bir-biriga judayam yaqin qarindosh kishilar. Shu bois, "to'rtlik"dagi mazmun aniq va qabariqli, ko'pga yaqin va tanish; ibratlari, ta'siri beqiyos. Chunki badiiy asar qonun-qoidalariga ko'ra, unda tasvirlanayotgan obrazlar qanchalik bir-birlariga yaqin qon-qardoshlar bo'lsa, ular hayotining mohiyati shunchalik ta'sirli va ishonchli ochiladi.

Ma'lumki, birinchi asar nasrda yozilgan. Unda voqeani hikoya qilish ustunlik qiladi. Voqea xarakterini ko'rsatishga bo'ysinadi. Ob'yektivlik va ko'lamdorlik xislati yaqqol ko'zga tashlanadi. Nasrda muallifning tasvirlanayotgan hayotga, obrazga aralashuvi realistik san'atga ziyon etkazadi. "Hangoma"da muallif o'z nomidan tushuntirish beradi ("debdi", "dermish hamkasbi")ki, bu asar (dialog) uchun ortiqchadir. U kitobxonga estetik zavq bermaydi, hayotning xolis va tiniq tasviriga keraksiz "yamoq" bo'ladi, xolos.

Nazmda yozilgan asarda esa sub'yektivlik ustun, tuyg'ular (tilaklar orzular, niyatlar...) tasviri asosiga qurilgan bo'ladi. Biz hamma narsani shoir salohiyati orqali anglaymiz. Unda hamma narsa

(ritm, turoq, misra, ritmik pauza, tovush, so'z) o'lgangan, muayyan tartib va qonun-qoidaga bo'ysinadi. Hatto unda eng kichik bo'lak – nutq tovushlarining unli yo undoshligi ham qat'iy intizomga bo'ysinadi. Shu tufayli she'rda kuchli ohangdoshlik va emotsionallik bo'y ko'rsatadi.

"To'rtlik" $6+5=11$ bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan bo'lib, har bir turoqning oxirida ritmik pauza bor. Birinchi turoqdan (6) keyingi pauza – kichik, ikkinchi turoqdan (5) keyingi pauza – katta pauza (misraning oxiri bo'lgani sababli)dir. Ritmik pauza kabi boshqa elementlar ham (masalan, qofiya) she'rdagi mazmun bilan bog'liq tug'iladi. Qofiya ("desa" – "esa", "sekin" – "degin") she'rdagi mazmunni ta'sirdorligini ta'minlash bilan birga oson eslab qolish (yodlash)ga yordam beradi.

Shu tufayli she'riyat – yoqimli ifor hidini taratib turuvchi gul. Nasriy asar esa, shu gulni yetkazgan atirgulning tanasi, ildizi, shoxlari, tikonlari, navdalari, yaproqlari, uni o'stirgan va yashnatgan tuprog'i, suvi, havosi, quyoshi... hamdir.

Xulosa. Ikkala asar taqqosini davom ettiraverish, farqli va sifatli xislatlarini ochaverish mumkin. Lekin yuqoridagi mulohazalarga tayanib ham yakunga borsa bo'ladi: ikkala asar ham hayotiy. Yumorga, kinoyaga, o'tkir pichingga boy. Birinchisini pishitish, turoshlash, kengaytirish mumkin.

Ikkinchisi esa betakror, undagi bironta so'zni tushirish, o'rnini almashtirish, o'zgartirish mumkin emas. U shundayin yaxlit va go'zalki, o'qib va uqib hayratingiz oshaveradi. Tarbiyada niyatning buzqligi – kelajakdagi hosilning besamar bo'lishiga olib keladi, degan ishonchingiz mustahkamlanaveradi...

Keksalik va dilbar she'r

Bolalik o'smirlik bilan, o'smirlik yigitlik bilan, yigitlik keksalik bilan o'rin almashganidek, umr pillapoyalaridan har birining o'ziga xos ovozi, orzusi, ehtirosi, vazifasi, mazmuni bo'ladi. Birgina sifatlar bilan ta'riflasak, bolalik – beg'uborlik, o'smirlik – orzular bilan to'liqlik, yigitlik – jo'shqinlik, keksalik – taskinga moyillikdir. Eng qizig'i shuki, bu bosqichlarning barchasida ham huzur bag'ishlovchi sayq, nash'a bo'ladi. Ana shu gashtli lahzalarning mohiyatiga yetganlarning umrlari mazmunli, ta'sirli, chiroyli bo'ladi. Bu umr

yashovchan, xushchaqchaq bo'ladi. Doimo beg'uborlikni, beozorlikni saqlab qoladi. Samimiylilikni, hayotdan shukronalikni, osoyishtalikni ko'z-ko'z qiladi...

Jumladan, bekorga keksalikni ko'prik, deb yuritmaydilar. U «nolimagan odamga ganj»(V.Volter)dir. Garchi unda yoshlikka xos jo'shqinlik, ehtiroslar jo'sh urmasa ham, ko'p yashashdan orttirgan tajriba, saboqlardan yig'ilgan – shukronalik, itoatkorlik, adolat yuzasidan ish ko'rishlik kabi bosiqlikka xos sifatlar ufurib turadi. Ayni paytda, "Qarilik – xastalik"ka, "Qarilik – qayg'u"ga boyroq bo'ladi. "Qarilik davri – qishday" o'tadi. "Qariganda qilga qoqiladigan bo'lib" qolasan. Qari suyagingda moy bo'lmaydi. Bu haqiqatlarni barcha keksalar tasdiqlashadi. Shu bois ham

"Qarilik gashtini maqtashdan ko'ra,
Muxbir bolam, uni bizlardan so'ra", –

deya shoir murojaat qiladi. Va "Keksalik gashti"ning sirlarini saxovatli qalbdan chiqqan quvnoq kulgu vositasida chiroyli izhor qila boshlaydi:

"Mana, biz bu gashtni surayotirmiz,
Ertalab inqillab turayotirmiz,
Og'riqdan qaqshagan belimiz silab,
Kavushimiz sudrab, chunon imillab,
Belimiz changallab yurayotirmiz,
Qarilik gashtini surayotirmiz".

Qarilik gashti faqat inqillab turish, belog'riqqa duchor bo'lish, imillab yurish bilangina cheklanmaydi, balki yoshlikdagi sho'xliklar, na'sh-u namolarning tugal hosilini bera boshlaydi. Ularning barchasini ipga tizsa, shoda marvaridga aylanadi. Keksalikdagi xastaliklarning "guldasta"si izhori o'ziga tamom jalb qiladi:

"Bilakdan kuch ketgan, ko'zdan esa nur,
Pashshamizni zo'rg'a qo'riyotirmiz.
Bir vaqt yuz-yuz otib qilardik huzur,
Asqar tog' edik-ku, nurayotirmiz.
Ko'namiz, ne iloj shunga ham shukur,

Harqalay ko'z tirik, ko'rayotirmiz,
Qarilik gashtini surayotirmiz".

"Aqlli qariya – oqib turgan daryo"ki, keksalikning barcha qiyinchiliklariga shukrona keltiradi va bu holatlar iztirobini anglashga yetaklaydi; ular uchun yoshlardan hazil tarzda uzr so'ragandek bo'ladi:

"Qarilikni havas qilmagin, bolam,
Yomon ko'rinadi ko'zingga olam.
Qariganda achib qolarkan odam,
Ba'zan bobov bo'lib hurayotirmiz,
Qarilik gashtini surayotirmiz".

Hazilning tagidagi yashirin va oqilona niyat yetila boshlaydi: shoir keksalikni yoshlik bilan taqqoslash asosida mohiyat tomon yetaklaydi; qariyalikning huzur-halovati puchligini, "keksalik – baxt" degan tushunchaning asossizligini ochadi:

"Qarilik gasht emas, yulg'unli dasht ul,
Qarilik tikandir, yoshlik esa gul,
Yoshlikka nima yetsin, u o'zi ma'qul,
Yoshlik xazinadir, qarilik – bir pul.
Yigitlarga aytar nasihatim shul:
Yosh yoshlikda yoshlik gashtini sursin,
Keksalik ham kelar, uni ham ko'rsin,
Hozircha qarishga shoshmasdan tursin –
Belangisi qursin, yo'tali qursin".

Kitobxon qalbini ana shunday tuyg'ular bilan to'ldirgach, har nafasning qadriga yetishga chaqirgach, shoir keksalar niyatini xushchaqchaq hazilga o'rab izhor qilishga o'tadi. Hapqirgan, poklangan, sog'lom qalbning, "Mo'ysafid odamning shom pallasida tong shafag'ini orzu qilishi"(J.Bayron)ni, "...qarilikning o'ttiz yilini yoshlikning o'ttiz daqiqasiga jon-jon deb almashtirgan bo'lar edim" (O. Yoqubov) haqiqatini qoyilmaqom qilib yoritadi:

“Agar ma’qul bo’lsa faxriy degan nom
Barcha nishonimiz olib, bir oqshom
Yoshligini bizga qarz berib tursin”.

She’r dilning ana shunday beimkon orzulari ifodasi bilan baland cho’qqiga chiqadi. Beg’ubor kulgu asosiga qurilgan she’riy san’at dilni quvontiradi, his-hayajonlarga qudratli kuch beradi. Xushchaqchaqlik hayotning quvnoq o’tishiga, asablarni muloyimlashishiga, umrning barakasiga falsafiy asosni berishini quvnoqlik va quv bilan ifodalaydi.

Asar qanday boshlangan bo’lsa, badiiy kompozitsiyaning talabiga binoan yaxlitlikni bunyod etish uchun shunday misralar bilan yakunlanadi:

“Qarilik gashtini maqtashdan ko’ra,
Muxbir bolam, bizlardan so’ra”.

Fikr-u mulohazalarimizni shu bilan yakunlashimiz mumkin edi, lekin unda E.Vohidov shaxsi va ijodiga xos tabassumning go’zalligi borligicha namoyon bo’lmasdi. Uni aniq dalillar va odamlar ishtirokida kuzatish bu go’zallikni bekam-u ko’st gavdalanirish imkonini berishi mumkinligi bois, tanqidchi Umarali Normatovning kichik lavhasini keltiramiz:

“1997-yilning yoz chillasida ustoz Ozod aka xastalanib kasalxonaga tushdi. Uzoq yillik qand kasalligi oqibati o’laroq bir oyog’i uchida yiringli yara paydo bo’lib, oxiri jarrohlar tizzadan pastini kesishga majbur bo’lishdi. Ozod akani jarrohlik stolidan palataga olgan kunning ertasi tongda Erkinjon bilan ustozni ko’rgani bordik. Ozod aka karavotda avtodahol holda yotibdi. Bizni ko’rishi bilan ko’ziga yosh oldi. Ko’nglida umid uchqunlari so’na boshlagan, arang gapiradi. Qarasak, sekin-asta rozi rizolik tilashishga o’tayapti... Nima qilishni, nima deyishni bilmay, dovdirab qoldik. Shunda birdan Erkinjon tashabbusni qo’lga oldi. “Qaysi oyoqni kesishdi?” – deb so’radi ahvolni bilgan holda Erkinjon. Gap hazilga aylanayotganligini sezdi shekilli, Ozod aka oq choyshab ustidan oyoqlarini paypaslab: “Chapi ekan”, – deb javob qildi. Shunda Erkin: “E, shungayam ko’z yoshimi, Ozod aka, endi bundan buyog’iga “leviy”ga yurish bo’lmas

ekan-da", – deyishi bilan birdan ustozning chehrasida nur-tabassum paydo bo'ldi. Erkinjon ayni shaxmatdagiday chapdastlik bilan galdagi yurishni davom ettirdi: "Jurnal chiqibdiku!" – deya Ozod akaning yostig'i yonida turgan "Jahon adabiyoti"ga ishora qildi. "Darvoqe", – deya Ozod aka o'z muharrirligida chiqqan jurnalning ilk sonini Erkinga uzatdi. Hammamiz bu qutlug' hodisa bilan ustozni tabrikladik. Erkin jurnalni varaqlab, unda bosilgan o'zining turkum she'rlaridan birini – quvnoq xalqona kulgu bilan yo'g'rilgan "Keksalik gashti"ni o'qiy boshladi.

Bilakdan kuch ketgan, ko'zdan esa nur,
Pashshamizni zo'rg'a quriyotirmiz.
Bir mahal oq urib qilardik huzur,
Endi valokardin urayotirmiz.
Kelar ichimizdan xursiniq chuqur,
Asqar tog' edik-ku, nurayotirmiz.
Ko'namiz, ne iloj, shunga ham shukur,
Har qalay ko'z tirik, ko'rayotirmiz,
Qarilik gashtini surayotirmiz.

Shu satrlarga kelganda palatada kulgi – qiyqiriq avjiga chiqdi, hatto kulgining sadosi karidorlardagilarga ham yetdi shekilli, navbatchi vrach, hamshiralar eshikni ochib "o'ta og'ir kasal" yotgan palatadagi bu ahvol vaziyatdan lol qolishdi. Ozod akaning chehrasi birdan ochilib ketdi, go'yo og'ir dard bir dam chekinib, boyagi tushkunlik, vahm yo'qoldi. Keyin eshitsak, ertasigayoq u oyoqqa tura boshlabdi. Mana, ruhshunos, topqir shoir so'zining, hazil-mutoyiba, hayotbaxsh yumorning sehrli joziba kuchil!» (U.Normatov. Ijod sehri, T., "Sharq", 2007, 164-165 betlar)

E'tibor bergan bo'lsangiz, o'n besh yillar oldin yozilgan she'rning yuqoridagi bandidagi uchinchi misra ("Bir mahal oq urib qilardek huzur") keyinchalik, she'rni qayta ishlash jarayonida ("Bir vaqt yuz-yuz otib qilardik huzur"ga) o'zgargan va bu o'zgarishda yanada aniqlik, ko'pga xoslik xislati barq urgan. Shoir aytmoqchi bo'lgan fikr uzukka mos ko'z qo'ygandek ravshanlashgan.

Xulosa. Demak, keksalik gashtini sezish va anglashning yo'llari bor. Birinchi navbatda, keksalikni tan olishga, uning qiyinchilik va

xastaliklarini beozor kulgi, hazil-mutoyiba bilan ishonch-la yengishga – tetiklikka, uni yaxshi va foydali damlar bilan o'tkazishga, qalbning pokligi va quvvatiga bog'liq. Qolaversa, u osoyishtalikda kechirgan va kechirilayotgan yillarga, kunlarga aloqador. Odamlararo insoniy, samimiy, xushchaqchaq muomala va munosabatlarga daxldor. Shu sababdan keksalikda barcha qiyinchiliklarni mardlik va jasorat, adolat va haqgo'ylik bilan yengish san'ati yetakchi xislatga aylanadi. Bu xislatni egallagan qariya yashashda bardavom va bardam, e'tiborli va e'timodli bo'ladi, yaxshilikni e'tirof etishdan, yomonlikni fosh etishdan charchamaydi. Vijdoni va e'tiqodi yonib, atrofga nur taratib turadi. "Qarisi bor uyning parisi", "barakasi" borligi, "Qariyali uy - maktab"ligi shundandir... Xuddi shunday xulosa va saboqlarni qalbga joylaydigan, uning hayotiy hislarini, qobiliyatini tobora oshiradigan, kayfiyatchog'lik va serzavqlik bag'ishlaydigan "Keksalik gashti" (1996)ga o'xshash dilbar va umrboqiy she'rlarga bog'liq.

Shu bois, keksalik - ganj, boqiy she'r ijodkori bor bo'lsin!

Keksalik ham, adabiyot ham, ilm ham mo'jizakorlikka boy bo'lsin!

"Men dardimni kimga aytaman?.."

«Shoir Muhammad Yusufga Prezidentimizning mehlari bobomiz Ulug'bek haqidagi qo'shiqni eshitgan paytlaridayoq tushgan edi. «Xalq shoiri» unvonini ham mamnuniyat bilan unga o'zlari topshirgan edilar».

**Ozod Sharafiddinov,
O'zbekiston Qahramoni**

Mirzo Ulug'bek observatoriyasining yonginasida haykaltarosh M. Musaboev tomonidan 1969 yilda yaratilgan haykalni hamma ko'rgan. Ulug'bek siymosi – olimlarga xos o'ychanlik bilan nimalarnidir muhokama qilayotgan insondek taassurot uyg'otadi. Olim «yulduzlar kashfi bilan yoki podshohlik tashvishlari bilan band bo'lsa kerak», – deya o'ylaysiz...

Bu o'ylarga qarshi shoir Muhammad Yusuf Mirzo Ulug'bekni tamoman boshqacha «ko'radi», kutilmagan tomonini kashf etadi. – Qani, qanday? – deysizmi?

– Bobomiz Ulug'bek haqidagi qo'shiqqa asos bo'lgan «Samarqand» she'ri- xalqona, ravon va dono bu asar shunday boshlanadi:

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rib qaytaman.
U qon yig'lab turar har safar
Men dardimni kimga aytaman?..

Samarqand taxtining egasi, «Ziji Ko'ragoniy»-yulduzlar kashfiyotchisi Mirzo Ulug'bek nega qon yig'lar ekan? Shunday ulug' insonning buyuk dardi, armoni ne ekan?.. kabi savollar qalbingizda uyg'ongach, uning javobini - ota dardining izhorini, hasrat va nadomatining sababini tinglay boshlaysiz:

Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,
Mergan bolam, lochin ko'z bolam
Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam...
Men dardimni kimga aytaman.

Demak, inson kim bo'lishidan qat'i nazar (podshohmi, gadomi) o'zi sevgan ishini, vazifasini bajarishga butun borlig'ini baxshida etishga, ungagina sarflashga haqi yo'q. Ahli ayoliga, farzandlariga befarq bo'lmasdan, bola parvarishini butkul xotiniga tashlab qo'ymasdan, balki ularga mehr-u muhabbatini, tarbiyasini berish uchun vaqt topishi farz. Payg'ambarimiz, sallollohu alayhi va sallam: «Kishining o'z qaromog'idagi kimsalarga beparvo bo'lishi uning gunohkor ekanligiga kifoyadir», deb bejiz aytmaganlar. Demak, ota bola tarbiyasi uchun (Alloh va jamiyat oldidagi) eng birinchi ma'sul shaxsdir. Ayni paytda, «Alloh rozi bo'lishini istasangiz, bolalaringizga doimo adolat qilingiz» (Hadis), ya'ni hammasini birday seving, birday hurmat qiling, birday talab qiling. Mehnati, odobi, axloqi, haq-huquqini adolat bilan o'lchang, adolat bilan baholang!

Buni unutganlar o'zlari uchun fojia yaratadilar. O'zbekka xos tafakkur, donishmandona fikrlash asosida bu shunday tasvirini topadi:

Sezmay qoldim. O'shanda chog'im,
Yulduzlarda ekan nigohim.
Bilmadim ne edi gunohim...
Men dardimni kimga aytaman.

Qancha g'amga botmagan edim,
Qancha og'u yutmagan edim...
O'z bolamdan kutmagan edim...
Men dardimni kimga aytaman?...

Bunday buyuk dardning asrlararo tirikligi bejiz emas.

Tarixdan ma'lumki, 1448-yil bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90 000 kishilik birlashgan qo'shini Hirotga yaqin Tarnob degan joyda Alouddavla qo'shinini tor-mor keltiradi. Tarnob jangida Abdullatif salohiyatini – jasur lashkarboshiligini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan «Ulug'bek bu g'alabani ko'proq boshqa bir o'g'li Abdulaziz nomi bilan bog'lar, g'alaba yorliqlarida Abdullatif nomi Abdulazizdan so'ng tilga olinar edi. Abdullatif garchi Hirot taxtiga o'tirsa-da, lekin Shohruh xazinasi undan olinib qo'yiladi» (O'zbekiston tarixi, T., «YAngi asr avlodi», 2003, 284-bet). Ota tomonidan yo'l qo'yilgan bu nohaqlik «otasiga qarshi kayfiyatdagi kishilarni o'z atrofiga yig'ib, hatto Abulqosim Bobur bilan ham Ulug'bekka qarshi yashirin til biriktirish» (285-b)ga olib keldi. 1449 yildagi Mirzo Ulug'bek va Abdullatif o'rtasidagi jang Ulug'bekning mag'lubiyati va o'g'liga taslim bo'lishi bilan tugaydi. Mirzo Ulug'bek toj-u taxtdan voz kechib, Makkaga haj uchun izn so'raydi. O'g'il 1449-yilning 27-oktyabrida Samarqand yaqinida otasining fojiali tarzda o'ldirilishini uyushtiradi... «O'zaro toj-u taxt uchun kurash Abdullatifni razillik botqog'iga botirib, uni o'z otasining qotiliga aylantirdi» (O'sha kitob, 286-bet)...

Demak, otaning o'z farzandiga adolatsizligi o'g'il qalbida unga nisbatan kin, adovat urug'ini qadaydi. Bunga e'tiborsizlik, nopisandlik «urug'»ning o'g'il qalbida tig' bo'lib o'sishga, keskir qilichga aylanib, ota boshini tanasidan judo qilishga olib boradi. Ha, adolatsizlik urug'i

o'suvchandir, hosili esa yovuzlikka boydir. U o'ziga qabihlik, razolat, zulm, odamkushlikni posbonlar qilib oladi.

Shu sababdan ham she'rda Mirzo Ulug'bek farzandiga qilgan adolatsizligidan, uning natijasidan hamon g'amda, iztirobda, tinimsiz azobda to'lg'anadi:

Tanim muzlab, goh tosh qotaman,
Men shoh emas, axir, otaman.
Go'rimda ham o'ylab yotaman,
Men dardimni kimga aytaman?.. -

deya oh tortadi. Uning ohlarini, «arzimas» xatosini, o'z bolasiga qilgan adolatsizligining oqibatini, bu oqibat qa'ridagi haqiqatni Muhammad Yusuf topadi, uni poetiklashtiradi va dardni o'zligiga singdirib, zamondoshlarimizga murojaat etadi, ogohlikka, mehr-u oqibatga, uni voqe etishga chorlaydi:

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rmay kelmayman.
U menga qon yig'lar har safar,
Men dardimni kimga aytaman!

She'r shunday tugaydi. Shoir sevgan qahramoni Mirzo Ulug'bekning «har safar qon yig'lashi»dan har bir bandani ogoh etib, hattoki, o'z zurriyotiga ham adolatsizlik qilmaslikka chaqiradi. Demakki, ADOLAT - Parvardigorning insonlarga bergan pok va yaxshilik, yaratuvchan va ulug' ne'matidurki, uni buzganlarning oxiri voydir, ohdir, alamdir, azobdir, ayanchlidir. Bu haqiqiy dard barchamizga tegishlidir. Uni shoir hammamizga aytmoqda! Hammamizni saboq olishga undamoqda. «Chorasiz qolsang ham, lekin hech qachon adl-u adolatni unutma»(A. Oripov)-deya nasihat aytmoqda.

Shu o'rinda she'r va qalam bir haqiqatni alohida ta'kidlashga undamoqda. Ba'zilarimiz – rahbarlar, tarbiyachilar, hatto eng kichik lavozimdagi xodimlar birga faoliyat ko'rsatayotgan insonlar (yosh-u qari)ni faol, halol, to'g'ri so'z, mehr-u oqibatli bo'lishlarini nazorat qilamiz. Kamchilik va nuqsonlarini tuzatishga sa'yi – harakat qilib

ogohlantiramiz, hayfsan beramiz, jamoada muhokama qilamiz... Lekin mana shu harakatlarimizni oilamizda amalga oshirishga, farzandlarimiz tarbiyasida qo'llashga vaqtimiz yetmaydi. «Ota bo'lish oson, otalik qilish qiyin»ligini o'ylab ko'rmaymiz. Mehr-u oqibatni, adolatni, tarbiyani izchilligiga va doimiy bo'lishligiga e'tibor qilmaymiz, oydami, yildami jahl bilan ularni urishib-(tushuntirib o'tirishga ham vaqtimiz yetishmaydi) haqoratlab qo'yamiz. Mehrimizni ulashmaymiz, ishdagi «insoniyligimizni» oilada unutamiz. Eng oson va eng kam vaqt ketadigan yuzaki usuldan foydalanamiz. «Ko'cha-xandon, uy-zindon» deganlaridek, bolalarimizni o'zimizdan bezdirib qo'yganimizni kech tushunamiz. Qariganingizda sevgan farzandingiz Sizga tayanch emas, har kuni g'urbat, azob, janjal keltiruvchi baloga aylanadi.

Ming shukrki, Prezidentimiz, hukumatimiz asosiy diqqatni sog'lom avlod tarbiyasiga qaratdilar. Mehribonlik uylaridagi bolalar ham, qariyalar ham Istiqlol mehr-u muhabbatidan bebahra qolmadilar. Sog'lom avlod uchun yaratilgan barcha shart-sharoitlar o'zbek oilasini insoniylikning yangi bir bosqichiga ko'tarilishiga zamin bo'lmoqda.

Ana shu zaminni mustahkamlash, boyitish barcha oiladorlarning burchiga aylanishi, bu burch adolat asosida muntazamlilik bilan ishlashi shartki, o'shandagina farzand quvonch, shodlik, mehr tashuvchi komil insonga aylanadi...

Ko'rinyaptiki, yaxshi she'r qaysi davrda yaratilishidan qat'i nazar insoniyatning barcha avlodlariga odamiylikning mehriyosini ulashaveradi, ezgulik yaratishga tinimsiz xizmat qilaveradi, abadiy yashayveradi. Xullas, qachonki ko'klam kelsa – uning har bir gulida, kimki gugurt chaqsa – uning uchida, kimki qalbida olov yoqsa – uning cho'g'ida, agarki qaldirg'och yayrasa- uning g'ujur-g'ujuri(valfajri)da, kimki ezgulik yaratsa - uning yolqinida Muhammad Yusufning yuragi lovullab turaveradi. «Yurakdan yog'ilgan oyat» - she'rlari ezgulikni ulug'layveradi. Insoniylikka chaqiraveradi. Savob ishlarga undayveradi.

Shu sabablarga ko'ra, she'r o'qiyotib yiqilgan shoirning ruhi, she'riyati, qo'shig'i uni sevganlar, e'zozlanganlar bilan doimo tirik, doimo yonik, doimo dolzarbdir.

2004.

Qalb ko'z ochganda...

(Har kim har kuni eslashi lozim mo'jiza)

O'lim va shoir taqdiri muammosini o'rganishga qiziqishim ortdi. Sababi – yoshimning ham oltmishdan o'tgani va o'limning ma'nosini, uning oqibatini asosliroq tasavvur qilishga, buning jarayoni qanday tarzda kechishini chuqurroq bilishga intiqlik bo'lsa, ajab emas.

Bu sirlarni va u haqdagi haqiqatini o'rganish uchun zaruriy material ("ozuqa")ni badiiy asarlar, so'z san'atkorlari taqdiri berishi aniq, chunki ularda bu holatning sir-u asrorlari kashfi, qonuniyatlari tahlili ko'p uchraydi. Sababi – dunyoni tushunishga chanqoqlikning alal oqibati - shu muammoga kelib taqaladi. Chunki o'limni o'ylashni foydalari behisobdir, uning mohiyatini kashfi - hayotning ma'nosini kashfiga tengdir. Tug'ilish, bunyod bo'lish – o'lim, yo'qolishga vobastadir. Biridan ikkinchisi, ikkinchisidan birinchisining bunyodi – Allohning ma'rifatidir.

Mahmud As'ad Jo'shon "Tasavvuf va nafs tarbiyasi"¹³⁶ kitobida yozadi:

"Jahannamga tushishni istamasang nafsingga aytginki: "Ey nafs, o'lim haq, qabr haq, qayta tirilish haq, hisob-kitob haq, mezon haq, jannat va jahannam haq. Bularning haq ekanligiga hech kanday shubhang bo'lmasa, nima uchun dunyoda jannatga tushish uchun harakat qilmaysan? Nimaga jahannamdan saqlanishga g'ayrat qilmaysan? Ko'z bilan ko'rmaganing uchun g'aflatni tanladingmi? Aqlingni yig', qo'qqisidan bu hayot tugab qolsa, bu fursat qo'ldan ketse nima qilasan? Tezda tadorikingni ko'r: isloh bo'! Jahannamdan qutulib jannatga tushadigan Allohning suyuqli bandasi bo'lishga intil!

O'limni eslash insonni qayta tiriltiradi.

O'limni eslash insonni poklaydi.

O'limni eslash qalbni nurlantiradi.

O'limni eslash nafsni isloh etadi – tuzatadi,

O'limni eslash insonga savob baxsh etadi" (148-bet).

¹³⁶ Махмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва нафс тарбияси. Т., Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғиармаси нашриёти, 2001.

O'limni eslash doimo bekorchilikni o'ldiradi, mehnatga chorlaydi.

O'limni eslash halol umr o'tkazishga undaydi, xotirjam ko'z yumushga imkoniyat beradi.

Lekin "Agar Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "o'limni orzu qilmangizlar!" deb aytmaganlarida erdi, o'limni orzu qilgan bo'lur erdim!" - degan edilar Anas ibn Molik ("Hadislar", 4-tom, 424-bet).

Demakki, o'limni eslash, uni, albatta, kelishini unutmazlik va lekin uni Alloh belgilagan vaqtidan oldin kelishini orzu kilmaslik - insoniylik mezonidir - uning bosh omilidir. Xo'sh, uning qismat bilan, san'atkor tasavvuri bilan, badiiy kashfiyot bilan aloqasi qay tarzda bo'ladi?

* * *

"Bulbul yurakli", "Toshkentda eng zo'r shoir" bo'lgan Muhammad Yusuf bilan bo'lgan suhbatlardan biri ("Turkiston" gazetasi, 18-noyabr 1993 yil)da undan "Bir necha she'rlaringizni yakuni borib, qabrga, o'limga, ajalga taqaladi. O'zingiz shuni qanday izohlaysiz?" - deb so'raydilar. U shunday javob qiladi:

"Shu she'rlarim uchun menga tez-tez e'tiroz bildirishadi. Bu mavzuni Mashrab yozaverib oxiri qanday o'lim topganini eslatib turishadi. Lekin shu mavzudagi she'rlarimni boshqacha yozolmasdim. Yozishni boshlagach, shunday yakunlashga majburman. She'r yo'nalishi, ohangi shunga olib keladi". Va "Qizg'aldoq" she'rini o'qiydi:

Qizg'aldog'im, qirdan bo'lak koshonang yo'q,
Kokil yoysang, yerdan bo'lak toshonang yo'q.
O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib,
Peshonangdan o'pay desam, peshonang yo'q.

Sollonasan kelinchakdek boshing egib,
Jayron o'tgan so'qmoqlarga yoshing to'kib.
Qizil yuzing qon dilimga turar tegib,
Meningdek sen g'aribning ham parvonang yo'q.

Qadring bilgan, darding bilgan ayt kimning bor,
Kelib ketar bahor senga bevafo yor.
Go'zalsanki, senga bari gullar ag'yor,
Oh ursang bir ohing tinglar ostonang yo'q.

Oldingga men borolmasam o't gunohim,
Bir yo'qlab qo'y, men dunyodan o'tgan chog'im.
Qabrim uzra hilpirab tur qizg'aldog'im,
Muhammaddan bo'lak do'st-u devonang yo'q.

Ha, bugun O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf yo'q... Uning orzusiga binoan qizg'aldoq ham – qabri uzra hilpirashga ulgurdimikan, balkim?.. Balkim, Muhammad bilan bir joydadir, erta bahor "parvonasi"n yo'qlab "kelinchakdek sollonar"?..

Darvoqe, uning so'ngi asari – "Saylanma"¹³⁷ ni varaqlasangiz, ko'plab sara she'rlar ("Vatanim", "Jayron", "Mehr qolur", "Ozoda", "Laganbardorlar", "Samarqand", "Bir kuni", "Qizil olma", "Bag'ishlov", "Erka kiyik" va h.) bilan "Tuzolmaydi dardim mening", "Xavotir", "O'lsamu unutsang menday yigitni", "Qizg'aldoq", "Ruh to'tisi", "Kuzda ketgan turna qaytgandek bahor", "Menday g'aribni ham ko'rolmaslar bor", "Marsiya", "Onaizor", "Vatan gar dilga jo bo'lsa", "37-yil yig'isi", "Tushimga kiradi Qodiriy bobom" kabi o'limga, qabrga bag'ishlangan yigirmadan ortiq she'rlarga duch kelamiz. Ularning barchasida ham "shoiri Devona"ning holatini, "bulbul yurak"ning o'tini, iymonning qo'shig'ini, ko'ngilning ibodatini, kayfiyatning "noz" holatini, qalb hayqirig'ini tuyasiz. Ha, shoir aytganidek, "Har qanday hayqiriq so'ngi nimadir dunyoga keladi. Nimadir dunyodan ketadi":

Mendan nima qolar:
Ikki misra she'r,
Ikki sandiq kitob,
Bir uyum tuproq.
Odamlar ortimdan
Nima desa der,
Men seni o'ylayman
O'zimdanda ko'proq –
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq!
(257-bet)

¹³⁷ Muhammad Yusuf. Saylanma. T., "Sharq", 2001.

Ha, shoir o'limga tik boqadi, undan zavq-u safo emadi, hayotni, insonni, insoniylikni ulug'laydi; Hayotgagina, Allohgagina ishonadi, insonlarning baxtli bo'lishini tilak etadi. Buni ilg'ash, anglash, falsafiy mohiyatini sezish uchun shoirning birgina "Ertagi"ni tinglash kifoyadir:

Ertagim cho'zildi, mening ertagim...
Ertaga endi bu dunyodan o'tsam,
Hayot, azizim, sen xafa qilmagin,
Mening xunukkina qizlarimni ham.

Ko'nglimdan to'kilgan kuylar nimadir,
Alvon qo'shiqlarim o'char izimdan.
Yozgan kitoblarim – qog'oz kemadir,
Men ketsam, ular ham ko'char izimdan.

Kulga ko'mdim oltin fursatlarimni,
Endi bir kun faqat dadil va o'ktam
Shoirlar qilsa g'iybatlarimni,
Balki, biron kimsa eslar meni ham.

Eslamasa, nima, men bir to'pori,
Qishloqi so'zbozni, osmon yiqilmas.
Urib turgan qalbning tirikdir zori,
To'xtagandan so'ng yurak siqilmas....

Men sening boringga bo'ldim parvona,
Sahrolaring kezib toldi tovonim
Kiprigim oldida turibdi, mana,
Tovusday tovlanib oxir dovonim.

Ertagim cho'zildi, mening ertagim,
Tongni ko'rolmasdan dunyodan o'tsam,
Hayot, yolg'izim sen xafa qilmagin,
Mening shiringina qizlarimni ham!

(188-bet)

* * *

Aytilgan asoslarga tayanib, mulohaza qilaylik: O'limni ko'proq o'ylash, uning poetik kashfi insonni, san'atkorni bevaqt o'lishiga omilmi? Ya'ni shoir hayot ma'nosini anglab yetgandan so'ng, Allohning suyuqli bandasi bo'lib, o'limga yuz tutadimi? Yo'q. Bu omil puch, chunki Zuhriy rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallahu alayhi va sallam: "Hech qaysingiz o'limni orzu qilmangiz, agar bundan keyingi hayotingizning biron manfaati bo'lsa, ehtimol, Olloh taolo umringizni uzaytirar, basharti behuda bo'lsa, balkim qisqartirar!- dedilar (Hadislar, 4-tom, 424-bet). Unday bo'lsa, o'limni eslash - o'zlikni isloh etishga, poklikka yetaklaydimi? Haromdan, poradan, tuhmatdan, g'iybatdan - shaytoniy xislatlardan qaytaradimi? Savobga, ezgulikka, ehsonga, yaxshilikka, mehrga, oqibatga, iymonga, insoniylikka yo'l ochadimi? Ha, xuddi shunday! "Qotib qolgan qayg'u anduhlarni, taassurotlarni, xavotirliklar, g'ashlik va g'azabni so'zga ishonib topshirish - ruhan poklanmoq demakdir...

So'z orzuning egiz og'asidir, u sizga shunday bir sirli eshikni ochib beradiki, bu eshik orqali siz istagan vaqtingizda erkinlikka chiqa olishingiz mumkin; So'z yordamida kishini diqqinapas qilib yuboradigan zamondan, zeriktiruvchi manzaradan, chidab bo'lmaydigan turmush sharoitidan, nihoyat, o'z-o'zingdan osongina qochib qutulish mumkin" (YAn Parandovskiy). Mana, shoir nima deydi:

Daryodek chayqalib, daryodek toshib,
To'fondek to'xtamay umr o'tkazdik.
Izzat ilinjida mansab talashib,
Odamdek yashamay umr o'tkazdik.

Topganimiz - go'zal qizlar nigohi,
Qilgan hadyamizning bo'lmay adog'i,
Onaizorimiz qabriga gohi
Bitta gul to'shamay umr o'tkazdik.

Suyganni siylamoq qo'ldan kelmadi
Suymasga suykanib ko'ngil to'lmadi.
Do'st holin so'rmoqqa fursat bo'lmadi,
Yo'qladik - yo'lamay umr o'tkazdik.

Kimgadir ilinib oltin devorni,
Kimgadir qizg'andik qishda ham qorni.
Qanotiga kirib xudobezorni,
Nochorini qo'llamay umr o'tkazdik.

Iblisni inim deb quchdik gohida,
Arshda arg'imchoqlar uchdik gohida.
Shayton bilan sharob ichdik gohida,
G'aflatdan bo'shamay umr o'tkazdik...

O'zdan o'tganidan o'zimiz ogoh,
Ikki yelka to'la bir dunyo gunoh.
Nasib etgaymi endi odamdek o'lmoq?..
Odamdek yashamay umr o'tkazdik.

(232-bet)

Bugun umrini suvga oqizuvchilar kammi? Ba'zilar iqtisodiy qiyinchiliklardan ustamonlik bilan foydalanib, ko'pning rizqini qirqib, harom boylik orttirib, taralla bedod qilib yashamayaptilarmi? Istagan ishlarini, xamirdan qil sug'irgandek, mansabdorlarga pora berib, ularni shunga o'rgatib, bajarmayaptilarmi? Mansablarning darajasiga qarab, ularning qiymatini dollar bilan bichmayaptilarmi?.. Ba'zilar esa iqtisodiy qiyinchiliklar talvasasi zarbasidan esankirab, ojizlanib, nima qilishni, qayerga bosh urishni bilmayaptilar-ku! Birlari boylikka, ikkinchilari boqimandalikka qul bo'lganlar - o'g'rilikka, qalloblikka, fohishabozlikka, giyohvandlikka mukkasidan ketmoqdalar-ku!.. "Na don, na somon"lar urchimayaptimi?

To'g'ri, bugun yuzidan nur porlab turgan, ma'naviy barkamol odamlarimiz yo'q emas, Biroq zulm qilguvchilar (Poraxo'rlar, maishiy buzuqlar, kazzoblar, yolg'onchilar, muttahamlar...) ko'payib ketmayaptimi? Qalbi ko'rlar dunyosi ustunlik qilmayaptimi? Saflariga yoshlarni jalb qilmayaptilarmi?..

Axir donolar aytganlar-ku: "Yomon kishilar bilan ulfat bo'lishdan qochgil. Odamning tabiati o'g'ridir. U yaxshi kishilar bilan suhbatdosh bo'lganda yaxshi xislatlardan bahramand bo'lgani kabi, yomonlar bilan ulfat bo'lganda ham ulardan ozgina bo'lsa-da, yomon xislat o'g'irlab oladi" (Muhammad Jabalrudiy). Yomon xislat egalari ko'paymayaptimi?..

Demak, o'limni o'ylash zarur. Uni o'ylashga o'rgatish lozim. Istiqloq ma'naviyatining butunligini ta'minlash uchun ham inson qalbi tarbiyasiga, uning eng zarur shu qirrasiga asosiy diqqatni qaratish talab etiladi. Uni o'z holiga tashlab qo'yishga, uni isloh etmaslikka, bu sohada o'rnak bo'lmaslikka hech kimning haqqi yo'q. Hammamiz mas'ulmiz, bir-birimizga madadkormiz, barchamiz bandamiz, erta-kech hammamiz oxiratga ketamiz. Shuni unutmaslikka, ezigulik-la yashashga shoshilaylik, odamlar! Shunga o'rgatuvchi, ishonchli da'vat etuvchi asarlarni o'qiylik, saboqlar chiqaraylik! Hayotning tub ma'nosini tushunib, amal qilib, o'rnak bo'lib umrni o'tkazaylik! Insoniyat uchun, hayot uchun hech bo'lmaganda, yo bir zarra, yo bir epkin, yo bir xas, yo bir tomchi, yo bir ziyo bo'laylik! Shuning o'ziyoq bir umrga yetarlidir, bu umrning bekorga yaratilmaganiga mazmundir, bir tug'ilishning majburiyati-yu bir o'limning zakotidir.

* * *

Umruguzaronlik oson kechmaydi. U mehnat-u mashaqqatdan, ilmning zavqidan, dilning Sharofatidan nur emadi, ana shularning martaba va darajasidan mazmun kasb etadi.

Keling, eng kam gapirilgan dilning qudratlarini bir eslaylik.

"...Inson dili temirga o'xsharkim, - deydi imom G'azzoliy "Kimiyo saodat"¹³⁸da, - asli xilqatda, ya'ni yaratilishida oynayi jahonnamo bo'lmoqg'a shoyista va loyiqdur. Magar oyna zang o'lturub, ul temirni tiyra (qorong'u) qilsa, bu martaba xosiyatlar aningdin ketkusidir» (25-226 betlar).

Demak, Haq subhonahu va taolo barchamizni pok va dili ravshan qilib yaratadi, lekin hayotimiz, umrimiz davomida biz uni kirlantiramiz, xiralashtiramiz. Uni yanada ravshan qilish uchun shoir uchta yo'ldan foydalanadi: vahiy, karomat va sehr.

"Bu nav xosiyatlar agar xalqni iymonga da'vat qiladurgon kishidan sodir bo'lsa, bu fe'lni mo'jiza derlar. Ul kishini payg'ambar derlar. Va agar iymonga da'vat qilmay, kori xayr uchun bo'lsa, ul kishini valiy derlar.

Va agar yomon ishlar uchun bu nav' (ajoyibotlar) voqe' bo'lsa, ani sohir, ya'ni sehr qiluvchi derlar. Bas, sehr va karomat va mo'jiza hammasi - dil odamining xosiyatlari jumlasidandur (28-bet). Shunday

¹³⁸ Зайниддин Мухаммад Газзалий. Кимийи саодат ("Дил ҳақиқати"). Т., "Камалак", 1995.

she'rlar yashashda davom etmoqda, odamlarga mehr va muhabbat ulashmoqda, ular bilan tillashmoqda:

Kuzda ketgan turna qaytgandek bahor,
Bir kun huzuringga qaytishlarim bor,
Uzrimni o'zingga aytishlarim bor
Ey, mening yuragim yo'qlagan, diyor.

(45-bet)

O'lim va inson taqdiri...Uni to'liq o'rganish va nihoyasiga yetish imkoni hech kimga berilmagan. Lekin har kim (shoh, gado)ning o'limi – o'ziga munosib bo'lishini hayot tasdiqlaydi ekan. Yana Alloh biladi!.. Mahmud Jo'shon janoblari maqolamiz boshida eslatilgan asarlarida davom etib, bizning yakuniy mulohazalarimizni ham chiroyli qilib, bandalarga eslatadilar:

“O'limni eslamaslik insonni halokatga eltadi.

O'limni eslamaslik insonga zavq-u safo bermaydi, balki azob-uqubat beradi.

Shuning uchun o'limni hech qachon unutmanglar, uni doim eslanglar!”

Chunki, uni eslash har xil mayda-chuyda tashvishlardan, turli insoniy “zang”lar (kibr, yolg'on, mensimaslik, kerilish, mansab va muteparastlik kabi o'nlab illatlar)dan ozod etadi, ruhni yuksaltiradi. Ha, u mangu barhayot bo'lib qolish ishonchini va amalini ato etadi. Bu barchamizga nasib aylasin!

Adabiyotlar:

1. Чўлпон. Яна олдим созимни. Т., Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
2. Шукрулло. Жавоҳирлар сандиги. Т., 1983.
3. Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. Т., “Фан”, 1979.
4. Умуров Ҳ. Бадийий ижод асослари. Т., “Ўзбекистон”, 2001.
5. Эркин Воҳидов. Садоқатнома. Сайланма, иккинчи жилд.Т., Ғафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986 йил, 394-бет.
6. Муҳаммад Ғаззолий. Кимён саодат. Т., “Камалак”, 1995.
7. Маҳмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва нафс тарбияси. Т., Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2001.

8. Муҳаммад Юсуф. Улуғимсан Ватаним. Т., “Ижод уйи”, 2004.
9. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. Т., “Шарк”, 2004.
10. Муҳаммад Юсуф. Биз бахтли бўламиз. Т., “Нихол”, 2008.
11. Муҳаммад Юсуф. Улуғимсан Ватаним. Т., “Ўзбекистон”, 2012.
12. Ҳотам Умуров. Таҳлил чизгилари. Т., “Мухаррир” , 2013.
13. Кўшиқ бўлиб қайтган шоир (Муҳаммад Юсуф шеърини поэтикасига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари). С., СамДУ нашри, 2014.

Qorong'ulikni qarg'ashdan ko'ra, kichik bir
shamni shu'lalantirgan ming bor afzal".

AQSH maktab o'quvchilarining qo'shig'idan

SIZ BUNGA DAHLDORSIZ!

(Xulosa o'rnida)

Ha, adabiy ijod sirli jarayon. Uning sirlari qanchalik yashirin bo'lmasin (izlaganga tole yordir), albatta, uni topish, ilg'ash, anglash mumkin.

Lekin "Adabiyot havasga kiriladigan shon-shuhrat bog'chasi yoki, shunchaki, ko'p qatori bajarib yuriladigan kasb emas. Adabiyotga odam bir umr yongani kiradi. Har bir asarda bir lovullab yonmasa, yozuvchining bo'lmagani ma'qul. Yozuvchilik... eng qiziq, eng ehtirosli hayot. Bunda faoliyat natijasi - asarning o'zigina emas, jarayon, izlanish jarayoni, izlab topish, izlab yashashning o'zi qiziq. Har safar o'zingga ham, kitobxonga ham yangi bir olam ochishing kerak. Adabiyot jarayoni uzluksiz; qancha yozuvchi bo'lsa, shuncha usul; hayot murakkabliklarining mag'zini hamma o'zicha izlaydi, hamma o'z yuragida qaynatadi, o'z ilhomini, o'z ixtirosini taqdim etadi. O'zgina so'z aytish uchun u juda ko'p bilishi, juda ko'p ko'rishi, voqealarni, biografiyalarni, faktlarni, hislarni, o'ylarni, psixologiyani bilishi kerak. Injenerning, akademikning bilishi shart bo'lmagan sohalar bor. Yozuvchining unday sohasi yo'q". Bu asosli gapga amin bo'lavering, bu xulosa Asqad Muxtorning yozuvchilik tajribasidan, adabiyotni tushungan bilimdon faylasufning salohiyatidan tug'ilgan. U ijodkorning barchasiga dahldordir.

Bu fikr – saboqqa amal qilgan ijodkordan umidlansa, o'rgansa, ibrat olsa arziydi. Ana shunday o'zligini va hayotni badiiy tahlil etuvchi yozuvchi bo'lish uchun uzluksiz harakatda bo'ling.

**"BADIIY IJOD ASOSLARI" DARSLIGI BO'YICHA
ASOSIY ADABIYOTLAR**

1. Каримов И. Баркамол авлод – Ўзбекистон келажакининг пойдеворидир. Т., 1997.
2. Шавкат Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб- интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т., "Ўзбекистон", 2017.
3. Шавкат Мирзиёев. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. 2017 йил, 3-август кунини мамлакатимиз ижодкор зиёлилари билан учрашувида сўзлаган нутқи. "Халқ сўзи", 2017 йил, 4-август.
4. Ёзувчи меҳнати тўғрисида. Т., 1960.
5. Адабий ижод ҳақида. Т., Ўздавнашр, 1960.
6. Станиславский К.С. Актёрнинг ўз устида ишлаши. Т., 1965.
7. Медведев П. В лаборатории писателя. Л., 1971.
8. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
9. Левидов А.М. Автор – образ – читатель. Л., 1977.
10. Маҳмудов М. Талант ва ижод фалсафаси. Т., 1976.
11. Мейлах Б.С. Талант писателя и процессы творчества. Л., 1969.
12. Мухтор А. Ёш дўстларимга. Т., 1971.
13. Норматов У. Талант тарбияси. Т., 1980.
14. Носиров У. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. Т., 1981.
15. Аҳмад С. Назм чорраҳасида. Т., 1982.
16. Воҳидов Э. Шоир шайхонаси. Т., 1987.
17. Паустовский К. Олтин гул. Т., Ғ.Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1987.
18. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. Т., 1988.
19. Саидносирова З. Ойбегим менинг. Т., 1995.
20. Умунов Ҳ.И. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Т., 1983.
21. Цейтлин А.Т. Труд писателя. М., 1962.

22. Шукрулло. Жавоҳирлар сандиги. Т., 1983.
23. Қаххор А. Ёшлар билан суҳбат. Т., 1968.
24. Қаххорова К. Чорак аср ҳамнафас. Т., 1969.
25. Қодиров П. Ўйлар. Т., 1971.
26. Қодирий А. Кичик асарлар. Т., 1969.
27. Ғулом Ҳ. Ёиллар, йўллар, устозлар. Т., 1971
28. Ҳошимов У. Нотаниш орол. Т., 1990
29. Сайид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. Т., “ Шарқ” , 1998.
30. Қодиров П. Қалб кўзлари. Т., “Маънавият”, 2001.
31. Умутов Ҳ. Бадий ижод асослари. Т., “Ўзбекистон”, 2001.
32. Каримов Н. Чўлпон (маърифий роман). Т., “Шарқ”, 2003.
33. Умутов Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
34. Назаров Б. Ғафур Ғулом олами.Т., ЎзР Фанлар академияси, 2004.
35. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. Т., Х/Т А.С.Аҳмедова босмахонаси, 2004.
36. Умутов Ҳ. Шеърят маликаси билан гойибона суҳбатлар. С., СамДУ нашри, 2004.
37. Умутов Ҳ.Адабий сабоқлар. С., СамДУ нашри, 2004.
38. Умид Али. Кўнгилга сайр. Т., “Янги аср авлоди”, 2009.
39. Норматов У. Нафосат гурунглари. Т., “Мухаррир”, 2010.
40. Фозилов Н. Топдим у йўқотмадим. Т., “ Шарқ”, 2010.
41. Умутов Ҳ. Эҳтиёж тафти. С., СамДУ нашри, 2011.
42. Хушид Дустмуҳаммад. Ижод – кўнгил мунавварлиги. Т., “Мумтоз сўз”, 2011.
43. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. Т., “Тамаддун”, 2012.
44. Каримов Н. Ҳамид Олимжон (маърифий-биографик роман). Т., “Шарқ”, 2013.
45. Умутов Ҳ. Таҳлил чизгилари. Т., “Мухаррир”, 2013.
46. Ваҳоб Раҳмон. Мумтоз сўз сеҳри. Т., “Ўзбекистон”, 2015.
47. Эркин Аъзам. Эрталабки ҳаёллар. Т., “Ўзбекистон”, 2015.
48. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадий таҳлил асослари. Т., “Камалак”, 2016.
49. Каримов Н. Мақсуд Шайхзода (маърифий-биографик роман). Т., “Шарқ”, 2016.

50. Шукур Қурбон. Эркин Воҳидов сабоқлари. Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2016.
51. Тоҳир Малик. Ёзувчининг бахти ва бахтсизлиги (Ижодкорлар ҳақида ҳаётини ҳикоялар). Т., "Шарк-Зиё-Заковат" нашриёти, 2017.
52. Баҳодир Карим. Рухият алифбоси. Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт- матбуот ижодий уйи, 2018.
53. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Т., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2018.
54. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Т., " Navoiy universiteti", 2018.
55. Солижонов Й. Лирика латофати, насрининг назокати. Т., "Адабиёт учқунлари", 2018.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“ADABIY IJOD ASOSLARI”
DARSLIGI
D A S T U R I**

SAMARKAND-2019

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**“ADABIY IJOD ASOSLARI” DARSLIGI
D A S T U R I**

Ijod maktabi o'quvchilari va Oliy o'quv yurtlarining filologiya
sohasidagi iqtidorli – ijodkor talabalari uchun

**TUZUVCHI: FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI,
PROFESSOR HOTAM UMUROV**

KIRISH – 2 soat

Adabiyotga qiziqish va uning o'qitilishi. Yosh avlodni ijodkor qilib yetishtirishning ahamiyati. Badiiy iste'dod. Mustaqillik. Ijodiy mehnat. Yozuvchilik. Adabiy ijod tabiati. Uning taraqqiyoti va qonun-qoidalari. Adabiy ijod psixologiyasi tarixiga bir nazar, shu soha bo'yicha yaratilgan ilmiy-tanqidiy asarlar obzori. Adabiy ijod asoslarini o'rgatishning ahamiyati.

BIRINCHI BOB -6 soat

Iste'dod – 2 soat

Shoirona iste'dod. Iste'dod va mehnat. Iste'dodning tug'maligi. Talant. Talant – o'zlikdir. Talant – darddir. Yozuvchilik talanti hayotni so'z vositasida qaytadan jonlantirib yaratuvchi qobiliyatdir.

Ilhom – 2 soat

Ilhom. Ilhomning sehri. Uning yuzaga kelish jarayoni. Ilhom yozuvchi qalbidagi ma'naviy olov. Ilhom – yozmoqqa niyatlangan asarni to'liq his qilmoqdir. Ilhomning makoni – halqning qalbida. Ilhom – hayotni chuqur o'rganish, o'zgalar qalbini ochadigan kalit. Ilhomning ikki darajasi: mo'tadil ilhom; zavq-u – shavqqa to'liq ilhom. Zavq – shavqqa to'liq ilhom mevalari. Ilxom va mehnat. Ilhom va uning idora qilinishi. Ilhom va badiiy mahorat.

Badiiy mahorat – 2 soat

Badiiy mahorat nima? Uni qanday tushunmoq lozim? Tasvir etilayotgan voqeani aynan his qilmoq, uning haqqoniyligiga to'liq ishonmoqning shartligi. Tasvirning samimiyligi. Mazmun va shaklning yaxlitligi. G'oyaviy mazmun ta'sirdorligi. Yozuvchi tilining jozibadorligi. So'z va ifodaning jonliligi. Badiiy mahorat – yozuvchi talantining o'lchovidir. Uni egallashning uzluksizligi, chegarasizligi.

IKKINCHI BOB - 6 soat

Ijodiy reja. Uning paydo bo'lish jarayoni – 4 soat

Adabiy ijod jarayonining ayolning boshqorong'i bo'lishi, homila ko'rishi va tug'ishiga o'xshatilishi. Adabiy ijodda "kindikni kesish" - obrazni o'zdan ajratish. Ijodiy jarayon qayerdan boshlanadi? Reja

qachon paydo bo'ladi? Rejaning tug'ilishi. Uning tug'ilishida katalizator, "uchqun"ning ahamiyati. Ularning xilma-xilligi. Asoslari. Uning tarixiy rivoji.

Asar (bola) ning shakllanishi – 2 soat

Ijodiy rejaning "urug'lanishi". Uning -"embrion"ning rivojlanishi. Ilk ijodiy rejaning takomillashuvi. Asarning shakllanishi tarixi. Material jamg'arish davri. Asarni "o'ylab" pishirmoq davri. Uni yozish davri. Bu davrlarning o'ziga xosligi. Asar va uning pafosi. Ijod jarayonining betakrorligi.

UCHINCHI BOB – 6 soat

Yozuvchi va hayot – 2 soat

Tabiat va san'at. Real hayot va poetik reallik. Olim va san'atkor. Hayot haqiqatiga o'xshash narsa (badiiy haqiqat)ni yaratish. Uni yaratishda ijod jarayonining mohiyati. Badiiy haqiqatni yaratishning ahamiyati.

Hayotiy haqiqat va badiiy haqiqat – 4 soat

Badiiy haqiqatning asosi. Hayotiy tajribaning ahamiyati. Taassurot va tasavvurning kuchi. Ularning badiiy to'qima bilan uyg'unligi. Xayol. Hayot haqiqatini ongli ravishda "buzish", uni adolat yuzasidan o'zgartirish, to'ldirish. Kashfiyotchilik. Badiiy haqiqatni kashf etishning benihoya ekanligi. Yaratish san'ati – bosh mezon.

TO'RTINCHI BOB – 8 soat

Yozuvchi – obraz – kitobxon – 2 soat

"Yozuvchilik – talantli shaxsning yashash tarzi". San'atda ob'yektivlik va sub'yektivlik. Ularning asosidagi uch xil holat. Holatlarning ziddligi va bir butunligi. Bu muammoning o'rganilish tarixi. Ijod jarayoni va uning bu holatlar bilan aloqasi.

Muallif o'zini bermasligi mumkin emas – 2 soat

Yozuvchi xalq dardi va tashvishini, orzu-istagini berishi kerak. Yozuvchi dunyoqarashi bilan bog'liqlik. G'oyaviy izchillik va uning hayotiy aksi.

Muallif o'zini berishga majbur – 2 soat

Yozuvchi va tasvirlanayotgan olam munosabati. Yozuvchi va obraz. Obraz hayotini to'liq his etish, uning o'zak nuqtalarini topib, o'zligi bilan jonlantirish. Insoniy holatlarni uyg'otish san'ati. Yozuvchining qahramon qiyofasiga kirishi, singishi. Yozuvchi qalbidagi tanqidchi: u bir vaqtda yaratuvchi va baholovchidir.

Muallif o'zini bermasligi kerak ("o'lishi shart") - 2 soat

Yozuvchi qahramon hayotiga aralashmasligi shart. Unga nisbatan xolis va beparvo bo'lishi lozim. O'z nuqtayi nazarini, bahosini, munosabatini, xulosasini o'quvchiga oshkor bayon etmaslik – qoida. Ayni paytda, u hamma yerda hozir-u nozirdir. Adabiy asar va obrazning ob'yektivligi. Hayotning ob'yektiv tasvirini berish – bosh vazifa.

Xulosa – 2 soat

Muallif va obraz. Ularni tenglashtirishning noto'g'riligi. San'at va avtobiografik ijodning farqi. Bu farqning oqibati. Hayotiy haqiqatga bo'ysinish realizmning talabi va qonunidir. "Adabiy ijod asoslari"ning badiiy tafakkur qonuniyatlarini o'rganishdagi mavqeyi. Uning nazariy va amaliy ahamiyati.

ADABIY IJOD ASOSLARI AMALIYOTI

Siz bunga qodirsiz (kirish o'rnida)

Hayot va adabiy ijod – 4 soat

Hayot – shoir – she'r. E'tiqod va ijod. Yaxshi she'r yozishning mashaqqatlari. Uydirma ijodning sirlari. Adabiyot – kashfiyot.

"Mening hamma she'rlarim yurakdan keladi"

E'tiqod va ijod

Yashamoq bahonasida

"Yaxshi she'rni yozish – oson ish emas"

Uydirma ijodning azaliy qonuni

Adabiyotning ishi yaratishdir

Badiiy asar – umrni uzaytiruvchi mo'jiza

Iste'dodning darajalari -2 soat

Qobiliyat, layoqat, iste'dod, talant, daho

"Daftar hoshiyasidagi bitiklar" da ijodiy tushunchalar tahlili.

"O, muhabbat boringga shukr!"

Ilhom va uning tabiati-2 soat

Abdulla Qahhor. Badiiylik o'lchovi, xalq hayoti, xalq qalbidagi tuyg'ular, ichki dard, ehtiros. Hamid Olimjon. Ilhom va uning ko'rinishlari. Ohu. Ilhomning pokligi.

Abdulla Qahhor talqinida ilhom

Ilhom – yurakning yonishi

Badiiy mahorat sirlari-6 soat

Badiiy mahorat. Badiiy mahoratning mazmuni va shakli. Detal va tafsilot. "Vaqt"ning tug'ilishi, falsafasi, mazmuni va shakli. Mavzu va g'oyasi, syujeti va kompozitsiyasi. "Vaqt"ning tili.

Abdulla Qodiriy ijodi va "O'tkan kunlar" badiiyatiga chizgilar

Mahorat maktabining bunyodkori g'

"Vaqt" she'rining poetikasi

Tirik asarlar badiiyati-6 soat

Cho'lpon. "Qalandar ishq". "Sochilgan sochingdek sochilsa siring". G'.G'ulom. "SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim". Hamid Olimjon. "Kuygay". "O'rik gullaganda". Erkin Vohidov "To'rtlik", "Qarilik gashti". Muhammad Yusuf. "Qalb ko'z ochganda".

"Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi"

"Sochilgan sochingdek sochilsa siring"

"SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim"

"Kuygay"

"Baxtim bormi, deya so'rayman"

"Umr – bamisli otilgan o'q"

"Hangoma" va "to'rtlik"

Keksalik va dilbar she'r

"Men dardimni kimga aytaman"

Qalb ko'z ochganda

Siz bunga dahldorsiz (xulosa o'rnida)

"BADIY IJOD ASOSLARI" DARSILIGI BO'YICHA ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Каримов И. Баркамол авлод – Ўзбекистон келажакининг пойдеворидир. Т., 1997.
2. Шавкат Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб -интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т., "Ўзбекистон", 2017.
3. Шавкат Мирзиёев. Адабиёт ва санъат, маданиятнинг ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. 2017 йил, 3-август кунини мамлакатимиз ижодкор зиёлилари билан учрашувида сўзлаган нутқи. "Халқ сўзи", 2017 йил, 4-август.
4. Ёзувчи меҳнати тўғрисида. Т., 1960.
5. Адабий ижод ҳақида. Т., Ўздавнашр, 1960.
6. Станиславский К.С. Актёрнинг ўз устида ишлаши. Т., 1965.
7. Медведев П. В лаборатория писателя. Л., 1971.
8. Қодирий Х. Отам ҳақида. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
9. Левинов А.М. Автор – образ – читател. Л., 1977.
10. Махмудов М. Талант ва ижод фалсафаси. Т., 1976.
11. Мейлах Б.С. Талант писателя и процессы творчества. Л., 1969.
12. Мухтор А. Ёш дўстларимга. Т., 1971.
13. Норматов У. Талант тарбияси. Т., 1980.
14. Носиров У. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. Т., 1981.
15. Аҳмад С. Назм чоррахасида. Т., 1982.
16. Воҳидов Э. Шоир шайху шуур. Т., 1987.
17. Паустовский К. Олтин гул. Т., Ғ.Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1987.
18. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. Т., 1988.
19. Саидносова З. Ойбегим меннинг. Т., 1995.
20. Умунов Х.И. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. Т., 1983.
21. Цейтлин А.Т. Труд писателя. М., 1962.
22. Шукрулло. Жавахирлар сандиги. Т., 1983.
23. Қаҳҳор А. Ёшлар билан суҳбат. Т., 1968.
24. Қаҳҳорова К. Чорак аср ҳамнафас. Т., 1969.
25. Қодирий П. Ўйлар. Т., 1971.
26. Қодирий А. Кичик асарлар. Т., 1969.
27. Ғулом Х. Ёшлар, йўллар, устозлар. Т., 1971
28. Ҳошимов У. Нотаниш орол. Т., 1990

29. Сайид Ахмад. Йўқотганларим ва топганларим. Т., "Шарқ", 1998.
30. Қодиров П. Қалб кўзлари. Т., "Маънавият", 2001.
31. Умунов Х. Бадий ижод асослари. Т., "Ўзбекистон", 2001.
32. Каримов Н. Чўлпон (маърифий роман). Т., "Шарқ", 2003.
33. Умунов Х. Адабиётшунослик назарияси. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
34. Назаров Б. Гафур Ғулом олами. Т., ЎЗР Фанлар академияси, 2004.
35. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. Т., Х/Т А.С.Аҳмедова босмахонаси, 2004.
36. Умунов Х. Шеърят маликаси билан ғойибона суҳбатлар. С., СамДУ нашри, 2004.
37. Умунов Х. Адабий сабоқлар. С., СамДУ нашри, 2004.
38. Умид Али. Кўнгилга сайр. Т., "Янги аср авлоди", 2009.
39. Норматов У. Нафосат гурунлари. Т., "Мухаррир", 2010.
40. Фозилов Н. Топдиму йўқотмадим. Т., "Шарқ", 2010.
41. Умунов Х. Эҳтиёж тафти. С., СамДУ нашри, 2011.
42. Хуршид Дустмуҳаммад. Ижод – кўнгил мунавварлиги. Т., "Мумтоз сўз", 2011.
43. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. Т., "Тамaddon", 2012.
44. Каримов Н. Ҳамид Олимжон (маърифий-биографик роман). Т., "Шарқ", 2013.
45. Умунов Х. Таҳлил чизилари. Т., "Мухаррир", 2013.
46. Ваҳоб Раҳмон. Мумтоз сўз сеҳри. Т., "Ўзбекистон", 2015.
47. Эркин Аъзам. Эрталабки ҳаётлар. Т., "Ўзбекистон", 2015.
48. Қозокбой Йўлдош, Мухайё Йўлдош. Бадий таҳлил асослари. Т., "Камалак", 2016.
49. Каримов Н. Мақсуд Шайхзода (маърифий-биографик роман). Т., "Шарқ", 2016.
50. Шукр Қурбон. Эркин Воҳидов сабоқлари. Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2016.
51. Тоҳир Малик. Ёзувчининг бахти ва бахтсизлиги (Ижодкорлар ҳақида ҳаётий ҳикоялар). Т., "Шарқ-Зиё-Заковат" нашриёти, 2017.
52. Баҳодир Карим. Рухият алифбоси. Т., Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбуот ижодий уйи, 2018.
53. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2018.
54. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., "Navoiy universiteti", 2018.
55. Солижонов Й. Лирика латофати, насрнинг назокати. Т., "Адабиёт учкунлари", 2018.

MUNDARIJA

Muallifdan.....	3
Kirish.....	5
BIRINCHI BOB	
Adabiy ijod jarayoni tarixiga bir nazar.....	7
Iste'dod.....	11
Ilhom.....	16
Ilhomning darajalari.....	22
Badiiy mahorat.....	32
IKKINCHI BOB	
Ijodiy reja (homila). Uning paydo bo'lish jarayoni.....	41
Asar (bola)ning tug'ilishi.....	52
UCHINCHI BOB	
Yozuvchi va hayot.....	59
Hayotiy haqiqat va badiiy haqiqat.....	60
TO'RTINCHI BOB	
Yozuvchi – obraz – kitobxon.....	79
Muallif o'zini bermasligi mumkin emas.....	81
Muallif o'zini berishga majbur.....	83
Muallif o'zini bermasligi kerak ("o'lishi shart").....	86
Xulosa.....	108
"ADABIY IJOD" AMALIYOTI	
Siz bunga qodirsiz (kirish o'rni).....	109
Mavzu: Hayot va adabiy ijod	
"Mening hamma she'rlarim yurakdan keladi".....	112
E'tiqod va ijod.....	116
Yashamoq bahonasida.....	125
"Yaxshi she'rni yozish – oson ish emas".....	130
Uydirma ijodning azaliy qonuni.....	133
Adabiyotning ishi yaratishdir.....	138
Badiiy asar – umrni uzaytiruvchi mo'jiza.....	142
Mavzu: Iste'dodning darajalari	
"Daftar hoshiyasidagi bit.iklar"da ijodiy tushunchalar tahlili.....	147

Mavzu: Ilhom va uning tabiati	
Abdulla Qahhor talqinida ilhom.....	160
Ilhom – yurakning yonishi.....	164
Mavzu: Badiiy mahorat sirlari	
Abdulla Qodiriy ijodi va "O'tkan kunlar" badiiyatiga chizgilar.....	171
Mahorat maktabining bunyodkori.....	189
"Vaqt" she'rining poetikasi.....	195
Mavzu: Tirik asarlar badiiyati	
"Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi".....	227
"Sochilgan sochingdek sochilsa siring".....	230
"SamDU qopqasida bir qizni ko'rdim".....	232
"Kuygay".....	236
"Baxtim bormi, deya so'rayman".....	239
"Umr – bamiqli otilgan o'q".....	244
"Hangoma va to'rtlik".....	247
Keksalik va dilbar she'r.....	249
"Men dardimni kimga aytaman".....	254
Qalb ko'z ochganda.....	259
Siz bunga daxldorsiz (xulosa o'rnida).....	270
Adabiyotlar ro'yxati.....	271
Ilova.....	274

Hotam Umurov
Adabiy ijod asoslari

(darslik)

Muharrir	J.Bozorova
Musahhih	L.Xoshimov
Texnik muharrir	N.Isroilov

SamDU kengashining 2019 yil 5 sentabrdagi
majlisi qarori bilan (bayonnoma №1) chop etishga tavsiya qilingan.
2019 yil 26 oktabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2019 yil 28 oktabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 60x84_{1/8}. "Times new roman" garnituras.
Offset qo'g'oz. Shartli bosma tabog'i – 17,75.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 10/16.

Samarqand davlat universiteti tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

Galliston davlat universiteti

«Liborat» xizmat markazi

№ 26800-00

GDU QIRODALI

ULG'AYISH AZOBI

Shoirlik – bu shirin jondan kechmakdir,

Limmo-lim fidolik jomin ichmakdir.

Shoirlik – jigarni ming pora etmak,

Bag'ir qoni bilan satrlar bitmak.

O'zini tomchi-tomchi, zarra va zarra,

Elga qurbon qilib, eng so'nggi karra –

Armon bilan demak: «Ey, ona yurtim,

Kechir, xizimatingni qilolmay o'tdim...»

ERKIN VOHIDOV